



**Toshkent davlat yuridik universiteti**

# **ADVOKATURA**

## **DARSLIK**



Toshkent – 2016

**Taqrizchilar:** Salaev N., Jinoyat huquqi va kriminologiya kafedrasi dozenti v.b., yuridik fanlar nomzodi, Sayfieva G., O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bo'lim boshlig'i.

**Mualliflar jamoasi:**

**Egamberdiev A.U.**, yuridik fanlar nomzodi – kirish, I – III boblar, IV bob (Fazilov F. bilan xammualliflikda), VI bob (I.Nikonov bilan xammualliflikda);  
**Ahmedov R.T.**, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi raisi – IX-X boblar (Mirzaev Sh.M. bilan xammualliflikda)  
**Mirzaev Sh.M.** – V, VII boblar (Sayfieva F. bilan xammualliflikda), VIII bob, IX-X boblar (Ahmedov R.T. bilan xammualliflikda);  
**Fazilov F.** – IV bob (Egamberdiev A.U. bilan xammualliflikda);  
**Nikonov I.** – VI bob (Egamberdiev A.U. bilan xammualliflikda);  
**Sayfieva G.** – VII bob (Mirzaev Sh.M. bilan xammualliflikda).

**Mas'ul muharrir - Egamberdiev A.U.**, Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar kafedrasi mudiri, yuridik fanlar nomzodi.

“Advokatura” darsligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 28-iyundagi “Yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 02.08.2013 yil 278-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan Oliy va o'rta maxsus ta'lif tizimi uchun Yangi avlod adabiyotini yaratish Konzepziyasi, shuningdek “Advokatura” fani bo'yicha o'quv dasturi talablariga muvofiq amalidagi qonun hujjatlari o'zgarishlarini inobatga olgan holda yaratilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasida advokatura va advokatlik faoliyati masalalarini, uning tarixiy rivojlanishi, prinsiplari va tashkiliy asoslari, notiqlik san'ati hamda advokatlik kasbining odob-ahloq asoslarini ochib beradi. Turli toifadagi ishlarda advokalar ishining standartlari yoritilgan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida advokatning barcha toifadagi ishlarda ishtiroki yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan.

Darslik yuridik oliy o'quv yurti talabalari, yuridik oliyghilar va fakultetlar o'qituvchilari, ilmiy hodimlar, advokatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, shuningdek advokarlar ishi va advokatlik faoliyati masalalari bilan qiziquvchilarga tavsiya qilinadi.

**Advokatura. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.**

Egamberdiev A.U., Ahmedov R.T., Mirzaev Sh.M., Fazilov F., Nikonov I., Sayfieva G.

T.: TDYuU nashriyoti, 2016. - 250 bet.

© Mualliflar jamoasi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2016 yil.

## M U N D A R I J A

---

KIRISH.....	6
ATAMALAR LUG‘ATI.....	9
<b>I Bob. «ADVOKATURA» FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI</b>	
§ 1 . “Advokatura” fani tushunchasi, predmeti va vazifalari».....	13
§ 2. Advokatura tushunchasi.....	17
§ 3. Fuqarolarning malakali yuridik yordam olishlari – ularning konstitutsiyaviy huquqi.....	18
§ 4. Advokatlik faoliyati tamoyillari.....	21
§ 5. Advokatlik faoliyati tushunchasi, belgilari va turlari.....	27
§ 6. Predmetning boshqa yuridik fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.....	31
<b>II Bob. ADVOKATURA – FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTI SIFATIDA.....</b>	
§ 1. Fuqarolik jamiyati va advokatura.....	38
§ 2. Advokatura instituti tabiatining dualistik xarakteri.....	42
§ 3. Advokaturaning maxsus huquqiy layoqatliligi. Advokatura va yuridik yordam.....	45
§ 4. Advokatura va mustaqillik.....	47
<b>III Bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKAT FAOLIYATINING TAShKILY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	
§ 1. O‘zbekiston Respublikasida advokatura instituti rivojlanishi tarixi. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik .....	50
§2. Malaka komissiyalari va advokatning intizomiy javobgarligi.....	60
§ 3. Advokatlik maqomini olish, litsenziya berish, uning bekor qilinishi asoslari va advokatlik faoliyati kafolatlari.....	68
4. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari va advokatlarning kasbiy birlashmalari.....	71
5. Advokatlik faoliyati va uzlusiz yuridik ta‘lim.....	84
§ 6. Advokatlik faoliyati standartlari.....	85
§ 7. Advokatlik faoliyatini soliqqa tortish.....	88
<b>IV Bob. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA VA INSON HUQUQLARI BO‘YICHА MILLIY INSTITUTLAR.....</b>	
§ 1. Advokatura va inson huquqlari: xalqaro huquq jihat.....	95
§ 2. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tushunchasi va tizimi.....	96
§ 3. Advokatura va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman).....	99

§ 4. Advokatura va O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz.....	101
<b>V Bob. ADVOKATNING KASBIY ETIKASI. ADVOKATLIK FAOLIYATIDA NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI.....</b>	<b>105</b>
§ 1. Advokatlik etikasi qoidalari, ularning ahamiyati va mazmuni.....	105
§ 2. Advokat va ishonch bildiruvchi.....	108
§ 3. Advokatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat.....	109
§ 4. Advokatlar va sud jarayoni ishtirokchilari.....	111
§ 5. Advokatlik siri.....	113
§ 6. Advokat va manfaatlar to‘qnashuvi.....	115
§ 7. Advokat gonorari.....	118
§ 8. Zamonaviy notiqlikka kirish.....	119
§ 9. Advokatning himoya nutqi tuzilishi.....	120
§ 10. Sud nutqida dalillar kelitirish asoslari.....	123
§ 11. Nutqning maqsadga yo‘nalganligi.....	125
<b>VI Bob. XORIIJIY MAMLAKATLARDA ADVOKATURA.....</b>	<b>130</b>
§ 1. Xorijiy mamlakatlar advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlili ahamiyati.....	130
§ 2. MDH mamlakatlari (Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziya)da advokatura.....	132
§ 3. AQShda advokatura.....	139
§ 4. Germaniyada advokatura.....	142
§ 5. Buyuk Britaniyada advokatura.....	145
§ 6. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida advokatura.....	147
§ 7. Xalqaro advokatlik jamoat birlashmalari. Bepul yuridik yordam va advokatura: xalqaro-huquqiy jihat.....	150
<b>VII Bob. ADVOKAT VA FUQAROLIK SUD ISHI YURITUWI.....</b>	<b>153</b>
§ 1. Advokat – shartnomaviy (ihtiyoriy) vakil sifatida.....	153
§ 2. Advokatning ishonch biliruvchini qabul qilish va vakil sifatida sudda qatnashishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha faoliyati.....	155
§ 3. Advokat – ishning qo‘zg‘atilishi va sudda ko‘rilishiga tayyorlash bosqichida.....	157
§ 4. Advokat va birinchi instansiya sudida ish yuritish.....	157
§ 5. Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan apellyasiya shikoyati (protest kiritish).....	162
§ 6. Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan cassatsiya shikoyati (protest kiritish).....	164
§ 7. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatlilikini tekshirish bosqichida advokatning ishtiroki.....	166
§ 8. Advokat va sud qarorlarining ijrosi.....	168

VIII Bob. ADVOKAT VA XO‘JALIK SUD ISHI YURITUWI.....	171
§ 1. Advokatning xo‘jalik sudi ishidagi maqomi.....	171
§ 2. Advokat – xo‘jalik jarayonining sudgacha bosqichida.....	173
§ 3. Advokat va birinchi instansiya sudida ish yurituv. ....	178
§ 4. Advokat va apellyasiya instansiyasi sudida ish yurituv.....	182
§ 5. Advokat va cassatsiya instansiyasi sudida ish yurituv.....	184
§ 6. Advokat va sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish.....	186
§ 7. Advokat va sud hujjatlarining ijrosi.....	190
IX Bob. ADVOKAT MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLER TO‘G‘RISIDAGI IShLAR BO‘YICHA ISh YuRITUV JARAYoNIDA.....	196
§1. Ma'muriy huquqbuzarliklar .....	196
§2. Advokatning ma'muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yurituv jarayonida qatnashishi.....	199
X Bob. ADVOKATNING JINOYAT ISHI JARAYONIDA ISHTIROKI .....	205
§ 1. Advokat – jinoiy ish jarayoni ishtirokchisi sifatida.....	205
§ 2. Advokat – sudgacha ish yurituv jarayonida.....	208
§ 3. Advokatning birinchi instansiya sudida ishtiroki.....	210
§ 4. Himoya nutqi mazmuni.....	212
§ 5. Advokatning apellyasiya va cassatsiya bosqichidagi ishtiroki.....	215
§ 6. Advokatning nazorat instansiyasi sudida ishtiroki.....	215
§ 7. Advokatning sud qarorlari ijrosi bosqichida ishtiroki.....	216
§ 8. Advokatning alohida toifadagi jinoiy ishlarni yuritishda qatnashishi.....	218
§ 9. Advokatning jabrlanuvchi yoki jarayonning boshqa ishtirokchilari nomidan vakillik qilishi.....	223
Ilovalar: .....	232
Advokat faoliyatida foydalaniladigan hujjatlar namunalari.....	232
Foydalanilgan adabiyot ro‘yhati.....	278

## KIRISH

Huquq va qonunning ahamiyati beqiyos darajada o'sib, qonunchilik, kodekslar va huquq me'yorlaridagi so'nggi o'zgarishlarning shunchaki in'ikosi emas, balkiadolat va haqiqatning mezoni bo'layotgan bizning davrimizda, huquqshunos kasbiga asosli ravishda eng qat'iy talablar qo'yilmoqda, bu kasb sohiblaridan esa, ularning maxsus maqomi, lavozimi va yuridik ixtisoslashuvidan qat'iy nazar, jamiyatning umidlari katta bo'lmoqda.

Huquqshunos kadrlarni tayyorlash masalalariga, zamonaviy yurisprudensiyani o'qitish sharoitlarini yaratishga mamlakatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyundagi PQ-1990- sonli "Yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universiteti (quyida – TDYUU) sifatida qayta tashkil etildi va "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash bo'yicha bazaviy davlat oliy ta'lim va ilmiy-uslubiy muassasasi deb belgilandi.

Yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash bo'yicha vazifalarni hal etish maqsadlarida, TDYUUda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning, fuqarolik jamiyati shakllanishining yuksak talablariga, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beruvchi yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy choralarini qabul qilish bo'yicha kompleks ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, huquq yo'nalishlari bo'yicha yangi avlod darsliklar va o'quv qo'llannalarini tayyorlash Kompleks dasturi qabul qilindi. Bunda, o'quv adabiyotini tayyorlash davomida zamonaviy huquqshunoslik fani yutuqlariga, shuningdek, davlat-huquqiy, sud va huquqni muhofaza qilish sohalaridagi demokratik o'zgarishlar tajribasiga alohida e'tibor berildi.

Bundan tashqari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 02.08.2013 yildagi №278- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun yangi avlod o'quv adabiyotini yaratish Konsepsiyasidan kelib chiqqan holda, yangi avlod o'quv nashrlariga qo'yiladigan talablar e'tiborga olindi.

Sudlar va huquqni muhofaza qilish idoralari kafedrasida mualliflar jamoasi kuchi bilan tayyorlangan yangi avlod "Advokatura" darsligi, bo'lajak yuristlarni advokat sifatida ishlashga tayyorlash uchun mo'ljallangan va advokatura hamda advokatlik faoliyati, O'zbekistonda advokaturaning rivojlanishi tarixi, uni tashkil etish tamoyillari, notiqlik san'ati, advokatlik kasbi axloqiy asoslariiga oid asosiy masalalarni o'z ichiga oladi. Ushbu darslikda mualliflar tomonidan umumlashtirilgan shaklda, advokaturaning umumnazariy masalalari, bugungi kun vazifalari va rivojlanish yo'llari bayon etilgan. Unda advokatning turli ko'rinishdagi sud ishlari va tergov bosqichlaridagi ishi va ishtiroki namunalari keltirilgan.

Mazkur darslikning yuzaga kelish dolzarbligi jamiyatning malakali, shaxsiy-kasbiy rivojlanish darajalari zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi advokatlarga ehtiyoji o'sganligida ko'rinadi. Zero, demokratik huquqiy davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni muhofaza qilish, ko'p jihatdan fuqarolar va tashkilotlarga professional yuridik yordam beruvchi advokatlar faoliyatiga bog'liqidir.

O'zbekistonda ro'y berayotgan siyosiy va iqtisodiy tizimning demokratlashuvi, huquqiy demokratik davlatning konstitutsiyaviy suratda e'lon qilinishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqiy institutlar va ko'ngilli birlashmalar faoliyatining shakli va uslublarini tubdan qayta tashkil qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda advokaturani – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan izchil bog'liq bo'lgan fuqarolik jamiyati institutini takomillashtirish o'ta muhim o'rinni egallaydi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek, "Avvalo sud ishida konstitutsiyaviy va yuridik me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga, o'z himoyasi ostidagi fuqarolarning huquqlari, obro'si va qadr-qimmatini muhofaza qilishga mas'ul advokatlar institutining roli va ahamiyatini tubdan oshirish lozim".<sup>1</sup>

*Advokatura – bu har qanday davlatning eng muhim huquqiy instituti bo'lib, fuqarolarning va ular birlashmalarining asosiy huquqlari himoyasini amalga oshiradi.* Har bir fuqaroning o'z farovonligiga, tadbirkorlikning muvaffaqiyatiga ishonchi uning qanchalik kuchli, tashkillashtirilgan, qonunan himoyalanganligiga bog'liqidir.

Biroq, jamiyatdagi huquqiy nigelizm holatida, advokaturaga va advokatga munosabat, ma'lum darajada salbiy bo'ladi, bu ayniqsa huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan bo'lishi kuzatiladi. Advokat aksariyat hollarda jinoyatchini yoki nohaq ishni himoyalovchi shaxs sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, advokaturaning asosiy mohiyati butun jamiyatga yuridik ko'mak berishdan iborat, zero advokat qonunni beboshdoqlikdan himoya qiladi, shu sababli advokatning faoliyati ham muayyan fuqaro yoki tashkilotning manfaatlariga, ham umumi suratda davlat va jamiyatning ommaviy-huquqiy manfaatlariga mos keladi. Keyingi vaqtarda buni ko'pchilik anglab yetdi va jamiyatda advokaturaga munosabat, asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'zgarmoqda.

Darslikda taklif etilgan material sodda, tushunarli tilda bayon etilgan, muayyan tushunchalar va izohlar batafsil chizmalar va illyustratsiyalar bilan ta'minlangan.

Darslik oliy o'quv muassasalari yuridik fakultet talabalari va o'qituvchilariga, shuningdek advokaturaning zamonaviy masalalari bilan qiziquvchi barcha aholiga mo'ljallangan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Oliy Majlis 14 sessiyasidagi ma'ruza, 1999 yil 14 aprel // O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratamiz. J.7. - T.: O'zbekiston, 1999 y. - S. 359.

## ATAMALAR LUG‘ATI

**ADVOKATURA** – bu tushuncha bir nechta ma'nolarga ega:

- 1) fuqarolik jamiyati instituti;
- 2) advokat huquqlari va majburiyatlari barcha me'yorlarini muvofiqlashtiruvchi; uning huquqiy maqomini, advokatlar hay'ati, maslahatxonalarini, firma va byuolarini tashkil qilish va faoliyatini yuritish tartiblarini belgilovchi kompleks huquqiy institut;
- 3) advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, professional birlashmalari.

**ADVOKATLIK FAOLIYATI** – advokatning, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam berish bo‘yicha professional faoliyati.

**ADVOKATLIK ETIKASI** – advokatlik faoliyatining axloqiy asosi. Advokatlik etikasining elementlari quyidagilardir: bahsli manfaatning qonuniyligi; ishning yuridik istiqboli; ish bo‘yicha yetarlicha dalillar mavjudligi; axloqiy jihat.

**ADVOKAT** – qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini va advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini olgan shaxs.

**ADVOKAT-ShERIK** – advokat, advokatlik firmasining hammuassisi.

**ADVOKATLIK SIRI** (rasman) – ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)ning advokat yordamiga murojaat qilganligi fakti, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) yordam so‘rab murojaat qilgan masalalar, ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) advokatdan olgan maslahatlar, maslahatlar va tushintirishlar mohiyati, advokatning ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) bilan suhbatlari mazmuniga oid barcha boshqa ma'lumotlar.

**ADVOKATLIK FIRMASI** – sheriklikka asoslangan va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis etilgan notijorat tashkiloti hisoblanadigan advokatlik tuzilmasi.

**ADVOKAT SO‘ROVI** – advokat huquqi, unga ko‘ra, u yuridik ko‘mak ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni davlat idoralaridan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan olish huquqiga ega, ular qonunchilikda belgilangan tartibda advokatga, u so‘ragan hujjatlarni yoki tasdiqlangan nus’halarini taqdim etishlari lozim.

**ADVOKATLIK IMMUNITETI** – advokat shaxsining daxlsizligi haqidagi qoidani kafolatlovchi huquqiy me'yor. Advokatlik immuniteti uning turar joyini,

xizmat xonasini, u foydalananadigan transport va aloqa vositasini, uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ham qamrab oladi.

**ADVOKATLIK BYUROSI** – advokat tomonidan individual advokatlik faoliyatini yuritish uchun ta'sis etilgan notijorat tashkiloti hisoblananadigan advokatlik tuzilmasi.

**ADVOKATNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGI** – yuridik javobgarlik chorasi bo'lib, u advokat tomonidan advokatura to'g'risidagi qonunchilik talablari, Advokatlar professional etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodi buzilishining huquqiy oqibati sanaladi.

**ISHONCH BILDIRUVCHI** – professional yuridik yordam so'rab advokatlik tuzilmasiga murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**MALAKA KOMISSIYASI** – Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshida zarur bilimlar va kasbiy ko'nikmalarga ega shaxslarga litsenziyalar berish, advokat qasamyodini qabul qilish maqsadida, shuningdek, advokatlarga nisbatan intizomiy choralarni ko'rish uchun tuzilgan komissiya.

**ADVOKATLAR HAY'ATI** – advokatlar tomonidan advokatlik foaliyatini amalga oshirish uchun ta'sis etilgan, a'zolikka asoslangan, notijorat tashkiloti bo'lmish advokatlik tuzilmasi.

**ADVOKATLAR KONFERENSIYASI** – O'ZBEKISTON RESPUBLIKAsi Advokatlar palatasining oliy organi.

**MANFAATLAR TO'QNASHUVI** (ilm.) – shunday holatki, unda advokatning manfaatlari ishonch bildiruvchining manfaatlariga zid bo'ladi, bu advokatlik xizmatlari ko'rsatilishining ilojsiz ekanligiga olib keladi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADVOKATLAR PALATASI** – O'ZBEKISTON RESPUBLIKAsidagi barcha advokatlarning majburiy a'zoligiga asoslangan notijorat tashkilot.

**SHERIKLIK SHARTNOMASI** – advokatlik firmasining ta'sis hujjati bo'lib, advokatlar tomonidan oddiy yozma shaklda tuziladi. Sheriklik shartnomasiga ko'ra, advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko'rsatish uchun o'z sa'y-harakatlarini birlashtirish majburiyatini oladilar.

**BOSHQARUV** – Advokatlar palatasining ijroiya organi bo'lib, advokatlar ichidan saylanadi va Palataning joriy faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi.

**ADVOKAT YORDAMCHISI** – yuridik ma'lumotga ega, advokatlik tuzilmasi, xizmatchisi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, u advokatning ko'rsatmasiga ko'ra, advokat yuritayotgan ishlar bo'yicha topshiriqlarni bajaradi, advokatning protsessual vakolatlariga tegishli ishlar bundan mustasno.

**ADVOKAT KASBIY ETIKASI QOIDALARI** – kasbiy majburiyatlarni bajarishda, shuningdek mijozlar, hamkasblar, advokatlik o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofza qilish idoralari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda advokat shaxsiga va uning xatti-harakatlariga nisbatan talablarni belgilovchi qoidalar majmui.

**YURIDIK YORDAM KO‘RSATISH TO‘G‘RISIDAGI KELISHUV** – ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) va advokat o‘rtasida oddiy yozma shaklda tuziladigan, bevosita ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)ga yoki u tayinlagan shaxsga yuridik yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan fuqarolik-huquqiy shartnomasi.

**ADVOKAT STAJYORI** – oliy yuridik ma'lumotga ega, advokatlik tuzilmasiga qonunda belgilangan tartibda stajirovka o‘tash uchun keladigan O‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI fuqarosi. Stajirovka davrida advokat stajyori advokat rahbarligi ostida uning ayrim topshiriqlarini bajaradi.

**BOSHQARUVCHI SHERIK** – advokatlik firmasi ishlarini yuritish topshirilgan advokat-sherik.

**ADVOKATLIK KASBI BILAN SHUG‘ULLANISH SENZLARI** (ilm.) – advokat maqomini olishga da'vogar shaxsga qo‘yiladigan talablar.

**YURIDIK KONSULTATSIYA** – ushbu tushuncha ikkita ma'noni anglatadi:

- 1) Advokatlar palatsi hududiy boshqarmasi tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘limgan advokatlik tuzilmasi;
- 2) advokat tomonidan huquqiy masalalar bo‘yicha og‘zaki yoki yozma tushuntirishlar berishdan iborat advokatlik faoliyati turi.

## **I BOB**

### **«ADVOKATURA» FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA VAZIFALARI**

“Advokatura” fani tushunchasi, predmeti va vazifalari. Advokatura tushunchasi. Fuqarolar tomonidan malakali yuridik yordam olinishi – ularning konstitutsiyaviy huquqi. Advokatlik faoliyati tamoyillari. Advokatlik faoliyati

*tushunchasi, belgilari va ko‘rinishlari. Fanning boshqa yuridik fanlar bilan o‘zaro aloqasi.*

### **§ 1. “Advokatura” fani tushunchasi, predmeti va vazifalari**

Advokatura O‘zbekiston Respublikasidagi fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biri, huquqiy davlat tizimining elementi bo‘lib, usiz jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash ilojsizdir.

Yaqin vaqtлага qadar o‘quv dasturlarida advokaturaga, sud va huquqniy muhofaza qilish idoralariga nisbatan, kam e’tibor berilardi. Jamiyat ongida saqlanib qolgan advokatura – bu obro‘liroq idoralar (prokuratura, sud)da ish topa olmagan yuristlarning unchalik obro‘li bo‘lmagan, ikkinchi darajali kasbi degan fikr, baxtimizga, huquq ijodkorligi, qonunchilik bazasi va huquqni qo‘llash amaliyotidagi o‘zgarishlar ta’sirida, asta-sekin o‘zgarib bormoqda.

Shunday bo‘lsa ham, “Sud va huquqni muhofaza qilish idoralari”, “Jinoiy-protsessual huquq”, “Fuqarolik-protsessual huquq” va “Prokurator nazorati” fanlari doirasida advokatlik faoliyati masalasini o‘rganish bo‘lajak yuristlarda himoya funksiyasiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish uchun yetarli emas. Shu sababli, mustaqil “Advokatura” fanini o‘qitish muhim ahamiyatga ega.

Masalani yanada chuqurroq tushunish uchun avvalo advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik predmetini tashkil qiluvchi munosabatlarni va ularni muvofiqlashtirish uslublarini tahlil etish talab qilinadi.

Ma'lumki, huquqiy tartibga solish – bu ijtimoiy hayotdagi yuridik ahamiyatga ega omillar va jarayonlar bo‘lib, ular huquqning boshqaruvchilik salohiyatini, ya’ni huquqiy me’yorlarning tartibga soluvchi harakatlari yo‘naltirilgan maqsadni o‘zlarida his etadilar (yoki his etishlari lozim).

Advokatura to‘g‘risidagi qonunchilikni shartli ravishda uch guruhgaga bo‘lish mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi:

- 1) advokatura faoliyatini tashkil qilish bilan bog‘liq munosabatlar;
- 2) advokaturaning o‘zini-o‘zi boshqarishi jarayonida yuzaga keluvchi, advokatura mustaqilligi tamoyilini amalga oshirish mazmunidagi munosabatlar;
- 3) advokatlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar.

Ijtimoiy munosabatlarning birinchi guruhi advokatlik faoliyatining ommaviy-huquqiy xarakterga ega ekanligi, davlat tomonidan boshqaruv ta’siridan kelib chiqadi. Ushbu munosabatlar guruhi subordinatsiya tamoyiliga quriladi. Ulardagi majburiy tomon – davlat, o‘zining vakolatli organlari va ularning mansabdor shaxslari timsolida, ya’ni zarurat tug‘ilganda o‘z qarorlarini bajarishga majbur qilishga potensial imkoniyati bor sub’ekt.

Ushbu munosabatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

- 1) davlat tomonidan advokatura faoliyati va advokatlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilash. Davlat, o‘zining qonun chiqaruvchi organlari va ijroiyl hokimiyyati organlari timsolida, me’oriy-huquqiy hujjatlar qabul qiladi: advokaturaning jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va

manfaatlarini himoya qilish bo'yicha davlat funksiyasini bajarish bo'yicha muayyan vakolatlarni amalga oshiruvchi fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi huquqiy tabiatini mustahkamlovchi; advokatlik faoliyatini tushunchasi, vazifasi va mazmunini belgilovchi; advokatlik faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ektlar maqomini, ularning huquqlari va majburiyatlari belgilovchi va sh.k. Advokatlar o'zini-o'zi boshqarish organlari advokaturaning tashkil qilinishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarini ishlab chiqishda qatnashish vakolatiga egalar;

2) advokatura va advokatlik faoliyatini amalga oshirish jarayonining moddiy-texnik va moliyaviy boshqaruvi, u davlat tomonidan ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchidan, bu advokaturani moliyalashtirish. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda keltirilganidek, jinoiy sud ishida surishtiruv organlari, dastlabki tergov organlari, prokuror yoki sud tayinlashi bo'yicha himoyachi sifatida qatnashayotgan advokatning mehnati byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadi. Bu maqsadlarga xarajatlar navbatdagi yilgi byudjet to'g'risidagi qonunda xarajatlarning tegishli maqsadlarga oid moddasida hisobga olinadi. Bundan tashqari, har bir advokatga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolar uchun ko'zda tutilgan ijtimoiy ta'minot kafolatlanadi.

Ikkinchidan, davlat advokatlik faoliyatidan tushgan daromadni soliqqa tortishni amalga oshiradi;

Advokatura va advokatlik faoliyatining davlat boshqaruvi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xosligi fuqarolik jamiyati instituti sifatida advokatura, asoslanmagan va ortiqcha davlat aralashuvidan ihotalangan bo'lishi lozimligi bilan izohlanadi. Bu – advokatura faoliyat yuritishining zaruriy shartidir.

Munosabatlarning ikkinchi guruhi advokaturaning o'zini-o'zi boshqarish tamoyilini amalga oshirish jarayonida shakllanadi. Uning majburiy sub'ekti advokatlik o'zini-o'zi boshqarish organi – O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasidir.

Advokatlar palatasi (o'zining boshqaruvi yoki konferensiysi timsolida) advokatlik palatalari faoliyatini muvofiqlashtirish; advokatlarning kasbiy salohiyatini oshirish, advokatlarning kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashning yagona uslubiyotini ishlab chiqish; advokatlarning ijtimoiy va kasbiy huquqlarini himoya qilish; advokatlik faoliyatiga oid barcha masalalar bo'yicha qonunlar loyihalarini ekspertizadan o'tkazish; advokatlarni axborot bilan ta'minlashni tashkil qilish va boshqalar bo'yicha ijtimoiy munosabatlar ishtirokchisi sanaladi. Ushbu barcha ijtimoiy munosabatlar advokaturani huquqiy tizim instituti va qonunchilikning tuzilmaviy birligi sifatidagi maqomini boshqarish predmetiga kiradi.

Advokatura vazifalari "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 1- moddasida belgilab berilgan – "Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiylar, fuqarolar, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi". Boshqacha aytganda, advokatura oldiga

barcha jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, odil sudlovnii amalga oshirishga, qonunga rioya etilishi va uning mustahkamlanishiga, fuqarolarning qonunlarni aniq va so'zsiz bajarish, boshqa shaxslar huquqlari, obro'si va qadriga hurmat ruhida tarbiyalashga ko'maklashish vazifasi qo'yilgan.

Ushbu vazifa amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining maqsadlaridan ham kelib chiqadi: "birinchi navbatda sud amaliyotida konstitutsiyaviy va yuridik me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga, himoya ostidagi fuqarolarning huquqlari, obro'si va qadr-qimmatini himoya qilishi lozim bo'lgan advokatlar institutining roli va ahamiyatini tubdan oshirish... lozim..."<sup>2</sup>. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, advokatura institutini isloh qilish: "... odamlar advokatlar xizmatharidan, ularning maslahatlari va takliflaridan faqat sud jarayonlari borishida emas, balki kundalik hayotda ham foydalana olishlari"ga qaratilgan bo'lishi lozim. Advokatura instituti o'z faoliyatini qaysi yo'nalishlarda amalga oshirishini ko'rib chiqamiz.

Tashkiliy-boshqaruv munosabatlari sohasida eng muhim muammo advokaturaga davlat ta'siri va uning o'z faoliyati masalalarini mustaqil, ichki boshqaruvi o'rtasidagi muvozanatni topish sanaladi. Bu yerda faqat advokatura davlat organi emasligi, lekin davlatning jismoniy va yuridik shaxslar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ommaviy funksiyalarini amalga oshirishga oid alohida vakolatlarini bajarishini hisobga olgandagina optimal natijaga erishish mumkin. Binobarin, davlat tomonidan ta'sir etish, advokatlikka o'zini-o'zi boshqarishni hyech qanday tarzda poymol qilmasligi kerak.

Va nihoyat, advokaturaning huquqiy ta'minot predmeti sifatidagi munosabatlarning uchinchi guruhi – bu advokatlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida shakllanuvchi munosabatlар. Bu huquqiy munosabatlarning zaruriy sub'ekti – advokat. Boshqa tomon sifatida turli-tuman jismoniy va yuridik shaxslar, davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar qatnashishi mumkin.




---

<sup>2</sup> Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 29 avgust 1996 yil // Yangicha fikrlash va ishslash-davr talabi. J. 5. - T.: O'zbekiston, 1997. - S. 112-113.

### *Esingizda tuting!*

Shu tariqa, “Advokatura” o‘quv yo‘nalishining predmeti advokat va advokatlik faoliyatining huquqiy asoslari va maqomini o‘rganish, O‘zbekiston va chet mamlakatlardagi “advokatura” va “advokatlik faoliyati” tushunchalarini izohlash, advokatura va advokatlik tuzilmalarni tashkil qilish tamoyillarini, advokatlik faoliyatning axloqiy asoslarini, jinoiy, fuqarolik, ma’muriy, xo‘jalik sud ishidagi advokat rolining o‘ziga xosligini, shuningdek kasbiy faoliyat standartlarini ko‘rib chiqishdir.

**Fanni o‘qitishdan maqsad** talabalarda O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari, advokatlik bo‘linmalarning tamoyillari va tashkiliy-huquqiy shakllari, zamonaviy chet mamlakatlarda advokatura faoliyatining o‘ziga xosliklari, fuqarolik, xo‘jalik, jinoiy sud ishi jarayonlarida advokatning huquqiy maqomi haqida asosiy tushunchalarni shakllantirish va sh.k.

**Fanning vazifalari** talabalarga advokatura institutlarining rivojlanish tarixini o‘rgatish; advokatlik maqomini olish tartibi, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani taqdim etish va ularning amal qilishini to‘xtatish asoslari, advokatlik faoliyati kafolatlari, advokat huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirish va shu bilan bir qatorda, fanning boshqa yuridik predmetlar bilan aloqasini o‘rganishdan iborat.

### *§ 2. Advokatura tushunchasi*

“O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati” fani mazmuni va tizimini umumiy va maxsus qismlarda bayon etilgan mavzular bo‘yicha o‘quv materiali tashkil etadi.

**Advokatura** – huquqiy institut bo‘lib, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini va xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi alohida shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Advokatlik faoliyati deb “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan professional asosda jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, adolatli sudlovga erishishni ta‘minlash maqsadida ko‘rsatiladigan malakali yuridik yordam e’tirof etiladi.

Malakali yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq bo'lsa-da, qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomiga ega bo'lman shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat advokatlik faoliyatiga kirmaydi.

Advokatlik faoliyati tijorat, tadbirkorlik sanalmaydi. Bu esa, uning maqsadi foyda ko'rish bo'lishi mumkin emasligini anglatadi. Advokatlik tuzilmalarining yoki alohida advokatning barcha daromadlari o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, tijorat yoki boshqa tadbirkorlik faoliyatining natijasi emas, balki ko'rsatilgan yuridik xizmatlar uchun pul mukofotidir.

Advokatlik faoliyatini tashkilotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xizmatchilari tomonidan, notariuslar va patent ishonch bildirilganlar, soliq maslahatchilari (bundaylar sifatida advokat faoliyat yuritayotgan holatlar bundan mustasno) va o'zlarining professional maslahat (lekin yuridik emas) faoliyatlarini yuritishga vakolat olgan boshqa shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam (konsultatsiya)dan farqlash lozim.

Mustaqil va professional advokaturani tashkil qilish, advokatlik faoliyatini amalga oshirish shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqlari kafolati haqidagi konstitutsiyaviy talablarning bajarilishini anglatadi. (Konstitutsiya 116-moddasi).

### *§ 3. Fuqarolarning malakali yuridik yordam olishlari – ularning konstitutsiyaviy huquqi*

Advokatura zamonaviy davlat huquqiy tizimining eng muhim instituti bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslarga malakali va davlatdan mustaqil huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarning himoyalanishini ta'minlash uning vazifasidir.

Fuqarolar tomonidan malakali yuridik yordam olinishi – ularning konstitutsiyaviy huquqidir. Konstitutsianing 116- moddasida mustahkamlab qo'yilgan adolatli sudlovni amalga oshirish xalqaro standartlariga muvofiq professional yuridik yordam olish huquqi unga asos bo'luvchi tamoyillardan biri sifatida ko'rildi. Malakali yuridik yordam olish huquqi fuqaroning ham huquqiy maqomining uzviy qismi sanaladi va u nafaqat milliy, balki xalqaro huquq bilan ham kafolatlanadi.

Advokatura fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lib, fuqarolar va ularning uyushmalarining asosiy huquqlarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu xususda "vazifasi, birinchi navbatda, sud amaliyotida konstitutsiyaviy va yuridik me'yorlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, himoya ostidagi fuqarolarning huquqlari, obro'si va qadr-qimmatini himoyalash bo'lgan advokatlar institutining roli va ahamiyatini tubdan yuksaltirish" zaruriyatini alohida qayd etadi.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza, 29 avgust 1996 yil // Yangicha fikrlash va ishslash-davr talabi. J. 5. - T.: O'zbekiston, 1997. - S. 112-113.

Bunda davlat advokaturaga bir qator ommaviy funksiyalarini yuklaydi, ular bevosita O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqadi – jinoiy ishda tayinlanish bo‘yicha himoyani amalga oshirish va muayyan vaziyatlarda yuridik yordamni bepul ko‘rsatish majburiyatlaridir. Advokaturaga ommaviy funksiyalar yuklatilganiga qaramay, fuqarolik jamiyatining bu instituti davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi.

Jinoiy sud ishida himoyachi sifatida faqat advokatlarga ruxsat beriladi, bu qabul qilinayotgan sud qarorlarining shaxs va jamiyat uchun yuqori ahamiyatga egaligi bilan bog‘liq. Davlat, aynan malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlar ekan, u malakali, zarur kasbiy bilimlar va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi sharoitlarni ham ta'minlaydi va bu maqsadda muayyan kasbiy va malakaviy talablarni belgilaydi.

Har bir kishining malakali yuridik yordam olish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan boshqa huquq va erkinliklarning amalga oshishining kafolati bo‘lib xizmat qiladi, jumladan o‘z huquqlarini qonunda taqiqlanmagan har qanday usul bilan himoya qilish huquqi: sud himoyasi, tomonlar o‘rtasidagi muhokama va tenglik asosida sud tomonidan ishning ko‘rilishi kabilar, va ular bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Bu huquq hyech qanday sharoitda cheklanmasligi lozim.

O‘zbekistonda zamonaviy davlat qurilishi va uning huquqiy institutlari shakllanishi davrida advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik muayyan o‘zgarishlarga uchradi. 1996 yil 27 dekabrda “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun kuchga kirdi, u butun advokatura instituti faoliyatini tashkil qilishda o‘zgarishlar yasadi. Ushbu qonun advokatlarga kasbiy va boshqa malakaviy talablar qo‘yadi, advokat maqomini va uni olish shartlarini, advokat huquqlari va majburiyatlarini, advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, advokatura institutini takomillashtirish maqsadida, 2008 yil 1 mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3993- sonli “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi, bu farmon sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning sud ishining har qanday bosqichida professional yuridik yordam olish huquqini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy me'yorni amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, uni yuqori malakali kadrlar bilan butlash, advokatlar mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbi obro‘sni va sha'nini ko‘tarishga qaratilgandi.<sup>4</sup>

Ushbu Farmon advokatura institutini isloh qilishdagi asosiy vazifalarni belgilab berdi:

---

<sup>4</sup>O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami, № 18 - 2008. s. 144.

- ✓ Advokaturaning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ishida fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida markazlashgan, amaliy o‘zini-o‘zi boshqarish tizimini yaratish;
- ✓ Advokatlikka nomzodlar malakasiga qo‘yiladigan, yuridik mutaxassislik bo‘yicha ish staji mavjudligi va advokatlik tuzilmalarida stajirovkadan o‘tishni ko‘zda tutuvchi talablarni kuchaytirish va advokatlarning kasbiy malakasini majburiy tizimli oshirishni joriy etish;
- ✓ litsenziyalashning samarali tizimini tashkil etish, u advokaturani halol va yuqori malakali mutaxassislar bilan butlashni ta'minlaydi;
- ✓ advokatlik tuzilmalari vakolatlarini aniq chegaralash va uning huquqiy maqomini belgilash;
- ✓ jinoiy ishda ayblov va himoya tomonlarining protsessual huquqlari tengligini ta'minlash;
- ✓ tomonlarning vakillari institutini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish, bu sud ishida yurisprudensiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lmagan shaxslarning ishtirokini mustasno qiladi;
- ✓ advokatlar tomonidan kasbiy etika qoidalariga va advokatlarga nisbatan intizomiy ishlab chiqarish tizimiga rioya etilishi ustidan nazorat mexanizmining takomillashtirilishi.

#### ***§4. Advokatlik faoliyati tamoyillari***

“Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, afsuski, tamoyillarning mazmun-mohiyatini ochmay, faqat sanab o‘tadi. Chunonchi, advokatura to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilab qo‘yilganki, “Advokatura o‘z faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boqsha demokratik tamoyillar asosida amalga oshiradi”. “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 2- moddasidan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, qonun chiqaruvchi bir jihatda yakdil: qonuniylik va mustaqillik advokatlar faoliyatining asosiy tamoyillaridir.

**Qonuniylik tamoyili** – davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi, uning eng keng tushunish qamrovida, demokratik huquqiy davlat mavjudligining zaruriy shartidir.

Buni ta'minlash faqat hayotga izchil ravishda qonuniylik tamoyilini kiritish orqaligina ta'minlash mumkin. bevosita tarzda bu tasdiq, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun tomonidan muvofiqlashtiriluvchi faoliyat sifatida, advokatlik faoliyatiga taalluqlidir. Eng umumiy suratda bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan: davlat hokimiyyati organlari, mansabdor shaxslar, fuarolar va ularning birlashmalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarga rioya etishga majburdirlar.

Advokaturaga nisbatan qo‘llanilganda, qonuniylik tamoyili advokatlar tomonidan, avvalo O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanuvchi

advokatlik faoliyati va advokatura to‘g‘risidagi barcha qonunchilikka va boshqa, advokatlik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar va O‘zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga rioya etilishida o‘z ifodasini topadi.

Konstitutsiyaviy, fuqarolik va ma'muriy sud ishida vakil, shuningdek jinoiy sud ishida va ma'muriy qonunbuzilishlari haqidagi ishlar ko‘rilishida vakil yoki himoyachi sifatida qatnashayotgan advokat vakolatlari tegishli protsessual qonunchilik bilan boshqariladi.

Advokatlik faoliyatida qonuniylik tamoyilining amaliy ishlashini ta'minlovchi kafolatlar “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunda mustahkamlangan. Bu – advokatlarning o‘z faoliyatilarini amalga oshirishdagi mustaqilligi, yuridik yordam so‘rab murojaat qilgan shaxsdan topshiriqni, agar u yaqqol noqonuniy xarakterga ega bo‘lsa, olishning taqiqlanishi va boshqalardir.

Qonuniylik tamoyiliga muvofiq, nafaqat advokatlar, balki ularning yordamchilari, stajyorlari, advokatlik o‘zini-o‘zi boqsharish organlari ham qonunlarga og‘ishmay rioya etishlari va qonun talablarini bajarishlari lozim.

Qonuniylik advokaturani tashkil etishda, advokatlik faoliyatining barcha jihatlarida o‘z aksini topadi va shu sababli boshqa o‘rganilayotgan tamoyillar orasida alohida o‘ringa ega, ular bilan xuddi umumiylari va xos munosabatida bo‘ladi. Qonuniylik tamoyili – umumhuquqiy, universal, uni *butun huquq tizimining tamoyili* sifatida belgilash mumkin. Advokaturani tashkil etish va faoliyatini yuritishning boshqa tamoyillari qonuniylikni amalga oshirishning shartlari sanaladi. Ularning har biri alohida holda qonuniylik tamoyilining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifaodasi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning birortasini buzish qonuniylik talabidan chetlanishdir.

**Advokatura mustaqilligi tamoyili** – bu tamoyil advokaturaning huquqiy tabiatini va maqomini tafsiflash uchun asosiy tamoyil sanaladi. Advokatura, avvalda qayd etilganidek, davlat hokimiyati va boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi. Bu, davlatga nisbatan mustaqil institut, u o‘z faoliyatiga aralashuvidan himoyalangandir. Advokaturaning, advokatlarning kasbiy hamjamiyati sifatida, mustaqilligi advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirilishida ularning mustaqilliklarining zaruriy sharti va kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq, advokaturaning davlatdan mustaqilligi mutlaq emas. Ommaviy hokimiyat tashkiloti sifatida, davlat uning ommaviy funksiyasi – jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qiziqishlarini himoya qilishni amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarni bajaruvchi institutga nisbatan o‘zining tashkiliy, boshqaruv ta’sirini ko‘rsatmasligi ilojsiz. Asosiysi – davlatning boshqaruv ta’siri advokatlar tomonidan o‘z faoliyatini amalga oshirish mustaqilligiga daxl qilmaydigan muvozanatni topishdir.

Qonun advokatura va davlatning o‘zaro aloqalarining asosiy tamoyillarini beliglaydi. Yuridik yordamning hammabopligrini ta‘minlash va advokatlik faoliyatiga ko‘maklashish maqsadida davlat hokimiyati organlari:

- advokatura mustaqilligi kafolatlarini ta'minlaydi;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan vaziyatlarda fuqarolarga bepul yuridik yordam ko'rsatayotgan advokatlar faoliyatini moliyalashtiradi;
- har bir advokatga qonunchilikda ko'zda tutilgan ijtimoiy ta'minot taqdim etiladi.

Bundan tashqari, davlat zimmasiga advokatlik faoliyatining bir qator tashkiliy jihatlari yuklatilgan.

Umuman olganda, davlat va advokaturaning o'zaro munosabatlari to'liq ravishda har qanday fuqarolik jamiyati institutining demokratik huquqiy davlat bilan o'zaro munosabatlari tizimiga javob beradi: davlat fuqarolik jamiyati instituti o'z faoliyatini amalga oshirishining qoidalarini belgilaydi, ya'ni uning huquqiy asosini belgilaydi; bu qoidalarga rioya etilishini nazorat qiladi; bu qoidalalar buzilganda davlat tomonidan majburlash uslublarini boshqaradi; bu uslublar qo'llanilishini ta'minlaydi.

Shubhasiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek, "biz bugun qonunchilik sohasida ham, amaliyotda ham advokatura tizimining haqiqiy mustaqilligini kuchaytirish va ta'minlash uchun ko'p ishlar qilmoqdamiz..."<sup>5</sup>. Qonun chiqaruvchining advokatlik faoliyati kafolatlarini tizimi shakllanishiga e'tibori alohida qonun – "Advokatlik faoliyatining kafolatlarini va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning qabul qilinishida ham ko'rindi.

Qayd etamizki, advokatning mustaqilligini ta'minlovchi chorallarga nafaqat uning erkin faoliyat yuritishining kafolatlarida, balki ijtimoiy himoya me'yorlarini joriy etish ham kiradi, unga ko'ra, advokatga, u tomonidan kasbiy majburiyatlarining bajarilishi tufayli shikastlanish yoki salomatlikka boshqa turdag'i, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatidan to'liq yoki qisman mahrum etuvchi zarar yetkazilsa yoki o'lim yetkazilsa, advokatga yoki uning meroslariga davlat tomonidan muayyan sug'urta to'lovi to'lanadi.

"Advokatlik faoliyatining kafolatlarini va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 10- moddasida advokatlarni ijtimoiy himoyalash chorallari belgilangan. Chunonchi, 2- qismda qayd etiladiki, "advokatura o'z mablag'lari hisobidan advokatlarning hayoti va salomatligini sug'urtalashni amalga oshiradi".

**O'zini-o'zi boshqarish tamoyili** – bu tamoyil advokaturaning nodavlat tuzilma ekanligidan kelib chiqadi. Davlat fuqarolik jamiyati institutini boshqarishni amalga oshira olmaydi va oshirmsligi ham kerak. Binobarin, advokatura o'zini-o'zi boshqarish tamoyiliga quriladi, ya'ni ichki hayotining muhim masalalari advokatlik o'zini-o'zi boshqarish organi (O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasi) tomonidan hal etiladi.

**Korporativlik tamoyili** - bu tamoyil umumi suratda bir xil faoliyatini yurituvchi shaxslar, a'zolar kasbiy manfaatlarini himoya qilish, kasb obro'sini

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Oliy Majlis 14 sessiyasidagi ma'ruza, 1999 yil 14 aprel//O'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan yaratamiz. J.7. - T.: O'zbekiston, 1999 y. - S. 359.

oshirish, boshqa organ va tashkilotlar, jumladan davlat idoralari oldida vakillik qilish maqsadida korporatsiyaga, kasbiy tashkilotga birlashishlaridan kelib chiqadi. Korporatsiya o‘z ichki qoidalarini ishlab chiqadi. Tarixdan shunday shakllanganki, korporatsiya, ta’bir joiz bo‘lsa, erkin kasb egalarini birlashtiradi, ular sirasiga, jumladan, notariuslar va advokatlar ham kiradi.

Korporativlik tamoyili o‘zini-o‘zi boshqarish tamoyili bilan chambarchas bog‘liqidir. Advokatlik hamjamiyati organlari qarorlarini qabul qilish orqali o‘zini-o‘zi boshqarish samarali bo‘lishi, eng muhimi, istisnosiz barcha advokatlarga tegishli bo‘lishi uchun, barcha advokatlar advokatlik o‘zini-o‘zi boshqarish organlari yurisdiksiyasi doirasiga kirishi, binobarin, kasbiy korporatsiya tarkibiga kirishlari zarurdir.

**Advokatlar teng huquqliligi tamoyili** – ushbu tamoyilga muvofiq, barcha advokatlar ular tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda tengdirlar. Bu tenglik quyidagilarda aks etadi:

- advokatlik maqomi olinishida barcha nomzodlar bir xil talablar (oliy yuridik ma'lumot, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil mehnat stoji, jumladan stajirovkani belgilangan muddatda advokatlik tuzilmalarida o'tash)ga javob berishi kerak;
- barcha advokatlar teng huquqlar va majburiyatlarga ega;
- barcha advokatlarga nisbatan ularning mustaqilliklarining qonunchilikda ko‘zda tutilgan teng kafolati amalda bo‘ladi;
- advokat, O‘zbekiston Respublikasining qaysi ma'muriy-hududiy birligining adliya boshqarmasi reestriga u haqda ma'lumotlar kiritilganidan qat'i nazar, mamlakatning butun hududida biror-bir qo'shimcha ruxsatlarsiz advokatlik faoliyatini amalga oshirish, ishonch bildiruvchi bilan uning yashash joyi yoki turgan joyidan qat'i nazar kelishuv tuzishi mumkin;
- advokatlik maqomining bu maqom olingan vaqtidan qat'i nazar tengligi kafolatlangan.

**Advokatlik xizmatlarini ko‘rsatish maqsadining** (jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonun bilan himoyalananadigan manfaatlarini himoyalash) foyda olishdan **ustuvorligi** (bu advokatlik faoliyatini tadbirkorlikdan ajratib turadi) **tamoyili** – unga ko‘ra, advokatlik faoliyati tadbirkorlik emas. Bunda advokatlik faoliyati tijoriy emas, ijtimoiy-foydalı xarakterga ega va jamiyatning va uning a'zolarining huquqiy himoyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

**Tamoyillar** – bu umumiy rahbariy qoidalar bo‘lib, ular asosiga u yoki bu faoliyat (jarayon) quriladi. Advokaturaga qo‘llaganda, tamoyillarni tegishli faoliyatni tashkil etilishi va yo‘nalgaligining asoslari sifatida belgilash mumkin. bu asoslar tashkilot va fuqarolik jamiyatining ushbu institutining faoliyatini boshqaruvi qonunchilik mazmunini o‘zida ifodalaydi, advokaturaning davlat tomonidan yetarlicha muhofaza qilinishini va uning faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydi.



### *§ 5. Advokatlik faoliyati tushunchasi, belgilari va turlari*



*Esda tuting!*

**Advokatlik faoliyati** – bu jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan, huquqlar, erkinliklar va manfaatlarni himoya qilish maqsadlarida doimiy professional asosda malakali yuridik xizmat ko'rsatishdir.

Advokatlik faoliyati tushunchasini tahlil qilish bu faoliyatining qator belgilarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Jumladan,

**1) advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam malakali bo'ladi,** chunki u oliy yuridik ma'lumotga, shuningdek yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida ikki yil mehnat stajiga ega, jumladan advokatlik tuzilmasida stajirovkadan

o‘tgan va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Ko‘zda tutiladiki, mazkur shaxs yetarlicha yuqori (malakali) darajada yuridik yordam ko‘rsata oladigan mutaxassis bo‘ladi. Ushbu belgiga ko‘ra advokatlik faoliyati ishonch bildiruvchining qarindoshlari, oliy yuridik ma'lumot to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lmagan, binobarin, mutaxassis bo‘lmagan va zarur malakaga ega bo‘lmagan boshqa shaxslar ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yordamdan farqlanadi. Bundan tashqari, advokatlik faoliyati – bu aynan yuridik yordam bo‘lib, iqtisodiy yoki moliyaviy masalalar bo‘yicha konsultatsiyalarini, tashkiliy, texnik, ma'muriy harakatlarni o‘z ichiga olmaydi.

**2) yuridik yordam doimiy professional asosda ko‘rsatiladi** bu anglatadiki, advokat uchun bu asosiy faoliyat turi, uning “kasbi”. U boshqa pul to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanish (ilmiy, o‘qituvchilik, ijodiy faoliyat bundan mustasno), jumladan ishchi sifatida mehnat munosabatlariga kirishish, shuningdek davlat mansablarini egallash huquqiga ega emas.

**3) yuridik yordam ko‘rsatish sub'ekti faqat advokat bo‘ladi**. Ushbu belgiga ko‘ra, advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam boshqa, yuridik shaxslar, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiysi organlarining yuridik xizmatlari, notariuslar, patent ishonch bildirilganlar, yoki qonun bilan o‘z kasbiy faoliyatini yuritishga maxsus vakolat berilgan, qonunga muvofiq vakolatlarini amalga oshiruvchi boshqa shaxslar ko‘rsatuvchi o‘xhash yordamdan farqlanadi. Advokatlik faoliyatini faqat advokatlik tuzilmasidagi advokat amalga oshirishi mumkin.


**4) yuridik yordam ko‘rsatish maqsadi – jiemoniy va yuridik shaxslar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoyalash**, shuningdek, adolatli sudlovdan foydalanishni ta'minlash. Advokatlik faoliyati tizimli ravishda foyda olishga qaratilgan bo‘lishi mumkin emas, ya’ni tadbirkorlik emas. Advokat oladigan mukofot – bu foyda emas, mehnati (xizmati)ning haqidir.

**5) yuridik yordam advokat va ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi kelishuv asosida ko‘rsatiladi**. Advokat kelishuv tuzmay yuridik yordam ko‘rsatish huquqiga ega empas. Jinoiy sud ishida dastlabki tergov organlari yoki sudning tayinlashi bo‘yicha advokat himoyachi sifatida qatnashishi holatlari bu qoidadan mustasnodir.

Kelishuv fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo‘lib, ishonch bildiruvchi va advokat (advokatlar) o‘rtasida oddiy yozma shaklda, bevosita ishonch bildiruvchiga yoki u belgilagan shaxsga yuridik yordam ko‘rsatish uchun tuziladi.

Kelishuvning salmoqli shartlari quyidagilardir: vakil (vakillar) sifatida topshiriqni bajarishni qabul qilgan advokat (advokatlar), shuningdek, u(lar)ning advokatlik tuzilmasi va advokatlik palatasiga tegishliligi ko‘rsatilishi; topshiriq predmeti; ko‘rsatiladigan yuridik rdam uchun ishonch bilidruvchi tomonidan mukofot to‘lanishi shartlari; topshiriqni bajarish bilan bog‘liq advokat (advokatlar)ning xarajatlarini kompensatsiyalash tartibi va hajmi; topshiriqni qabul qilgan advokat (advokatlar) javobgarligining hajmi va xarakteri.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 5- moddasi advokatlik faoliyatining quyidagi yo‘nalish (tur)larini belgilaydi:



a) huquqiy masalalar bo'yicha konsultatsiya va tushuntirishlar berish, qonunchilik bo'yicha og'zaki va yozma ma'lumotnomalar berish – huquqiy masalalar bo'yicha konsultatsiya va tushuntirishlar berish aholining amaldagi qonunchilik mazmunidan xabardorligini ta'minlaydi. Advokat muayyan huquqiy munosabat mavjudmi yoki axborot olish fuqaroning shunchaki qiziqishi ekanligidan qat'i nazar konsultatsiya va ma'lumotnomalar beradi. Konsultatsiya – bu amaldagi qonunchilikni tushuntirishni, ma'lumotnoma – qonunning u yoki bu qoidalari mazmuni haqidagi axborotni anglatadi.

b) ariza, shikoyat va huquqiy xarakterdagi boshqa hujjatlarni tayyorlash – bu hujjatlarda odatda huquqiy munosabatlarning boshlanishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishi haqidagi iltimos va (yoki) talablar aks etadi.

**Ariza** – bu huquqiy munosabatlarni boshlash haqidagi asoslangan iltimos aks etgan hujjat. Ushbu iltimos aniq, tegishli adresatga yo'naltirilgan va arizachi tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**Shikoyat** – bu yuqori turuvchi tashkilotga yoki yuqori turuvchi mansabdor shaxsga yo‘naltirilgan hujjat bo‘lib, unda shikoyat qilinayotgan organ (mansabdor shaxs)ning qarorini o‘zgartirish yoki bekor qilish, harakati (harakatsizligi)ni taqiqlash yoki noqonuniy deb e’tirof etish so‘raladi.

**Iltimosnoma** – o‘zining yoki o‘zi vakillik qilayotgan shaxsning huquqlarini yanada to‘liqroq amalga oshirish maqsadidagi, biror harakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki qarordan voz kechish haqidagi, tegishli hokimiyat vakolatlariga ega organga yoki mansabdor shaxsga qaratilgan rasmiy iltimos.

v) fuqarolik va ma'muriy huquqbazarlik bo‘yicha ishlarda sud, boshqa davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish. Advokatning vaikl sifatidagi vakolatlari protsessual qonunchilikda belgilab qo‘yilgan.

g) jinoiy ishlar bo‘yicha dastlabki tergovda va sudda jabrlanuvchilar, fuqarolik da'vogarlari, fuqarolik javobgarlarining himoyachilari sifatida qatnashish – advokat jinoiy sud ishida ham ayblov tomonida, ham himoya tomonida qatnashishi mumkin. Bundan tashqari, “Advokatura institutining takomillashuvi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ba’zi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida advokatning jinoiy sud ishidagi qatnashuvining yangicha ko‘rinishi – guvoh advokati sifatidagi qatnashuvi ko‘zda tutilgan.

d) tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko‘rsatish.

Advokat O‘zbekiston qonunchiligidagi taqiqlanmagan boshqa turdag'i yuridik yordam ham ko‘rsatishi mumkin. Bu adokat tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam turlari ro‘yxati yakuniy emasligini angalatadi. Boshqa turdag'i yordamlar advokat tomonidan ular qonunchilikda keltirilganmi-yo‘qligidan qat“i nazar ko‘rsatiladi.

## ***§ 6. Predmetning boshqa yuridik fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi***

Advokatura, uning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi eng muhim ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi organlar va tashkilotlarning butun tizimining tabiiy, organik va majburiy qismi sanaladi.

Barcha yuridik ilm-fanlarni bir nechta nisbatan o‘ziga xos guruhlarga taqsimlash mumkin:

1) umumnazariy va tarixiy ilmlar (davlat va huquq nazariyasi va tarixi, siyosiy va huquqiy ta‘limotlar tarixi, siyosatshunoslik);

2) tarmoq yuridik ilmlari (konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy, mehnat, fuqarolik protsessual, jinoiy-protsessual huquq, ma'muriy sud ishi va sh.k.);

3) davlat organlari faoliyati tuzilmasini, tashkil etilishini, faoliyati tartibini (prokuror nazorati, sud qurilishi) o‘rganuvchi ilmlar;

4) xalqaro huquq o‘rganuvchi ilmlar (xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq, kosmik huquq);

5) amaliy yuridik ilmlar (sud statistikasi, sud tibbiyoti, sud psixiatriyasi, kriminalistika, kriminologiya)<sup>6</sup>.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm va unga muvofiq o‘quv yo‘nalishi ushbu barcha ilmlar va ularga muvofiq keluvchi o‘quv yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

**Davlat va huquq nazariyasi**, yuridik ilm sifatida, davlat va huquqning yuzaga kelishi, rivojlanishi va amalda bo‘lishining eng umumiyligini qonuniyatlarini hamda ular bilan tabiatan bog‘liq ijtimoiy hodisalar va jarayonlar haqidagi bilimlar tizimini tashkil etadi. Aynan davlat va huquq nazariyoti boshqa barcha yuridik ilm va o‘quv yo‘nalishlari, jumladan advokatura to‘g‘risidagi ilm va o‘quv yo‘nalishi uchun bazaviy ilm sanaladi.

Bugungi kunda davlat va huquq nazariyoti ilmi tomonidan ishlab chiqilgan qator konsepsiya va kategoriyalar alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, bu zamonaviy yuridik ilmda mustahkam ildiz otgan *huquqiy davlat* konsepsiyasidir. Huquqiy davlat jamiyatning davlat sifatida tashkil topganligini baholashda etalon vazifasini o‘taydi va, jumladan, barcha davlat va nodavlat tuzilmalarining faoliyatida qonuniylik tamoyilining rioxasi etilishini, ular tomonidan inson huqulari, yuridik shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoyasi ta‘minlanishini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, davlatning asoslanmagan va ortiqcha aralashuvidan himoyalangan individlarning xususiy manfaatlari sohasi sifatidagi *fuqarolik jamiyati* konsepsiysi. Bu konsepsiya asosida advokatura to‘g‘risidagi ilm tomonidan advokaturaning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi huquqiy tabiatini nazariyasi yaratilgan. Aynan advokaturaning davlat organlari tizimiga kirmayligi advokatlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlariga to‘liq javob beradi va uning samaradorligini ta‘minlaydi, bu esa, pirovardida, davlatning o‘ziga foydali bo‘ladi.

**Davlat va huquq tarixi** davlat, huquq, huquqiy vaziyatlar va jarayonlarni, ularning alohida elementlari va tarkibiy qismlarini rivojlanishda o‘rganadi, ularning o‘zgarishlari, bu o‘zgarishlarning sabab va oqibatlariga e’tibor beradi.

U advokatura institutining yuzaga kelishi omillari va sabablarini, jamiyat va davlat rivojlangani sari uning rivojlanishi tarixini, advokatura vazifalari va funksiyalarining o‘zgarishini, muayyan tarixiy davrlardagi advokatlik faoliyatini amalga oshirish xususiyatlardavlat va huquq mavjudligining turli davrlarida advokaturaning fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish instituti sifatidagi rolini o‘rganish imkonini beradi. Tarixga, xususan, nafaqat advokatura, balki butun davlat va huquq tarixiga murojaat qilish advokatura instituti va advokatlik faoliyatining tendensiyalari va kelgusi rivojanish istiqbollarini, ularning mustaqilligini ta‘minlash usullarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

---

<sup>6</sup>Qar.: Vengerov A.B. Teoriya gosudarstva i prava. Ch. 1. Teoriya gosudarstva. M., 1995. S. 8.

**Konstitutsiyaviy huquq** fani, bamisol konstitutsiyaviy huquq O'zbekiston Respublikasi butun huquqiy tizimining asosini tashkil qilganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tizimida hukmronlik qilgani kabi, barcha yuridik ilmlar va o'quv yo'naliishlari, jumladan advokatura to'g'risidagi ilm uchun belgilovchi ahamiyatga ega. Aynan konstitutsiyaviy huquq Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va fuqaro huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini ishlab chiqadi. O'z navbatida, advokatura to'g'risidagi ilm o'z predmeti doirasida konstitutsiyaviy huquq g'oyasini aniqlashtiradi va rivojlantiradi, uni aniq mazmun bilan to'ldiradi.

Advokatura to'g'risidagi ilmning **jinoiy huquq** ilmi bilan chambarchas aloqasi an'anaviy tarzda kuzatiladi.

Jinoiy ish bo'yicha himoyani sifatli amalga oshirishni istovchi advokat jinoiy-huquqiy ilmning barcha asosiy yutuqlari bilan tanish bo'lmos'i lozim. Va aynan advokat kasbiy faoliyat davomida amalda jinoiy huquq ilmi nazariy ishlanmalari samaradorligi tekshiriladigan sub'ektlardan biri sanaladi.

Advokatura to'g'risidagi il va **jinoiy-protsessual huquq** ilming o'zaro ta'siri doirasi juda keng.

Jinoiy protsessual huquq ilmi jinoiy jarayonni, ya'ni qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilayotgan jinoiy ishlarni tekshirish, ko'rib chiqish va sud tomonidan hal etilishiga oid faoliyatni o'rganadi. Bu faoliyatning vazifasi inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibini va jamiyat xavfsizligini, konstitutsiyaviy tuzumni jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishdan iborat.<sup>7</sup> Shuningdek, ushbu ilm mazkur faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilikni, jinoty jarayon rivojlanishi tarixini, jinoiy ishlarni o'rganish, ko'rib chiqish va hal etishdagi xorijiy tajribani, boshqa masalalarni o'rganadi.

Advokatura to'g'risidagi ilm **jinoiy-ijro huquqi** ilmi bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi.

Jinoiy-ijro ilmi jinoiy jazoni ijro etish sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy-pedagogik muammolarning butun kompleksini o'rganadi, turli ko'rinishdagi jazolar bo'yicha sud hukmlarini ijro etishga oid faoliyat jarayonida shakllanuvchi tendensiyalar va qonuniyatlarni aniqlaydi, qonunchilikning bu tarmog'ini va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi<sup>8</sup>.

**Ma'muriy huquq** ilmi, huquq ilmining ijroiya hokimiyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni, ularni qonunchilik bilan tartibga solishni, ushbu sohada huquq me'yorlarini qo'llash amaliyotini va davlat-boshqaruv faoliyatiga taalluqli boshqa masalalarni o'rganuvchi tarmog'i sifatida, advokatura to'g'risidagi ilm bilan ko'plab sohalarda o'zaro aloqada bo'ladi.

Advokat ishonch bildiruvchining manfaatlarini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, faoliyatlarini ma'muriy huquq bilan tartibga solinadigan davlat

<sup>7</sup>Qar.: Ugolovno-protsessualnoe pravo/Pod red. P.A. Lupinskoy. M., 1997. S. 9.

<sup>8</sup>Qar.: Ugolovno-ispolnitelnoe pravo Rossii/Pod red. V.I. Seliverstova. M., 2000. S. 32.

tashkilotlari oldida himoya qilarkan, advokatura to‘g‘risidagi ilm va ma’muriy huquq ilmining umumiy vazifasi fuqarolik jamiyatni instituti sifatidagi advokaturaning va advokatura asoslanuvchi tamoyillardan o‘zga asoslarga tayanib ish ko‘rvuchi davlat organlarining o‘zaro munosabatlari mexanizmini nazariy jihatdan ishlab chiqishdir.

Advokat ishonch bildiruvchining vakili sifatida ma’muriy sud ishida qatnashish huquqiga ega. Shu tariqa, ma’muriy sud ishi, ma’muriy xarakterdagi javobgarlikning amalga oshirilishi ham ikki ilmning umumiy manfaatlari doirasiga kiradi.<sup>9</sup>

**Fuqarolik huquqi** jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga soladi, ya’ni individlarning xususiy huquqiy sohadagi o‘zaro munosabatlarining barcha sohalarini qamrab oladi. Bozor munosabatlari, fuqarolik aylanmasi, tadbirkorlik faoliyati, mualliflik, meros huquqi masalalari – bular fuqarolik huquqtin tartibga soladigan ob’ektlarning bir qismi.

Advokatura institutiga fuqarolar va tashkilotlarga ular tomonidan o‘zlarining xususiy huquqlari va manfaatlarini amalga oshirilishida malakali yuridik yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning xususiy huquqlarini himoya qilish sohasida advokatlik faoliyatini amalga oshirishda advokat fuqarolik huquqini bilibgina qolmay, ilmiy ishlanmalarni ham kuzatib borishi lozim, chunki aynan fuqarolik huquqi ilmi unga sub’ektlarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish xususiyatlari, qonunchilikni qo‘llash amaliyoti, uning talqinlari, huquqdagi bo‘shliqlarni yengib o‘tish haqida to‘liq tasavvur beradi.<sup>10</sup>

**Fuqarolik-protsessual huquq** ilmi, fuqarolik jarayoni va fuqarolik-protsessual huquq muammolari bo‘yicha bilimlarning tizimlashgan to‘plami sifatida, advokatura to‘g‘risidagi ilm bilan yaqin aloqalarga ega.

Fuqarolik protsessual qonunchilik advokatning faoliyatini u fuqarolik sud ishida ishonch bildiruvchining vakili sifatida qatnashganida tartibga soladi; barcha protsessual harakatlarni advokat talablarga to‘liq muvofiq ravishda bajarishi lozim.<sup>11</sup> Advokatura to‘g‘risidagi ilm va fuqarolik-protsessual huquqi ilmi uchun fuqarolik va boshqa huquqbazarlik sabablari, shuningdek sud xatolari sabablari umumiy qiziqishga ega. Bunda amaliyot materiallari, statistika ma'lumotlaridan foydalilaniladi.

**Xo‘jalik (tadbirkorlik) huquqi** ilmi, tegishli uslublarga rioya etilgan holda olingan, professionallar tomonidan tasdiqlangan va tekshirib ko‘rishga layoqatlilik, yaxlitlik va yangi bilimlar yaratishga qodir bilimlar to‘plami sifatida, xo‘jalik qonunchiligini, uni qo‘llash amaliyotini, ularning tarixini, rivojlanish shart-sharoitlarini, huquqiy mexanizmlarning ishlab chiqilmaganligini, xorijiy xo‘jalik huquqi tizimlarini o‘zining predmeti deb olgan.<sup>12</sup>

<sup>9</sup>Alexin A.P., Karmolitskiy A.A., Kozlov YuM. Administrativnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. M., 1996. S. 39.

<sup>10</sup>Qar.: Grajdanskoe pravo/Pod red. S.P. Grishaeva. M., 1998.

<sup>11</sup>Qar.: Grajdanskiy protsess/Pod red. V.A. Musina, N.A. Chechinoy, D.M. Chechota. M., 1999. S. 26.

<sup>12</sup>Qar.: Predprinimatelskoe (xozyaystvennoe) pravo. T. 1/Otv. red. O.M. Oleynik. M., 1999. S. 95-96.

Advokatlik amaliyoti va advokatura to‘g‘risidagi ilm xo‘jalik faoliyatini yuritish jarayonida, tadbirkorlik sohasida huquqlarni himoya qilishning eng samarali usullarini ishlab chiqadi. Sud va nizolarni hal etuvchi boshqa organlarda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari manfaatlarini taqdim etish bilan birga, keyingi paytlarda advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatishning tadbirkorlik sub'ekti va advokat o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosida yuridik shaxsning yoki individual tadbirkorning joriy faoliyatini huquqiy ta'minlash shakli tobora keng yoyilmoqda.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm, shuningdek, *davlat organlari* (prokuror nazorati, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ijroiya ishlab chiqarish va sh.k.) *faoliyatining tuzilishi, tashkil etilishi, faoliyat tartibini o‘rganuvchi ilmlar* bilan ham bog‘liq, bundan tashqari, advokatura to‘g‘risidagi ilm ushbu ilmlar sirasiga kiradi, zero u xarakteriga ko‘ra ommaviy va mazmuniga ko‘ra huquqni muhofaza qilishga oid bo‘lgan advokatlik faoliyatini o‘rganadi.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm uchun bir qator eng muhim muammolarni boshqa huquqiy ilmlar bilan chambarchas bog‘liqlikda hal etish mumkin. bundan muammolarga, jumladan, barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro munosabati mexanizmini ishlab chiqish kiradi. Ular oldida umumiyl maqsad turadi – qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoyalash.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm uchun eng muhim bo‘lgan bir qator muammolarni faqat boshqa huquqiy ilmlar bilan chambarchas bog‘liqlikda hal etish mumkin. Shunday muammolarga, jumladan, barcha huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish kiradi. Ularning oldida umumiyl maqsad turadi – qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini o‘rganuvchi barcha ilmlar uchun umumiyl vazifalar qonun buzilishi sabablarini, jumladan jinoyatchilik sabablarini aniqlash, tahlil qilish va umumlashtirishdan, huquqbazarlik miqdorini kamaytirish vositalari va uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm, shuningdek, *turar joy, oila, meros, mualliflik, mehnat, ekologik, yer, suv huquqi* kabi ilmlar va boshqa tarmoq yuridik ilmlari bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Zero advokat yordami qonunchilikning amalda barcha tarmoqlarida mustahkamlab qo‘yilgan jismoniy va yuridik shaxs huquqlarining buzilishida kerak bo‘lishi mumkin. buzilgan yoki bahslashilayotgan huquqni himoya qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirarkan, advokat u yoki bu tarmoqda erkin harakat qilishi, tegishli sohada qonun qo‘llanilishi amaliyotini bilishi lozim.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm bilan *xalqaro huquqni o‘rganuvchi ilmlar* (xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq) o‘rtasida ham bog‘liqlik mavjud.

Advokatura to‘g‘risidagi ilm *amaliy yuridik ilmlar*: sud tibbiyoti, kriminalistika, kriminologiya bilan ham bog‘liq.

Shu tariqa, advokatura to‘g‘risidagi ilm va o‘quv yo‘nalishi amaldagi barcha yuridik ilmlar va o‘quv yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqidir. Lekin uni

ommaviy va xususiy huquq – jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa huquqlarga oid yuridik ilmlarning bir qismi sifatida qabul qilish noto'g'ri bo'ladi. Gap shundaki, muayyan tarmoqlararo, tarmoq va maxsus yuridik ilmlar, hatto ular advokaturaga va advokatlik faoliyatiga taalluqli masalalarni bevosita o'rganganida ham, ularni o'z predmetidan kelib chiqib o'rganadi va advokatura institutining o'ziga xosligini va advokatlik faoliyatining xos xarakterini e'tiborsiz qoldiradi.

Advokatura to'g'risidagi ilm to'laqonli mustaqil yuridik ilm bo'lib, huquqni muhofaza qilish faoliyatini o'rganuvchi ilmlar doirasiga kiradi. Ilm va o'quv yo'nalishi sifatida u o'z predmetiga va o'zining ilmiy uslublariga ega va boshqa, tarmoqlararo, tarmoq va amaliy xarakterdagi yuridik ilmlar hamda o'quv yo'nalishlari bilan o'zaro aloqa va o'zaro munosabatlarga ega.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. "Advokatura" fani predmeti nima?
2. "Advokatura" fanining umumiyligi tavsifini bering?
3. "Advokatura" fanining yuridik kadrlar tayyorlashdagi dolzarbliji nimada?

### **1- vaziyat.**

Tushunchani to'g'rilang, advokatlik faoliyati tamoyillarini ochib bering:

Advokatlik faoliyati advokatlik maqomini olgan shaxslar tomonidan ishonch bildiruvchilarga, ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoyalash maqsadida ko'rsatiluvchi faoliyatdir.

## **II BOB ADVOKATURA – FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTI SIFATIDA**

*Fuqarolik jamiyati va advokatura. Advokatura instituti tabiatining dualistik xarakteri. Advokaturaning maxsus huquqga layoqatliligi. Advokatura va yuridik yordam. Advokatura va mustaqillik.*

### **§ 1. *Fuqarolik jamiyati va advokatura***

Advokatlar doimo o'zlarini fuqarolik jamiyati tuzilmalari safida ko'rib kelganlar va bunda insonparvarlik hodisasi sifatida huquq yo'lida va fuqarolik jamiyati yo'lida xizmat qilishni advokaturaning asosiy, majozan aytganda, strategik vazifasi ekanligini nazarda tutadilar.

Fuqarolik jamiyati konsepsiysi uzoq evolyusiyani boshidan kechirdi. Bu atama huquqshunoslik lug'atiga qadim gi davrdayoq, Arastu tomonidan kiritilgan, u, insonni ijtimoiy mavjudot deb sanab, fuqarolik jamiyatida o'zaro siyosiy

tuzilmaning muayyan shakli bilan bog‘langan erkin va teng fuqarolar hamjamiyatini ko‘rgan.

XVII asrda ingliz faylasufi va yuristi Tomas Gobbs “insonlarning tabiiy holati” tushunchasini kiritdi, uni ba’zilar fuqarolik jamiyatni tushunchasiga tenglashtiradilar, bu bilan ushbu tushunchani qo‘pollashtiradilar. Aslida T. Gobbs “tabiiy holat” deganda davlat tuzilmasi va aralashuvidan tashqaridagi hayotni nazarda tutgan va insonning tabiiy huquqlari va erkinliklari anarxiyaga olib borishidan ogohlantirgan, u holatda har kim foyda haqidagi o‘zining egoistik tushunchasiga ko‘ra harakat qiladi va bu oxir-oqibatda jamiyatni halokatga boshlaydi.

Gobbs o‘zining mashhur “Levifian” asarida (1651 y.) bunday istiqbolga yo‘l qo‘ymaslik yo‘lini ko‘rsatadi: “O‘zingga nisbatan ravo ko‘rmaganingni boshqalarga nisbatan qilma”. Bu “adolatning oltin qoidasi”ni u fuqarolik qonunlar chop etish va odamlarni bo‘ysunishga majbur qiluvchi davlat hokimiyatini mustahkamlash yo‘li bilan amalga oshirishni ko‘zda tutgandi.

Davlatni odamlarni har qanday kulfatlardan, ichki tartibsizliklar va tashqi hujumlardan asrovchi afsonaviy dengiz maxluqi – Levifian bilan taqqoslab, Gobbs tabiatdagi “hammaga qarshi hamma urushi” holatiga chek qo‘yish uchun odamlar o‘rtasidagi “ijtimoiy shartnoma” g‘oyasini taklif etdi.<sup>13</sup>

Afsuski, afsonaviy Levifian emas, voqyeiy davlatning o‘zi odamlarga xavf va tahdid tug‘dira boshladi, “ijtimoiy shartnoma”ni esa endi davlatga, uning cheksiz ishtahasiga va o‘z fuqarolarining tabiiy huquqlariga chang solishiga qarshi turish uchun tuzishga to‘g‘ri keldi. Fuqarolik jamiyatida mana shunday “ijtimoiy shartnoma” mavjud va bu jamiyat yetarlicha voyaga yetgan bo‘lsa, davlat odamlar uchun ishlaydi, ularga xizmat qiladi. Va aksincha, fuqarolik jamiyatni bo‘lmasa yoki yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, davlat o‘z huquqlarini suiiste'mol qiladi, xalqni ezadi, uning huquq va manfaatlarini hurmat qilmaydi.

Har bir xalqqa unga nisbatan salbiy munosabat davri tanish, buning sababi qisman advokaturaning nomukammal bo‘lganligida, qisman jamiyatning sud shakllariga ko‘nikmaganligida ko‘rinadi. Chunonchi, Buyuk Fridrix advokatlarni “zuluklar va xavfli qumursqalar” deb atagan va 1870 yilda advokaturani butkul yo‘qotib yuborish haqida farmon chiqargan, advokatura Germaniyada faqat 1878 yil 3 iyuldaggi qonun bilan qayta tiklangan. Napoleon I Kambaseresga yozgandi: “Advokatning hukumatga qarshi ishlatayotgan tilini kesib tashlash imkoniyati bo‘lishini istayman”. Lekin totalitar (imperiya) fikr yuritishdan ozod mamlakatlarda advokatura doimo yuqori mavqyeni egallagan. Asta-sekin salbiy sunoabat advokatura zimmasidagi o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyatni anglash va uning zaruriyatiga aminlik bilan almashdi.<sup>14</sup>

*Advokatura, huquqiy institut sifatida, davlatga mansub emas.* U majburlash kuchiga ega emas, lekin faqat ma’naviy avtoritet, fikr yuritish kuchi, individlar,

<sup>13</sup>Qar.: Azarkin N. "Blago naroda - vlysshiy zakon' / Yuridicheskiy vestnik. -2001.-№5.

<sup>14</sup>A.T.Allamuratov. Advokatura v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie. -T.: Izdatelstvo TGYuI, 2006. -S.22.

jamoalar, tashkilotlar va davlatning o‘zining majburiy ijtimoiy ahamiyatga ega xatti-harakati haqidagi bilimlar kuchiga ega.

Har bir individ kerakli xatti-harakat haqida o‘z tasavvuriga ega. Biroq, bunda u o‘zining tasavvurlari boshqa odamlarning tasavvurlari bilan kelishilgan bo‘lishiga ehtiyoj sezadi, aks holda u doimiy mojarolarga, atrofdagi jamiyat bilan permanent urushga mahkumdir. Buning uchun u faqat advokatga murojaat qila oladi va advokat unga o‘z tasavvurlarini hammabop tarzda ifodalashgagina yordam bermay, ularning ijtimoiy tasavvurga muvofiqligini ham aniqlaydi.

Shaxslar o‘rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi, zero birovning egoizmi boshqaning egoizmiga halaqt beradi. Birinchidan, tasodifiy mojarolar, noxush holatlarning oldini olish haqida qayg‘urish zaruriyati, ikkinchidan, shaxsiy manfaatga jamiyatning e’tiborini qaratish zaruriyati tug‘iladi. Adolatli sudlov noxush holatlarning oldini olishga qodir emas, chunki u faqat bahs ro‘y bergach, mojaro natijasiga nisbatan munosabat bildiradi. Shu sababli ushbu vazifa xususi munosabatlarning ichki kelishuvi orqali, bevosita jamiyatning o‘zi tomonidan, uning maxsus institutlari vositasida hal etilishi lozim. Aks holda, davlatning politsiya kuchlari yuzaga kelayotgan muammolarning asosini bartaraf qilishga kirishadilar, mojarolarni o‘z uslublari – qo‘rqtish, oldini olish uchun jazolash va shu kabilar, hatto mojaro tomonlarini bartaraf qilishgacha bo‘lgan usullar bilan oldini oladilar.

Fuarolik jamiyatining eng to‘liq konsepsiyasini Gegel yaratdi. Chunonchi, fuqarolik jamiyati va siyosiy davlatni bir-biridan farqlab, Gegel fuqarolik jamiyati deganda amalda burjuaziya jamiyatini ko‘zda tutgan. “Fuqarolik jamiyati, aslida, o‘z g‘oyalarida fuqarolarning huquqlarini ifodalagan zamonaviy dunyodagina yaratilgan”.<sup>15</sup>

Jamiyat zarur hollarda advokatlar yordamidan qanchalik faolroq foydalansa, politsiya yordamiga shunchalik kamroq muhtoj bo‘ladi.

**Fuqarolik jamiyati** – alohida olingen shaxsning o‘ziga xos, xususiy maqsadlari va manfaatlarining amalga oshishi sohasidir.

Huquq rivojlanishi nuqtai nazaridan, bu zaruriy bosqich, chunki bu yerda xos va umumning o‘zaro aloqasi va o‘zaro shartliligi aks etadi. Fuqarolik jamiyatining qonunchilik, sud va politsiya tomonidan qo‘riqlanadigan oliy manfaatlari, huquq rivojlanishi mantig‘iga ko‘ra, bu sohadan tashqariga – davlat sohasiga yetaklaydi.

Har bir fuqaroning o‘z farovonligiga aminligi jamiyatdagi advokaturaning tashkillashtirilganligiga, mustaqilligiga va huquqiy himoyalanganligiga proporsionaldir.

<sup>15</sup>Qar.: Azarkin N. "Blago naroda - vlysshiy zakon" / Yuridicheskiy vestnik. -2001.-№5.

“Advokatura”, “fuqarolik jamiyati” va “davlat” tushunchalari o‘zaro bog‘liq va bir-birini aniqlab keluvchi tushunchalardir.

Hodisa sifatida, advokaturaning asosiy burchi butun jamiyatga va uning a’zolariga fuqaro va yuridik shaxsning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish yo‘lida ijtimoiy ahamiyatga molik yuridik xizmatlar ko‘rsatishdan iborat.

Advokatura qonun ustuvorligini va o‘z fuqarolari hamda uyushmalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini hurmat qilishni e’tirof etuvchi har qanday davlatning eng muhim huquqiy instituti sanaladi.

**Advokatura** – demokratik huquqiy institut bo‘lib, professional asosda har kimning malakali yuridik yordam olishdek konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash uning vazifasidir. Advokaturaning ahamiyati inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash, jamiyatda konstitutsiyaviy qonuniylik rejimini mustahkamlashda aks etadi.

“Davlat”, “fuqarolik jamiyati” va “advokatura” institutlarini bog‘lovchi bo‘g‘in – bu huquq, ya’ni qonundir, jumladan bu “Advokatura to‘g‘risida”gi, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi qonunlardir.

Advokatura faoliyati ommaviy-huquqiy xarakterga ega, u sud – adolatli sudlovnii amalga oshiruvchi davlat organi bilan bog‘liq, bu esa advokatura va davlat organlarining o‘zaro munosabatlarini uning mustaqilligi, korporativligi va o‘zini-o‘zi boshqarishi tamoyillarini inobatga olgan holda aniq qonuniy tartibga solishni talab qiladi. Shubhasiz, erkin va mustaqil advokaturaning mavjudligi inson huquqlari va erkinliklarining eng muhim kafolati sanaladi. O‘z shakllanishida va rivojlanishida qiyin yo‘lni kechib o‘tib, advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlovchi qator qonunchilik hujjaligiga qaramay, bu institut hali ham isloh qilishga muhtoj, bu jamiyatning erkin va mustaqil advokaturaga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liqdir.

## § 2. *Advokatura instituti tabiatining dualistik xarakteri*

Advokatura instituti yuridik tabiatini haqidagi masala uning butun tarixi davomida dolzarb bo‘lib keldi. Uning javobi advokaturaning davlat hokimiyati organlari tizimidagi va jamoatchilik tuzilmalar sirasidagi o‘rnini belgilaydi. 1996 yilda “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan, bu masalalarni hal etishga tugal oydinlik kiritilmadi. Advokatura va davlat hokimiyati o‘rtasidagi

sheriklik munosabatlari haqidagi masalaning qo‘yilishi nazariyot doirasida qolmoqda va qonunchilik amaliyotida yetarlicha aniq ko‘rsatib berilmagan.

Ma'lumki, XIX asr ikkinchi yarmidagi huquqiy tafakkur bu masalada progressiv mavqyega ega edi, u advokatni jamoat arbobi sifatida, advokaturani “ommaviy huquq instituti” sifatida ko‘rardi. Bu tavsiflarda advokaturaning ommaviy-huquqiy mohiyati a’lo darajada aks etadi. Ta’kidlanadiki, advokatlik korporatsiyasi, boshqa jamoat birlashmalaridan farqli ravishda, o‘z a’zolarining manfaatlarini himoya qilish maqsadiga intilibgina qolmay, ommaviy-huquqi funksiyalarni ham bajaradi, ulardan asosiysi fuqaroning yuridik yordam va sud himoyasi huquqini amalga oshirishni ta’minlashdir.<sup>16</sup>

Advokatura davlat tashkiloti emas, chunki u davlat ahamiyatiga molik funksiyalarni ham, xususiy manfaatlarni amalga oshiruvchi funksiyalarni ham bajaradi. Birlashuvning ko‘ngilli ekanligi belgisi advokatura davlat tashkiloti emasligi va bo‘la olmasligining isboti bo‘ladi. Advokatlar palatasiga a’zolik bo‘yicha huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga yuridik asos ikki tomonlama hujjat – shaxsning Palataga kirganligi haqida arizasi, uning malaka imtihonini topshirishi, uning qabul qilinishi to‘g‘risidagi qaror sanaladi.

Davlat muassasalari, korxonalari va tashkilotlari personali esa, mehnat shartnomasi asosida butlanadi. Davlat tashkilotlari, qoidaga ko‘ra, davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Advokatura esa, asosan advokatlar ajratmalaridan shakllanadigan o‘zining mablag‘lari evaziga faoliyat yuritadi. Davlat tashkilotlari ishchi-xizmatchilari davlatdan ish haqi oladilar. Advokatlar mehnati to‘lovi esa, mijozlardan, yuridik yordam ko‘rsatilgani uchun gonorar olish ko‘rinishida undiriladi.

Shu bilan birga, advokaturaga yuklatilgan vazifalar jamiyatning Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan jamiyatning ommaviy manfaatini aks ettiradi. Konstitutsiya fuqarolarning himoya va har bir ehtiyojmandning yuridik yordam olishi huquqi kafolatlangan. Jamoat tashkiloti – bu muayyan doiradagi shaxslarning o‘ziga xos manfaatlarini himoya qilish uchun birlashmadir. Advokatlik tuzilmalari, o‘z navbatida, adolatli sudlovni amalga oshirish sohasida davlat ahamiyatiga molik funksiyani bajaradilar, u bevosita uyushma a’zolari manfaatlarini himoya qilishga emas, advokatlar ko‘rsatadigan yordamga muhtoj bo‘lgan cheklanmagan darajadagi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlariga tegishli bo‘ladi. Bundan tashqari, advokatlik tuzilmalari o‘z saflariga yangi a’zolarni qabul qiladilar, bu adolatli sudlovni amalga oshirishga qatnashishni anglatadi, stajirovkalarni tashkil qiladilar, shuningdek professional faoliyat ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Bu funksiyalar jamoat birlashmalari uchun xos emas.

Advokatura xususiy korporativ jamoadan shunisi bilan ajralib turadiki, uning maqsadlari xususiy manfaatga asoslanmaydi, holbuki korporativlik elementlari unda ham mavjud bo‘ladi. Intizomiy ish ko‘rilishi natijalari bo‘yicha Advokatlar

<sup>16</sup> Qur.: Boykov A. D. Advokatura i advokaty. M.: Yurlitinform, 2006. S. 112 - 130; Mirzoev G. B.

Pravooxranitelnaya deyatelnost gosudarstva i voprosy ob‘chestvennogo kontrolya. M.: Yurlitinform, 2007. S. 63 - 82.

palatasi Boshqaruvi qabul qiladigan qarorlar ommaviylik elementiga ega, chunki faqat ishi ko'rileyotgan advokatning emas, balki unga ishonch bildiruvchilar manfaatlariga ham taalluqli bo'ladi, bunga advokatlik maqomi bekor qilinishi holatini misol qilib keltirish mumkin. Jamoaviy korporativ jamoaning xususiyidan farqiga ham e'tibor berish mumkin. Bu farq ular o'z oldilariga qo'ygan maqsadlarda ko'rindi. Advokaturaning maqsadi – bu ishonch bildiruvchilarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek ularning adolatli sudlovdan foydalanishlarini ta'minlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir quo'lga olingan, qamoq ostida saqlanayotgan yoki jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga advokat (himoyachi) yordamini ajratadi. Bu ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlar bo'lib, ular muayyan ijtimoiy guruhga emas, butun jamiyatga yo'naltirilgandir.

Shu tariqa, aytish mumkinki, advokatura davlat hokimiyatining amalga oshirilishi vositasi bo'lmish davlat hokimiyati va boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasa-da, baribir, advokatura ommaviy hokimiyat elementlariga egadir.

Qonun mazmuni advokatura qonun chiqaruvchi tomonidan o'ziga xos ommaviy-huquqiy institut sifatida ko'rilihiga shubha qoldirmaydi. Bunday yondashuv o'zini to'liq oqlaydi, chunki huquqiy davlatdag'i advokaturaning mohiyati, tabiat va vazifasiga muvofiq keladi. Advokaturaning ommaviyligi uning funksiyalari va vazifalari bilan izohlanadi, ularda advokaturaning burch-vazifalari – fuqarolar va tashkilotlar huquqlari, erkinliklarini himoya qilish aks etadi, bu esa faqat yuridik me'yorlar va ko'rsatmalar e'tirof etadigan doiradagina mumkindir.

Yuridik yordam ko'rsatishda huquqiy makondan chiqib ketish advokaturaning o'z ommaviy-huquqiy maqomini yo'qotishini anglatgan bo'lardi. Umuman olganda esa, Qonun tahlili advokatura huquqni muhofaza qilish faoliyatining to'laqonli ishtirokchisiga aylanmoqda, shu bilan birga fuqarolik jamiyatni instituti maqomini ham saqlab qolmoqda. Qonun advokatning barcha asosiy huquqlari, majburiyatlarini, uning faoliyatining mustaqilligini, advokatlik o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini, advokatlik tuzilmalarini mustahkamlab qo'yadi, ya'ni advokatura instituti mavjud bo'lishi, jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuni manfaatlarini himoyalash maqsadida malakali yuridik yordam taqim etish bo'yicha vazifalarini bajarishi uchun huquqiy asosni ta'minlaydi.

### **§ 3. *Advokaturaning maxsus huquqiy layoqatliligi. Advokatura va yuridik yordam***

Avvalda qayd etilganidek, advokatura institutini uning dualistik xarakteri ajratib turadi. Bu qonunchilikning aksariyat jinoiy ishlarda advokatning ishtiroki majburiyligini talab qilishi bilan ham izohlanadi. Bu advokatura sud ishining, demakki, davlat hokimiyati mexanizmining uzviy elementi ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, advokatura davlat hokimiyati sifatida sud hokimiyati organlari

tizimiga kiritilmagan, advokatlik birlashmalarining sud, prokuratura, tergov va surishtiruv organlari bilan munosabatlari gorizonatl tamoyil asosida quriladi.

O‘z navbatida, adolatli sudlovni amalga oshirishda qatnashish uchun advokatlarga alohida huquq layoqati berilgan, u “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligining tegishli me’yorlari bilan tartibga solinadi. Bu advokaturani maxsus huquq layoqatiga ega, uning a’zolarining huquqlari va majburiyatlari qonun chiqaruvchi tomonidan maxsus qonun asosida belgilanadigan tashkilot sifatida ko‘rish mumkin, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Advokaturaning yuridik yordam ko‘rsatuvchi sub'ekt sifatidagi maqomini bevosita “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni mustahkamlaydi. Uning 1- moddasida advokaturaning vazifasi belgilab berilgan – “Advokatura, Konstitutsiyaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet el fuqarolariga, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi”. Boshqacha qilib aytganda, advokatura oldiga barcha jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalashga, adolatli sudlovni amalga oshirishga, qonuniylikka rioya qilish va uni mustahkamlash, fuqarolarni qonunlarni aniq va so‘zsiz bajarish, boshqa shaxslarning huquqlari, obro‘sni va qadr-qimmatiga hurmat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashish vazifasi qo‘yilgan.

“Yuridik yordam ko‘rsatilishida ommaviy va xususiy manfaatlarning” uyg‘unligi “va advokatlik faoliyati uchun tashkiliy sharoitlarning yaratilishi advokaturaning aniq tashkiliy qurilmaga ega mustaqil institut sifatidayuzaga kelishining omillaridan biri bo‘ldi”:

- ✓ yuridik yordam, advokatlik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramay, advokatura uchun birlamchi asosiy belgi bo‘lmaydi;
- ✓ yuridik yordamni ko‘rsatish funksiyasini amalga oshirish advokaturaning va alohida olingan advokatning faoliyati tabiatini va mohiyatini aniqlash uchun yetarli bo‘lmaydi;
- ✓ advokatlik hamjamiyati a’zosi bo‘lmish advokat tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam – bu ushbu yordamga muhtoj insonning taqdiriga butun jamiyatning hamdardligi namoyishi bo‘ladi;
- ✓ davlat va jamiyat bunday mustaqil yordamning mavjudligidan manfaatdordir, u ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)ning individual (tabiiyki, qonuniy) manfaatlari hamda advokatning ruhiy va irodaviy uyg‘unligi bilan xarakterlanadi;
- ✓ advokaturaning mustahkam ichki aloqalarga va axloqiy tamoyillarga ega, professional yuridik yordam ko‘rsatishni ta‘minlovchi korporatsiya sifatidagi tabiatni belgilashda tashkiliy maqom birlamchi va asosiy ahamiyatga ega.

Advokaturaga munosabat O‘zbekistonda ham asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan quyidagilar aytilganligini qayd etib o‘tish lozim: “Odamlar advokatlarning

xizmatlaridan, maslahatlaridan va tkliflaridan faqat sud jarayonlarida emas, balki kundalik hayotda ham foydalana olishlari zarur”.<sup>17</sup> Bundan tashqari, yana ta'kidlaganlarki: “tadbirkorlik masalalariga ixtisoslashgan yuqori malakali advokatlarning yetishmayotganligi kuchli sezilmoqda”.<sup>18</sup>

#### **§4. Advokatura va mustaqillik**

Advokatura kasbiy hamjamiyat bo‘lib, **mustaqillik, o‘zini-o‘zi boshqarish va korporativlik** tamoyillari asosida ish yuritadi va o‘z faoliyatining bu tamoyillarini har tomonlama himoya qiladi.

*Korporativlik*, o‘zining mustaqilligida va daxlsizligida davlatdan va hatto ishonch bildiruvchi fuqarolardan iloji boricha chetlanish va istalgan turdag'i javobgarlikka tortilishga qarshi o‘zi uchun maksimal kafolatni ta'minlash advokatura instituti uchun xarakterli bo‘lib, Advokatlik etikasi qoidalarida, shuningdek advokatlik faoliyati va advokatura haqidagi qonunchilikning ba’zi me’yorlarida o‘z aksini topadi.

*Mustaqillik* tamoyili advokaturaning davlat va boshqa organlarga, ularning mansabdar shaxslariga, siyosiy partiyalarga, fuqarolik jamiyatining boshqa jamoatchilik tuzilmalariga bo‘ysunmasligida ifodalanadi. Advokatura tomonidan qonun talablariga rioya etilishiga oid hokimiyatning qonuniy talablari va yuqori turuvchi advokatlik tuzilmalarining o‘z hujjatlarida bayon etgan talablari bundan mustasno.

Advokatura yagona hamjamiyatga birlashgan advokatlarning majmui sifatida, keyinchalik hamjamiyatning barcha ishtirokchilari ko‘ngilli ravishda bo‘ysunadigan ifki tuzilma va faoliyat tartibi qoidalarini mustaqil ishlab chiqadi.

Qonunchilikka muvofiq amalga oshirilayotgan advokatlik faoliyatiga qanday ko‘rinishda bo‘lmisin, aralashuv yoki bu faoliyatga to‘sinqinlik qilish taqiqlanadi.

Advokatlik faoliyatiga aralashuv o‘zboshimchalik bilan, advokat va unga ishonch bildiruvchining roziligesiz yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlarda qatnashishni anglatadi. Shaxsning mazkur faoliyatni ushlab turuvchi yoki cheklovchi biror-bir halaqitlar yaratishga qaratilgan harakatlari (harakatsizligi) advokatlik faoliyatiga to‘sinqinlik deb tan olinadi.

Advokatlik faoliyatiga nohaq aralashuv yoki mazkur faoliyatga to‘sinqinlik qilishni advokat tomonidan tegishli shaxsning harakati yoki harakatsizligi ustidan sud yoki ma’muriy tartibda shikoyat qilishi yordamida bartaraf etish mumkin.

**Mustaqillik** – ushbu tamoyilga muvofiq, advokatlik tuzilmalarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi, shuningdek advokatning kasbiy faoliyati advokatura tizimiga kirmaydigan organlar va mansabdar shaxslarning fikrlari, qarorlari yoki

<sup>17</sup> I.Karimov. Adolat – qonun ustuvorligida. ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi VI sessiyasidagi ma’ruza. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. J.10. - T.: O‘zbekiston, 2002. - S.50.

<sup>18</sup> I.Karimov. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Vazirlar Mahkamasining 2005 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2006 yilga iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvorliklariga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruza. // Xalq so‘zi, 11 fevral 2006 yil.

harakatlariga bog‘liq emas. Bunday mustaqillik jamiyatning muhim tarkibiy qismi bo‘lmish advokatura institutining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

### Advokatning mustaqilligi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

Qonun tomonidan belgilangan uni advokatlik faoliyatiga ruxsat berish, to‘xtatib turish va bu faoliyatni to‘xtatish tartibi bilan;

Advokatlik sirini fosh etishni talab etishni taqiqlash bilan;

Advokatning daxlsizligi bilan;

Advokat yuritayotgan ishga aralashuv yoki advokat daxlsizligini buzish uchun javobgarlik bilan;

unga davlat tomonidan advokatlik faoliyati va ijtimoiy himoya kafolati taqdim etilishi bilan

Shuni qayd etish joizki, advokat mustaqilligini ta'minlashning shartlaridan biri – bu uning daxlsizligidir, bu esa “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida” “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6- moddasida aks etgan. Advokatning **daxlsizligi (immuniteti)** quyidagi jihatlarda aks etadi:

1) Advokatga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘ashi mumkin bo‘lgan mansabdor shaxslar ro‘yxatining qonunda ko‘rsatilishi. Chunonchi, advokatga nisbatan jinoiy ish O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. qonunda ushbu me'yorning belgilanishi advokatga o‘zining kasbiy faoliyatini bajarayotganida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudya tomonidan bosim o‘tkazilishining oldini oladi va advokat tomonidan ishonch biliruvchining manfaatlarini qonuniy usullar va uslublar bilan qat’iy himoya qilinishini ta'minlaydi.

2) Qonunda advokatning turar joyi, xizmat xonasi, u foydalanadigan transport yoki aloqa vositasining, yozishmalari, advokatga tegishli ashyolar va hujjatlarning daxlsizligining mustahkamlab qo‘yilishi. Bu daxlsizlik faqat jiddiy

asoslari bo‘lgandagina va yuqorida keltirilgan vakolatli shaxslarning ruxsatlari bilangina cheklanishi mumkin.

3) Qonunda advokatning huquqiy mavqyeiga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror tomonidan arznama taqdim qilinishi, shuningdek sudning alohida ajrimi chiqarilishining taqiqlanishi, bu quyidagi maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan:

- advokatning mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan qonun me'yorlari uning mustaqilligini kafolatlaydi, binobarin, yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yordam ko‘rsatish maqsadida erkin harakat qilish imkonini yaratadi;

- o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishda advokat, u himoya qilayotgan shaxs tomonidan davlatga qarshi og‘ir jinoyatlar qilgani yoki shaxsga nisbatan o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganidan qat’iy nazar, unga ishon bildirgan shaxsning manfaatlarini qonuniy uslublar bilan vijdonan himoya qilishi lozim;

- ishon bildiruvchini himoya qilishga kirishishdan oldin, advokat u bilan kelishgan holda himoya mavqyeini aniqlab oladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Davlat va advokatura institutining o‘zaro ta'siri mexanizmlari.
2. Advokaturaning davlatdan mustaqilligi – sud jarayonidagi tomonlarning asosiy sharti sifatida.

## **III BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKAT FAOLIYATINING TAShKILIY-HUQUQIY ASOSLARI**

*O‘zbekiston Respublikasida advokatura instituti rivojlanishi tarixi. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik. Malaka komissiyalari va advokatning intizomiy javobgarligi. Advokatlik maqomining qo‘lga kiritilishi, litsenziya berilishi, uning bekor qilinishi uchun asoslari va adqokatlik faoliyati kafolatlari. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari va advokatlarning kasbiy birlashmalari. Advokatlik faoliyati va uzlucksiz yuridik ta‘lim. Advokatlik faoliyati standartlari. Advokatlik faoliyatini soliqqa tortish.*

**§ 1. O‘zbekiston Respublikasida advokatura instituti rivojlanishi tarixi.  
O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik.**

Advokatura asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan va eng qadimgi protsessual institutlar sirasiga kiradi. Sudda tomonlar vakillarining qatnashishi g‘oyasi asta-sekin tarixiy jarayon yo‘li bilan rivojlangan. Sudda vakillik – jarayonda bir shaxsning boshqasi bilan almashtirilishi bo‘lib, unda suddagi vakil faoliyatining barcha oqibatlari bevosita vakolat beruvchi zimmasiga yuklanadi.

Vakillikning dastlabki g‘oyalari avvalo ikkita institut – oilaviy vakillik va yuridik shaxslar, davlatlar vakilligini nazarda tutgan. O‘rta asrlarda qarindoshlik vakilligi slavyan va nemis xalqlarida keng rivojlandi. Bolalar, aka-ukalar, jiyanlar va hatto qo‘snilar va do‘sstar – mana shu shaxslar odatda vakillar sifatida qatnashishgan.

Boshqa tomondan, sudga shaxsan tashrif buyurish haqidagi qadimiyligi qat’iy qoidani yuridik shaxslarga nisbatan bajarib bo‘lmashdi, chunki ularning bevosita sud oldida javob berishlarining iloji yo‘q edi. Qadimdayoq, hyech qanday xususiy shaxslar sudda qarindoshlari yoki qondoshlik jihatidan tashqari, biror vakilga ega bo‘limgan paytlarida ham, ular vakillarga murojaat qilish huquqididan foydalanganlar. O‘rta asrlarda, masalan, cherkovlar mana shunday huquqdan foydalanishgan – ularning suddagi vakillari dastlabki paytlarda rahbar ruhoniylar bo‘lishgan bo‘lsa, keyinchalik qonunlarga tushunuvchi ruhnoiylar ichidan olingan begona shaxslar ham vakillik qilishgan.

“Advokat” so‘zi lotin yozuvidan olingan va ikki xil ma’noga ega:

- a) sud ishlari bo‘yicha ishonchli vakil, suddagi himoyachi;
- b) nimaningdir yoki kimningdir himoyasi uchun og‘zaki yoki yozma ravishda chiquvchi<sup>19</sup>.

Rus tilida ham bu so‘z ikki ma’noga ega.

Birinchidan, bu so‘z bilan sudda boshqa shaxslarning jarayonlarini yuritishga oid faoliyat turi, kasbi ifodalanadi;

ikkinchidan, advokatura deb qadimda advokatlarning silsilasi, ya’ni o‘zini ushbu kasbga bag‘ishlagan shaxslar guruhi nomlangan.<sup>20</sup>

XIX asrda advokatura deganda tor ma’noda huquqni himoya qilish tushunilgan, keng ma’noda esa – huquqni himoya qilish va sudda vakillik qilish nazarda tutilgan. Huquqni himoya qilish deganda muhtojlarga qonunni maxsus o‘rganuvchi insonlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilishi tushuniladi.

Huquqni himoya qilish va sudda vakillik turlicha ehtiyojlar asosida yuzaga kelgan va ularning faoliyat sohasi bir-biriga muvofiq kelavermagan. Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida advokatura va sudda vakillik ikkita turlicha institut sifatida mustaqil rivojlangan. G‘arbiy yevropada huquqni himoya qiluvchilar advokat nomiga ega bo‘ldilar.

Eng qadimiyligi yuridik institut – advokaturaning O‘zbekistonda rivojlanishi, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bo‘lgani kabi, oilaviy vakillikdan boshlangan, bunda oila boshlig‘i sud oldida oilaning har bir a’zosi manfaatlarini himoya qilgan. Bunda faqat qondoshlari emas, oilaning boshqa a’zolarini ham, shuningdek oila

<sup>19</sup> Boykov A.D. Kapinus N.I. Advokatura Rossii: Uchebnoe posobie.- M.:IMiP, 2000. - S.138.

<sup>20</sup> A.T.Allamuratov. Advokatura v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie. -T.: Izdatelstvo TGYuI, 2006. -S.11.

boshlig‘idan himoya va rahnamolik so‘ragan boshqa shaxslarga ham vakillik qilgan.

O‘zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin.

- Birinchi bosqich – yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquqi bilimdonlari sifatida)
- Ikkinci bosqich – O‘zbekistonda advokatura instituti yuzaga kelishi
- Uchinchi bosqich – advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish bosqichi
- To‘rtinchi bosqich – mustaqil O‘zbekistonda advokatura institutini isloh qilish bosqichi
- Beshinchi bosqich – advokatura institutini yanada isloh qilish bosqichi.

Avvalambor, nohaqlikdan himoya qilish vaadolat uchun kurash har bir insonning burchi sanaladi. Haqiqat va huquqiy ma'rifikatga intilish mana shu bilan izohlanadi. Ko‘plab Markaziy osiyolik olimlar – Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Moturudiy, al-Buxoriy, Navoiy, Ulug‘bek va boshqalar huquqshunoslik (fiqh)ni o‘rganganlar va qonun (shariat) talablariga rioya qilganlar. Shu bilan birga, ular boshqa insonlarga qonunni behurmat qilishning katta zarar ekanligini tushuntirganlar.

O‘rta asrlar qohinlar sudlari qoshida maxsus xizmatchilar, musulmon huquqi bilimdonlari – muftilar va a'lamlarning mayjudligi bilan xarakterlanadi, ular sudya (qozi), da'vogar, ayblovchi, javobgar yoki sudlanuvchining topshirig‘iga ko‘ra, rivoyat, ya'ni bahsning namunaviy hal etilishini yoki shariat me'yorlariga ko‘ra ayblovni tuzadilar. Chunonchi, Buxoro amirligi bosh qozisi (qozikalon) huzurida 12 nafar mufti xizmat qilgan, ular tashrif buyuruvchilarga, qoziga murojaat qiluvchiga shikoyat tuzishda va boshqa amaliy yozuvlarni tayyorlashda mukofot evaziga yordam bergenlar<sup>21</sup>.

Inqilobdan avvalgi Turkistonda podsho sudlarida jinoiy va fuqarolik ishlari ko‘rilishida, butun Rossiyada bo‘lgani kabi, advokat-sud maslahatchilari, ishonchli vakillar va ularning yordamchilari qatnashgan. 25 yoshga to‘lgan, 5 yillik sud idorasi amaldori yoki sud maslahatchisi, ishonchli vakil yordamchisi siatida sudda ishlash tarjasiga ega shaxslar bu ishda ishlashi mumkin edi. Ba’zi sud maslahatchilari kengashlarida nomzodlar uchun ularning amaliy tayyorgarligini tekshirish maqsadida imtihonlar o‘tkazilardi<sup>22</sup>.

---

<sup>21</sup> G.Abdumadjidov. Razvitie advokatury v Uzbekistane. // Istorya razvitiya prava na territorii Uzbekistana.

Materialy nauchnogo seminara, organizovannogo Fondom im. K.Adenauera i TGYU. Otvet.red. G.Abdumadjidov, A.Egamberdiev. - T. Adolat. 2007. - S.204.

<sup>22</sup> 1864 y. sud islohoti – Rossiyada professional advokatura paydo bo‘lgan yil. Islohotga qadar davrda advokatlar rolini xususiy shaxslar – stryapchiylar yoki ish bo‘yicha iltimoschi bajarardilar. 1864 y. sud nizomlariga ko‘ra, advokatlar ikki toifaga bo‘linardi – sud maslahatchilari-ishonchli vakillar va xususiy ishonchli vakillar. Sud maslahatchilari-ishonchli vakillar maxsus korporatsiyaga – sud maslahatchisi-ishonchli vakillari silsilasiga birlashdilar, ularga saylanadigan organlar va ularning faoliyatini sud organlari va adliya organlari tomonidan nazorat qilinishi ko‘rinishidagi ichki o‘zini-o‘zi boshqarish xarakterli edi.

Turkiston o'lkasida qozilar va boylarning feodal sudlarida jinoiy va fuqarolik ishlarini shariat va odat qonunlari bo'yicha, advokat ishtirokisiz ko'rilardi.

O'zbekiston hududida birinchi advokatura, o'zini-o'zi boshqaruv tuzilmasi sifatida "Himoyachilar filiali" nomi ostida 1879 yilda Qo'qon sh.da Sankt-Peterburgda yuridik ta'lim olgan Abdunabi Qurolboy tashabbusi bilan tashkil etildi.

Uni birinchi o'zbek advokati deb hisoblaydilar. Qo'qon advokatlar filiali o'ndan ziyod huquq himoyachilarini birlashtirgan bo'lib, ularni "zakonchi" deyishardi<sup>23</sup>.

1899 yilda Toshkent sud palatasi va okrug sndlari qoshida himoyachilar hay'atlari ta'sis etildi. Ular Rossiya qonunchiligiga asoslanardilar.

Buxoroda 1915 y.da "Ko'ngilli advokatlar filiali" faoliyat yuritdi, u advokatlik amaliyotini Rossiyada va Turkiyada o'rgangan Valixon Hoji tomonidan tashkil etildi. Filial a'zolari, ular safida keyinroq O'zbekiston hukumati raisi bo'lgan F.Xo'jaev ham bor edi, bir necha marta amirlik qozikaloni Sharifxon Sadri Ziyoga murojaat qilishgan va bahslarning odilona hal etilishiga erishgandilar. Afsuski, advokatlar filiali rahbari Valixon Hoji 1919 yilda amirga hurmatsizlikda ayblangan, qamoqqa tashlangan va tergov va sudsiz o'ldirilgan<sup>24</sup>.

Advokat U.Asadullaxo'jaev va uning do'sti S.Kelginboev (akademik H.Sulaymonovning otasi), xavfli bo'lishiga qaramay, 1916 y.da mehnatga layoqatli aholini majburan Sibirga majburiy ishlarga yo'llash bilan bog'liq xalq g'alayoniga hamdardlik bildirgan aybsiz shaxslarning qirib tashlanganligi tufayli chor hukumatiga norozilik bildirdilar. Ularni sudga berdilar, lekin kutilmagan natijaga erishdilar – ular oqlandilar<sup>25</sup>.

1917 yildagi inqilobdan keyin eski adliyaning boshqa organlari bilan birga advokatura ham bekor qilindi.

Eski advokaturani bekor qilib, sud to'g'risidagi 1- dekret himoyachi sifatida barcha obro'siga putur yetmagan, ikkala jinsdan bo'lgan, fuqarolik huquqlaridan foydalanuvchi fuqarolar qatnashishiga ruxsat berdi, qolaversa, himoyachilar dastlabki tergovda ham qatnashishlari mumkin edi. 1917 yil 19 dekabrda Adliya xalq komissarligi inqilobiy tribunal yo'riqnomasini tasdiqladi, unga ko'ra ular qoshida ham ayblov, ham himoya funksiyalarini qo'lllovchi huquq himoyachilarini hay'atini tuzish ko'zda tutilgandi. Shu bilan birga, ayblanuvchi siyosiy huquqdan mahrum etilmagan har qanday fuqaroni himoyachi sifatida tanlashi mumkin edi.

1918 yil 7 martdagি Sud to'g'risidagi 2- son dekretga ko'ra, ishchilar, soldatlar, dehqonlar va kazaklar deputatlar kengashlari qoshida ham jamoat ayblovchisi, ham jamoat himoyachisi shaklidagi huquq himoyachisi bo'lishga o'zini bag'ishlagan shaxslar hay'atlari tuziladi. Faqat shu shaxslar sudda to'lov asosida qatnashishlari mumkin edi<sup>26</sup>.

<sup>23</sup> Tam je. S.205.

<sup>24</sup> Qar.: Ayni S. Esdaliklar. T.Uzbekiston. 1953

<sup>25</sup>O'zbekistonning yangi tarixi. Kitob 1. Turkiston chor Rossiysi mustamlakachilik davrida. T.: Shark. 2000. S.438.

<sup>26</sup>A.T.Allamuratov. Advokatura v Respublike Uzbekistan. Uchebnoe posobie. -T.: Izdatelstvo TGYuI, 2006. -S.7.

O'rta Osiyoning sobiq Respublikalari milliy-davlatchilik nuqtai nazaridan ajratilganidan va O'zbekiston SSR paydo bo'lganidan keyin O'zSSR MIQ 1926 yil 29 sentyabrda Respublikada sud tuzilishi to'g'risidagi nizomni qabul qildi va uni 1927 yil 15 fevraldan kuchga kiritdi. Bu me'yoriy hujjat 1927 yil 14 dekabrdan O'zSSR Adliya xalq komissariati tomonidan tasdiqlangan Himoyachilar hay'ati to'g'risidagi nizom uchun asos bo'ldi. Nizom avvalda mavjud bo'lgan hay'at tuzilmasini, ularni butlash tartibini, yangi a'zolarni qabul qilish shartlarini, advokatlar xizmatiga haq to'lash tamoyillarini saqlab qoldi.

Himoya huquqi shakllanishining muhim bosqichlaridan biri 1926 yil 16 iyunda Respublikaning dastlabki Jinoiy-protsessual kodeksi qabul qilinishi bo'ldi. Unda qonunchilik tomonidan ayblanuvchining himoya huquqi jinoiy sud ishi tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlab qo'yildi. JPK sudda himoyachining ishtiroki majburiy bo'lishi vaziyatlarini ko'zda tutgan, lekin dastlabki tergov bosqichida u qatnashmasdi. Bu shaxsni jinoyatni sodir etishdagi ayblovning birinchi kunlaridanoq himoyadan foydalanish huquqining jiddiy cheklanishi edi.

O'zSSR ikkinchi JPK 1929 yil 29 iyunda O'zSSR MIQ tomonidan tasdiqlandi, u himoyalanishga bo'lgan huquqning amalga oshishini yanada yomonlashtirdi, endi jinoiy ishlar ko'rilihiga himoyachi faqat o'zining xohishiga ko'ra kiritilardi. U sud majlisi vaqtida, agar uning fikriga ko'ra uning qatnashishiga asos bo'lmasa, himoyani amalga oshirishdan voz kechishi mumkin bo'lgan. "sotsialistik adolatli sudlov" amaliyotidan himoya huquqi tobora siqib chiqarildi.

U SSSRning 1934 yil 1 dekabrdagi va 1937 yil 22 sentyabrdagi favulodda qonunlari bilan uzil-kesil rad etildi. Bu qonunlar, mohiyatan, "aksilinqilobiy jinoyatlar", terroristik tashkilotlar, terroristik aktlar, shuningdek zararkunandalik va qo'poruvchilik to'g'risidagi ishlarni suddan tashqari, himoyachi jalb qilmay tekshirish va ko'rib chiqish belgilandi<sup>27</sup>.

Hatto advokatlar tomonidan ish hal etilmay turiboaq "xalq dushmani" deb e'lon qilingan shaxslar nomidan arizalar va shikoyatlar tuzilishi holatlari ham achinarli yakun topardi.

I.Stalin shaxsiga sig'inish barham topgach o'tkazilgan huquqiy islohot, jumladan, SSR Ittifoqi va ittifoqdosh Respublikalar Jinoiy sud ishi asoslarining (1958 y.), jumladan O'zSSR JPK (1959 y.) qabul qilinishi dastlabki tergov yakunlanganidan keyin himoyachining jinoiy ish ko'rilihiga kiritilishi imkoniyatlari eshigini biroz ochdi. Voyaga yetmaganlar va jismoniy yoki ruhiya yetishmovchiliklar tufayli mustaqil himoyalana olmaydiganlarga ayblov qo'yilgan vaqtdan boshlab himoyachi xizmatlaridan foydalanish huquqi berilardi.

Gumonlanuvchi himoyachi xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega emasdi. O'zSSR JPK 13- moddasida himoyachining surishtiruv davomida ishtiroki haqida aytilsa-da, JPK 42- moddasi uning faqat ayblanuvchining sudga topshirilganidan keyin, ya'ni faqat sud majlisida qatnashishini ko'zda tutgan. JPK 46- m.ga muvofiq, himoyachi sudlanuvchi bilan uchrashish huquqiga ega edi, lekin bu xoli o'tishi mumkinligi ko'rsatilmagandi, bunday uchrashuvlarning soni va davomiyligi

<sup>27</sup> Petruxin I. L. Pravosudie: vremya reform. M.: Nauka, 1991. - S.317.

aniqmasdi, himoyachi o‘z himoyalanuvchisining so‘roq qilinishda va tergovchining ruxsati bilan qatnashishi mumkin edi.

1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi JPKda bu nuqsonlarning barchasi umuman olganda bartaraf etildi, himoyachining jinoiy ishni ko‘rib chiqish jarayonida qatnashish imkoniyati sezilarli darajada kengaydi.

Advokatura to‘g‘risidagi qonunchilikning isloh qilinishi, mamlakat ijtimoiy-davlat hayotining boshqa sohalaridagi islohot kabi, bosqichma-bosqich, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi darajasiga qarab o‘tkazilmoqda.

**Birinchi bosqich (1991-1996 yy.)**da sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish milliy strategiyasi belgilandi va uning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. Dunyo tajribasiga asosan, mamlakatda birinchi bor Konstitutsiyaviy sud ta'sis etildi. Sud hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida xo‘jalik sudsizlari tashkil etildi.

Bu bosqichda, avvalambor, advokaturaning inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinuvchi manfaatlarini himoya qilish yo‘lida tashkil etiluvchi alohida mustaqil institut sifatida tasdiqlanishi bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi.

To‘plangan tajriba va amaldagi qonunchilikni tahlil qilish asosida sud-huquq sohasidagi islohotni chuqurlashtirishga, sud jarayonida ayblov va himoya usturvorligini ta’minalash maqsadida advokatura maqomini oshirishga qaratilgan choralar amalga oshirildi.

### **Ikkinci bosqich (1996-2007 yy.)**

Fuqarolarning malakali yuridik yordam olishlari – ularning konstitutsiyaviy huquqidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 116- moddasida belgilab qo‘yilgan professional yuridik yordam olish huquqini ilm olamida adolatli sudloving asosini tashkil qiluvchi tamoyillardan biri sifatida ko‘rish qabul qilingan. Malakali yordam olish huquqi fuqaro huquqiy maqomining ham uzviy elementi sanaladi, u nafaqat milliy, balki xalqaro huquq bilan ham kafolatlanadi.

Advokatura to‘g‘risidagi qonunchilikning shakllanishi 1996 yilda “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi bilan boshlandi (1996 yil 27 dekabr).

1998 yil dekabrda “Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinadi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasidagi advokatura institutini tashkil etishning huquqiy asoslarini, advokatlar faoliyatining tamoyillarini, advokatlik tuzilmalarining tashkiliy-huquqiy shakllarini belgilab berdi, advokatning huquqiy maqoimini, ya’ni advokatning huquq va majburiyatini, advokatlarning javobgarligini, ijtimoiy kafolatlarni belgiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual, Jinoiy-protsessual va Xo‘jalik-protsessual kodekslari me’yorlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi qabul qilgan qarorlarga muvofiq, advokatura fuqarolar va yuridik shaxslar, jamiyat va davlat huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish bo‘yicha yetarlicha ahamiyatli institut bo‘lib shakllanganligiga e’tibor qaratish lozim.

### **Uchinchi bosqich (2008 y.- hozirgi vaqt)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi PF-3993-soni “O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>28</sup> bilan mamlakatda advokaturani isloh qilishning yangi bosqichiga qadam qo‘yildi.

Chunonchi, ushbu farmonga muvofiq, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning sud ishining istalgan bosqichida professional yuridik yordam olish huquqini mustahkamlovchi konstitutsiya me’yorlarini amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta’minalash, uni yuqori malakali kadrlar bilan butlash, advokatlar mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik professiyasi obro‘sini va sha’nini oshirish maqsadida, bir qator tashkiliy-huquqiy choralar qabul qilindi.

Advokatura institutining yanada isloh qilishning asosiy yo‘nalishlar sifatida quyidagi belgilandi:

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida asosiy fuqarolik institutlaridan biri sifatida advokaturaning amaliy markazlashgan o‘zini-o‘zi boshqarish tizimini yaratish;

advokatlikka nomzodlar malakasiga ko‘rsatiladigan talablar kuchaytirilishi, ular yuridik mutaxassislik bo‘yicha mehnat staji mavjudligini, stajirovkani advokatlik tuzilmalarida o‘tkazilishini, shuningdek advokatlar kasbiy malakasining majburiy tizimli oshirilishi joriy etilishini nazarda tutadi;

litsenziyalashning samarali tizimini tashkil qilish, u advokaturani halol va yuqori mahoratlari mutaxassislar bilan butlash imkonini beradi;

vakolatlarni qat’iy farqlash va advokatlik tuzilmalarining huquqiy maqomini aniq belgilash;

jinoiy ish jarayonida ayblov va himoya tomonlarining protsessual huquqlari tengligini ta’minalash;

tomonlar vakilligi institutini bosqichma-bosqich takomillashtirish, u sud ishida yurisprudensiya sohasida maxsus bilimlarga ega bo‘lmagan shaxslarning ishtirokini mustasno etadi;

advokatlar tomonidan kasbiy etika va advokatlarga nisbatan intizomiy choralar tizimi qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat mexanizmini takomillashtirish.

Prezidentning mazkur Farmonining ijrosi yo‘lida qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 27.05.2008 y. №112 "O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasini tashkil qilish to‘g‘risida"<sup>29</sup>;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 20.06.2008 y. №137 «Advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik xizmat haqini davlat hisobidan o‘lash mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida»<sup>30</sup>;

<sup>28</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2001 g., N 5; "O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami”, 2001 g., N 3, S. 18. (Ushbu Qaror O‘zR VM 22.09.2001 y. №383- sonli Qarori bilan o‘z kuchini yo‘qotdi).

<sup>29</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2008 y., N 22-23, S. 201

3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori, 09.03.2009 y. №60 «Advokatlik faoliyatini litsenziyalash va advokatlik tuzilmalarini tashkil etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»<sup>31</sup>;

4) O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri buyrug‘i, 14.03.2009 y. №68-mx «O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi huzurida Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»<sup>32</sup>;

5) O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri buyrug‘i, 14.03.2009 y. №69-mx «O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»<sup>33</sup>;

6) O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri buyrug‘i, 27.03.2009 y. №79-mx «Advokat stajyori faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»<sup>34</sup>;

7) O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri buyrug‘i, 08.04.2009 y. №91-mx «Advokat tomonidan ish yuritishga order shaklini tasdiqlash to‘g‘risida»<sup>35</sup>;

8) O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri buyrug‘i, 27.03.2009 y. №80-mx «Advokat yordamchisi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida»<sup>36</sup>;

9) Advokatlik tuzilmalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish (ro‘yxatga qo‘yish) to‘g‘risidagi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan tasdiqlangan, 09.03.2009 y. №60<sup>37</sup>.

Shuningdek, Prezident Farmoni asosida 2008 yil 31 dekabrda “Advokatura institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ba’zi qonunchilik hujjatlari o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Unga muvofiq, advokatura sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikka ancha o‘zgartishlar kiritildi. Qonunda advokaturaning quyidagi asosiy masalalari o‘z aksini topdi:

- ❖ professional yuridik yordam bilan ta‘minlash konstitutsiyaviy huquqiga muvofiq, JPKda himoyachi jinoiy ishning istalgan bosqichida, shaxsni qo‘lga olishda esa – uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklanganidan boshlab ishda ishtirok etish uchun kiritilishi haqidagi qoida ko‘zda tutilgan;
- ❖ jinoiy sud ishi sohasida guvohning advokat olish huquqi ta‘minlandi;
- ❖ advokatning professional faoliyatiga to‘sinqilik qilganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilangan, bu advokat so‘roviga javob bermaslikda ifodalaniishi mumkin, shuningdek qanday ko‘rinishda bo‘lmisin, advokatga, uning ishdagi ishtirokiga to‘sinqilik qilish

<sup>30</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2008 y., N 26-27, S. 250

<sup>31</sup> "O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami", 2009 g., N 3, S. 18.

<sup>32</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 12, S. 133

<sup>33</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 12, S. 134

<sup>34</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 13, S. 152.

<sup>35</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 15, S. 195

<sup>36</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 13, S. 153

<sup>37</sup> "O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami", 2009 g., N 3, S. 18.

maqsadida ta'sir ko'rsatish, yoki uning ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs) manfaatlariga zid mavqyeni egallahsga majbur qilishga erishish;

- ❖ qonun bilan mustahkamlanganki, himoyachi quyidagi yo'llar orqali dalil sifatida ishlatalishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish huquqiga ega: ishga taalluqli axborotga ega shaxslardan so'rov o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish; davlat va boshqa organlar, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so'rov yuborish va ulardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlar olish. Ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq yig'ilgan materiallarni ishga tirkash haqidagi himoyachining iltimosnomasi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan qondirilishi majburiydir;
- ❖ advokatlik faoliyatini litsenziyalashning yangi tartibi, advokatlik tuzilmalarining tashkiliy-huquqiy shakllari belgilandi, bundan tashqari, advokaturaning advokat yordamchisi va advokat stajyori, advokat stajirovkasi kabi institatlari joriy etildi;
- ❖ advokatning intizomiy javobgarligining aniq mexanizmini belgilash yo'li bilan advokat harakatlari ustidan amaliy (ichki idoraviy) nazorat ta'minlandi, Advokatlik etikasi Qoidalari qabul qilindi.

## **§ 2. *Malaka komissiyalari va advokatning intizomiy javobgarligi***

“Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasiga muvofiq, zarur bilimlar va kasbiy malakalarga ega shaxslarga litsenziyalar berish, advokat qasamyodini qabul qilish, shuningdek advokatlarga nisbatan intizomiy choralar ko‘rish uchun Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshida malaka komissiyalari tuziladi.

Malaka komissiyalari O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent sh. adliya boshqarmalarining qo‘shma qarorlari bilan, teng sonli advokatlar va adliya organlari ishchilaridan tarkib topadi.

Malaka komissiyalari vakolatlari va ular faoliyatlarining tashkil etilishi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Advokatlar palatasi bilan kelishgan holda belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2009 yil 14 martdagি №69-mx buyrug‘iga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshidagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi<sup>38</sup>

Malaka komissiyalari quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

- ✓ advokat maqomini olishga nomzod shaxslardan malaka imtihonini olish;
- ✓ advokat qasamyodini qabul qilish;

<sup>38</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 12, S. 134.

- ✓ advokatlar tomonidan qonunchilik talablarining, advokatlar kasbiy etikasi qoidalarining, advokatlik siri va advokat qasamyodining buzilishi to‘g‘risidagi intizomiy ishni ko‘rib chiqish.

Zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun malaka komissiyalari:

- ✓ nomzodlar, advokatlar va boshqa manfaatdor shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqadilar;
- ✓ zarur hollarda, manfaatdor shaxslardan va tegishli tashkilotlardan qo‘srimcha hujjatlar so‘raydilar;
- ✓ nomzodlar tomonidan malaka imtihonlari topshirilishi natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladilar;
- ✓ nomzodlar tomonidan advokatlik qasamyodi qabul qilinishi natijalaribo‘yicha qarorlar qabul qiladilar;
- ✓ advokatlarga nisbatan intizomiy ish ko‘riliishi natijalari bo‘yicha qarorlar qabul qiladilar.

Zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda malaka komissiyalari majburdirlar:

malaka komissiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan masalalarni xolisona va har tomonlama ko‘rib chiqish;

qonunchilikka, advokatlik faoliyati asosiy tamoyillariga qat’iy rioxqa qilish;

advokatlik faoliyati, advokatning daxlsizligi, advokatlik faoliyatiga aralashmaslik kafolatlari va himoyasini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi qoshidagi Oliy malaka komissiyasi qarorlarini bajarish.

Malaka komissiyasi majlislari zaruratga qarab, lekin kamida uch oyda bir marta o‘tkaziladi. Hududiy boshqarmalar, malaka komissiyasi hamraislari bilan kelishgan holda kun tartibini, komissiya majlisi o‘tkaziladigan kun, sana, vaqt va joyni majlis o‘tkazilishidan kamida o‘n kun oldin belgilaydi.

Malaka komissiyasi qarorlari majlisda qatnashgan komissiya a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan, ochiq ovoz berish yo‘li bilan, manfaatdor shaxslar ishtirokisiz qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lsa, raislik qiluvchining ovozi hal etuvchi sanaladi.

Malaka komissiyasi qarorlarini raislik qiluvchi qaror qabul qilingan majlisdayoq e’lon qiladi.

Intizomiy ish joriy etilishi uchun asoslar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ✓ hududiy boshqarma yoki adliya organi tomonidan advokatning advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini, Advokatlar kasbiy etikasi qoidalarini, advokatlik siri va advokatlik qasamyodini buzganligi aniqlanishi;
- ✓ advokatning g‘ayrihuquqiy harakatlari ustidan jismoniy yoki yuridik shaxsning murojaati;
- ✓ sudning advokatga nisbatan alohida ajrim chiqarishi.

Ko‘rsatilgan asoslar mavjud bo‘lganida, tegishli hududiy boshqarma rahbari yoki adliya organi malaka komissiyasiga advokatga nisbatan intizomiy ishni ko‘rib chiqish haqida, asoslar ko‘rsatilgan holda arznama taqdim etish yo‘li bilan ushbu

advokatga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘aydi. Arznomaga u bilan bog‘liq barcha hujjatlar va materiallari ilova qilinadi.

Intizomiy ish ko‘rib chiqilishi to‘g‘risidagi arznama hududiy boshqarma tomonidan ro‘yxatga olinadi va barcha hujjatlar bilan birga mas’ul kotibga taqdim etiladi. Mas’ul kotib ular olingan kunning ertasidan kechiktirmay, advokatga unga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atilgani haqida xabar beradi. Shuningdek, u komissiya a’zolari va manfaatli shaxslarni komissiya majlisi o‘tkazilishi sanasi, vaqt va joyi haqida majlis o‘tkazilishidan kamida o‘n kun oldin xabardor qiladi.

Mas’ul kotib unga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atilgan advokatni ish materiallari bilan tanishtirishi va undan ushbu ish o‘yicha komissiya nomiga yozma tushuntirish berishini talab qilishi lozim. Advokatning tushuntirish berishdan bosh tortishi intizomiy ish ko‘rilishi va intizomiy undirish choralar qo‘llanishiga to‘sinqlik qilmasligi lozim.

O‘ziga nisbatan intizomiy ish qo‘zg‘atilgan advokat quyidagi huquqlarga ega:

Intizomiy ish qo‘zg‘atilishiga asos bo‘lgan barcha materiallar bilan tanishib chiqish;

Intizomiy ish holatlari bo‘yicha yozma tushuntirish berish va qo‘shimcha ma'lumotlar taqdim etish;

Malaka komissiyasi yoki Oliy malaka komissiyasi (agar bu u ko‘rib chiqadigan ish bo‘lsa) qaror qabul qilguniga qadar intizomiy ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan shikoyatni taqdim qilgan shaxs bilan kelishuvga erishish choralarini ko‘rish.

Advokat, tegishli suratda komissiya majlisi sanasi, vaqt va joyi haqida ogohlantirilganiga qaramay, malaka komissiyasi majlisiga kelmagan holda, komissiya qaroriga ko‘ra intizomiy ish ko‘rilishi keyingi majlisga qoldirilishi yoki uning ishtirokisiz ko‘rilishi mumkin.

Agar intizomiy ish ko‘rinishida malaka komissiyasi intizomiy ish bilan bog‘liq alohida masalalarni o‘rganish lozim degan xulosaga kelsa, bunday o‘rganishni amalga oshirish komissiya qaroriga muvofiq, uning a’zolaridan biriga yuklanishi mumkin.

Malaka komissiyasi tomonidan avdokatga nisbatan intizomiy jazo choralar qo‘llanishi to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, sodir etilgan huquqbazarlik og‘irligi, uning sodir etilishi holatlari, advokatning avvalgi faoliyatini va o‘zini tutishi hisobga olinadi.

Intizomiy ish ko‘rib chiqilishi natijalariga ko‘ra advokatga nisbatan malaka komissiyasi quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

ogohlantirish to‘g‘risida;

olti oygacha muddatga litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish;

litsenziya amal qilishini bekor qilish;

intizomiy jazo choralarini qo‘llashni rad etish va intizomiy ishni to‘xtatish.

Malaka komissiyasining litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish va bekor qilish to‘g‘risidagi qarori u qabul qilingan kunda yozma ravishda hududiy boshqarma tomonidan tegishli adliya organiga yetkaziladi, u o‘sha kuniyoq,

malaka komissiyasi qarori asosida advokatlik maqoimning to‘xtatib turilishi va bekor qilinishi to‘g‘risida buyruq chiqaradi.

Intizomiy jazo choralarini qo‘llashni rad etish va intizomiy ishni to‘xtatish to‘g‘risidagi qaror, malaka komissiyasi tomonidan, intizomiy ish ko‘rilishi davomida komissiya intizomiy ish ko‘rib chiqilishi to‘g‘risidagi arznomada bayon etilgan advokatga qarshi asoslar tasdiqlangan, shuningdek, advokat va intizomiy ish qo‘zg‘atilishiga sabab bo‘lgan shikoyatni taqdim qilgan shaxs o‘rtasida kelishuvga erishish holatlarda qabul qilinadi.

Malaka komissiyalari masalalarini ko‘rib chiqishda va u bo‘yicha qarorlar qabul qilishda hududiy boshqarmalar va adliya organlaridan, ulardan yuqori turuvchi tuzilmalardan, boshqa tashkilotlardan, shuningdek mansabdar shaxslar va fuqarolardan mustaqildirlar.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2009 yil 14 martdagi 68-mx son buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi qoshidagi Oliy malaka komissiyasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan<sup>39</sup>.

**Oliy malaka komissiyasi** (quyida – Komissiya) Advokatlar palatasi qoshida, malaka komissiyalari qarorlariga apellyasiyalarni ko‘rib chiqish, malaka komissiyalari faoliyatini umumlashtirish va tahlil qilish uchun tashkil etiladi.

Advokatlar va Adliya vazirligining teng sonli vakillari hisobiga 10 nafar kishidan, jumladan Oliy malaka komissiyasi hamraislari va a’zolaridan tarkib topgan Komissiya tarkibi, uch yil muddatga Advokatlar palatasi va Adliya vazirligining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya hamraislari Oliy malaka komissiyasi tarkibiga kirgan advokatlar va Adliya vazirligi ishchilaridan belgilanadi va Komissiya majlislari navbatmanavbat raislik qiladilar, Komissiya majlisida raislik qilishi lozim bo‘lgan hamraisning uzrli sabablarga ko‘ra kelmay qolishi bundan mustasno.

Komissiya a’zoligiga advokatlar nomzodlari advokatlik faoliyati bo‘yicha mehnat stoji kamida besh yil bo‘lgan advokatlar ichidan tanlab olinadi. Advokat ketma-ket ikki muddat Komissiya a’zosi bo‘la olmaydi.

Yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Komissiya:

nomzodlar, advokatlar va boshqa manfaatli shaxslar apellyasiyasini ko‘rib chiqadi va ular bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qiladi;

zarur hollarda manfaatli shaxslardan va tegishli tashkilotlardan qo‘srimcha hujjatlar so‘raydi;

apellyasiyalarni ko‘rib chiqishda tegishli malaka komissiyalaridan zarur hujjatlarni talab qiladi;

ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan vaziyatlarda nomzodlardan malaka imtihonlarini qabul qiladi va ularning topshirilishi natijalariga ko‘ra qarorlar qabul qiladi;

qaror qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan yangi yuzaga kelgan holatlarni o‘rganadi;

---

<sup>39</sup> "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2009 g., N 12, S. 133

Advokatlar palatasiga malaka komissiyalari faoliyatini ularning ishlarini umumlashtirgan va tahlil qilgan holda o‘rganib chiqish haqida murojaat qiladi va umumlashtirish hamda tahlil natijalariga ko‘ra qaror qabul qiladi;

Nizomga muvofiq qabul qilingan Komissiya qarorlari malaka komissiyalari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Komissiya majlisi zaruriyatga ko‘ra, lekin kamida uch oyda bir marta o‘tkaziladi. Advokatlar palatasi, Komissiya hamraislari bilan kelishgan holda, Komissiya majlisi kun tartibini, sanasi, vaqtini joyini majlis o‘tkazilishidan kamida o‘n kun oldin belgilaydi.

Komissiya majlisi agar unda a’zolarning kamida uchdan ikki qismi qatnashsa, vakolatli sanaladi (kvorumga ega bo‘ladi).

Kvorumga ega bo‘linmagan holda, majlisga klegan Komissiya a’zolari tomonidan majlisni keyinga qoldirish haqida qaror qabul qilinadi, uning sanasi, vaqtini joyi haqida qo‘srimcha ravishda ma’lum qilinadi.

Komissiya qarori majlisda qatnashayotgan a’zolarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelganda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi bo‘ladi.

Komissiya qarori raislik qiluvchi tomonidan qarorq qabul qilingan majlisda e’lon qilinadi.

**Komissiya, apellyasiyani ko‘rib chiqib, o‘z qarori bilan:**

**malaka komissiyasi qarorini o‘zgartishsiz qoldirish va apellyasiyani qondirishni rad etish;**

**malaka komissiyasi qarorini o‘zgartirib, yangi qaror qabul qilish;**

**malaka komissiyasining nomzod tomonidan malaka imtihoni topshirilishi natijalarini bo‘yicha qarorini bekor qilish;**

**malaka komissiyasi qarorini bekor qilish va advokatga nisbatan intizomiy ishni bekor qilish;**

**apellyasiyani ko‘rib chiqmay qoldirish huquqiga ega.**

Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziya amal qilishini to‘xtatib turish va bekor qilish masalalariga tegishli Komissiya qarori, u qabul qilingan kunda yozma ravishda advokatga guvohnoma bergen adliya organiga tegishli qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

**Malaka komissiyasi qarorini o‘zgartishsiz qoldirish va apellyasiyani qondirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror Komissiya tomonidan quyidagi holatlarda qabul qilinadi:**

**apellyasiyaning Nizom talablariga muvofiq kelmasligi;**

**apellyasiyada bayon etilgan asoslarning tasdiqlanmasligi.**

**Malaka komissiyasi qarorini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qaror va yangi qaror Komissiya tomonidan quyidagi holatlarda qabul qilinadi:**

O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshidagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi Nizom talablari buzlishi, agar bu qoidabuzilishi malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa;

**Malaka komissiyasi tomonidan asoslanmagan qaror qabul qilinishi.**

Nomzod tomonidan malaka imtihoni topshirilishi natijalari bo'yicha malaka komissiyasi qarorini bekor qilish to'g'risidagi qaror Komissiya tomonidan quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshidagi malaka komissiyalari to'g'risidagi Nizom talablari buzlishi, agar bu qoidabuzilishi malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa;

Nomzod tomonidan malaka imtihonida berilgan javoblarni baholashda malaka komissiyasi tomonidan xolislik va beg'arazlilik ta'minlanmaganida.

Malaka komissiyasining nomzodning malaka imtihonini topshirishi natijalari bo'yicha qarorini bekor qilish bilan bir vaqtida Komissiya o'zining qarori bilan nomzodni tegishli malaka komissiyasiga malaka imtihonini qayta topshirish uchun yuboradi yoki, mazkur Nizomda ko'zda tutilgan holatlarda, nomzoddan malaka imtihonini oladi va u tomonidan qayta malaka imtihoni topshirilishi natijalari bo'yicha tegishli qarorq qabul qiladi.

Malaka komissiyasi qarorini bekor qilish va advokatga nisbatan intizomiy ishning bekor qilinishi to'g'risidagi qaror Komissiya tomonidan quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari qoshidagi malaka komissiyalari to'g'risidagi Nizom talablari buzlishi, agar bu qoidabuzilishi malaka komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa;

Malaka komissiyasi tomonidan asoslanmagan qaror qabul qilinishi.

Apellyasiyani ko'rib chiqmasdan qoldirish to'g'risidagi qaror Komissiya tomonidan quyidagi holatlarda qabul qilinadi:

Komissiyaga apellyasiya taqdim etgan shaxsdan apellyasiyani ko'rib chiqmaslik haqidagi ariza kelib tushishi;

Agar sudda xuddi shu masala yuzasidan fuqarolik ishi qo'zg'atilgan bo'lsa yoki bu ish bo'yicha tegishli sud qarori chiqarilgan bo'lsa;

Advokat va intizomiy ish qo'zg'atilishiga sabab bo'lган shikoyat taqdim qilgan shaxs o'rtaida kelishuvga erishilgan bo'lsa.

### ***§ 3. Advokatlik maqomini olish, litsenziya berish, uning bekor qilinishi asoslari va advokatlik faoliyati kafolatlari***

"Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 3- moddasi "advokat" atamasining izohini beradi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida oliy yuridik ma'lumotga ega va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga litsenziya olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi advokat bo'lishi mumkin. Qonunning 3-1- moddasida belgilanganki, litsenziya olish uchun advokatlik maqomi olishga da'vogarlik qilayotgan shaxs kamida ikki yillik yuridik mutaxassislik bo'yicha mehnat stajiga ega bo'lishi, jumladan kamida olti oy advokatlik tuzilmasi (advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlar hay'ati,

yuridik konstultatsiya)da stajirovkadan o‘tgan bo‘lishi va albatta malaka imtihonini topshirishi lozim.

### **Advokatlik maqomini olishga da'vogar shaxsga qo‘yiladigan talablar:**

- ➡ 1) O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi;
- ➡ 2) Oliy yuridik ma'lumot mavjudligi;
- ➡ 3) Advokatlik faoliyati bilan shug‘illanish huquqini beruvchi litsenziya mavjudligi;
- ➡ 4) Kamida ikki yillik yuridik mutaxassislik bo‘yicha mehnat stajiga ega bo‘lish, jumladan kamida olti oy advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o‘tish

Qonunda advokatlik maqomini olishga da'vogarlik qilish huquqiga ega bo‘lmagan shaxslar toifalari belgilab berilgan:

- ✓ belgilangan tartibda layoqatsiz yoki cheklangan layoqatli deb topilgan shaxslar,
- ✓ so‘ndirilmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganligi bor shaxslar.

Advokat huquqiy maqomingin uzviy qismlari uning huquqlari va majburiyatlaridir. Jinoiy va fuqarolik ishlari bo‘yicha samarali himoyani amalga oshirish maqsadida; shuningdek malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun qonun advokatga keng huquqlar beradi va majburiyatlar yuklaydi. Chunonchi, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunning 6- moddasiga muvofiq, professional faoliyatini amalga oshirishda advokat quyidagi huquqlarga ega:

tegishli masalalarni hal etishga vakolatli bo‘lgan barcha organlar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning topshirig‘iga muvofiq ularning manfaatlarini ifoda etish va huquqlarini himoya qilish;

sudlarda, shuningdek ma‘muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqayotgan organlarda dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘plash. Yuridik yordam ko‘rssatish uchun

ma'lumotlarni to'plash advokatlik faoliyatining yetarli axborot bazasini ta'minlaydi;

yuridik yordam ko'rsatilishi munosabati bilan advokat tomonidan so'ralgan hujjatlarni yoki ularning tasdiqlangan ko'chirma nuxxalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishi shart bo'lgan davlat organlari va boshqa organlardan, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar hamda boshqa hujjatlarni so'rash va olish. Advokat to'plashi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati qt'iy sanalmaydi. U yoki bu advokatlik faoliyatiga qarab, olinadigan ma'lumotlar xarakteri va hajmi o'zgarishi mumkin;

yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumotnomamaslahatlarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish. Mutaxassislar advokatning bilimi to'g'ri qarorni qabul qilish uchun yetarli bo'lмаган vaziyatlarda jalb qilinishi mumkin;

ishga taalluqli axborotdan xabardor bo'lgan shaxslarni so'rovdan o'tkazish va ularning roziligi bilan yozma tushuntirish olish. Shaxslarni ularning roziligi bilan so'rovdan o'tkazish – advokatning huquqi bo'lib, uning, advokatning fikriga ko'ra ishga oid axborotga ega shaxslar bilan suhbalashish imkoniyatida aks etadi. Bu vakolat advokat faoliyati maydonini anchayin kengaytiradi, unga o'zi unga ishonch bildirgan shaxs manfaatlarini himoya qilayotgan ish bo'yicha isbotlovchi baza yaratishga faol ta'sir ko'rsatishda yordam beradi;

to'plangan materiallarni o'z ishonch bildiruvchi shaxsining (himoya ostidagi shaxsning) ishi yuzasidan ish yuritayotgan sudsarga va boshqa davlat organlariga taqdim etish;

advokat yuridik yordam ko'rsatayotgan ishdagi zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan nuxxalar olish yoki ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish, bunda davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o'z ichiga olgan axborotni oshkor qilmaslik;

ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan maxfiylik ta'minlangan sharoitlarda (shu jumladan uni qamoqda saqlab turish davrida), uchrashuvlarning soni va ularning davom etish vaqtin cheklanmagan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xoli uchrashish;

mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bildirish va shikoyatlar berish hamda ulardan yozma shaklda asoslantirilgan javoblar olish;

o'zining kasbga oid mulkiy javobgarlik xavfini sug'urta qilish. Advokatlik xizmati iste'molchisini advokat tomonidan yuz bergen xatoliklar yoki boshqa kamchiliklar natijasida moddiy zarar yetkazilishi ko'rinishidagi ehtimoliy oqibatlardan himoyalash maqsadida, Qonun tomonidan advokatning kasbiy mulkiy javobgarligini xatarini ixtiyoriy sug'urtalashni amalga oshirish ko'zda tutilgan;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa harakatlarni bajarish.

Advokat yordamchi va stajyorga ega bo‘lishi mumkin. Yordamchi va stajyorning huquqiy maqomi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 8- va 8-1-moddalarida belgilangan.

**Advokat yordamchisi** yuridik ma'lumotga ega, **stajyor** – oly yuridik ma'lumotga ega O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lishi mumkin

#### **§ 4. Advokatlik faoliyatining tashkiliy shakllari va advokatlarning kasbiy birlashmalari**

Advokatlik faoliyati professional asosda advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya olgan shaxslar tomonidan, jinoiy ishlar bo‘yicha himoyani, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy va boshqa ishlar bo‘yicha vakillikni amalga oshirish, shuningdek himoya va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining, shuningdek yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining amalga oshishida ko‘mak berish maqsadidagi malakali yuridik yordamdir.

Advokatlik faoliyati advokatlik tuzilmalarida amalga oshiriladi. «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonun advokatlar o‘z faoliyatini o‘z ixtiyoriga ko‘ra turli tashkiliy shakllarda: individual, o‘z advokatlik byurosini ochib; yoki boshqa advokatlar (shekriklar) bilan advokatlik firmasini yoxud a’zolik asosida advokatlar hay'atini tashkil etib; yoki amaldagi mana shunday advokatlik tuzilmalariga kirish orqali, yoki yuridik konsultatsiyada ishlagan holda advokatlik faoliyatini yuritishni amalga oshirishlari mumkin. advokat faqat bitta advokatlik tuzilmasida o‘z faoliyatini yuritishi mumkin.

Qonunchilik hujjatlarida advokatlarni firmalar, hay'atlar, byuro va konsultatsiyalarga majburiy taqsimlashning biror taomili ko‘zda tutilmaydi. Bu advokatlik tuzilmalariga qabul tegishli ta'sis hujjatlariga asosan amalga oshishi lozim.

Advokatlik byurosi, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini ro‘yxatga olish, shuningdek yuridik konsultatsiyalarni hisobga olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab bergen tartibda adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Advokatlik tuzilmalari tashkil topishi, faoliyat yuritishi, qayta tashkil topishi va yopilishi tartibi, ular tuzilmasi, shtatlari, funksiyalari, mablag‘larni sarflash tartibi, rahbarlik organlari vaoklatlari, ularni saylash va advokatlik tuzilmalari faoliyatiga oid boshqa masalalar ularning nizomlari, ta'sis shartnomalari bilan tartibga solinadi.

Advokatlik byurosi, advokatlik firmasi va advokatlar hay'ati faqat ular ro‘yxatga olingan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar. Yuridik konsultatsiya o‘z faoliyatini hisobga olingan kundan boshlashi mumkin.

**Advokatlik byurosi** – advokatlik tuzilmasi, u notijorat tashkiloti bo‘lib, advokat tomonidan advokatlik faoliyatini individual tarzda yuritish uchun tuzilgan. Individual xarakter anglatadiki, advokat o‘z faoliyatini boshqa advokatlar bilan doimiy asosda uyushmagan holda olib boradi.

Yuridik shaxsning joylashuvi uning davlat ro‘yxatidan o‘tgan joyi sanaladi, u yuridik shaxsning doimiy faoliyat yurituvchi ijroiya organi joylashgan joyi bo‘lib, doimiy amalda bo‘luvchi ijroiylar bo‘lmaganda – boshqa turdagilari yoki ishonchnomasiz yuridik shaxs nomidan ish ko‘rish huquqiga ega shaxs joylashgan joy sanaladi.

Advokatlik byurosi yuridik shaxs bo‘lgani sababli, FKning ko‘rsatilgan qoidalari unga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Qonun advokatga advokatlik byurosi joylashuvi uchun o‘zi yoki oilasi a’zolariga mulk sifatida tegishli bo‘lgan noturar joylardan foydalanishga ruxsat beradi.

Individual advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun advokat bankda hisobraqam yoki hisobraqamlar ochishi, muhr, shtamp va qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan blankalarga ega bo‘lishi lozim.

Uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda advokat o‘z nomidan ish ko‘radi. Advokatlik byurosida yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha kelishuvni bevosita advokat va unga ishonch bildiruvchi tuzadilar va advokatlik byurosi hujjatlarida ro‘yxatga olinadi.

Advokatlik byurosi vositasida individual advokatlik faoliyatini amalga oshiradigan advokat egalik mulk huquqida mulkka ega bo‘ladi, advokatlik faoliyatini amalga oshirish davomida mulk xarid qiladi, bu mulkni meros qilib qoldirishi mumkin. ko‘rsatilgan mulkka vorislik huquqi tatbiq etiladi. Advokat qonunga zid kelmaydigan har qanday bitimlarni amalga oshirishi va majburiyatlarda qatnashishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi mumkin.

Advokatlik byurosi shaklida advokatlik faoliyatining afzalligi shundaki, bunda byuro zaruriyatlariga ajratmalar – amalda o‘z ustida ishslash va o‘zini ta’minlashga ajratmalardir, boshqa advokatlik tuzilmalari zaruriyatlariga ajratmalar esa, jamoaviy ehtiyojlarga sarflanadigan mablag‘lar bo‘ladi. bundan tashqari, tashkiliy jihatdan advokatlik byurosidagi faoliyat boshqa advokatlar bilan o‘zaro majburiyatlarga bog‘liq bo‘lmaydi, jamoaviy boqsharuv organi oldida hisobotdorlikni yuzaga keltirmaydi, bunday ish o‘zida individual faoliyatining barcha afzalliklari va kamchiliklarini aks ettiradi.

**Advokatlik firmasi** – notijorat tashkiloti bo‘lmish advokatlik tuzilmasi, u sheriklikka asoslanadi va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ta’sis etiladi. Advokatlik firmasi advokatlik faoliyatini amalga oshirishning jamoaviy shakli sanaladi. Advokatlik firmasining ta’sis hujjati uning ta’sischilari tomonidan tasdiqlanuvchi nizom sanaladi. Advokatlik firmasi oddiy yozma shaklda sheriklik shartnomasini tuzish orqali ta’sis etiladi. Sheriklik shartnomasiga ko‘ra advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko‘rsatishga o‘z kulcharini birlashtirish majburiyatini oladilar.

Sheriklik shartnomasini tuzib, advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko‘rsatishga o‘z kulcharini birlashtirish majburiyatini oladilar. Sheriklik shartnomasi oddiy shirkat shartnomasi xususiyatlariga ega. Shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligi qoidalari bevosita ularga nisbatan qo‘llab

bo‘lmaydi, chunki oddiy shirkat shartnomasiga ko‘ra shaxslar yuridik shaxs tashkil qilmay harakat qilishga kelishadilar, advokatlik firmasi esa yuridik shaxs sanaladi.

Sheriklik shartnomasining asosiy masalasi boshqaruvga oid – qarorlar qabul qilish, boshqaruvchi sherikni saylash va uning vakolati kabilar bo‘ladi.

Sherikchilik shartnomasi muayyan muddatga tuzilishi lozim. Shu bilan birga, qonun muddat bo‘yicha cheklovlar qo‘ymaydi, shu sababli sheriklarning o‘zлari shartnomaga amal qilish muddatini belgilaydilar. Sherikchilik shartnomasida advokatlik firmasi umumiy ishlarini yuritish tartibi aks etgan bo‘lishi lozim.

Ishonchnomalarни rasmiylashtirish fuqarolik qonunchiligining umumiyligi qoidalari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ishonchnomalarda sherikning ishonch bildiruvchilar va uchinchi shaxslar bilan bitim amalga oshirish va olatlariga cheklovlar (bitim turlari, ularning qiymati va b.) sanab o‘tilgan bo‘lishi lozim. Vakolatli sherik ishonch bildiruvchilar va uchinchi shaxslarga ishonchnomada keltirilgan o‘z vakolatlari bo‘yicha cheklovlardan xabardor qilishga majbur.

Ishonchnomada vakolatlarga cheklovlar ko‘rsatilmagan taqdirda, sheriklar sherikning huquqlari cheklanganligiga asoslanish huquqiga ega bo‘lmaydilar va amalga oshirilgan bitim barcha uchun umumiy sanaladi. Binobarin, kelishuv yoki boshqa bitim tuzilayotgan paytda ishonch bildiruvchi yoki uchinchi shaxs mavjud cheklovlarini bilganligi yoki bilishi lozim bo‘lganligini isbotlash bo‘yicha majburiyat barcha sheriklar zimmasiga yuklanadi.

Ishonchnomalar har bir sherikka individual ravishda berilishi bois, ularning mazmuni farq qilishi mumkin. ishonchnoma beruvchi sherik bitimlarni amalga oshirish, ishonchnoma muddati va boshqa shart-sharoitlarga cheklovlarini va vakolat doirasini mustaqil belgilash huquqiga ega. Individual ishonchnomalar berilishi firma faoliyatini murakkablashtirishi mumkin, shu sababli barcha sheriklar imzolari bilan umumiy ishonchnoma rasmiylashtirish maqsadga muvofiq.

Umumiy ishlar barcha sheriklarning umumiy kelishuviga asosan yoki, agar shartnomada ko‘zda tutilgan bo‘lsa, aksariyat ovoz bilan yuritiladi. Umumiy masalalarni hal etishda sheriklar huquqlari teng bo‘lib, firma faoliyatiga qo‘sishgan hissasi, advokatlik faoliyati staji va boshqa shartlarga bog‘liq emas. Sheriklar qarorilari sheriklik shartnomasiga qo‘sishma kelishuv bilan rasmiylashtirilishi mumkin. agar ko‘rsatilgan hujjatlar barcha sheriklar tomonidan imzolangan bo‘lmasa, ular kuchga kirgan sanalmaydi va uchinchi shaxslar uchun majburiy hisoblanmaydi.

Advokatura to‘g‘risidagi Qonun mohiyatiga ko‘ra, advokatlik firmasi ijroiya organi boshqaruvchi sherik sanaladi. Aynan u umumiy ishlarni yuritadi, uchinchi shaxslar bian munosabatda firma nomidan ish ko‘radi, uning faoliyati ustidan joriy boshqaruvni amalga oshiradi va sheriklar oldida hisobot beradi. Biroq, sheriklik shartnomasida umumiy qoidadan istisnolarni belgilash mumkin: umumiy ishlarni yuritish mazkur advokatlik tuzilmasidagi istalgan sherikka topshirilishi yoki umumiy ishlarni yuritish barcha sheriklar bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin. so‘nggi holatda biror-bir harakatni amalga oshirish uchun barcha sheriklarning bir vaqtidagi roziligi kerak, shu sababli kundalik faoliyatda bu shaklni qo‘llash o‘ta murakkab bo‘ladi.

Advokatlik firmasida ishonch bildiruvchi bilan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi kelishuv barcha sheriklar nomidan boshqaruvchi sherik tomonidan, shuningdek, istalgan boshqa sherik tomonidan tuzilishi mumkin. bunda, kelishuvni imzolashda sherik har bir sherik uning nomiga bergen ishonchnomalar asosida harakat qilishi lozim. Boshqaruvchi partner ham kelishuvlar va boshqa turdag'i bitimlarni tuzishda boshqa sheriklar ishonchnomalariga ega bo'lishi lozim.

Advokatura to'g'risidagi qonunda sheriklik shartnomasini bekor qilishning quyidagi asoslarini keltiriladi.

Chunonchi, sheriklik shartnomasi amal qilish muddati tugashi bilan bekor qilinishi mumkin va advokatlar yangi shartnomalar tuzishlari lozim bo'ladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, sheriklardan birining advokatlik maqomi to'xtatilganda yoki bekor qilinganda sheriklik shartnomasi bekor qilinadi. Shu bilan birga, advokatlar sheriklik shartnomasida boshqa sheriklar o'rta sidagi munosabatlarda uni saqlab qolish imkoniyatini ko'rish huquqiga egalar. Bu holda sheriklik shartnomasi faqat maqomi to'xtatilgan yoki bekor qilingan advokatga nisbatan bekor qilinadi.

Sheriklik shartnomasida uning istalgan sherik talabiga ko'ra bekor qilinishi ko'zda tutilgan bo'lishi lozim. Hatto, shartnomada bunday qoida bo'lmasa ham, u istalgan sherikning talabiga ko'ra bekor qilinishi lozim. Biroq, advokatlar bunday holatlarda boshqa sheriklar o'rta sidagi munosabatlarda shartnomaning saqlab qolinishi imkoniyatini keltirib o'tish huquqiga egalar. Bu holda sheriklik shartnomasi faqat shartnomaga bekor qilinishini talab qilgan advokatga nisbatan sheriklik shartnomasi bekor bo'ladi.

Advokatura to'g'risidagi qonunda ko'rsatilgan asoslardan tashqari, sheriklik shartnomasi fuqarolik qonunchiligining umumiy qoidalari bo'yicha ham bekor qilinishi mumkin.

Advokatura to'g'risidagi qonunning 4-2- moddasiga muvofiq, sheriklik shartnomasi bekor qilingan vaqt dan boshlab uning ishtirokchilari ishonch bildiruvchilar (himoya ostidagilar) va uchinchi shaxslar oldidagi bajarilmagan umumiy majburiyatlar bo'yicha birgalikda javobgar bo'ladilar. Javobgarlik to'g'risidagi me'yorlar imperativ bo'lib, tomonlar kelishuviga ko'ra o'zgartirilmaydi.

Advokatlik firmasidagi sheriklarning umumiy javobgarligi ularning ishonch bildiruvchilar va uchinchi shaxslar bilan kelishuvlari va boshqa bitimlari faqat barcha sheriklar nomidan tuzilishiga asoslangan. Shu sababli advokatlik firmasining ishonch bildiruvchilar va uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatları sheriklarning umumiy majburiyatları sanaladi. Sheriklarning advokatlik firmasi doirasidagi bunday huquqiy holati qarama-qarshi manfaatli ishonch bildiruvchilar ishini yuritish imkoniyatini mustasno qiladi.

Advokatlardan bittasining sheriklik shartnomasidan chiqishi u shartnomada qatnashgan davrida yuzaga kelgan umumiy majburiyatlar bo'yicha ishonch bildiruvchi yoki uchinchi shaxslar oldidagi umumiy javobgarlikni undan soqit qilmaydi. Shu munosabat bilan shartnomadan chiqishda sherik o'zi yuiridik

yordam ko‘rsatayotgan barcha ishlar bo‘yicha ish yuritishni boshqaruvchi sherikka topshirishi kerak bo‘ladi.

Advokatlik firmasida faoliyat yurituvchi advokatlar butun mulki bilan umumiy javobgarlik bo‘yicha javob beradilar. Shu bilan birga, Qonunda umumiy majburiyatlar bo‘yicha sheriklarning va yuridik shaxs sifatida advokatlik firmasining birgalikdagi javobgarligi masalasi yetarlicha aniq tartibga solinmagan:sheriklar advokatlik firmasi umumiy majburiyatlar bo‘yicha o‘z mol-mulkleri bilan subsidiar javobgarlikni zimmalariga olishlari lozim. Barcha sheriklar nomidan kelishuv imzolab, amalda avdokat sheriklarni jamlovchi advokatlik firmasi nomidan ish ko‘radi. Shu sababli umumiy majburiyatlar shu vaqtning o‘zida advokatlik firmasining ham, barcha advokatlarning ham majburiyatlar sanaladi.

Advokatlik firmasi yuridik shaxs bo‘lgani sababli, u, advokatlar hay'ati kabi, o‘z mulkiga ega bo‘lishi ham mumkin. Uning mulkining shakllanishi tartibi advokatlar hay'atidagi kabidir. Tegishlicha, advokatlik firmasi o‘z majburiyatlar bo‘yicha ushbu mulk bilan javobgar bo‘lishi mumkin. shu tariqa, ishonch bildiruvchi yoki uchinchi shaxs oldida javobgarlik yuzaga kelganda, Qonun mantiqiga ko‘ra, ular oldin bevosita advokatlik firmasiga, shundan keiyngina – uning sheriklariga talab qo‘yishlari kerak, ular esa birgalikda javobgar bo‘ladi.

**Advokatlar hay'ati** – a’zolikka asoslangan va advokatlar tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis etilgan, notijorat tashkilot shaklidagi advokatlik tuzilmasi. Advokatlar hay'atidagi a'zolar soni o‘n nafardan kam bo‘lmasligi lozim. Advokatlar hay'ati ta'sis shartnomalari muassislar tomonidan tasdiqlanuvchi nizom va ular o‘rtasida tuziladigan ta'sis shartnomasi sanaladi. Ta'sis shartnomasida muassislar advokatlar hay'atiga o‘z mulklarini o‘tkazish shartlarini, uning faoliyatida qatnashish tartibini, advokatlar hay'atiga yangi a'zolar qabul qilish, uning tarkibidan muassislar (a'zolar) chiqishi tartibi va shartlarini, shuningdek advokatlar hay'ati muassislari (a'zolari)ning huquqlari va majburiyatlarini belgilaydilar.

Advokatlar hay'ati advokatlik tuzilmasining advokatlik faoliyati jamoaviy asosda amalga oshiriladigan tashkiliy-huquqiy shaklidir. U Advokatura to‘g‘risidagi sobiq sovet nizomi asosida oldinlari amalda bo‘lgan advokatlik hay'atlaridan tubdan farqlanadi. Avvalgi advokatlik hay'atlari advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning birlashuvining yagona ko‘rinishi edi, u Nizomda belgilangan boshqaruv va nazorat organlari (oliy organ – hay'at a'zolari umumiy yig‘ilishi (konferensiyasi); ijroiy organi – prezidium, uning tarkibiga prezidium raisi va uning o‘rinbosari (o‘rinbosarlari) saylanardi; nazorat-taftish organi – taftish komissiyasi)ga, o‘z tuzilmaviy bo‘linmalari – yuridik konsultatsiyalarga nisbatan hokimiyat vakolatlariga ega edilar.

Endilikda advokatlar hay'ati yuzaga kelishining huquqiy asosi o‘n va undan ko‘p advokatlarning advokatlar hay'atini ta'sis etish bo‘yicha qarori sanaladi.

Advokatlar hay'ati notijorat tashkilotidir.

Advokatlar hay'ati a'zolarining huquqlari:

advokatlar hay'ati ishlarini boshqarishda qatnashish; ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda advokatlar hay'ati faoliyati to‘g‘risidagi axborotni olish;

o‘z ixtiyoriga ko‘ra advokatlar hay'atidan chiqish;

agar qonunda yoki ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, advokatlar hay'atidan chiqishda yoki undan chiqarilishda a'zolar tomonidan hay'atga o‘tkazilgan mulk qismini yoki ushbu mulkning qiymatini, a'zolik badallaridan tashqari, advokatlar hay'ati ta'sis hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda olish;

agar qonunda yoki advokatlar hay'ati ta'sis hujjatlarida boshqacha tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, advokatlar hay'ati bekor qilinganda kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan uning mulkining qismini yoki ushbu ushbu mulkning qiymatini, hay'at a'zolari tomonidan hay'atga taqdim etilgan mulk qiymati doirasida olish.

Advokatlar hay'ati a'zosi undan boshqa a'zolarning qaroriga ko‘ra, hay'at ta'sis hujjatlarida ko‘zda tutilgan vaziyatlarda va tartibda hay'at tarkibidan chiqarilishi mumkin.

Advokatlar hay'ati a'zolari ta'sis hujjatlarida ko‘zda tutilgan va qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Advokatlar hay'ati ta'sis hujjatlari quyidagilardir: muassislar tasdiqlagan nizom, muassislar tuzilishi kerak bo‘lgan ta'sis shartnomasi. Advokatlar hay'ati ta'sis hujjatlari talablari hay'atning o‘zi va uning muassislar (a'zolari) tomonidan ijro uchun majburiyidir. Advokatlar hay'ati ta'sis hujjatlari, shuningdek, ushbu hay'at bilan munosabatga kirishuvchi barcha shaxslar, jumladan hokimiyat organlari uchun majburiyidir.

Ta'sis shartnomaisda muassislar advokatlar hay'atini tuzish majburiyatini oladilar; uni tuzish bo‘yicha birligida faoliyat tartibini, o‘z mulklarini advokatlar hay'atiga topshirish shartlarini, hay'atga yangi a'zolar qabul qilish va uning tarkibidan muassislar (a'zolari)ning chiqishi tartibi va shartlarini, advokatlar hay'ati muassislar (a'zolari) huquqlari va majburiyatlarini, ta'sis shartnomasiga o‘zgartishlar kiritish tartibini belgilaydilar. Mazkur qoidalar ta'sis shartnomasida aks etishi majburiyidir.

Bundan tashqari, advokatlar hay'ati ta'sis shartnomalari uning boshqaruv organlari tarkibi va vakolati, ular tomonidan qarorlar, shu jumladan bir ovozdan yoki malkali ko‘pchilik ovoz bilan qaror qabul qilish kerak bo‘lgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilish tartibiga oid va advokatlar hay'ati bekor qilinganidan keyin qoladigan mol-mulkning taqismanishi tartibiga oid shartlarni qamrab olishi kerak.

Advokatlar hay'ati yuridik shaxs bo‘lib, o‘z tasarrufida alohida mol-mulkka ega, o‘z majburiyatlar bo‘yicha ushbu mulk bilan javob beradi, o‘z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlar olishi, amalga oshirishi, majburiyatni zimmasiga olishi, sudda da'vogar va javobgar bo‘lishi mumkin. Advokatlar hay'ati mustaqil

balansga ega bo‘lishi kerak va belgilangan tartibda mamlakat hududida va undan tashqaridagi banklarda hisoblar ochishi huquqiga ega.

Advokatlar hay'ati muhrga, shtamplar va o‘z manzili hamda nomi yozilgan blankaga ega bo‘ladi. Advokatlar hay'ati belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan emblemaga ega.

Nomi belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan advokatlar hay'ati undan foydalanishda mutlaq huquqqa ega.

Advokatlar hay'atining boshlang‘ich mol-mulki uning muassislarining ulushlaridan tashkil topadi. Ulush sifatida advokatlar hay'ati muassislari tomonidan kiritilgan bunday mol-mulk uning mulkiga aylanadi. Kelgusida advokatlar hay'ati a'zolari tomonidan badal sifatida berilgan mol-mulk ham hay'at egaligiga o‘tadi. Advokatlar hay'ati a'zolari uning majburiyati bo‘yicha javobgar emaslar, advokatlar hay'ati o‘z a'zolari majburiyatlariga javobgar emaslar.

Advokatlar hay'ati tuzilmasi, vakolati, tashkil topish tartibi va boshqaruv organlari vakolat muddatlari, ular tomonidan qarorlar qabul qilinishi va hay'at nomidan harakat qilish tartibi uning ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

Advokatlar hay'ati oliv boshqaruv organlari uning a'zolarining umumiy yig‘ilishi sanaladi. Umumiy yig‘ilishning asosiy funksiyasi – advokatlar hay'ati tashkil etilishidan ko‘zlangan maqsadlarga rioya etilishini ta'minlashdir.

Advokatlar hay'ati ijroiya organi kollegial (masalan, boshqaruv) va (yoki) bitta shaxs timsolida (masalan, rais) bo‘lishi mumkin. u advokatlar hay'ati faoliyatining joriy boshqaruvini amalga oshiradi va oliv boshqaruv organi oldida hisobotdor bo‘ladi.

Advokatlar hay'ati, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida, shuningdek, agar bu tegishli davlat qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, chet el hududida ham filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin.

Advokatlar hay'ati filiali uning hay'at joylashgan joydan boshqa yerda joylashgan va uning barcha funksiyalari yoki ularning bir qismini, jumladan vakolatxona funksiyasini bajaruvchi alohida bo‘linmasidir.

Advokatlar hay'ati filiali yuridik shaxs sanalmaydi, uni tashkil etgan notijorat tashkilotining mol-mulkiga ega bo‘ladi va u tasdiqlagan nizom asosida faoliyat yuritadi. Filial mol-mulki alohida balansda va uni tashkil etgan advokatlar hay'ati balansida hisobga olinadi. Filial rahbarlari advokatlar hay'ati tomonidan tayinlanadi va advokatlar hy'ati tomonidan berilgan ishonchnoma asosida faoliyat yuritadi.

Filial uni tashkil etgan advokatlar hay'ati nomidan ish olib boradi, shu sababli o‘z filiallari faoliyati uchun javobgarlik ularni yaratgan advokatlar hay'ati zimmasida bo‘ladi.

**Yuridik konsultatsiya** - Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan advokatliy faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan advokatlik tuzilmasi. Yuridik konsultatsiya Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan tegishli hududda yuridik yordamga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun advokatlik

tuzilmalarining soni yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda tashkil etiladi. Tegishli hududlarda yuridik yordamga bo‘lgan talab O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanuvchi normativlarga muvofiq aniqlanadi.

### **Advokatlarning kasb birlashmalari**

Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning birlashmalari jamoat birlashmalari to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq tuziladigan tashkilotlardan farq qiladi. Ular maqsadlari, fuknsiyalari, huquqtiy tartibga solish sub'ektlari, unga a‘zo bo‘layotganlarga, o‘z a’zolari maqomiga talablar, ularga yuklatilgan majburiyatlarga ko‘ra farqlanadi.

**“Advokatlik faoliyatini tashkil qilish”** tushunchasi advokatlarning o‘z vazifalarini samarali amalga oshirish uchun tegishli tuzilmaga birlashishlarining huquqiy va tashkiliy shaklini anglatadi. Advokaturaning tashkiliy shakllari yordamida ham beovsita advokatlik faoliyati amalga oshadi, ham bu faoliyatning yuridik, ijtimoiy va boshqa kafolatlari, jumladan advokatlarni noqonuniy harakatlar va davlat tomonidan advokatura faoliyatiga aralashuvidan himoyalash ta‘minlanadi.

Yuqorida keltirilgan, 1990 yil avgust oyida BMTning VIII Kongressida qabul qilingan Advokatlar roli to‘g‘risidagi asosiy qoidalarga muvofiq, advokatlarning o‘zi (davlat aralashuvisz) tomonidan ularning o‘z manfaatlarini ilgari surish, doimiy o‘qish, qayta tayyorlash va kasbiy darajasini qo‘llab-quvvatlash uchun o‘zini-o‘zi boshqarish assotsiatsiyalarini tashkil etish huquqi berilishi lozim.

1990 yil sentyabr oyida Nyu-York sh.dagi Xalqaro yuristlar uyushmasining Konferensiyasida qabul qilingan Yuridik kasb mustaqilligi xalqaro standartalirga muvofiq, har bir mintaqada bitta (yoki ko‘proq) mustaqil, o‘zini-o‘zi boshqaruvchi, qonunan e’tirof etilgan yuristlar uyushmasi tashkil etilishi lozim. Uning ijroiyligi organi boshqa organlar va shaxslar aralashuvisz bara a’zolar tomonidan erkin saylanashi kerak.

Advokatlarning kasbiy uyushmalari kasbiy standartlarni va axloqiy me’yorlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi, o‘z a’zolarini ta’qib etishdan, cheklowlardan va tajovuzdan himoya qiladi, yuridik yordam bilan barcha unga muhtojlarni ta‘minlaydi,adolatli sudlov va jamoat manfaatlari maqsadiga erishish uchun hukumat va boshqa institutlar bilan birlashib ish ko‘radi.

Advokatura to‘g‘risidagi qonunning 12-1 moddasiga muvofiq, Advokatlar palatasi O‘zbekiston Respublikasidagi barcha advokatlarning majburiy a’zoligiga asoslangan notijorat tashkiloti sanaladi. Advokatlar palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi o‘zining hududiy boshqarmalari bilan, advokaturaning o‘zini-o‘zi boshqarish yagona tizimini tashkil qiladi. Advokatlar palatasi advokatlar faoliyatiga aralashmaslik tamoyili asosida faoliyat yuritadi, bu qonunchilik hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladi.

Advokatlar palatasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

advokatlik tuzilmalari faoliyatini markazlashgan holda muvofiqlashtirishni amalga oshirish;

advokaturaning yanada rivojlanishiga, uning obro'sini oshirishga, advokaturaning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi rolining kuchayishiga ko'mak berish;

aholining huquqiy bilimlarini va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot bo'yicha choralar ko'rish;

qonunchilik va huquqni tatbiq qilish amaliyotini takomillashtirish, huquqiy tartibga solishning yaxlitligini va qonunchilik me'yorlarini bir xilda tatbiq etishni ta'minlash bo'yicha takliflar kiritish;

advokatura faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashish, ular bo'yicha takliflar berish;

advokatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jumladan davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan munsoabatlarda va sudda ilgari surish va himoya qilish;

advokatlarni ularning kasbiy faoliyati tufayli ta'qib etishdan, cheklashlardan va tajovuzdan himoya qilish uchun choralar ko'rish;

advokatlarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

tumanlar va shaharlarda yuridik konsultatsiyalarni ochish yo'li bilan aholining yuridik yordamdan foydalanishini ta'minlash;

advokatura faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni to'plash va o'rganish, advokatlar ishining ijobiy tajribasini tarqatish, advokatlik tuzilmalari uchun uslubiy yordam ko'rsatish;

advokatlar tomonidan qonunchilikka, Advokatlar kasbiy etiasi qoidalariga, advokatlik siriga va advokatlik qasamyodiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Advokatlar palatasi qonunchilikka ko'ra, boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Advokatlar palatasi yuridik shaxs sanaladi, mustaqil balansiga ega, qonunchilikka muvofiq banklarda hisobraqam va boshqa hisoblar ochadi, shuningdek muhr, shtamplar va o'z nomi ko'rsatilgan blankalarga ega. Advokatlar Advokatlar palatasi majburiyatları bo'yicha javobgar emaslar, Palata esa, advokatlarning majburiyatları bo'yicha javobgar emas. Advokatlar palatasi davlat ro'yxatidan o'tishi lozim, bu advokatlar ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) qarori asosida va yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.O'zbekiston Respublikasi hududida Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari tashkil etilishi mumkin, ular yuridik shaxslar sanaladi va Advokatlar palatasi tomonidan tasdiqlanuvchi nizomlar asosida ish yuritadilar.

Advokatlar palatasi hududiy boshqarmalari rahbarlari Advokatlar palatasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadilar (tegishli hududda ish yurituvchi advokatlar orasidan) va lavozimdan ozod etiladilar.

## **§ 5. *Advokatlik faoliyati va uzluksiz yuridik ta'lim***

Yuridik bilimni oliv ta'limning barcha bosqichlarida ham, mutaxassisining butun umri davomida kasbiy faoliyat davrida ham takomillashtirib borish lozim. Butun jamiyatning isloh qilinishining samaradorligi bevosita mahaliy yuristlar malakasining darajasiga bog'liqligini inobatga olsak, oliv ta'limdan keyingi uzlusiz ta'lim tizimini takomillashtirish doimiy vazifa sanaladi. Bu advokatura instituti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi, chunki advokatlarning uzlusiz yuridik ta'limi advokaturaning institutsional rivojlanishining umumiy va qonuniy tendensiyasi sanaladi.

Yuiridik ta'limni takomillashtirish uchun malakali advokatlarning taylorlash maqsadida quyidagi masalalar ustuvorlik kabs etadi: zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va tarqatish (o'quv jarayonini kompyuterlashtirish); zamonaviy interaktiv ta'lim uslublarini tatbiq qilish; talabalar mustaqil ishlashlari qismini kengaytirish; ishlab chiqarish amaliyotini o'tash mexanizmini qayta ko'rib chiqish, Malaka oshirish markazini yaratish yoki advokatlarning malakasini oshirish uchun maxs us dasturlar tuzio'; advokatlar stajirovkasini tashkil qilish; advokatlik faoliyati to'g'risidagi maxsus yuridik adabiyot, darsliklar, qo'llanmalar chop etishni moliyalashtirish; zamonaviy voqyelikka muvofiq ilmiy tadqiqotlar o'tkazish; advokatlar kasbiy madaniyati va huquqiy madaniyatini, aholi huquqiy ongini oshirish masalalariga e'tibor berish. Albatta, bu yakuniy ro'yxat emas.

Advokatlik faoliyatining ahamiyati, unga, uning sifatiga berilayotgan e'tibor "Advokatura institutining takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ba'zi qonunchilik hujjalariiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham o'z ifodasini topadi. Qonunning 7- moddasida advokatning o'z bilimlarini muntazam takomillashtirib borish, kamida uch yilda bir marta Advokatlar palatasi belgilagan tartibda kasbiy malakasini oshirish majburiyati belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, Advokatlik palatasiga advokatlarning kasbiy tayyorgarligini tashkil qilish va malakasini oshirish bo'yicha vazifa yuklatilgan.

Shu tariqa, professional yuridik yordam olish konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash uchun, advokatlarga quyidagi talablar (shartlar) ko'zda tutilgan:

- ✓ oliv yuridik mu'lumot mavjudligi;
- ✓ dastlabki kasbiy tayyorgarlik, u hozirgi vaqtida kamida olti oy advokatlik tuzilmasida stajirovkadan o'tash ko'rinishida amalga oshiriladi;
- ✓ malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish (zarur bilimlar mavjudligini tekshirish);
- ✓ o'z bilimlarini muntazam takomillashtirib borish;
- ✓ kamida uch yilda bir marta Advokatlar palatasi belgilagan tartibda o'z kasbiy malakasini oshirish.

## § 6. *Advokatlik faoliyati standartlari*

Advokatlik faoliyati standartlari deganda advokatlarning kasbiy xususiyatlari va harakatlariga qo'yiladigan talablarni tushunish kerak. Lekin, bizning nazdimizda, advokatlik faoliyati standartlari tushunchasi bu bilan kifoyalanmaydi,

chunki ular, amalda, mustaqil advokatlik faoliyatini amalga oshirishning kafolati ham bo‘ladi.

Standartlarni tartibga solish sohalari bo‘yicha farqlash mumkin: masalan, advokatlar tuzilmalarining tashkiliy-huquqiy standartlari, advokatlik amaliyotini tashkil qilish, mehnat munosabatlari standartlari, ish yuritish va hujjat almashinuvi standartlari, intizomiy standartlar, litsenziyalashtirish va b.

1990 yil avgustdagи BMT VIII Kongressida Advokatlarning jinoyatlar oldini olish bo‘yicha roli to‘g‘risidagi asosiy qoidalar qabul qilindi.<sup>40</sup>

Jumladan, huquqiy tizimlar mavjud boshqa rivojlangan davlatlar advokatlari uchun bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham hukumatning quyidagi kafolatlari katta ahamiyatga ega:

o‘zining barcha kasbiy majburiyatlarini qo‘rqtishsiz, to‘sinqinliksiz, xavotirsiz va noo‘rin aralashuvsiz bitirish imkoniyati;

erkin sayohat qilish va mijozga o‘zining mamlakatida ham, chet elda ham konsultatsiya berish;

e’tirof etilgan kasbiy majburiyatlar, standartlari va axloq me’yorlariga muvofiq amalga oshirilgan har qanday harakatlar uchun jazolash yoki jazolash bilan tahdid qilish va ayblash, ma’muriy, iqtisodiy va boshqa sanksiyalar qo‘llashning imkonsizligi;

kasbiy majburiyatlarini bajarishi tufayli advokatning xavfsizligi xavfs ostida qolgan joylarda ular hokimiyat tomonidan tegishlichimoyalanishi lozim;

advokatlar, o‘zlarining kasbiy majburiyatlarini bajarishlari tufayli, o‘z mijozlari va mijozlarining ishlari bilan tenglashtirilmasligi lozim;

sud yoki ma’muriy organ amaliyotga ruxsat berilgan advokatning o‘z mijoji manfaatlarini ilgari surish huquqini tan olishdan bosh tortmasligi lozim, agar bu advokat milliy huquq va uni qo‘llash amaliyotiga muvofiq diskvalifikatsiya qilinmagan bo‘lsa;

sudda, tribunalda yoki boshqa yuridik yoki ma’muriy organda o‘zining burchini vijdongan bajarayotgan, kasbiy majburiyatlarini ado etayotgan advokat ishga oid, yozma yoki og‘zaki shaklda qilingan arizalar uchun ta’qib etilishdan jinoiy va fuqarolik immunitetiga ega bo‘lishi lozim;

---

<sup>40</sup>Demidova L.A. Advokatura v Rossii. Uchebnik. Juridicheskiy Dom "Yustitsinform", 2006. - S.52.

advokatni axborot, hujjatlar va ish materiallari bilan o‘z vaqtida, jinoiy jarayonda esa – tergov tugashi va sudda ko‘rilishidan kechiktirmay tanishishini ta‘minlash vakolatli hokimiyatning majburiyatidir;

hukumatlar advokatlar va mijozlarning o‘zaro munosabatlari doirasidagi ular o‘rtasidagi, advokatning o‘z kabsiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq kommunikatsiya va konsultatsiyalarning maxfiyligini tan olishi va unga rioya etishi lozim.

BMTning Gavanada 1990 yilda bo‘lib o‘tgan jinoyatning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo‘yicha Sakkizinch Kongressida qabul qilingan “Yuristlarning roliga oid asosiy tamoyillar” quyidagilarga oid qoidalarni belgiladi:

- yurist va yuridik xizmatlardan foydalan olish;
- jinoiy adolatli sudlov masalalarida maxsus kafolatlar;
- malaka va kadrlar tayyorlash;
- funksiyalar va majburiyatlar;
- yuristlar tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarishga oid kafolatlar;
- e’tiqod va birlashmalar erkinligi;
- yuristlarning kasbiy birlashmalari;
- yuristlar tomonidan o‘z majburiyatlarining talab darajasida bajarilmaganligi uchun intizomiy choralar ko‘rilishi

1990 yil sentyabrda Nyu-Yorkda Xalqaro yuristlar assotsiatsiyasida qabul qilingan yuridik kasb mustaqilligi standartlarida belgilab qo‘yilgan:

- 1) yuridik kasb va yuridik ta’limga ruxsat;
- 2) jamiyatning huquqiy ta’lim olishi;
- 3) yuristlarning huquq va majburiyatlar;
- 4) kambag‘allarga yuridik xizmat ko‘rsatish;
- 5) advokatlar assotsiatsiyalari vazifalari;
- 6) yuristlarning intizomiy ishlari.

## **§ 7. Advokatlik faoliyatini soliqqa tortish**

“Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 11- muddasiga muvofiq, advokatura notijorat tashkilot sanaladi va o‘z faoliyatini o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiradi. U ixtiyoriy asosda, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega advokatlar tomonidan, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tashkilot sanaladi.

“Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 4- moddasiga binoan, advokatlik byurosi, hay'atlar va firmalar ular ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab yuridik shaxs maqomini oladilar va ular ko‘rsatgan yuridik xizmat uchun fuqarolar va yuridik shaxslardan keladigan pul mablag‘lari (daromadlar) hisobiga faoliyat yuritadilar.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 29- moddasiga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlarining mol-mulklarining shakllanishi manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

agar nizomda ko‘zda tutilgan bo‘lsa, kirish va a’zolik badallari;  
muassislari, ishtirokchilar (a’zolar)dan bir martalik va doimiy tushumlar;

ixtiyoriy mulkiy badallar va ionalar;

faqat nizomdagi maqsadlar yo‘lidagi tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan daromadlar (foyda);

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Bunda advokatli k tuzilmalarining asosiy moliyalashtirish manbasi ularning muassislari (a’zolari), ya’ni advokatlarning ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatish evaziga olgan daromadlari ko‘rinishidagi doimiy tushumlari sanaladi. Ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun tushadigan mablag‘lardan advokatlik tuzilmasini yuritish uchun ajratmalar hajmi uning ta’sis hujjati (Nizom) yoki advokatlik tuzilmasi muassislari (a’zolari)ning boshqa qarorlari bilan belgilanadi.

Advokatlik tuzilmasini yuritishga xarajatlar o‘z ichiga ma’muriy va xo‘ajlik xarajatlarini, shuningdek uni yuritish uchun boshqa xarajatlarni oladi.

Advokatlik tuzilmasini yuritishga xarajatlar tarkibiga quyidagi xarajatlar kiradi:

a) ma’muriy va xo‘jalik (texnik) personalning ta’minoti, jumladan ular mehnatiga haq to‘lashga, kompensatsiya va kafolatlangan to‘lov larga;

b) kommunal xizmatlar, shuningdek telefon, telekommunikatsiya va axborot xizmatlari haqini to‘lashga;

v) inventar, materiallar, kanselyariya, ofis va boshqa ashyolarni xarid qilishga;

g) transport vositalari, texnika ta’minotiga, ijarasiga, boshqa xizmatlarga haq to‘lashga, benzin va boshqa YOMMlarga;

d) advokatlar (advokatura ishchilari)ni o‘qitsiga, gazeta, jurnallar va boshqa davriy matbuotga obunaga, boshqa joriy xarajatlar;

ye) joriy ta’mirlashga;

j) texnika va jihozlar, orgtexnika, kompyuterlar va boshqa asosiy vositalar xarid qilishga;

z) qurilish va kapital ta’mirlashga;

i) advokatlik tuzilmasini yuritish uchun boshqa xarajatlar.

Advokatlik tuzilmasini yuritishga xarajatlar tarkibiga, “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 12- moddasiga muvofiq, advokatlar ijtimoiy himoyasi fondini tashkil etishga xarajatlar ham kiritiladi, uning mablag‘lari advokatlarning ijtimoiy ehtiyojlariga sarflanadi.

Advokaturani ijtimoiy himoya qilish jamg‘armasi mablag‘lari quyidagilarga ishlataladi:

- a) advokatlik tuzilmasi advokatlariga nafaqa, komensatsiya va kafolat to‘lovlarini to‘lash, ta’til pulini to‘lash. Bunda advokatlik tuzilmalari mablag‘larni ta’til pulini to‘lash uchun akkumulyasiya qilish huquqiga egalar (masalan, hisoblangan ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadigan hajmda);
- b) moddiy yordam ko‘rinishida beriladigan pullik nafaqalar turlari;
- v) sanatoriy-kruortda davolanishga, dam olish uylariga yo‘llanmalar haqini to‘lash, statsionar va ambulator davolanish haqini to‘lash;
- g) ovqatlanish puli, oylik yo‘l chiptalari berish yoki ularning qiymatini qoplash;
- d) advokatlar hayoti va salomatligini sug‘urtalash bo‘yicha badallarni to‘lash;
- ye) sayyohlik yo‘llanmalarini, sport seksiylariga abonenmentlarni to‘lash va shu kabi xarajatlar;
- j) O‘zbekiston advokatlar assotsiatsiyasiga advokat hisobidan a’zolik badalini o‘tkazish;
- z) advokatning boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qoplash<sup>41</sup>
- .

Advokatlik tuzilmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida, daromad solig‘ini to‘lmaydilar, shuningdek, yagona soliq to‘lovchilari sanalmaydilar.

“Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 11- moddasiga muvofiq, Advokatlarning mehnatiga jismoniy va yuridik shaxslardan ularga yuridik yordam ko‘rsatilganligi uchun advokatlik tuzilmalariga kelib tushgan mablag‘lar hisobidan haq to‘lanadi. Bunda yuridik xizmat uchun haq to‘lash advokat bilan ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) o‘rtasida ixtiyoriy ravishda tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshiriladi

Advokat tomonidan yuridik yordam uchun to‘lov sifatida tushgan mablag‘lar advokatlik tuzilmasining daromadi sifatida ko‘rilmaydi.

Advokatlik tuzilmasini yuritish uchun yo‘naltiriladigan (ushlab qolinadigan) mablag‘lar qismi tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad sanalmaydi. Bu mablag‘larga advokatlik tuzilmasini yuritish uchun muntazam ajratmalar sifatida qaraladi.

Advokatlik tuzilmasi tadbirkorlik ya’ni advokatlikdan tashqari (advokatlar tomonidan yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘limgan) faoliyati bilan shug‘ullansa, ushbu faoliyatdan tushgan daromad (foyda) daromad solig‘iga va yagona soliqqa belgilangan tartibda tortilishi lozim.

Jismoniy shaxslar daromad soliqlarini to‘lovchilar jismoniy shaxslar – moiyaviy yilda soliqqa tortiladigan daromadga ega advokatlardir.

---

<sup>41</sup> Advokatlik byurosi, advokatlar hay’ati, advokatlik firmalari va advokatlar tomonidan soliqlar va boshqa byudjetga majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomasi // utverjdenna Postanovleniem ot 29.02.2004 y.dagi MV №41, AV №66-mx va DSQ №2004-29 Qarori bilan tasdiqlangan, AVda 22.03.2004 y. 1330- son bilan ro‘yxatga olingan.

Advokatla mehnati uchun haq ko‘rinishidagi daromaddan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq summasini ushlab qolish va uni byudjetga o‘tkazish advokatlik tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Advokat tomonidan mehnat haqi ko‘rinishidagi daromadlarni aniqlash uchun asos advokatlar mehnat haqi fondi sanaladi.

Daromad solig‘i hisoblanayotganda, advokat tomonidan mehnat haqi evaziga olinayotgan daromadlar tarkibiga, mehnat haqi fondidan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 49- moddasi ikkinchi qismida ko‘zda utilgan daromadlar ham kiritiladi.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini ushlab qolish va byudjetga o‘tkazish bo‘yicha javobgarlik advokatlik tuzilmalari zimmasida bo‘ladi. soliq summasi ushlab qolinmaganda ular byudjetga ushlab qolinmagan soliq summasini va u bilan bog‘liq jarima va penyani o‘tkazishi kerak bo‘ladi.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini ushlab qolishda advokatlik tuzilmalari ushlab qolingga soliq summasini to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida o‘tkazadilar.

Advokatlik tuzilmalari majburdirlar:

ish haqini to‘lashda advokatga, uning talabiga ko‘ra, uning daromadining summasi va turi, shuningdek ushlab qolingga soliq (agar soliq ushlab qolingga bo‘lsa) summasi haqida ma'lumot berish;

moliya yili yakunlanganidan keyin o‘ttiz kun ichida soliq organlariga asosiy bo‘limgan ish o‘rnidan olingan daromadlar haqida ma'lumotnomma taqdim etish, unda jismoniy shaxs ro‘yxatga olish raqami, ismi, familyasi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili, daromadining umumiyligi summasi va hisobot yilidagi ushlab qolingga soliq umumiyligi summasi qonunchilikda belgilangan shaklda aks etadi;

har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15- sanasiga qadar, soliq organlariga yollanib ishlovchiga mehnat haqi va boqsha daromadlar ko‘rinishida hisoblangan va amalda to‘langan to‘lovlardan summasi, shuningdek ushbu daromadga soliq summasi qonunchilikda belgilangan shaklda taqdim etish.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 66- muddasiga muvofiq, qo‘sicha qiymat solig‘i to‘lovchilari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Advokatlik tuzilmalari tovarlar importida belgilangan tartibda bojxona to‘lovlari (jumladan qo‘sishma qiymat solig‘i va aksiz solig‘i)ni to‘laydilar, qonunchilikda ko‘rsatilgan vaziyatlar bundan mustasno.

Yuridik yordam advokat (jismoniy shaxs) tomonidan advokat va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosida ko‘rsatilishi tufayli, advokatlik tuzilmasi advokatlari tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam hajmidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi oliya vazirligi qoshidagi respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar o‘tkazilmaydi. Bevosita advokatlik tuzilmasi tovarlar ishlab chiqarilishi, ishlarni bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatilishi hollarida byudjetdan tashqari Pensiya va respublika yo‘l

jamg‘armalariga ushbu sotish hajmidan umumiy belgilangan tartibda majburiy ajratmalar amalga oshiriladi.

Advokatning u tomonidan yuridik yordam ko‘rsatgani uchun gonorarlari, nizomda ko‘zda tutilgan kirish va a’zolik badallari, ixtiyoriy mulkiy badallar va ionalar, advokatlardan bir martalik va doimiy tushumlar advokatlik tuzilmasining daromadi yoki tijorat yoki xo‘jalik faoliyatidan tushumlari hisoblanmaydi.

Advokatlik tuzilmalari yagona ijtimoiy to‘lov o‘rniga majburiy ijtimoiy sug‘urtaga mehnat haqi fondidan 25 foiz hajmida badallar to‘laydilar.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari
2. Advokatning huquqiy maqomi xususiyatlari
3. Advokatga litsenziya berish shartlari va tartibi
4. Yuridik konsultatsiyalarning tashkil topishi va moddiy-texnik ta'minlanishi asosi va tartibi

#### **1- vaziyat.**

Oliy o‘quv muassasasini tugatgach, Po‘latov advokat bo‘lib ishlash istagini bildirdi, malaka imtihonidan o‘tdi, advokatlik maqomini oldi, advokat guvohnomasini qo‘lga kiritdi. Biroq, u tomonidan tuzilgan, ish yuklatish va korxona xo‘jalik faoliyatini yuridik qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi pulli xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalari soliq inspeksiyasi tomonidan e’tiborsiz deb e’tirof etildi va advokat soliq javobgarligiga tortildi.

Advokat va soliq organi to‘g‘ri ish qilganmi?

Ushbu vaziyatda qonunning qaysi me'yorlari va kim tomonidan buzilgan?

#### **2- vaziyat.**

Uch nafar advokat advokatlar hay'atini ta'sis etdilar, unga keyinchalik yana o‘n nafar advokat hay'at a'zolari sifatida qabul qilindilar. Hay'at ta'sis etilayotgan vaqtdayoq qabul qilingan nizomga ko‘ra, hay'atga boshqa a'zolarni qabul qilish hay'at Prezidiumi, ya'ni hay'at ijroiya organi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu ustavda advokatlik faoliyati tamoyillari buzilishi mavjudmi.

Advokatlar hay'atida boshqa tur ta'sis hujjatini qabul qilish tartibi qanday?

Bu vaziyatda advokatlarni qoniqtirmaydigan hay'at nizomidan sudga shikoyat qilishdan saqlanish mumkinmi?

#### **3- vaziyat.**

Advokatlik firmasi muassislari, ular ijaraq olgan ofis uchun ijara to‘lovlarini to‘lay olmay, advokatlikdan boshqa yuridik faoliyat bilan pul topish uchun firmani tijorat yo‘nalishidagi firma sifatida qayta tashkil qilishga qaror qildilar (mas‘uliyati cheklangan jamiyat).

Advokatlarda to‘g‘ri qaror g‘oyasi tug‘ildimi?

Murakkab moliyaviy holatdan chiqish uchun ular o‘z muammolarini qanday hal qilishlari kerak?

**IV BOB  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ADVOKATURA VA INSON  
HUQUQLARI BO‘YICHA MILLIY INSTITUTLAR**

*Advokatura va inson huquqlari: xalqaro huquq jihat. Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tushunchasi va tizimi. Advokatura va O‘zbekiston*

*Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman). Advokatura va O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha millik markaz.*

### **§ 1. *Advokatura va inson huquqlari: xalqaro huquq jihatni***

Bugungi kunda advokat faoliyatini xalqaro miqyosda huquqiy va axloqiy tartibga solish bazasini tashkil qiluvchi quyidagi asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar mavjud:

- 26.06.1945 y.da qabul qilingan BMT Nizomi, u insonlarning jinsi, tili, dinidan qat'i nazar, inson huquqlari hurmat qilinadigan va qonuniylikka rioya etiladigan sharoitlar yaratilishiga bo'lgan huquqini e'lon qildi;
- 10.12.1948 y.da qabul qilingan Insong huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, u barchaning qonun oldida tengligi, aybsizlik prezumpsiyasini, ishning sudda xolis va ochiq ko'riliши tamoyillarini mustahkamladi va, eng muhimmi, himoya kafolatlarini berdi;
- 19.12.1966 y.da qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt, u BMT Nizomi va Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining asosiy qoidalarini tasdiqladi va ularni aniqlashtirdi;
- Parij tamoyillari (1991 y.) yoki Insn huquqlari bo'yicha milliy institutlar tashkil topishi va samarali faoliyat yuritishi bo'yicha tamoyillar to'plami, ular mazkur tadrijiy rivojlanishda muhim qadam bo'ldi. Ularda inosn huquqlari bo'yicha milliy komissiyaning standart maoqim va konsultatsiyaviy rolini belgilash yo'li orqali milliy institut konsepsiyasini aniqlashga urinish amalga oshirildi. Agar bu standartlar faqat "komissiya" deb belgilangan institutlarga emas, milliy institutlarning umumiyligi toifasiga nisbatan tatbiq qilinsa, bunday holda milliy institut konstitutsiya yoki qonun bilan inson huquqlari sohasidagi aniq funksiyalarni amalga oshirish uchun ta'sis etilgan organ bo'lishi lozim. Bu yondashuv ushbu toifadan nafaqat ko'proq umumiyligi funksiyalarga ega (masalan, ma'muriy tribunallar) davlat organlarini, balki qonunlarda tilga olinmaydigan barcha boshqa tashkilotlarni ham mustasno qilish uchun qo'llaniladi.

### **§ 2. *Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tushunchasi va tizimi***

Insonlar jamiyatlari, muayyan me'yorlar va hayot qoidalarini ishlab chiqib, tegishli hokmimiyat va boshqaruvi institutlarini shakllantira borib, ularni u yoki bu huquqlar va vakolatlar bilan ta'minlab, umum va xosning, yaxlit va uning qismlarining, davlat va uning fuqarolarining, fuqarolik va siyosiy jamiyatlarning manfaatlari muvozanatiga rioya etilishini nazorat qiladilar. Fuqarolik jamiyat davlat hokimiyati zaruriy minimumga tushishiga intiladi ("tungi mirshab", "fuqarolar shilarini boshqarish ko'mitasi", "jamiyatda tartib va qonuniylik nazoratchisi", "fuqarolar irodasi ifodachisi va ular manfaatlarining himoyachisi"). Davlatga yuklatilmagan huquqlar individlarda saqlanib qoladi va ularni himoya qilish butun jamiyatning vazifasiga aylanadi.

Individga eng yaqin, umumiy va u foydalana oladigani milliy inson huquqlarini himoya qilish vaositalari – ham fuqarolik, ham siyosiy jamiyat institutlari sanaladi. Inson huquqlari va erkinliklari – bu inson hayotining shunday jihatiki, unga nisbatan tahdidning asosiy manbasi davlatning o‘zi bo‘ladi. barcha hokimiyat institutlari va, avvalo, o‘zida siyosiy hokimiyatni ifodalovchi davlatga, o‘z hokimiyatini mutlaqlashtirishga intilish xosdir, bunga faqat unda yashovchi insonlarning huqulari va erkinliklarini cheklash orqaligina erishish mumkin. Insonni himoya qilishdagi eng samarali vositalar esa fuqarolik jamiyatni vositalari, mexanizmlari va institutlari sanaladi. Bu – ta’lim institutlari, assotsiatsiyalar, aholi guruhlari va qatlamlari (ayollar, nogironlar, faxriylar, yollanma ishchilar, harbiy xizmatchilar, olimlar, shifokorlar va h.k.)ning birlashmalari va uyushmalari, jamoat komissiyalari va inson huquqlarini himoya qilish markazlaridir.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning asosiy milliy vositasi davlatning Asosiy qonuni (Konstitutsiyasi)dir, u siyosiy boshqaruv shaklini va fuqarolarning hamda ular ta’sis etgan davlatning huquq va majburiyatlari mutanosibligi aks etadi. U siyosiy jamiyat sub'ektlari va institutlari o‘rtasida hokmimiyat va hokimiyat vakolatlarini taqsimlaydi, ularning shakllanishi taomillarini va ularning o‘zaro aloqasi usullarini belgilaydi, toki ularning birortasi qonun tomonidan belgilangan o‘z vakolatlari doirasidan chiqib ketmasin. Har bir institut faoliyatining maqsadi va siyosiy munosabatlarning murakkab tizimining har bir sub'ekting majburiyatlari aniq belgilanadi.

Fuqarolik jamiyatni institutlari inson huquqlari buzilishining oldini oladilar, ularga rioya etilishining tegishli kafolatlarini yaratadilar va huquqbazarlar yo‘lida to‘siqlar yaratadilar. Yollanma ishchilar ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilishda kasaba uyushmalari va ularning turli miqyosdagi birlashmalari muhim rol o‘ynaydi. Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoat komissiyalari, kengashlar va markazlar turli davlat institutlari tomonidan inson huquqlari buzilishining, ularning harakatsizligining aniq aktlarini to‘playdilar va umumlashtiradilar, ularni oshkor etadilar va jamiyat mulkiga aylantiradilar. Bu – inson himoyasining o‘ziga xos nazorat minoralari va tabiiy chegarachilaridir, shu vaqtning o‘zida ular qo‘ng‘iroq bo‘lib, ilg‘or va taraqqiy parvar insonlar har bir inson huquqi buzilishi holatida bong uradilar va ular to xato tuzalmagunicha bong urishdan to‘xtamaydilar. Aholining shunday birlashmalarining soni muntazam o‘sib bormoqda, ular faoliyatining doirasi esa kengayib bormoqda.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarini yaratish g‘oyasi 1946 yilda, EKOSOS a‘zo-davlatlarga Inson huquqlari bo‘yicha komissiya ishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida hamkorlik qilish uchun inson huquqlari bo‘yicha axborot guruhlari yoki komissiyalarini tashkil etish maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqishni taklif etdi.

**Inson huquqlari bo‘yicha milliy institut** – davlat tomonidan qonun (dekret)ga binoan tashkil etiladigan organ bo‘lib, uning funksiyalari mamlakatda inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilishdan iborat.

Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyatining asosiy xalqaro standarti (hujjati) "Parij tamoyillari" nomi bilan mashg'ur tavsiyalar va tamoyillardir.

"Parij tamoyillari" BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1993 yil 20 dekabrdagi tasdiqlangan (№48/134) va IHMI quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak:

1. huquqlarni himoya qilish bo'yicha keng vakolatlar;
2. qonunchilik bilan mustahkamlanganlik;
3. mustaqillik;
4. keng vakillik doirasi;
5. fuqarolar shikoyatini ko'rib chiqish imkoniyati.

### **Inson huquqlari institutlarining asosiy shakllari:**

- 1. Ombudsmanlar (davlat hokimiyati harakatlari qonuniyligini ta'minlaydilar);
- 2. inson huquqlari bo'yicha komissiyalar va milliy markazlar cheloveka (inson huquqlarini o'rganish va targ'ib etish);
- 3. inson huquqlari bo'yicha ixtisoslashgan muassasalar (bolalar, xotin-qizlar, kamchiliklar, nogironlar va b. huquqlarini himoya qilish)

### **§ 3. *Advokatura va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman)***

Ombudsman institutining yuzaga kelishi omillari va rivojlanish tarixi G'arb va Sharqning u yoki bu madaniyat yetakchiligi borasidagi asriy raqobati bilan bog'liqidir.

Masalan, G'arbda ombudsman timsoli – bu hokimiyat ta'qiblaridan fuqarolarni himoya qilish choralarini ko'rgan Rimning sivitatis ("Xalq himoyachisi")dir. Sharqda esa bu shariatga (savdo, xatti-harakatlar, muloqot va boshqalarda) amal qilinishini nazorat qiluvchi shaxs – muhtasibdir.

Ombudsman mutaqil mansabдор shaxs bo'lib, davlat amaldorlari harakatlari ustidan shikotlarni qabul qiladi va o'z tavsiyalarini beradi, to'g'ri, ular qonun

kuchiga ega emas. Ombudsman institutining afzalligi shundaki, fuqarolarning ombudsmanga murojaat qilishlari sudga murojaat qilishdan ancha osonroqdir.

Rasman ombudsman Shvetsiyada qirolning parlament bilan kurashda mag‘lub bo‘lganidan keyin yuzaga keldi (1809 y. Konstitutsiyasi). “Ombudsman” so‘zi shved tilidagi ombudsman – “kimning manfaatlarini ilgari suruvchi” so‘zidan kelib chiqqan.

Avval-boshda ombudsman qirolning adolatsiz qarorlarini to‘xtatib qolish funksiyasini bajargan va parlamentga bo‘ysungan.

Asosiy tavsifi:

shikoyat berishning rasiy tamoili mavjud emasligi;  
uni hal etishning majburiy emasligi;  
surishtiruv o‘tkazish uchun keng ikoniyatlar borligi;  
parlamentga har yili hisobot berib borish majburiyati.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) – davlat organlari, korxonalar, muassasalari, tashiklotlari va amaldor shaxslar tomonidan huquqlar va erkinliklar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazorati vakolati berilgan mansabdar shaxs.**

Bugungi kunda G‘arbda ombudsman hukumat tomonidan xususiy shaxslarning davlat muassasalari ustidan shikoyatlarini hal etish uchun tayinlangan har qanday shaxs sifatida qabul qilinadi. Masalan, Sharqiylar yevropadagi ba’zi yirik shaharlar meriyalari qoshida velosipedistlar huquqlari bo‘yicha ombudsmanlar tayinlangan. “Ixtisoslashgan” ombudsmanlar (bolalar huquqlari bo‘yicha, soliq, harbiy xizmatchilar, bemorlar huquqlari va sh.k.)

Finlyandiya – “Parlament Ombudsmani” nomi ostida institut ta’sis etgan ikkinchi mamlakat (1919 y.);

- ✓ Daniya – ushbu institutni ta’sis etgan uchinchi mamlakat (1953 y.).
- ✓ dunyoning dastlabki uch mamlakatida ombudsman paydo bo‘lishi uchun 144 yil talab etildi;
- ✓ keyingi 60 yil ichida ombudsman dunyoning 120 dan ziyod mamlakatida yuzaga keldi.
- ✓ Barcha ombudsmanlar “shvedlarga xos qiyofa”ga ega, ya’ni fuqarolar murojaatlarining norasmiy taomili bilan farqlanadilar, parlament oldida hisobotdorlar va surishtiruv o‘tkazish huquqiga egadirlar.

Mamlakatimizda Ombudsmanni tashkil etish va faoliyatini huquqiy tartibga solish bo'yicha o'z tajribamiz mavjud. Chunonchi, 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha Vakili lavozimi ta'sis etildi.

1997 yilda "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 2004 yilda, bikameralizmga o'tilishi munosabati bilan, "Oliy Majlisning inson huquqlari vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Oliy Majlis inson huquqlari bo'yicha vakili quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ shikoyatni ko'rib chiqish;
- ✓ arizachi o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan vositalar va shakllarni ko'rsatib berish;
- ✓ shikoyatni, uni amalda hal etishga vakolatli bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxsga topshirish;
- ✓ arizachaini uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga taalluqli hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishtirish;
- ✓ rad etish sababini albatta ko'rsatgan holda shikoyatni ko'rib chiqishi rad etish;
- ✓ qonunchilikka zid kelmaydigan boshqa choralar ko'rish (Qonun 13-m.).

Oliy Majlis inson huquqlari bo'yicha vakilining boshqa davlat huquqni muhofaza qilish tuzilmalaridan qat'iy farqi shundaki, u, yuqoridaqilardan farqli o'laroq, mavjud huquqiy maydonda ish yuritibgina qolmay, inson huquqlarini himoya qilishni yaxshilash maqsadida uni takomillashtirish va modernizatsiya qilish uchun muayyan sa'y-harakatlar qilish vazifasiga ham ega.

1995 yilda qariyb 200 ta murojaat qabul qilingan. Faoliyatning dastlabki o'n yilda – 40 mingta murojaat (yarmidan ko'pi – sudlar va huquqni muhofaza qilish organlari ustidan shikoyatlar). Bugungi kunda, fuqarolar murojaatlarining umumiy soni 100 mingtaga yaqinlashmoqda.

Ombudsman quyidagilar huquqlari sohasida monitoring yuritadi:

- ✓ ayollar va bolalar,
- ✓ mahbuslar;
- ✓ sudlarga murojaat qilish va b.

Ombudsmanning nazorat faoliyati uning mintaqaviy vakillari, boqsha inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vakillari, NNT, yuristlar, jumladan advokatlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Advokatura bilan birga ma'rifiy faoliyat amalga oshiriladi ("Demokratizatsiya va inson huquqlari" jurnali hammuassis). Advokatlar ishtirokida va advokatlar uchun treninglar, seimnarlar va konferensiyalar o'tkaziladi.

#### **§ 4. *Advokatura va O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz***

2012 yilga ma'lumotlarga ko‘ra, inson huquqlari bo‘yicha komissiyalar va milliy markazlar dunyoning 60dan ziyod davlatlarida tashkil etilgan.

1947 y. – Fransiya, 1978 y. – Kanada, 1981 y. – Avstraliya va b.

O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 31 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tashkil etildi.

**O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi:**

- davlat;
- tahliliy;
- konsultativ;
- idoralararo;
- muvofiqlashtiruvchi organ sanaladi.

Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 13 noyabrdagi 399- son Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi (quyida – Markaz).

Markaz tashkil etishdan quyidagi maqsadlar ko‘zda tutilgan:

- ✓ inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning amaliy mexanizmini tashkil etish;
- ✓ xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish;
- ✓ davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari masalalari bo‘yicha madaniyatini oshirish.

Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

- ✓ inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilish bo‘yicha milliy ma’ruzalarni tayyorlash;
- ✓ inson huquqlarini himoya qilish sohasida adabiyotlarni targ‘ib qilish va chop etish;
- ✓ inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish;
- ✓ nodavlat jamoat, huquqni muhofaza qilish tashkilotlari va siyosiy partiylar bilan inson huquqlari borasida hamkorlik qilish.

Markaz o‘zbek, rus va ingliz tillarida “Demokratizatsiya va inson huquqlari” jurnalini chop etadi.

Markazga quyidagi huquqlar berilgan:

- ✓ muvofiqlashtiruvchi va boshqa kengashlar, inson huquqini himoya qilishning holatini o‘rganish bo‘yicha ekspert komissiyalarini tuzish;
- ✓ olimlar, inson huquqlari borasida axborot-tahliliy materiallar tayyorlash bo‘yicha mutaxassislardan iborat vaqtinchalik ishchi guruhlar tuzish;
- ✓ konsultatsiya uchun, inson huquqlari sohasin o‘rganish va takliflar tayyorlash uchun ham mahalliy, ham xorijiy olimlar, mutaxassislar, ekspertlar va h.k. jalg etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Inosn huquqlari milliy markazi O‘zbekiston Respublikasining BMTning inson huquqlari bo‘yicha oltita asosiy xalqaro hujjatlarining ijrosiga oid Milliy ma’ruzalarini tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha chora-tadbirlar muvofiqlashtiruvchisi va asosiy ijrochisi sanaladi.

Bundan tashqari, uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) inson huchuvlarini g‘imoya qilish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha xalqaro va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- 2) inson huquqlari sohasidagi davlatlararo ikki tomonlama va ko‘p tomonlama kelishuvlarni ishlab chiqish, ekspert baholash va ularning kelishuvida qatnashish;
- 3) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek jamoat birlashmalariga inson huquqlari bo‘yicha konsultatsiya berish;
- 4) inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish borasida ta’lim berish, targ‘ib qilish, o‘quv-uslubiy adabiyotlar chop etish bo‘yicha davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish; fuqarolar huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish va rivojlantirish bo‘yicha axborot ma'lumot bazalarini tashkil etish.

Markaz BMT qo‘mitalari O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha oltita xalqaro hujjat qoidalari ijrosi to‘g‘risidagi 30dan ziyod milliy ma’ruzalarini taqdim qildi.

Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz O‘zbekiston Advokatlar palatasi bilan yaqindan hamkorlik qiladi, ular o‘rtasida inson huquqlarini muhofaza qilish bo‘yicha yaqin sheriklik aloqalari o‘rnatilgan. Inosn huquqlari bo‘yicha milliy markaz faoliyat yuritayotganidan buyon advokatura instituti bilan hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

- Inson huquqlari bo‘yicha BMTning oltita asosiy xalqaro shartnomalari qoidalarini bajarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy ma’ruzalarini tayyorlash va muhokama qilishda O‘zbekiston Advokatlar palatasi bilan hamkorlik qilish. Advokatlar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Qiynoqlarga qarshi konvensiya va b.lar qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha ma’ruzalarni tayyorlashda faol ishtiroy etganlar;
- BMT konvensiya organlari va maxsus muassasalari va mexanizmlari tavsiyalarini, jumladan BMT inson huquqlari, xotin-qizlar huquqlari, bolalar huquqlari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniya huquqlar qo‘mitalari tavsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejalarini tayyorlash va amalga oshirish;

- Inson huquqlari sohasidagi tashabbus loyihalarini tayyorlash, masalan, bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risidagi qonun konsepsiyasini va loyihasini tayyorlash va muhokama qilish;
- Aholi orasida inson huquqlari bo‘yicha keng axborot-ma’rifiy faoliyat yuritish; bu yo‘nalishda advokatlar Markaz tomonidan o‘tkaziladigan, inson huquqlari bo‘yicha konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlariga jalb etiladi;
- Inson huquqlari milliy markazi nashrlarida qatnashish, jumladan, advokatlar “Demokratizatsiya va inson huquqlari” jurnalida maqolalar bilan qatnashadilar;
- Markaz jamoatchilik bilan ishslash bo‘limining fuqarolarning individual shikoyatlarini ko‘rib chiqishda advokatlar bilan birqalikda ishlashi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. O‘zR inson huquqlari milliy institutlari tashkil topishi va rivojlanishining xususiyatlari va tarixiy omillari.
2. Inson huquqlarini himoya qilishning asosiy xalqaro huquqiy me'yorlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman)
4. O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha milliy markazi vazifalari va funksiyalari

### **V BOB**

### **ADVOKATNING KASBIY ETIKASI. ADVOKATLIK FAOLIYATIDA NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI**

*Advokatlik etikasi qoidalari, ularning ahamiyati va mazmuni. Advokat va ishonch bildiruvchi. Advokatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Ajvokatlar va sud jarayoni ishtirokchilari. Advokatlik siri. Advokat va manfaatlar to‘qnashuvi. Advokat gonorari. Zamonaliv notiqlikka kirish. Advokat himoya nutqining*

*tuzilishi. Sud nutqida dalillar kelitirish asoslari. Nutqning maqsadga yo 'nalganligi.*

### **§ 1. Advokatlik etikasi qoidalari, ularning ahamiyati va mazmuni**

*Haqiqat – bu to 'g 'rilikdan kelib chiquvchi majburiyatdir*

M.Mollo - fransuz advokati<sup>42</sup>

Mustaqil tashkilot a'zosi sifatida advokat advokatlik korpusi sha'ni va qadrini har tomonlama mustahkamlashi, advokatlik etikasiga faqat advokatlik majburiyatini bajarish chog'ida emas, balki kundalik hayotda, jamiyat hayotida ham rioya etishi, muayyan mijoz va butun jamiyat oldidagi o'z axloqiy majburiyatlarini anglashi lozim. Advokatning faoliyati avvalo fuqarolar va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

yevropa hamjamiyati mamlakatlarida "yevropa hamjamiyati mamlakatlari avdokatlari uchun umumiy qoidalar kodeksi" mavjud. 1990 yil sentyabrda Nyu-Yorkda o'tkazilgan konferensiyada Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi tomonidan "Xalqaro yuristlar assotsiatsiyasi yuridik kasb mustaqilligi standartlari" huquqiy hujjati qabul qilindi.

Mashhur advokat M.Yu.Barshevskiy advokatlik kasbining uchta asosiy tamoyilini ajratib ko'rsatadi: halollik, layoqatlilik va vijdoniylik. Ular advokatlik faoliyatining turli jihatlarida namoyon bo'ladi: mijozlarga konsultatsiya berishda, sudda, boshqa ommaviy chiqishlarda, hamkasblar, sud ma'muriyat bilan munosabatlarda, manfaatlar ziddiyati vaziyatlarida.<sup>43</sup>

#### **Advokatlik faoliyatida halollik quyidagilarni nazarda tutadi предполагает:**

- 1) individual bahoni, shaxsiy fikrni, advokatning o'z pozitsiyasini ifodalashga sub'ektiv vijdonan yondashish

<sup>42</sup> Традиции адвокатской этики. Избранные труды российских и французских адвокатов (XIX - начало XX вв.) / СПб. Изд. Юридический центр. 2004. - С.17.

<sup>43</sup> Барщевский М.Ю. Организация и деятельность адвокатуры в России: Научно- практическое пособие. - М.: Юристъ, 2000.

2) advokatning atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatda halol bo‘lishi

3) mijozga huquqiy yordam ko‘rsatishda vijdonsizlik, qalloblik va boshqa turdagি jinoyatning oldini olish;

4) advokatning mijoz va sud bilan o‘zaro munosabatlarda o‘zining advokatlik maqomiga muvofiq keluvchi o‘z xatti-harakati va o‘z pozitsiyasini o‘zi tanlash huquqi.

Advokat tomonidan o‘zining kasbiy burchini ado etayotganida namoyish etiladigan **layoqatlilik** va vijdoniylik u ko‘rsatayotgan yordamning yuyoori sifati va professionalligini shakllantiruvchi zaruriy omillardir. Advokatdan quyidagilar talab etiladi:

1) u o‘z faoliyatida to‘qnash keladigan barcha huquq sohalaridagi qonunchilik rivojlanishini diqqat bilan kuzatish, huquqni qo‘llash amaliyotidan xabardor bo‘lish, o‘z malakasini mustahkamlash va oshirib borish;

2) o‘z layoqatini, qo‘ilgan vazifaning murakkabligi va xususiyatini to‘g‘ri baholay bilish, mijoz topshirig‘ini bajarish bilan bog‘liq muammolarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hal eta olish;

3) o‘z malakasi yetarli bo‘lmagan vaziyatlarda mijoz ish yuritishni so‘rab murojaat qilganda u yo vakillik qilishdan bosh tortishi yoki ushbu sohada layoqatl boshqa advokatdan konsultatsiya olishga yoki u bilan hamkorlik qilishga mijozning roziliginini olishi;

4) o‘zining layoqatliligi yetarli emasligi tufayli mijoz topshirig‘ini bajarishdan voz kechganda advokat boshqa mutaxassisni tavsiya etishi va bu yordam qa’tiy ishonch bilan amalga oshirilishi lozim.

**Vijdoniylik tamoyili** advokat o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarayotganida bor imkoniyati va iqtidorini ba-ishlab harakat qilishi, **mijozga qisqa fursatda va uning manfaatlarini maksimal darajada inobatga olgan holda malakali yordam ko‘rsatish** uchun bor kuchini berishi lozimligini anglatadi, aynan:

1) oqilona tezlikda barcha kasbiy xatlarga javob berish, shuningdek boshqa kasbiy majburiyatlarni bajarishda punktuallikka rioya qilish;

2) mijozni huquqiy yordam ko‘rsatilishining asosli kechikishida yoki unga mijoz manfaatlarini talab darajasida himoya qilishga

2013 yil 27 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining II Konferensiyasida yangi tahrirdagi Advokat kasbiy etikasi qoidalari qabul qilindi. Ushbu hujjat advokatlik faoliyatini amalga oshirishda har bir advokat uchun majburiy bo‘lgan, axloqiy mezonlarga va advokatura an'analariga, shuningdek xalqaro standartlar va advokatlik kasbi qoidalariiga asoslangan xatti-harakat qoidalariini belgilaydi.

Ushbu hujjatda bayon etilgan advokatlik etikasi qoidalari keyingi paragraflarda batafsil ko‘rib chiqiladi.

## *§ 2. Advokat va ishonch bildiruvchi*

Avdokat va ishonch bildiruvchi o‘rtasidagi to‘g‘ri o‘zaro munosabatlarning shakllanishi ko‘pgina mojaroli vaziyatlarning oldini olish ikonini beradi.

Bu esa, advokat har doim va har narsada ishchan, mas’uliyatli bo‘lsagina, ishonch bildiruvchining qayg‘urishlari va ehtiyojlariga samimiy e’tibor bersagina mumkin bo‘ladi. faqat advokatga qonun va kasbiy etika kodeksida buyurilgan talablarga qat’iy rioya etish buning uchun yetarli emas. Ishonch bilidiruvchini uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun nimalar qilingani, qilingan ishlar natijasi bilan muntazam, yetarlicha tez-tez xabardor qilib borish kerak.

Advokat ishonch bildiruvchida qanday masalalar yuzaga kelganligini, uni nima xavotirga solayotganligini aniqlashi, tegishli tushuntirish, masalahat va konsultatsiyalar berishi lozim.

Advokat ishonch bildiruvchida biror-bir qo‘srimcha, aniqlik, hujjatlar va boshqa, advokatga muqaddam noma'lum bo‘lgan dilallar paydo bo‘lganligi haqidagi axborotni o‘z vaqtida olishi kerak. Bu samarali himoya tizimini yaratish imkonini beradi.

Muayyan davriyilikda tuziladigan, ish turi, ular haqi to‘langanligi va da‘volar mavjud emasligi (mavjudligi) ko‘rsatilgan va ishonch bildiruvchi hamda advokat tomonidan imzolangan ishni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari ham nizoli vaziyatlarning oldini oladi.

Advokat ishonch bildiruvchidan hujjatlar nusxasini olib, asl nusxasni ishonch bildiruvchining o‘zida qoldirishi maqsadga muvofiq.

Advokat ishonch bildiruvchiga u bilan tuzilayotgan kelishuvning har bir bandini, axborot almashinuvi tartibi va harakatlarni kelishib amalga oshirishni, ishonch bildiruvchining huquqlari va majburiyatları, shuningdek uning g‘ayrihuquqiy harakatlar uchun jamvobgarligini tushuntirib berishi muhim.

Advokatning o‘z aloqalariga havola qilishi yoki shama qilish, muammoni ishonch bildiruvchi foydasiga hal etishga va'da berishigi, tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘yilmaydi.

Amaliyot ko‘rsatadiki, ikkala tomon uchun oldinda turgan harakatlar rejasini batafsil muhokama qilish va kelishib olish nihoyatda foydalidir. Bunda ishonch bildiruvchidan ushbu rejaning yozma tasig‘ini olish ortiqchalik qilmaydi. Advokat himoyasi ostidagi shaxs bilan te-tez shaxsiy uchrashib turish advokatga ishonch uyg‘otishini, o‘zaro moyillik tug‘dirishini bilishi lozim. Ishonch bildiruvchi advokat uning muammolari bilan chin dildan qiziqayotganligi va haqiqatan uning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasi maqsadlarida barcha kerakli ishlarni qilayotganiga amin bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, o‘zaro ishonch yuridik yordam ko‘rsatilishining to‘liqligi va yuqori sifatli bo‘lishini ta‘minlashga yordam beradi.

### ***§ 3. Advokatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat***

Advokatura o‘z missiyasini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun u yaxlit bo‘lmog‘i lozim. Ajoyib advokat D.P.Vatmanning quyidagi so‘zlari advokatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning umumiy mohiyatini yaqqol ochib beradi: “Hamkasbiga, uning shaxsiyatiga, mehnat va ijtimoiy obro‘siga hurmat, advokatura nomining va sha'nining qadri haqida qayg‘urishni o‘zining axloqiy majburiyati deb hisoblovchi har bir advokat uchun bosh qoida bo‘lishi kerak. Bu – advokatlik etikasining alifbosidir, zero a'zolari o‘zaro munosabatda o‘zaro hurmat, xushmuomalalilik va qat‘iy boadablik ko‘rsatmaydigan, suddagi kurash jarayonida do‘stona birdamlik tuyg‘ularini unutib qo‘yadigan tashkilot boshqalardan hurmat kuta olmaydi”<sup>44</sup>.

Qoida ko‘rinishida bu axloqiy talab quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin: advokatning boshqa avdokatlarga nisbatan xatti-harakati hurmat va ochiq ko‘ngillikka asoslanishi lozim.

Ba'zida advokatga oldin boshqa advokatga murojaat qilgan mijoz murojaat qilib qoladi. Axloqiy tasavvurlarga ko‘ra, bunday mijozdan topshiriq olayotgan advokat o‘z hamkasbi bilan bog‘lanishi lozim. Hamkasbini ehtimoliy murakkabliklar, bu yo mijozning individual xususiyatlari yoki ishning ko‘zga darhol tashlanmaydigan huquqiy jihatlari bo‘lsin, - bu advokatning ma'naviy, axloqiy majburiyatidir.

Hyech qanday holatda, hatto mijoz talab qilsa ham, topshiriqni boshqa advokatga bergan advokat bu topshiriqni olgan advokatdan birinchisiga ishni

---

<sup>44</sup>Vatman D.P. Advokatskaya etika. - M., 1977. - S. 27.

davom ettirishga to'sqinlik qilgan ob'ektiv holatlar mavjudligini yashirishga haqi yo'q.

Advokatlik etikasi hyech qanday holatlarda kim bilan muomalada bo'lmasin, o'z hamkasbining mehnat va shaxsiy sifatlariga nisbatan hurmatsizlik, haqoratlash bo'lувчи fikrlar bildirmaslik kerakligini talab qiladi. Har qanday boshqa advokatning noxolis tanqidi yoki zarurati bo'lмаган tanqid, shuningdek o'zini reklama qilish maqsadidagi maqbul emasligi ochiq-oydindir. Shu bilan birga, agar bir advokat mijoziga o'z harakatlari bilan zarar yetkazsa, korporativ birdamlik boshqa advokatga aybdordan yuzaga kelgan zararlarni sud orqali undirib olish to'g'risidagi ishni o'ziga olishga to'sqinlik qilmasligi lozim.

Advokat mijozlar o'rtasida mavjud yoki endi yuzaga kelgan har qanday xushko'rmaslik tuyg'ulari, ayniqsa sud jarayoni vaqtida, advokatning ham boshqa advokatlarga nisbatan, ham mijozlarga nisbatan munosabatlariga ta'sir ko'rsatmasligi kerakligini doim esda tutishi kerak. Muayyan ish bilan shug'ullanayotgan advokatlar o'rtasidagi shaxsiy g'araz ishning to'g'ri ko'rinishiga to'sqinlik qilishi, sud qarori esa hissiyotlar ta'siri ostida qabul qilinishi mumkin.

Advokat ikkinchi tomon advokatining barcha xatolaridan, adashishlari, qonunbuzilishlaridan, alalxusus, agar ular ish mazmuniga ta'sir ko'rsatmasa va mijoz huquqlarini poymol qilmasa, ajratib o'tirmay foydalanishga urinishdan o'zini asrashi kerak. Sud jarayoni davomida advokatlar o'rtasidagi shaxsiy xarakterdagi luqmalar, o'z hamkasbiga nisbatan uning professional emasligi, kasbiy tajribasi kamligi, o'zining kasbiy xizmatlari yuksak ekanligini aytib tanqidiy hujum uyushtirish yo'l qo'yilmaydigan harakatlarga kiradi. Aksariyat boshqa vaziyatlarda bo'lgani kabi, bu qoidalarga rioya etilishi ham advokatning o'zi uchun, ham umuman butun advokatura uchun katta ahamiyatga ega. Agar a'zolari bir-birini hurmat qilmaydigan bo'lsa, tashkilotni birov hurmat qilishidan umidvor bo'lmaslik kerak.

Advokat boshqa advokat yuritayotgan ish bo'yicha boshqa tomon bilan suhbatlashmasligi yoki inzoli masalani muhokama qilishga urinmasligi lozim, o'sha advokat orqali yoki uning roziligi bilangina bunga ruxsat beriladi. Shuningdek, o'z hamkasbi bilan kelishib olmagan holda audio yoki videoyozuvni qo'llashga ham yo'l qo'yilmaydi. Ba'zi holatlarda advokat bunday yozuv amalga oshirilishini talab qilishga haqliligi boshqa masala, lekin uni maxfiy amalga oshirib bo'lmaydi.

Advokatning hamkasblari va sud oldida proyessual qonun qoidalarini tegishlichcha qo'llamaganligi uchun shaxsiy javobgarligi ham katta amaliy ahamiyatga ega. Bu ham hamkasbining proyessual vaqtি tejalishi, ham unga, sudga va nizoda qatnashayotgan tomonlarga nisbatan hurmatdir.

Advokatlik etikasi qoidasi sifatida advokat tomonidan o'z hamkasbiga uning kasbiy faoliyatida maksimal yordam ko'rsatish, huquqiy pozitsiyani tanlashda, murakkab huquqiy niszoni, kolliziyanı hal etishda masalahat berishni ham e'tirof etish mumkin. Bunda advokat xushmuomalalik tuyg'usini unutmaslik kerak bo'ladi.

Ushbu masalalarni faqat o‘z hamkasbi bilan muhokama qilish qoidalari doirasidan tashqariga chiqmaydi, lekin bu masalalarni mijoz bilan muhokama qilish, o‘z fikrini bildirishi uchun jalb etilgan masalalaridan tashqari, odobsizlik sanaladi va, binobarin, advokatlik etikasi qoidalariiga zid keladi.

#### *§ 4. Advokatlar va sud jarayoni ishtirokchilari*

Advokatning sudga nisbatan vijdonan munosabatda bo‘lishini eng muhim axloqiy qoidalardan deb e’tirof etish lozim. U advokatning ham jinoiy, ham fuqarolik ishlaridagi xatti-harakatiga tegishli bo‘ladi.

Advokatning suddagi xatti-harakatini tartibga soluvchi axloqiy me’yorlar yetarlicha sodda va tabiiydir. Bu qoidalarni qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin:

- ✓ sudni hurmat qilish, uni aldamaslik, unga bo‘ysunish lozim; ;
- ✓ protsessual raqib dushman jmas, u bilan xushmuomala bo‘lish kerak, haqorat qilmaslik lozim (bu so‘zning jinoiy-huquqiygina emas, maishiy ma’nosida ham), ustidan kulmaslik kerak, uning protsessual huquqlarini hurmat qilish va u bilan hisoblashish lozim;
- ✓ advokat tomonidan biror tomonni qanday bo‘lmisin aldashga yo‘l qo‘yilmaydi, yolg‘on dalillardan foydalanish taqiqlanadi, guvohlarning “ishlov berilishi”ga ruxsat berilmaydi.

Advokat adolatli sudlov kechishiga ta’sir ko‘rsatishi, ongli ravishda qalbaki hujjatlar taqdim etishi, faktlarni qalbakilashtirish, yolg‘on ko‘rsatma yoki guvohliklar berish (maslahat berish), o‘zi bilib turgan holda qonun yoki normativ hujjatlar yoki sud amaliyoti qoidalariini noto‘g‘ri, noaniq talqin qilishi, ongli ravishda, sudda bo‘lgan va unga taqdim etilgan dalillarda oqilona asos bo‘limgan biror nasarni bila turib ta’kidlashi, yoki shunchaki sibotlash va (yoki) asoslash lozim bo‘lgan narsani ta’kidlashi mumkin emas va bunday qilish taqiqlanadi.

Guvohlarni ko‘rsatma berishdan qaytarish yoki bunday guvohlarga sudda qatnashmaslikni tavsiya qilish, ongli ravishda guvohga sudga qasddan yolg‘on yoki to‘liq bo‘limgan ko‘rsatmalar berishga ruxsat berish, zaruriyatsiz, o‘z mavqyeini suiiste’mol qilib, guvohlarga tirg‘alish, ularni noaniq yoki yolg‘on ko‘rsatma berishda ayplash, ularga ularning shaxsiy hayotlariga oid savollar berish, zaruratsiz guvohlarni qanday bo‘lmisin fikrlarini o‘zgartirishga urinish, guvohlar bilan babs va gap talashishga kirishish mumkin emas.

Shu bilan birga, shunday usullar va harakatlar hamda advokatning zamonaviy psixologiya va psixoanaliz yutuqlarini qo‘llasshga asoslangan ruxsat berilgan va o‘zini oqlaydigan harakatlari o‘rtasidagi qat’iy chegarani aniqlab olish kerak.

Advokat, qonuniy uslublar va usullar bilan ish ko‘rib, axborot manbaini izlab topishi va istalgan potensial guvohdan, bu shaxs oldida o‘zining advokat sifatida axborot olishdan manfaatdorligini ko‘rsatib, axborot olishi va istalgan potensial guvohning ko‘rsatma berish ishtiyoyqini so‘ndirmaslik, shuning barobarida, sudga chaqirilganda

guvohning sudga kelishdan bo‘yin tovlashga undamaslik choralarini ko‘rishi kerak.

Advokat, sud qarori chiqarilishida hisobga olinishi mumkin bo‘lgan va uning opponenti tomonidan esga olinmagan, ishga aloqador bo‘lgan, boshqa tomon uchun noxush har qanday holatlar haqida sudni xabardor qilishdan asossiz saqlanish huquqiga ega emas. Advokatning bu borada boshqa tomon bilan, jumladan uning manfaatlarini himoya qilayotgan advokat bilan har qanday kelishuv tuzishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunday xatti-harakat mijoz manfaatlarini sotish, ushbu advokatni o‘zining himoyachisi va suddagi vakili sifatida tanlab, ushbu advokatga bildirgan uning ishonchini suiiste'mol qilish deb baholanadi.

### **§ 5. *Advokatlik siri***

Advokatlik siriga rioya etish Qadimgi Rimdayoq mavjud edi. Chunonchi, ko‘zga ko‘ringan yurist Fransua Eten Mollo «Règles de la profession d’avocat» kitobida ta’kidlaydiki, ishonilgan sirlarni qat’iy saqlash o‘sha paytlarda advokatura faoliyatining asosiy sharti bo‘lgan. “Advokat, - deydi metr Mrollo, - fuqarolarga ularning mulklari, obro‘sni va hayotini himoyalash uchun kerak. qonun va davlat uni ushbu oliy mavqyega tayinlaydi. Lekin uni munosib ravishda bajarish uchun, unga avvalo mijozning ishonchi kerak; sir saqlanishiga aminlik bo‘limgan joyda ishonch bo‘lmaydi”.<sup>45</sup>

Advokat yuridik yordam ko‘rsatilishi munosabati bilan ishonch bildiruvchi tomonidan unga ma'lum qilingan har qanday ma'lumotlarni ishonch bildiruvchining rozilgisiz e'lon qilish huquqiga ega emas. Advokatning bu eng muhim majburiyatishohida e'tiborni talab qiladi. Advokat advokatga murojaat qilinganlikning o‘zidan, shuningdek advokat tomonidan o‘z mijozlariga yuridik yordam ko‘rsatilishi bilan bog‘liq boshqa barcha ma'lumotlarni qamrab oluvchi advokatlik siriga qat’iy rioya qilishi kerak. shu munosabat bilan advokat unga yuridik yordam so‘rab murojaat qilinishi yoki bu yordam ko‘rsatilishi tufayli unga ma'lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin emas.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 6- moddasiga ko‘ra, advokatning telefondagи va boshqa muzokaralarini tinglash, yuridik yordam ko‘rsatiladigan xonani tekshiruvdan o‘tkazish, advokatlik siri saqlanishini xavfs ostiga qo‘yuvchi boshqa turdagи tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish, agar tegishli prokurorning sankziyasi bo‘lmasa, taqiqlanadi. Ish bo‘yicha advokat dosesi sanalmaydigan materiallar va hujjatlar faqat sud qaroriga muvofiq tekshirish va ko‘zdan kechirish, olib qo‘yish va tortib olinishi mumkin.

---

<sup>45</sup> Gavrilov S.N. Aktualnye voprosy organizatsii advokaturы i uchastiya zashchitnika v ugolovnom protsesse v Rossii. Istorya i sovremennost. M., 1998.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 10- moddasidagi advokatning guvoh sifatida chaqirilishi va so‘roq qilinishi mumkin emasligining ko‘rsatib o‘tilganligi davlat tomonidan belgilangan advokatlik faoliyati kafolati va advokatlik sirining ta‘minlanishiga bevosita aloqadordir. Mazkur qiodada advokatning advokatlik sirini ta‘minlash bo‘yicha kasbiy huquqi emas, balki davlatning advokatlik faoliyati mustaqilligining davlat kafolatini ta‘minlash bo‘yia davlatning majburiyati bayon etilgan.

Advokat (himoyachi)ning protsessual funksiyasi bilan o‘sha ishning o‘z bo‘yicha guvohlik ko‘rsatmasi berish majburiyatini birga olib borish ilojsizligidan kelib chiqadi. Ushbu me’yor JPK talablari bilan bog‘liq, unga ko‘ra quyidagilar guvoh sifatida so‘roqqa chaqirilishi mumkin emas: gumonlanuvchi, ayblanuvchining himoyachisi – jinoiy ish yuritishida qatnashganligi tufayli unga ma'lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida; advokat – yuridik yordam ko‘rsatishi munosabati bilan unga ma'lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida. Bu me'yorlarning amalga oshirilishi ishonch bildiruvchining advokatga u tomonidan o‘zining kasbiy funksiyalari bajarilishi munosabati bilan ishonib topshirilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan.

Advokat himoyani amalga oshirishi tufayli ham, boshqa yuridik yordam ko‘rsatilishi davomida ham unga aytilgan ma'lumotlarni fosh etishga haqli emas. E’tibor qaratish kerakki, ba’zi holatlar advokatga unga muayyan shaxs yordam so‘rab murojaat qilganidayoq, yuridik yordam so‘rab murojaat qilinmasidan oldinoq ma'lum bo‘ladi. Bunday holatlar ham advokatlik siriga kiradi.

Advokatni unga kasbiy faoliyati munosabati bilan ma'lum bo‘lgan yoki ishonib bildirilgan holatlar va ma'lumotlar to‘g‘risida guvohlik berish majburiyatidan ozod etilishi har bir fuqaroning shaxsiy hayoti va oilaviy sirining daxlsizligi, o‘z obro‘sni, sha’nini himoya qilish huquqini ta‘minlashga xizmat qiladi va shaxs tomonidan o‘z himoyasi uchun faqat advokatga sir sifatida ishonib bildirilgan axborot ushbu shaxsning irodasiga qarshi boshqa maqsadlarda, jumladan uning o‘ziga qarshi guvohlik sifatida ishlatalmasligining kafolati bo‘ladi.

## *§ 6. Advokat va manfaatlar to‘qnashuvi*

Mijoz va advokatning munosabati ishonch asosida quriladi, bu esa advokat o‘zini axloqsiz tutishi holatida imkonsizdir. Manfaatlar ziddiyati muammosi – advokat uchun eng murakkab axloqiy muammolardan biridir.

Advokat avvalda shu ish bo‘yicha o‘zi himoya qilgan yoki shu vaqtning o‘zida himoya qilayotgan shaxs manfaatlariga zid keluvchi boshqa mijozning manfaatlarini himoya qilishga kirishganda manfaatlar to‘qnashuvi haqida so‘z yuritishga to‘g‘ri keladi.

Boshqacha aytganda, manfaatlar to‘qnashuvi bir mojaroning bir necha tomonlarining qarama-qarshi manfaatlarini hisobga olishga majbur bo‘ladigan bo‘sa, manfaatlar to‘qnashuvi vujudga keladi.

Bu mojarolar to‘qnashuvining eng sodda shakli, voqyelikda muammo anchayin murakkab bo‘ladi. Chunonchi, ba’zida mojaro tomonlaridan birining manfaatlarini ilgari surishni to‘xtatib, mojaroda boshqa qatnashmay qo‘yanida mojaroning boshqa tarafi unga yordam so‘rab murojaat qiladi. U bunday topshiriqni zimmasiga olishi mumkinmi? Tushunish kerakki, boshqa tomon vakili sifatida qatnashgan vaqtida advokat maxfiy axborotlar bilan tanishgan bo‘lishi mumkin va bu hol endi, narigi tomon topshirig‘ini olganida, oldingi mijoz manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Bu axloqdanmi?

Afsuski, manfaatlar to‘qnashuvi masalalarini huquqiy tartibga solish qonunchiligidan yetarli emas. Bu borada “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunga, shuningdek Advokatlar kasbi axloqi qoidalariga e’tibor berish zarur.

Qonunda manfaatlar to‘qnashuviga tegishli birgina ibora mavjud. U ham bo‘lsa, qonunning 7- moddasi bo‘lib, unda advokat muayyan ish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatayotgan yoki ilgari yuridik yordam ko‘rsatgan shaxslarning manfaatlari ishni olib borishni so‘rab murojaat etgan shaxsning manfaatlariga zid kelgan va boshqa hollarda yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi topshiriqni qabul qilishga haqli emasligi ko‘rsatilgan.

Agar qonunga tayanilsa, bizning qonunchiligidan manfaatlar to‘qnashuvi o‘ta tor yoritilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Advokat bir shaxsga yuridik yordam ko‘rsatayotgan bo‘lsa, manfaatlari ushbu shaxs manfaatlariga zi keluvchi boshqa shaxsga yuridik yordam ko‘rsatish huquqiga ega emas.

Biroq Qoidalarda manfaatlar to‘qnashuvi batafsilroq tavsiflangan. Chunonchi, advokat muayyan ish bo‘yicha bir shaxsga yordam ko‘rsatgan bo‘lsa, shu ish bo‘yicha boshqa mijozning topshirig‘ini zimmasiga olishga haqqi yo‘q.

Qonunda aniq belgilab qo‘yilmaganiga, manfaatlar to‘qnashuvi muammolarining ko‘plab jihatlari doiradan chetda qolganligiga qaramay, qonunning turli moddalarda aks etgan mohiyati uni to‘g‘ri tushungan advokatga manfaatlar to‘qnashuvining asosiy tamoyillarini buzishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ushbu iboralardan kelib chiqib, manfaatlari ushbu mojaroda advokatning avvalgi ishonch bildiruvchisining manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsdan topshiriq olishga advokatning haqqi yo‘q, degan xulosaga kelish mumkin. Advokat o‘z ishonch bildiruvchisidan maxfiy axborot olgan bo‘lishi, u esa sobiq ishonch bildiruvchiga nisbatan ochiq oydin yoki ehtimoliy shantaj vositasiga aylanadi. Bu esa sobiq ishonch bildiruvchining o‘z mavqyeini himoya qilish irodasini sezilarli zaiflashtirishi mumkin. agar advokat unda mavjud axborotdan foydalanmasa, u murojaat qilgan shaxs oldidagi uning manfaatlarini halol va vijdonan himoya qilish majburiyatini buzgan bo‘ladi, chunki bu vaziyatda advokat ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilish uchun o‘zidagi barcha imkoniyatlardan foydalanmagan bo‘ladi.

Qonun, aniq iboralarda bo‘lmasa ham, advokatning manfaatlar to‘qnashuviga olib boruvchi harakatlarni sodir etishini taqiqlaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvi muammosi yuzasidan savol tug‘iladi: advokat topshiriqdan qanday holatlarda voz kechishi kerak?

- ✓ agar advokat shu vaqtda muayyan ish bo‘yicha manfaatlari murojaat qilgan shaxsning manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsning manfaatlarini ilgari surayotgan bo‘lsa;
- ✓ advokat odin shunday shaxsning manfaatlarini ilgari surgan bo‘lsayu, unga yordam so‘rab murojaat qilingan paytda ushbu mojaroda qatnashishni to‘xtatgan bo‘lsa, topshiriqni qabul qilish mumkin emas;
- ✓ ishonch bildiruvchidan olingan axborot advokat tomonidan, advokat ishonch bildiruvchiga vakillik qilgan ishga o‘xhash boshqa ishda bo‘lsa-da, unga qarshi ishlatilishi mumkin bo‘lgan sharoitda ham bunday shaxsning topshirig‘ini qabul qilish taqiqlanadi.
- ✓ manfaatlari bevosita ishonch bildiruvchining emas, balki uning affillashgan tuzilmalari manfaatlariga zid bo‘lgan shaxsga ham advokat vakillik qilmasligi shart. Advokatning bunday tuzilmalarga qarshi faoliyatni bevosita ishonch bildiruvchining faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi (masalan, ishon bildiruvchi ushbu tuzilmalar aksiyalaridan dividendlar ololmasligi) mumkin;
- ✓ manfaatlari advokatning hozirgi yoki sobiq mijoz manfaatlariga zid keluvchi shaxsdan topshiriq olishga advokatning haqqi yo‘q. Gap shundaki, u yoki bu mojaroda ishonch bildiruvchi boshqa, rasman ishonch bildiruvchi bilan bog‘liq bo‘lmagan (ishonch bildiruvchi va kompaniya bir-birining kapitalida ishtirok etmaydi), lekin u bilan yagona maqsadga intiluvchi tashkilot bilan birgalikda qatnashadi.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi umumiyl tamoyil sifatida quyidagi taklifni keltirish mumkin. Agar o‘zining hozirgi yoki sobiq ishonch bildiruvchisi yoki uning affillangan shaxslari bilan munosabatlari tufayli (uning oldidagi o‘z majburiyatlarini va Qonunga muvofiq majburiyatlarini buzmagan holda) advokat boshqa shaxsning manfaatlarini samarali va halol ilgari surishga qodir bo‘lmasa, u ushbu shaxs topshirig‘ini bajarishdan voz kechishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvining noxush vaziyatlariga yo‘liqmaslik uchun jiddiy advokatlik firmalarida yangi mijozdan topshiriq olishdan oldin manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirish taomili o‘tkaziladi. Advokatlar firma advokatlari murojaat qilgan shaxs manfaatlariga manfaatlari zid keluvchi biror shaxs tomonida u yoki bu bahsda qatnashmaganligini aniqlashga harakat qiladilar.

## *§ 7. Advokat gonorari*

Advokatning mijoz bilan o‘zaro munosabatlarining muhim jihatni yuridik yordam ko‘rsatgani uchun advokat gonorarining belgilanishi va olinishi sanaladi.

Qonuchilikka ko‘ra, advokat ko‘rsatilgan xizmatlar uchun gonorar miqdorini mustaqil (ishonch bildiruvchi bilan kelishgan holda), uning minimal yoki maksimal miqdoriy cheklolarisiz belgilash huquqiga ega. Bunda advokat ishning murakkabligi, topshiriqni yuajarishga ketadigan vaqt sarfini, o‘ziga baho berishini, sog‘lom fikr va shakllangan amaliyotdan kelib chiqadi.

Advokatning mehnati, ma'lumki, ko'plab resurslarni talab qiladi: kompyuter, faks, kseroks, qog'oz, texnik personal, axborot ma'lumot bazalari, yuridik davriy nashrlarga obuna, ofisni yuritish xarajatlari.

Advokaturaning eng yaxshi an'analariga rioya etgan holda, ishonch bilan aytish mumkinki, advokat tomonidan kam ta'minlanganlar manfaatlarini himoya qilishda, shuningdek mijoz yoki potensial mijoz advokat yuridik yordamidan uni to'lash uchun mablag'i bo'limganligi sababli voz kechishga majbur bo'lgan vaziyatlarda haq talab qilinishi axloqqa to'g'ri kelmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, advokat o'z gonorarini belgilayotganda muayyan holatlar va mijozning mulkiy ahvoldidan kelib chiqib, o'ta farosatli bo'lishi kerak. Advokatning mijoz bilan suhbat – bozor emas, advokatning jamiyatdagi mavqyei, uning faoliyatining mohiyati mijoz bilan suhbatini gonorar yuzasidan savdoga aylantirib yuborishga yo'l qo'yaydi.

Advokat va mijoz o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar ikkala tomon uchun o'ta aniq va to'liq oqlangan bo'lishi kerak. Advokat tomonidan belgilanadigan gonorar miqdori aodatli bo'lishi, ko'zda tutilgan (bajarilgan) ish hajmiga va masala (ish) murakkabligiga muvofiq kelishi shart.

Agari advokat bir ish bo'yicha ikki yoki undan ziyod mijozlar uchun ishlayotgan bo'lsa, o'ziga tegishli bo'ladigan mukofotni to'lash bo'yicha xarajatlarni, agar ularning kelishuvida boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, o'z mijozlari o'rtasida teng taqsimlashga majbur. Advokat istalgan paytda, ayniqsa agar mijoz bu masalalar bilan tanish bo'lmasa, mijozga gonorarni belgilash tamoyillarini tushuntirib berishga tayyor turishi lozim.

Advokat o'z vaqtida va vijdonan, hisob-kitoblardagi barcha noaniqliklarni ko'rsatgan holda o'z ish haqiningadolatli va oqlanganligini baholashi lozim, toki mijoz belgilangan gonorarning to'g'riliqi haqida asosli fikrga ega bo'lsin. To'lanadigan gonorar miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi g'ayrioddiy yoki ko'zda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, ehtimoliy bahslar, kleishmochilik yoki tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, advokat bu haqda mijozni o'z vaqtida ogohlantirishi shart.

Advokatlar kasbiy etikasi qoidalari muvofiq, kelishuv (shartnomada ish ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)ning foydasiga hal bo'lishiga qarab yuridik yordam uchun haq belgilanishi yoki qo'shimcha pul mukofotlari to'lanishi belgilanishi mumkin.

Advokatning ishonch bildiruvchi (himoya ostidagi shaxs)dan, avans to'lovidan tashqari, yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi kelishuv (shartnomada ko'rsatilgan shartlarni ta'minlash uchun mol-mulk olishi taqiqylanadi).

## § 8. *Zamonaviy notiqlikka kirish*

Bugungi kunda G'arb olimlari tez-tez notiqlikka, o'zlarining iboralari bilan aytganda, "yaqin davrga qadar quvg'in qilingan, lekin qachonlardir shuhratga

burkangan ilm”ga<sup>46</sup> murojaat qiladilar. Notiqlik, san'atlар nazariyasi sifatida, tuzilmaviy lingvistika bo‘yicha tadqiqotlarda yangicha hayot kasb etadi. Notiqlik to‘g‘risidagi zamonaviy tasavvurlar – bu shunchaki an'anaviy ishlab chiqiladigan g‘oyalar va uslublarning qayta tiklanishi emas, balki uning mohiyati va imkoniyatlarini yangidan tushunib yetishdir. Bunday anglashning namunasi – buyuk fransuz shoiri va adabiyot nazariyotchisi Pol Valerining fikridir, u notiqlikka shunday ta‘rif beradi: 1) o‘zlashtirilgan til nutqiy modifikatsiyasi; 2) til chetlanishlari to‘g‘risidagi ilm; 3) nutqni optimallashtirishga xizmat qiluvchi verbal substitutsiyalar (qo‘shimchali qisqartmalar) san‘ati.<sup>47</sup>

*Neoritorika yoki yangi notiqlik* (bu nom Bryussel universiteti professori Xaim Perelman tomonidan kiritilgan) bugungi kunda lingvistika, adabiyot nazariyasi, mantiq, falsafa kesishuvida ishlab chiqilmoqda.

Fransiyada yangi notiqlik sohasidagi ishlanmalarni Rolan Bart faoliyati bilan bog‘laydilar; *metaritorika* eng jo‘shqin rivojlanishga ega bo‘ldi, u notiqlik nazariyasi va uning tushunchalarini interpretatsiya qilish bilan shug‘ullanadi (Fransiyada XVI-XVIII asrlar fransuz mualliflarining notiqlik bo‘yicha mumtoz asarlarini qayta nashr etdilar va zamonaviy tadqiqotchilar unga tayanadilar).

AQShda – bu notiqlik tanqidi va notiqlik uslubiyotidir. Italiyada neoritorika adabiy tanqid doirasida rivojlanadi.

Belgiyada yangi notiqlikning ikkita yo‘nalishi farqlanadi: 1) *argumentativ notiqlik* (Perelman);

2) *umumiyl notiqlik* (Lej universiteti professori Jak Dyubua va boshqalar, ular notiqlik san'atlari ichida “istiora” (“metafora”)ni eng ajoyib sanaydilar). Ular notiqlikni nutq faoliyatining usullarini o‘rganuvchi fan sifatida ko‘radilar, bu usullar, boshqa diskurslar qatorida adabiy diskursni ham xarakterlaydi. Diskrus – bu insonlarning o‘zaro munosabati va ular ongingin mexanizmlarining maqsadli sotsial qismi sifatidagi pragmatik, sotsiomadaniy, psixologik omillarni qamrab olgan izchil matn yoki og‘zaki nutqdir.

Yangi notiqlikning yuzaga kelishi “notiqlik” atamasiga ikkita ma’no baxsh etdi: 1) tor – notiqlik san‘atini o‘rganuvchi kompleks fanni anglatuvchi, 2) keng – bunda notiqlik ob‘ekti har qanday ko‘rinishdagi nutq komunikatsiyalari bo‘lib, ular xabar oluvchiga oldindan belgilangan ta’sirni amalga oshirish “prizma”si orqali o‘rganiladi. Bu holatda notiqlik – ishontiruvchi kommunikatsiya to‘g‘risidagi ilmdir.

## § 9. *Advokatning himoya nutqi tuzilishi*

Ma'lumki, advokatning sud jarayonidagi ishtirokining yakuniy akti uning muhokamalarda sud nutqi bilan qatnashishi sanaladi. Advokatning sud

<sup>46</sup>Brutyan G.A. Novaya volna interesa k filosofskoy argumentatsii // Filosofiya i kultura. M., 1987. – S.87.

<sup>47</sup>Brutyan G.A. Tam je. – S.88.

jarayonidagi nutqiga ayblanuvchini himoya qilish ishida katta ahamiyat beriladi. Har qanday huquqiy jamiyatda advokatning mumtoz timsoli avvalo uning nutqi bilan bog‘lanadi.

“Advokatning himoya nutqi” ta’rifi ikkita tushunchadan iborat: umumqabul qilingan “nutq” tushunchasi va huquqiy “himoya” tushunchasi.

Nutq – so‘zlash qobiliyati; so‘zlashuv, suhbat; ommaviy chiqish. Bizning holatimizda oxirgi tushuncha – nutqning ommaviy akt ko‘rinishi sifatida ifodalash to‘g‘ri keladi.<sup>48</sup>

Shu tariqa, jinoiy ishdagi avdokatning suddagi nutqi – ayblanuvchi himoyachisining (jabrlanuvchining, fuqarolik da‘vogarining, fuqarolik javobgarining vakili bo‘lishi ham mumkin) sud majlisida so‘zlangan va sudga qaratilgan, himoyachining u himoya qilayotgan fuqaro foydasi uchun ularga psixologik va yuridik ta’sir ko‘rsatish maqsadidagi ommaviy chiqishidir.

An'anaga ko‘ra, advokatning jinoiy ishda himoyalash uchun suddagi nutqi faqat birinchi instansiya sudining, xususan uning “sud muhokamasi” deb ataluvchi bosqichining atributi, deb hisoblash qabul qilingan. Biroq amalda unday emas.

Yuqorida keltirilgan tavsifdan kelib chiqib, sud nutqi, aniqrog‘i ish bo‘yicha tinglov jarayonidagi sud nutqlari bilan ko‘p marta chiqishi mumkin. xususan, bu quyidagi vaqtlardagi nutqlar bo‘lishi mumkin:

- iltimosnama bildirish;
- ishni ko‘rish tartibi to‘g‘risidagi mavqyeni bayon etish;
- jinoiy ish tomonlari taqdim qilgan iltimosnama bo‘yicha fikr bildirish;
- qonunda ko‘zda tutilgan boshqa vaziyatlarda.

Shuningdek, apellyasiya, kassatsiya va nazorat shikoyatlari mazmuni, ikkinchi va nazorat instansiyalari sud organlaridagi boshqa, jumladan ishdagi boshqa tomon mavqyeiga qarshi raddiyalar bilan chiqishlar sud nutqi shaklida ifodalanishi mumkin. odatda bu nutqlar sudga birinchi instansiya sudida ish ko‘rilishidagi muhokamalarda so‘zlangan nutqlardan kam ta’sir ko‘rsatmaydi.

Advokatlik amaliyotida bu nutq tuzilishining muayyan standarti ishlab chiqilgan, u quyidagi tarkiyuiy qismlardan iborat:

- kirish;
- ishning amaliy holatlari tahlili;
- himoya qilinayotgan shaxsga nisbatan e’lon qilingan ayblov yuridik tasnifi tahlili (sodir etilgan qilmishni huquqiy baholash);
- himoya ostidagi shaxs shaxsiyati tavsifi;
- xulosa.

Bunda “sodir etilgan qilmishni huquqiy baholash” bo‘limiga advkatning ish bo‘yicha mavqyeining bayoni kiritiladi, u ishning yuridik talqini va amaldagi talqinini ochib berishdan iborat bo‘ladi. Ishning yuridik talqini deganda quyidagilar tushuniladi: advokat jinoyat tarkibining qaysi elementlariga e’tiroz bildirishi lozim bo‘ladi. U himoyasi ostidagi shaxs harakatlariga yuridik tasnifning o‘z talqinini taklif etadi. Tegishli yuridik talqinni tanlashda himoyachi unda

<sup>48</sup>Slovar russkogo yazyika SI. Ojegova. Izdatelstvo "Sovetskaya ensiklopediya". 1968g. - S.162.

ayblanuvchi foydasiga daillar maksimal darajada taqdim etilishiga va shu bilan bir vaqtda sudlanuvchining aybdor deb topilishi oqibatini minimumga keltirilishiga intiladi.

Yuridik va amaliy talqinni uyg‘unlashtirish advokatga ish bo‘yicha o‘zining mavqyeini sud e’tiboriga samarali yetkazish imkonini beradi. Ishonchli amaliy talqin mantiqiy, sodda, voqyeiy, yuridik talqinga muvofiq bo‘lishi kerak.

Nutqning kirish qismi keyinchalik materialning bayoni rivojlanishi uchun o‘zakni tashkil etadi. Bir holatda u ishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini baholashdan boshlanishi mumkin, boshqa holatda – o‘ziga xos jihatlarga ishora qilishdan, uchinchi holatda – himoyachining mavqyeini asoslashning umumiyligi jihatlarini bayon etishdan, to‘rtinchi holatda – prokurorga ish bo‘yicha uning mavqyei yuzasidan raddiya bildirishdan, beshinchi holatda – sudlanuvchi shaxsi tavsifi yoki xususiyatlaridan boshlanishi mumkin. har qanday holatda nutqning bu qismi katta bo‘lmasligi kerak.

Ish holatlarini va sudda ko‘rilgan dalillarni baholash bo‘yicha himoyaning mavqyeini bayon etish eng mas’uliyatli qism sanaladi. Qoidaga ko‘ra, bunday baholashda ularni tanqidiy tahlil etish mavjud bo‘ladi, qonunga, ayblov mavqyeiga qarshi topilgan raddiyalar va olingan oqlovchi dalillar asosidagi o‘z fikr-mulohazalari bildiriladi.

Nutqning boshqa mazmuniy qismlari katta murakkablik tug‘dirmaydi va ularni muayyan material bilan to‘ldirish sud tergovi davomida olingan, ish bo‘yicha dalillar bazasini tashkil qiluvchi ma’lumotlarga bog‘liq bo‘ladi.

## **§ 10. Sud nutqida dalillar keltirish asoslari**

Suddagi himoya nutqidagi dalillar keltirish ikkita konstruktiv asosga ega.

Birinchidan, sud nutqi – bu sudyalarga pusixologik ta’sir ko‘rsatish omilidir.

Ikkinchidan, sud nutqi – bu sudga himoyasi ostidagi shaxs sodir etgan qilmishga o‘z munosabatini, sudda o‘rganilayotgan dalillarga munosabatini, nega ularning ba’zisini u rad etadi, boshqasini ishonchli deb hisoblaydi va uchinchi xillarini – shubhali, boshqalarga zid deb hisoblashini asoslab beruvchi o‘z mantiqiy, huquqiy, amaliy holatlarini bayon etuvchi professional yuristning chiqishidir.

Advokatning himoya nutqida mazkur xususiyatlar ratsional va emotsiyal asoslarning tuzilma va ma’no jihatdan o‘zaro aralashuvini yaratadi. O‘z nutqi bilan advokat auditoriyani haqiqat sari boshlagandek bo‘ladi. Sud notiqligi ustasi A.F.Koni so‘zlariga ko‘ra, nutqda isbotlash va ishontirish zarur. Bunday sifatlar esa faqat mantiqiy va protsessual, hissiy va huquqiy ta’sirni mohirona uyg‘unlashtirganda hosil bo‘ladi.

Ba’zi advokatlar asosan tinglovchilarga hissiy ta’sir ko‘rsatish bilan, ko‘p faktlar, dalillar keltirmay maqsadga erishadilar. Biroq, bu faqat oddiy tinglovchilar yoki, masalan, xalq maslahatchilari holatida ish beradi. Professional sudyalarga esa ko‘proq mantiq, faktlar, yuridik dalillar ta’sir ko‘rsatadi.

Sud notiqligi nazariyotchisi P.S.Poroxovshikov qayd etganidek, sud nutqi avvalo g‘ayrioddiy mukammallikdagi aniqlik ajratib turishi kerak. Tinglovchilar qiynalmay tushunishlari lozim. Notiq ularning tasavvurlarini hisobga olishi mumkin, lekin ularning aqllari va tafakkurlariga tayanish to‘g‘ri emas. Shu sababli: sudya sizni tushunadigan qilib emas, tushunmay iloji yo‘q qilib gapiring. Bunday mukammallikka erishishda ikkita tashqi shart (nutqning tozaligi va aniqligi) va ikkita ichki shart (sohani bilish va tilni bilish) yotadi. Nutqni tuzishda u bayon etishning aniqligi va tozaligiga, so‘z boyligiga, raxonlik, sodda va kuchli so‘zlar ishlatalishiga, jarangdorlikka va sud nutqinig boshqa xususiyatlariga e’tibor beradi.

Bunda sudni samarali ishontirish uchun u majozdan, istioralardan va qiyoslashdan, tazoddan, boshqa nutq san'atlaridan foydalanishni maslahat beradi. Faqat fikr-mulohazalardan iborat nutq odatlanmagan insonlar xotiirasida qolmaydi; maslahatchilar maslahat xonasiga kirgunlaricha uni unutib yuboradilar. Agar ularda ta’sirchan manzaralar bo‘lsa, unutish iloji bo‘lmaydi<sup>49</sup>.

Notiqlik qonunlari asosida qurilgan yaxshi himoya nutqi xalq maslahatchilarini ishtirokidagi jinoiy ishlar ko‘rilishida alohida ahamiyatga ega. Psixolog V.A. Pishalnikova, maslahatchilar sudi fenomenini uzoq yillar o‘rganib, yozadi: “... o‘z intellektual kuchi bo‘yicha teng ishonchli ikkita muqobil qaror oldida turgan maslahatchilar o‘zidaadolat va ma’naviyatni aks ettirgan qaror tomonini oladilar”.<sup>50</sup>

Har qanday auditoriyani bir qator omillar bilan asoslanuvchi va yo‘naltiriluvchi auditoriya sifatida qabul qilish kerak. Advokatning vazifasi – tinglovchilarga o‘z mavqyeini isbotlash orqali ta’sir ko‘rsatishdir, zero faqat dalillar ularni asoslantiradi va ularni himoya uchun zarur aqliy xulosalar qilishga undaydi. Advokatlik amaliyoti ko‘rsatishicha, xalq maslahatchilarini qarorini muayyan ish (yoki uning bir qismini) ijtimoiy-tarixiy o‘zanga yoki madaniy yo‘nalishga burish orqali boshqarish mumkin. advokat tinglovchilarga har qanday jinoyat, ish bo‘yicha adolatlari qaror izlanishi nafaqat barcha insonlarga, balki jamiyat asoslariga, ularning hayotiga taalluqli ekanligini isbotlashi lozim. Auditoriya buni qanchalik tushunib yetsa, ko‘rilayotgan dalillar tizimiga nisbatan shunchalik mas’uliyat bilan yanada boshlaydi. Aks holda, ishni adolatlari hal etish uchun chuqr motivatsiyalar paydo bo‘lmaydi.

Aynan mana shu sababli tadqiqotchi Yu.F.Lubshev zaruriy holatlar sifatida sud surishtiruvchida qilmishning “kriminologik” holatlarini aniqshni, sudlanuvchining avvalgi hayotini, ob’ektiv vaziyatni tahlil qilishni, tashqi ta’sirlar ahamiyatini, atrofdagilarning noto‘g‘ri harakatlarini, jinoyatni sodir etishga undagan sabab va sharoitlarni o‘rganishni tavsiya etadi<sup>51</sup>.

Jamlangan holda, yuqorida keltirilgan himoya nutqining uchchala tuzilmasi aql bilan emas, “hissiyot bilan egallah” usulida o‘z ifodasini topadi. Biroq sudga

<sup>49</sup>Ritorika. Gl.11. V knige: Aristotel. Etika. Politika. Ritorika. Poetika. Kategorii. Klassicheskaya filosofskaya mysl. - Minsk: Literatura, 1998.

<sup>50</sup>Qar.: V.A. Pishalnikova. Psixologo-yuridicheskoe soderjanie sudebnogo protsessa i sudebnykh rechey v sude prisyajnyx zasedateley. - Barnaul: Izd-vo Altayskogo gosuniversiteta, 1998. - S. 48.

<sup>51</sup>Lubshev Yu.F. Advokatura v Rossii. - M., 2001. - S. 267-283.

ta'sir qiluvchi hissiyotlar – bular intellekt hissiyotlari, ular sog'lom aqlga asoslanadi. "Ritorika" muallifi Arastuga murojaat qilaylik. Nima ko'proq ishontiradi? Faylasufning fikriga ko'ra, bu: nutqda ishonchlilik, notiq – ishonsa bo'ladigan inson, uning nutqi ta'sirida ma'lum kayfiyat uyg'onadi, unga xayrixoh bo'ladilar va shu sababli dalillari to'g'ri bo'lib tuyuladi<sup>52</sup>.

XIX-XX asr boshlarida yashagan mashhur rus yuristi L.ye. Vladimirov ham shunga e'tibor qaratgan. "...Himoyachining ishi – to'g'ri, ko'rيلayotgan ish doirasida, jinoyatning ijtimoiy tomonini tushuntirishdir, toki himoya ostidagi shaxsning shaxsiy aybdorligi chegarasini aniqlash, shaxsiy iroda ifodasi sifatida jinoiy yustitsiya kurashadigan aybdorlik darajaisni aniqlashdan iborat"<sup>53</sup>.

## **§11. Nutqning maqsadga yo'nalganligi**

Advokatning himoya nutqi yetarlicha mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Unda advokat ishning barcha holatlarini sudlanuvchi himoyasi nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilishi, uning foydasiga so'laydigan barcha ma'lumotlarni keltirishi lozim bo'ladi. Guruhga doir ishda qatnashayotganida himoyachi o'z nutqini, takrorlar bo'lmasligi uchun, kim nimani aytishini belgilab olish uchun, hamkasblari nutqlari bilan muvofiqlashtirishi kerak.

Biroq, himoya nutqini qurishda biror-bir standart mumkin emasligi, himoya nutqi javob berishi kerak bo'lган hyech qanday umumiyl talablar yo'q, degani emas. Uning mazmuni va tuzilmasi erkin bo'lishi mumkin emas. Ular ishda advokatga yuklatilgan vazifalarga va u chiqish qilayotgan ishning muayyan xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Ishning aniq holatlaridan kelib chiqib, advokat:

1) sudlanuvchi harakatlarida jinoyat tarkibi yo'qligi, jinoyat hodisasining o'zi bo'lмаганлиги yoki unga sudlanuvchining aloqasi yo'qligi tufayli uning aybsiz ekanligini isbotlab, ayblovgaga butunlay e'tiroz bildirishi;

2) ayblovning ba'zi qismlariga e'tiroz bildirishi;

3) e'lon qilingan ayblovni yumshoqroq jazoni nazarda tutuvchi JK moddasiga o'zgartirish kerakligini isbotlab, tasnifning to'g'riliqiga e'tiroz bildirishi;

4) sudlanuvchi aybini yumshatuvchi holatlarni keltirib, uning aybdorligi va javobgarligining pastroq darajada ekanligini asoslashi;

5) sudlanuvchining jinoiy javobgarlik yuzaga kelmaydigan shuursizligini isbotlashi mumkin. Bularning barida himoyachi faktlarni keltirishi, u yoki bu qoidalarni ta'kidlashi va dalillar shubhali ekanligi haqida gapiribgina qolmasligi lozim. Bularning barchasini advokat aniq dalillar bilan mustahkamlashi, ishning aniq holatlarini keltirishi kerak.

<sup>52</sup>Ritorika. Gl.11. V knige: Aristotel. Etika. Politika. Ritorika. Poetika. Kategorii. Klassicheskaya filosofskaya mysl. - Minsk: Literatura, 1998.

<sup>53</sup>Qar.: E.M. Muradyan. Istina kak problema sudebnogo prava. - M.: Bilina, 2002. - S. 157.

Advokat nutqi faqat u to‘liqligicha va to‘g‘ri shaklda sudya tomonidan qabul qilinsa va nutqning mazmuni sudyalarini keltirilgan fikr-mulohazalarning haqiqat ekanligiga ishontirsagina o‘z maqsadiga erishadi.

Himoyachining nutqi aniq bo‘lishi kerak. Noaniq, yuzaki, ishga taalluqli bo‘lman fikr yuritishlar nutqni og‘irlashtiradi, sudyalar tomonidan qiziqish uyg‘otmaydi, sudyalarda haqiqiy ishonch shakllanishi uchun foydali bo‘lmaydi, shu sababli uni ishonchlilikdan mahrum etadi. Nutqda ishning aniq holatlari, aniq dalillar to‘g‘risida gapirish, aniq xulosalar chiqarish kerak va h.k.

Sudga to‘g‘ri hukm chiqarishga yordam berish – himoya nutqining yakuniy maqsadi mana shunday. Himoyachi o‘z nutqiga kirishadigan vaqtga kelib, o‘zi intilayotgan va sudga taqdim etmoqchi bo‘lgan yakuniy xulosa unga to‘liq ochiq-oydin bo‘lishi kerak. Himoyachi uning nuqtai nazari sudning nuqtai nazariga aylanishiga intilishi kerak. Binobarin, u sudga faqat ishning prinsipial, yuridik asosga ega, ish materiallariga qat‘iy muvofiq bo‘lgan yechimin taklif etishi mumkin.

Nutqning mazmuni sud, sud bilan birga esa himoyachi ham sud surishtiruvi davomida o‘rgangan ishlar bilan belgilanishi lozim. Sud surishtiruvi davomida himoyachi sudyalar tomonidan so‘roq qilinayotganlarga beralgan savollarni diqqat-e’tibor bilan kuzatib borishi kerak. Himoyachi sudyalarning alohida luqmalari, so‘zlarini nazardan qoldirmasligi kerak. U ish voqyealari haqida sudyalarning fikrlari qanday ekanligini bilishi va o‘z fikr-mulohazalarining mantiqiy asoslanishi bilan yo ular fikrlarini qo‘llab-quvvatlashi yoki ularni rad etishi lozim.

Mana shundan himoyachining vazifasi kelib chiqadi: sudyalar qanday fikrda ekanliklarini bilmay, bu fikrni tushunib yetish. Tushungach, qarshiliklar eshitmay, ularni o‘z dalillari bilan mustahkamlash yoki o‘zgartirish. Himoyachi o‘zi unga hyech narsa demayotgan insonni ishontirishi kerak. Himoyachi sudya undan biror bir shubhasiga e’tiroz kutayotganligini biladi; unchalik aniq bo‘lman, unchalik shakllanmagan fikrga tasdiq kutayotganligini biladi. Lekin sudya undan aniq nima kutayotganligini bilmaydi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlari bo‘yicha ishda qatnashganda, advokat sud tomonidan chiqarilgan hukm bosh maqsadga – voyaga yetmagan huquqbuzarning to‘g‘rilanishiga va qayta tarbiya etilishiga va yangi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan bo‘lishiga intilishi lozim. Guruhga oid ishlarda qatnashganda, ba’zi himoyachilar guruh ishtirokchilarining jinoyat sodir etishdagagi ishtiroki darajasini qiyoslash orqali va taklif etilayotgan jazo chorasiqa muvofiqligini o‘rganish orqali sudlanuvchilarning har biriga nisbatan jazo choralarini to‘g‘riligini tanqidiy tahlil qilmaydilar.

Himoyachining jazo chorasi to‘g‘risidagi taklifi aniq bo‘lishi kerak, lekin bu har doim ham u muayyan jazo chorasi qayta tarbiya etilishiga va yangi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan bo‘lishiga intilishi lozim degani emas, chunki bu nomaqbul oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu masalani hal etishda himoyachi ham muqobililikning ilojsiz ekanligini yodda saqlashi lozim bo‘ladi.

Himoya nutqining xulosasi qanday bo‘lmasin – oqlov haqida xulosami, tasnifning o‘zgartirilishi haqidami, afv qilish to‘g‘risidami – u aniq, ikkilanishlardan va ichki va nutq mazmunidan kelib chiqadigan ziddiyatlardan xoli

bo‘lishi lozim. Xulosa qanday bo‘lmasin, u butun nutqning zaruriy va yagona sintezi bo‘lishi kerak. Nutqini bir emas, ikkita xulosa bilan yakunlaydigan, qolaversa ularning biri boshqasiga zid keladigan advokat mavqyei noto‘g‘ri sanaladi.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Advokat faoliyatining axloqiy xususiyatlari. Advokatning kasbiy etikasi qoidalari.
2. Advokatlik siri, uni to‘g‘ri tartibga solish va ahamiyati.
3. Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi. Advokatning manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatidagi o‘zini tutish axloqiy qoidasi.
4. Advokatning suddagi xatti-harakati axloqiy qoidalari

#### **1- vaziyat.**

Qonun va advokatlik etikasi nuqtai nazaridan ba'zi advokatlarning quyidagi mazmundagi qoidasini qanday baholaysiz: “Agar qonun sizga qarshi bo‘lsa – faktlarga tayaning. Agar faktlar sizga qarshi bo‘lsa – qonunga tayaning. Agar qonun va faktlar sizga qarshi bo‘lsa – boshqa advokatlarni jon berib koying”.

Advokat ushbu qoidaga amal qilganida yoki qilmaganida insonni himoya qilish samarali bo‘ladimi?

Bu qoidada qanday manfaatlar va kategoriylar to‘qnash keladi, unda axloqiy va huquqiy kategoriylar almashinushi yo‘qmi?

#### **2- vaziyat.**

Aholining ba'zi qismi orasida kim aybdorni himoya qilsa, u o‘z boshiga aybni chaqiradi, degan fikr keng tarqagan.

Siz bu fikrni qanday tushunasiz va unga qanday qaraysiz?

#### **3- vaziyat.**

Arxont Salon, qonunlar haqida so‘zlar ekan, ularni o‘rgimchak to‘riga o‘xshashini e’tirof etgan: agar ularga kuchsiz va yengil narsa tushsa, o‘rgimchak to‘ri uni ushlab qoladi, agar kattaroq nimadir ilinsa, u barcha qonunlarni yorib yuboradi va qutulib chiqadi.

Ushbu fikrga advokatlik faoliyati va advokatura to‘g‘risidagi qonunchilik nutqai nazaridan yuridik va ma’naviy-axloqiy baho bering.

#### **3- vaziyat.**

Advokat Goryachev, biznesmen Shustrov va uning advokati Solomin bilan muzokaralarda o‘z ishonch bildiruvchisi manfaatlarini ilgari surib, hamkasbi Solominga nisbatan nomaqbul fiklar bildirdi, u tayyorlagan hujjatni (Shustrovga

da'voga raddiya)ni “pala-partish”, Shustrovni o‘zini esa “qamoq sog‘inib turgan arbob” deb aytди.

Goryachevning harakatlariga axloqiy me'yorlar va advokatlik etikasi nuqtai nazaridan baho bering.

Advokat mojaroli vaziyatda ish (bahs) bo‘yicha qarama-qarshi tarafga nisbatan o‘zini qanday tutishi lozim?

Advokatning advokatura bo‘yicha o‘z hamkasblariga va o‘zining protsessual raqibiga nisbatan shunday fikr bildirishi mumkinmi?

#### **4- vaziyat.**

“Yolg‘on haqiqat bilan boqiladi, unda u gullaydi, lekin uning hayoti qisqa” aforizmining mazmunini o‘z amaliyotida shubhali ishlarga, sullohlikka, huquqni muhofaza qilish organlari va sudlar xizmatchilari bilan xizmatdan tashqari aloqalarga tayanuvchi insofsiz advokatlar faoliyatiga nisbatan tahlil eting.

Qaysi advokat Sizda yaxshi taassurot qoldiradi: halol, prinsipli, o‘qimishli va madaniy, yoki prinsipsiz, vijdonsiz, lekin o‘ziga yarasha o‘qimishli va madaniy?

### **VI BOB XORIJIY MAMLAKATLARDA ADVOKATURA**

*Xorijiy mamlakatlar advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlili ahamiyati. MDH mamlakatlari (Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziya)da advokatura. AQShda advokatura. Germaniyada advokatura. Buyuk Britaniyada advokatura. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida advokatura. Xalqaro advokatlik jamoatchilik birlashmalar. Bepul yuridik yordam va advokatura: xalqaro-huquqiy jihatlar.*

#### **§ 1. *Xorijiy mamlakatlar advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlili ahamiyati***

Tarix jamiyat va davlat qurilishining har qanday sohasida xorijiy tajribaning ko‘r-ko‘orna ko‘chirilishi maqsadga muvofiq emasligi va ilojsiz ekanligini ko‘rsatadi. Huquqiy tizim shakllanishining tarixiy shart-sharoitlarini, xalq mentalitetini va asrlar davomida shakllangan an‘analarni, huquqiy madaniyatni hisobga olish nihoyatda muhimdir.

Turli davlatlar advokaturalarini o‘rganishda qiyosiy-huquqiy tahlil xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

birinchidan, uning umumilmiy uslublar bilan munosabatini yoritishda,

ikkinchidan, uning yuridik ilm xususiy uslublari tizimidagi o‘rnini belgilashda.

Qiyoslash predmeti quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ✓ mavjud bo‘lgan advokaturalar, ya’ni, qiyoslash tarixiy (dioxron) xarakterga ega bo‘lishi mumkin; bunda u dioxron qiyoslash deb ataladi. Dioxron qiyoslashda advokaturaning demokratik jamiyatning eng muhim instituti sifatida rivojlanishining tarixiy qonuniyatlari kuzatiladi;
- ✓ turli davlatlarda amaldagi advokaturalar (sinxron qiyoslash) va bunda ularni yaqinlashtiruvchi zamonaviy tendensiyalar namoyon bo‘ladi, ular qiyosiy-huquqiy tahlilning ob’ekti bo‘ladilar.

Advokaturalarning qiyosiy-huquqiy tahlil ob’ektlari turli tuman bo‘ladi. Tadqiqot ob’ektiga qarab, qiyoslash turli darajalarda o‘tkaziladi.

**Birinchi (quyi) daraja** – bu advokatura to‘g‘risidagi huquqiy me’yorlarni qiyoslash (mikroqiyoslash). Unda asosan qiyoslanadigan me’yorlarni parallel bayon etgan holda yuridik-texnik jihatlar ko‘riladi. Huquqshunos olim o‘zini qiziqtiruvchi advokatura to‘g‘risidagi empirik-huquqiy materialni aniqlaydi va tizimlashtiradi; ushbu darajadagi tadqiqotni doimo va nisbatan oson o‘tkaxish mumkin, bunda qiyoslash ob’ekti turli davlatlarning advokatura to‘g‘risidagi qonunlari bo‘ladi.

**Ikkinci (o‘rta) daraja** - advokaturaning huquqiy institutlarini qiyoslash (institutsional yoki tarmoq qiyosi). Bu darajada ham advokaturani huquqiy tartibga solishni o‘rganish nisbatan oson, biroq advokatura institutlarini tadqiq qilish advokatlarning faoliyati kafolatlari ijtimoiy himoyasini butun huquqiy tizim bilan bog‘liqlikda o‘rganish bilan to‘ldirilishi lozim.

**Uchinchi (yuqori) daraja** – bu advokatura tizimlari va institutlarini umumiy suratda qiyoslash (makroqiyoslash). Zamonaviyo dunyodagi advokaturalarning ularning yaxlit shaklida ularning shakllanishi va faoliyat yuritishi jarayonini, faoliyatining asosiy tamoyillari va advokat ijtimoiy himoyasi hamda kasbiy obro‘sini huquqiy tartibga solish manbalarini, shuningdek advokatlik amaliyotini inobatga olgan holda qiyoslash anchayin murakkab, biroq qiyoslashning bu darjasasi ham nazariy jihatdan o‘zini oqlaydi va zarur, chunki aynan shu yerda advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlilining nisbiy mustaqilligi to‘liqroq namoyon bo‘ladi.

Advokaturani o‘rganishning qiyosiy-huquqiy uslubi anglashning o‘xshash ob’ektlarini bir-biriga taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Masalan, advokatlarning an'anaviy va yangi tashkil topgan hay’atlari.

*Qiyosiy huquqshunoslikning ahamiyati shundaki, turli davlatlar huquqiy tizimlarini bir nomdagi davlat va huquqiy institutlarni, ularning asosiy tamoyillari va kategoriyalarini taqqoslash yo‘li bilan o‘rganish orqali tadqiq etilayotgan materialni yanada chuqur va aniq tushunish mumkin.*

Masalan, advokatura, huquqiy institut sifatida, har qanday davlatda huquqni qo‘llash nazariyasi va amaliyotini tasdiqlash, qonun bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarning huquqiy himoyalanganligini kuchaytirishga ko‘mak berishga

yo‘naltirilgandir. Ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlarning ob'ekti bo‘lmish advokaturaning yuridik yordam ko‘rsatishdagi rolini kuchaytirish muammosi bugungi kunda faqat advokatning suddagi protsessual maqomiga taqab qo‘yilishi mumkin emas. U yanada ko‘pqirrali va murakkab, demak, har tomonlama muhokama etishga muhtoj.

O‘zbekiston uchun Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining boshqa mamlakatlari tajribasi, yetakchi G‘arb davlatlari (Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya va b.) tajribalari kabi qadrlidir.

## **§ 2. MDH mamlakatlari (*Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova, Tojikiston, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziya*)da advokatura**

Bir qator MDH mamlakatlari (Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldova, Tojikiston, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, Armaniston, Ozarboyjon, Gruziya)ning advokatura faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining qiyosiy-huquqiy tahlili advokaturani tashkil etishning, tartibga solinishi har bir RESPUBLIKAda o‘ziga xos, farqli xarakterga ega qiziqarli jihatlari borligiga dalolat qiladi.

Chunonchi, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari konstitutsiyalari asosan professional yuridik yordam olish huquqini e’lon qiladilar, lekin advokaturaning maqomi konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan Respublikalar ham bor. Masalan, Turmaniston Konstitutsiyasida keladi: “Fuqarolarga va tashkilotlarga yuridik yordamni advokatlar va boshqa shaxslar ko‘rsatadilar (TK 106- m.); Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq keltiriladiki, “advokatura va yuridik yordam ko‘rsatishning boshqa shakllarining tashkil etilishi va faoliyati tartibi konstitutsiyaviy qonunlar bilan belgilanadi” (92- m.).

Barcha qonunchilik hujjatlari ham “advokatlik faoliyati” tushunchasiga tavsif bermaydi.

RF 2002 yil 31 maydagи “Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to‘g‘risida”gi Federal qonuni (2002 yil 1 iyuldan kuchga kirgan) 3-m., 1-q.ga ko‘ra, advokatura deb davlat hokimiyati organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tizimiga kirmaydigan, fuqarolik jamiyatining instituti bo‘lmish advokatlar kasbiy hamjamiyati e’tirof etiladi.

Moldova Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi qonunlarida, masalan, advokaturaning jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek adolatli sudlovdan foydalanishni ta’minlash maqsadlarida professional asosda malakali yuridik yordam ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan fuqarolik jamiyatni instituti sifatidagi vazifalarining tayinlanishigina belgilanadi.

Armanistonda advokatlik faoliyati qonunda taqilangan vositalar va usullar bilan yuridik yordam oluvchining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan “huquqni muhofza qilish faoliyati turi” sifatida belgilangan.

Belorussiyada advokatlik faoliyati – bu “ushbu Qonun bilan ko‘zda tutilgan tartibda advokatlar tomonidan professional asosda jismoniy shaxslar, shu jumladan, individual tadbirkorlar, yuridik shaxslar, shuningdek davlat (keyingi

o‘rinlarda, agar boshqasi ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, - mijozlar)ga ularning huquqlari, erkinlik va manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish, shuningdek adolatli sudlovdan foydalanishni ta‘minlash maqsadlarida ko‘rsatiladigan yuridik yordamdir”.

Turkmanistonda “advokatlik faoliyati advokatning professional yuridik yordami bo‘lib, qonunda belgilangan tartibda, insonning huquqlari va erkinliklarini, yuridik shaxsning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda qonuniylikni ta‘minlash va mustahkamlashga ko‘mak berish maqsadlarida ko‘rsatiladi”.

Qиргизистонда advokatlik faoliyati “advokatning jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda malakali yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati” deb belgilangan. Тојикистон Республикаси Qонуни advokatlik faoliyatiga advokatlarning yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyati, deb qisqacha ta‘rif beradi.

MDH mamlakatlar qonunchiliklarida “advokat” tushunchasiga ham turlicha yondashuv kuzatiladi. Masalan, Armanistonda “advokat deb ushbu Qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan, advokatlar palatasi a’zosi bo‘lgan va qasamyod qabul qilgan shaxs hisoblanadi. Advokat huquqiy masalalar bo‘yicha mustaqil maslahatchi sanaladi”, boshqa barchalarda u yoki bu respublika fuqarosigina advokat bo‘lishi mumkin.

RFda advokat – bu davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan oliy kasbiy ta‘lim beruvchi ta‘lim muassasasida olingan oliy yuridik ma'lumotga yoki yuridik ixtisoslik bo‘yicha ilmiy darajaga ega. Advokat huquqiy masala bo‘yicha mustaqil maslahatchi sanaladi, u foyda ko‘zlamaydi, ilmiy va boshqa ijodiy ishlardan tashqari, haq to‘lanadigan ish bilan shug‘ullanish huquqiga ega emas (Qонун 2-m.).

Yuqorida keltirilgan Federal qonunga muvofiq, advokatlik maqomini olish uchun kamid 2 yillik yuridik ixtisoslik bo‘yicha mehnat staji yoki advokatlik tuzilmasida 1-2 yil ichida stajirovkadan o‘tash, shuningdek malaka imtihonini topshirish zarur.

Belarus Respublikasida Belarus Respublikasi fuqarosi, oliy yuridik ma'lumotga ega, ushbu Qonunda belgilangan vaziyatlarda stajirovkadan o‘tgan va malaka imtihonini topshirgan, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olgan (quyida, boshqasi nazarda tutilgan bo‘lmasa, - litsenziya) va hududiy advokatlar hay'ati a’zosi bo‘lgan jismoniy shaxs advokat bo‘ladi.

To‘liq layoqatga ega, huquq litsensiati diplomiga ega, obro‘siga putur yetmagan, kasbiy stajirovkadan o‘tgan va malaka imtihonini topshirgan Moldova Respublikasi advokat bo‘la oladi (qонун 8- м. 2-к.). Qиргиз Respublikasida “камиди бир yillik yuridik mehnat tajribasiga yoki kamida bir yil advokat yordamchisi sifatida mehnat tajribasiga ega” bo‘lishi lozim; Moldova qонунидаги kasbiy stajirovka muddati bir yilgacha deb ko‘rsatilgan.

“Turkmanistonda Turkmanistonda doimiy yashovchi, oliy yuridik ma'lumotga ega, advokat maqomiga ega Turkmaniston fuqarosi advokat bo'lishi mumkin”.

MDHning barcha mamlakatlarida advokatlik faoliyatini amalga oshirishga tegishli tartibda layoqatsiz yoki cheklangan layoqatli deb topilgan, shuningdek qasddan jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilinganlar, agar ularning suqlanganligi tugatilmagan yoki olib tashlanmagan bo'lsa. Ba'zida huqujni muhofaza qilish va boshqa davlat organlaridan obro'sizlantiruvchi sabablarga ko'ra ishdan haydalish ham to'siq bo'ladi.

MDH mamlakatlarida advokaturani tashkil etish va faoliyat yuritish tamoyillari turlicha. Barcha tadqiq qilinayotgan qonunlarda mustaqillik tamoyili umumiyyidir. Qonuniylik tamoyili esa faqat Qirg'iziston Respublikasi qonunidagina belgilanmagan. O'zini boshqari va advokatlarning tenghuquqliligi kabi tamoyillar faqat Armaniston Respublikasi qonunchiligidagi kuzatiladi, advokatlik siriga rioya etish tamoyili va qonunchilikda taqiqlanmagan barcha huqujni himoya qilish vosita va usullaridan foydalanish faqat Belorussiya va Qozog'iston qonunlarida keltirilgan.

Advokatlarning kasbiy faoliyatiga davlat organlari tomonidan aralashuvga yo'1 qo'yilmasligi tamoyili faqat Belorussiya, Qozog'iston va Turkmaniston qonunlarida mavjud.

Advokaturaning tashkiliy shakllari katta ahamiyatga ega, zero aynan ular orqali bevosita advokatlik faoliyati hamda uni yuridik, ijtimoiy va boshqa kafolatlar bilan ta'minlash, jumladan advokatlarni davlat tomonidan noqonuniy harakatlar va advokatura faoliyatiga aralashuvdan himoya qilishni ta'minlash amalga oshiriladi.

Ushbu MDH mamlakatlarida advokatlik tuzilmalari shakllari ham xilma xildir.

Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati advokatlik tuzilmalarida amalga oshiriladi. Advokatlik faoliyati yuritilishi mumkin bo'lgan advokatlik tuzilmalarining to'rtta tashkiliy-huquqiy shakllari ko'zda tutilgan: advokatlik kabineti, advokatlar hay'ati, advokatlik byurosi va yuridik konsultatsiya.

Advokatlik kabineti Rossiyadaga advokatlik tuzilmasining yangi shakli sanaladi, ushbu shakldagi advokatlik tuzilmasining joriy etilishi XX asr 20-yillarda taqiqlangan xususiy amaliyotning qayta yuzaga kelishini anglatadi. Advokatlik kabinetining tashkil etilishi umumiyligi tartibi va asosiy tashkiliy tamoyillari “Rossiya Federatsiyasida advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida”gi Federal qonun 21-m.da belgilangan.

Advokatlik kabineti individual tarzda ishlashni istagan advokat tomonidan ta'sis etiladi, lekin bu yollanma ishchilar, masalan, kotib, shuningdek advokat yordamchisi va stajyor mavjudligini istisno qilmaydi

Advokatlik kabineti tashkilot sanalmaydi va o'z tasarrufida, xo'jalik yurituvda yoki amaliy boshqaruvda alohidalangan mol-mulkka ega bo'la olmaydi. Advokatlik kabinetining mol-mulki bo'lmagach, u advokatning uchinchi shaxslar oldidagi biror-bir majburiyatlari bo'yicha jaovb bera olmaydi. Advokatlik kabineti

o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlar olish va amalga oshirish, majburiyatlar olish, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la olmaydi.

Advokatlar hay'ati yuridik shaxs bo‘lib, uning tarkibiga kamida ikkita muassis (ishtirokchi) kirishi mumkin. E'tiborlisi, bunday yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilariga) alohida talablar qo‘yiladi: ular advokatlar, ya'ni qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan yuristlar bo‘lishi kerak. Advokatlar hay'ati ishtirokchilarining maksimal soni qonunda ko‘zda tutilmagan.

Advokatlar hay'ati butun Rossiya Federatsiyasida, shuningdek, agar xorijiy davlat qonunlarida bu ko‘zda tutilgan bo‘lsa, xorijiy davlat hududida filiallar tuzish huquqiga ega.

Advokatlik byurosi advokatlik tuzilmalarining bir shakli bo‘lib, “Rossiya Federatsiyasi advokatura va advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi (23- m.) va “notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Federal qonunlari bilan batafsil tartibga solinadi.

Advokatlik byurosi yuridik shaxs bo‘lib, uning tarkibiga kamida ikkita muassis (ishtirokchi) kirishi mumkin. E'tiborlisi, advokatlar hay'ati muassislari (ishtirokchilariga) bo‘lgani kabi, bunday yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilariga) alohida talablar qo‘yiladi: ular advokatlar, ya'ni qonunda belgilangan tartibda advokatlik maqomini olgan yuristlar bo‘lishi kerak.

Advokatlik byurosi ishtirokchilarining maksimal soni qonunda ko‘zda tutilmagan. Advokatlik byurosining o‘ziga xosligiga ularning ishtirokchilar o‘zaroddii yozma shaklda sheriklik shartnomasini tuzishlari va u bo‘yicha advokat-sheriklar barcha sheriklar nomidan yuridik yordam ko‘rsatish uchun o‘z sa'y-harakatlarini birlashtirishni zimmalariga oladilar. Bu shartnomadavlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun taqdim etilmaydi, chunki maxfiy axborotga ega bo‘ladi.

Advokatlar hay'atida bo‘lgani kabi, advokatlik byurosi tuzilmasi, vakolati, shakllantirish tartibi va boshqaruv organlari vakolatlari muddati, u tomonidan qarorlar qabul qilinishi va hay'at nomidan chiqish uning ta'sis hujjatlarida belgilanadi.

Yuridik konsultatsiya va uning faoliyatining huquqiy tartibi “Rossiya Federatsiyasi advokatura va advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi Federal qonuni 24-m. da belgilangan. Yuridik konsultatsiya u o‘z faoliyatini amalga oshiradigan Rossiya Federatsiyasi sub'ekti advokatlik palatasi tomonidan, Federatsiyaning mazkur sub'ekti davlat hokimiyati organi taqdimi bilan ta'sis etiladi.

Yuridik konsultatsiyani tashkil etish to‘g‘risidagi qarorni advokatlik apalatasining kengashi, uning kollegial ijroiya organi sifatida qabul qiladi. Yuridik konsultatsiya Rossiya Federatsiyasi sub'ektining butun hududida qonunchilikda ko‘zda tutilgan holatlarda fuqarolarga bepul yuridik yordamdan foydalanishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladi.

Yuridik konsultatsiya notijorat tashkiloti sanaladi. Biroq, advokatlar hay'ati va advokatlik byurosidan farqli o‘laroq, u muassasa shaklida tashkil etiladi.

Belarus Respublikasida “advokatlar advokatlik faoliyatini yuridik konsultatsiya yoki advokatlik byurosi shaklida yoxud individual tarzda amalga oshirish huquqiga egalar”. Individual advokatlik byurosi va birlashgan advokatlik

byurosi kabi shakllar Moldova qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan. Birlashgan advokatlik byurosi ikki yoki undan ko‘p advokatlar (byuro muassisleri) tomonidan ta’sis etiladi. Advokatlar o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil amalga oshiradilar. Birlashgan advokatlik byurosi yuridik shaxs sanaladi. Individual advokatlik byurosida bitta advokat faoliyat yuritadi (byuro muassisi).

Qozog‘iston Respublikasi Qonuni advokat o‘z faoliyatini yuridik konsultatsiya orqali amalga oshirish yoki mustaqil ravishda yoxud boshqa advokatlar bilan birga advokatlik idorasini ta’sis etish, shuningdek individual ravishda yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazmay amalga oshirish huquqiga egaligini ko‘zda tutadi.

Qirg‘iz Respublikasida advokat “advokatlik faoliyatini advokatlik muassasalari orqali yoki individual tadbirkorlik faoliyati sifatida amalga oshirish mumkin”. Advokatlik muassasalari yuridik shaxslar sanaladi. Advokatlik muassasasi – bu asosiy faoliyat turi yuridik yordam ko‘rsatish bo‘lgan tashkilotdir. Advokatlik muassasalari istalgan turdagilari mulk va tashkiliy-huquqiy shakl asosida tuzilishi mumkin. advokatlik muassasasi muassisi istalgan yuridik va jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin. advokatlik muassasasiga unda hyech bo‘lmasa bitta advokat ishlagan holatda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishga ruxsat beriladi. Advokatlik muassasasi boshlig‘i faqat advokat bo‘la oladi.

Barcha Respublikalarda advokatlar mehnat haqi mijozlardan ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan to‘lanadi va Rossiyan dan farqli ravishda, qonundagi alohida moddalar bilan tartibga solinadi.

RFda advokatlik xizmatlari haqi miqdori tomonlar ixtiyoriga qarab, yuridik yordam ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi kelishuv bilan bielgilanadi, surishtiruv organlari, dastlabki tergov organlari yoki sud tomonidan tayinlanib jinoiy sud ishida himoyachi sifatida qatnashgan advokatning mehnati federal byudjet mablag‘lari hisobidan to‘lanadi.

Bepul yuridik yordam ko‘rsatilganda advokatlar “Rossiya Federatsiyasida bepul yuridik yordam to‘g‘risida”gi 2011 y. 21 noryabrdagi Federal qonunga va “Rossiya Federatsiyasi advokatura va advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi 2002 yil 31 maydagi Federal qonunga asoslanadilar. Ularda yuridik yordamning ushbu turini ko‘rsatish tartibi va shart-sharoiti batafsil tartibga solinadi.

Tojikistonda gonorar miqdori tomonlar kelishuvi bilan belgilanadi. Kelishuv mavjud bo‘lmasa taqdirda gonorar miqdori advokatlar hay’ati rayosati tomonidan Tojikiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan yo‘riqnomaga muvofiq aniqlanadi.

Qiziqarlisi shuki, “advokatlik muassasasida advokat mehnat haqi advokat va advokatlik muassasasi o‘rtasidagi mehnat kelishuvi asosida, Qirg‘iz Respublikasi Mehnat kodeksi asosida aniqlanadi. Agar advokatning o‘zi advokatlik muassasasi muassisi bo‘lsa yoki individual tadbirkorlik faoliyatini yuritsa, advokat mehnat haqi ko‘rsatilgan yuridik yordam uchun to‘lov sanaladi”.

Qozog‘iston Respublikasi Qonunida alohida modda shaxslarni yuridik yordam haqini to‘lashdan ozod qilishga bag‘ishlangan, “ushbu moddada ko‘zda tutilgan vaziyatlarda advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam uchun

haq to‘lash, tegishlicha, advokatlar hay'ati, advokatlik idorasi hisobidan amalga oshiriladi”. Shunga o‘xhash qoidalar Turkmaniston Qonunining 7- m.da ko‘rsatilgan. “Fuqaroda mablag‘lar bo‘lmagan taqdirda, u davlat hisobidan yuridik yordam va himoya bilan ta'minlanadi. Bepul yuridik yordam va himoya ko‘rsatilishi tartibi va shartlari Qиргизистон Республикаси Hukumati tomonidan belgilanadi”. Boshqa Qonunlarda bu shaxsning to‘lovga layoqatsizligi va xarajatlarning davlat hisobidan qoplanishi to‘g‘risidagi umumiyligini ibora sifatida keladi.

### **§ 3. AQShda advokatura**

AQShda, Angliyada bo‘lgani kabi, yuridik kasb umumiyligi tushunchasi mavjud.

Yuridik kasblar bilan shug‘ullanishga ruxsat olgan amerikalik keng ma'noda yurist deb ataladi, hozirgi kunda yuristlar soni 350 mingdan ortiq. Litsenziyaga ega yurist advokat, sudya, prokuror, yurist-maslahatchi va h.k. bo‘lishi mumkin.

Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun murakkab uzoq yo‘l bosish kerak. Buni istagan shaxs o‘rtacha ma'lumot olgach, universitet kollejiga qatnaydi, u yerda uch yoki to‘rt yil o‘qiydi. Keyin uch yil yuridik maktabga boradi, AQShda bunday maktablar 200 atrofida, u yerda amerikalik talaba mutlaqo amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlar oladi. Keyingi bosqich yuridik fanlarga boy kurs va sud nazorati ostidagi imtihon bo‘ladi. Oz sonli talabalargina bu imtihondan o‘ta oladilar. Qayd etish lozimki, bugungi kunda shtatlarning yarmida advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun universitet diplomi mavjudligi majburiy talab emas. Da‘vogarlar Amerika fuqarolari bo‘lishi va qo‘nimlilik senziga ega bo‘lishlari – ushbu shtatda kamida olti oy yashagan bo‘lishlari kerak.

Amerikalik advokatlar xususiy amaliyot bilan ham shug‘ullanadilar, shuningdek “jamiyat”, “korporatsiya”lar shaklidagi ishlab chiqarish birlashmalarini tuzadilar. 500 dan ortiq advokatlarni birlashtirgan advokatlik firmalari mavjud. “Jamoatchilik manfaatlari”ni himoya qiluvchi advokatlik firmalari ham mavjud, ya’ni ular xususiy mijozlarni emas, jamoatchilikning vakillari sanaladi. Masalan, qog‘ozbozchilikka qarshi, atrof-muhitni saqlash uchun, kamsitilishga va h.k.ga qarshi chiqadilar.

Barcha shtatlarda, shaharlarda va yirik aholi yashash punktlarida sudlarda ish yuritishga qo‘yilgan va to‘lov evaziga yuridik yordam ko‘rsatuvchi advokatlar ko‘ngilli asosda o‘z kasbiy birlashmalarini, assotsiatsiyalarini tuzadilar. Ba’zi shtatlarda ular nizomlar (“konstitutsiyalar”) asosida faoliyat yuritadilar, ular assotsiatsiyalar a’zolari tomonidan umumiyligini yig‘ilashda tasdiqlanadi, boshqa shtatlarda – shtatning maxsus qonunlari yoki sud qoidalari asosida ish yuritadilar.

“Integratsiyalangan advokaturalar” mavjud ikkinchi guruh shtatlarida (ularning soni yigirma sakkizta) assotsiatsiyalarga a’zolik advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanishning majburiy sharti sanaladi.

Assotsiatsiyalar a’zolari o‘zlarining har yilgi yig‘ilishlarida assotsiatsiya prezidentini va ijroiya organini (5-10 a’zo) saylaydilar, u “ijroiya qo‘mitasi”, “boshqaruvchilar kengashi” yoki “vakillar kengashi” sifatida mashhur.

Shtatlarning advokatlik assotsiatsiyalari milliy advokatlar tashkilotini tashkil etadi – Amerika advokatlar assotsiatsiyasi, u 1878 yilda ta’sis etilgan bo‘lib, maqsadi – tajriba almashinuvi, yuridik tuzilmalar muammolarini muhokama qilish, qonunchilik islohotlari va b.<sup>54</sup>

Bu tashkilotlar barcha amerikalik avdokatlarning assotsiatsiyalari bo‘lmasa-da, ular u yoki bu shaklda amaliyot yurituvchi advokatlarning deyarli barcha yirik tashkilotlarini birlashtiradi va o‘z tarkibida 130 mingdan ziyod a’zolarni qamrab oladi. Amerika advokatlar assotsiatsiyasida Oliy boshqaruv organi delegatlar palatasi bo‘lib, u 250 nafar a’zodan iborat.

Advokatning yuridik xizmatlari haqini to‘lash shakllangan amaliyotni, shuningdek advokat a’zosi bo‘lmish tashkilot tavsiyalari hisobga olgan holda, tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, turli xizmat turlari uchun gonorarlarning faqat minimal miqdorini hisoblash uchun 700 ta atrofida maxsus jadvallar mavjud. “Kontingent” to‘lov deb ataladigan to‘lov qiziqish uyg‘otadi, uning tamoyilida ish yutqazilganda, advokat mukofot pulini olmaydi, lekin ishda yutib chiqilganda gonorar 1/3 ulushga teng bo‘lishi yotadi.

AQShda ta’milanganmagan aholi qatlamlari uchun bepul yuridik yordam taqdim qilishning turli shakllari mavjud. Xususan, 1964 y.dagi kriminal adolatli sudlov to‘g‘risidagi qonun bo‘yicha, federal sudlarda moddiy jihatdan kam ta’milangan sudlanuvchilar uchun “bepul” yoki, yana bir nomi – “jamoatchilik” himoyachisi tayinlanadi. Bu advokatlarning ish haqlari federal byudjet hisobidan to‘lanadi.

Bu tartib prezident R.Nikson tashabbusi bilan belgilangan, u 1971 yil 5 mayda AQSh Kongressiga advokatlik firmalariga federal byudjetdan mablag‘lar beruvchi va kam ta’milanganlarga yuridik yordam ko‘rsatishning rivojlanishini boshqa vositalar bilan qo‘llab-quvvatlaydigan mustaqil federal organ tashkil etish taklifini berdi. Bundan tashqari, barcha shtatlar u yoki bu shaklda sudya qarori bilan bepul yuridik yordam ko‘rsatishni nazarda tutadilar. Har yili davlat tomonidan “jamoatchilik himoyachilari”ga haq to‘lash uchun yuzlab million dollar ajratiladi.<sup>55</sup>

AQShda intizomiy amaliyot boshqa mamlakatlarga qaraganda anchayin liberal ko‘rinadi, bu advokatlar tomonidan kasbiy majburiyatlarining turli xildagi buzilishi keng tarqalgani va ularning o‘z tashkilotlariga kam bog‘langanligi oqibati

<sup>54</sup> Bernam U., Reshetnikova I.V., Proshlyakov A.D. Sudebnaya advokatura.- SPb., Izd-vo Sankt-Peterburgskogo universiteta, 1996. - S.45.

<sup>55</sup> Barshevskiy M.Yu. Biznes- advokatura SShA i Germanii. Uchebnoe posobie. - M: «Belые алвы», 1995.- S.90.

sanaladi. Chunonchi, qilmishni o‘rganib chiqqach, advokatlar tashkiloti tanbeh berishi, jarima solishi yoki advokatni o‘z tarkibidan chiqarib yuborishi mumkin. Oxirgisi, nisbatan kam qo‘llaniladi va asosan siyosiy sabablarga ko‘ra amalga oshiriladi. A’zolik badali to‘lanmagani uchun a’zolikdan chiqarish ancha keng qo‘llaniladi. “Sudga hurmatsizlik” yoki “noprofessional xatti-harakat” kuzatilganda sudlar tomonidan yanada qat‘iy choralar qo‘llaniladi. Bu holatda advokat o‘z vazifasini bajarishdan chetlashtirilibgina qolmay, amaliyotdan mahrum bo‘lishi, jarimaga tortilishi va hatto hibsga olinishi ham mumkin.

#### **§ 4. Germaniyada advokatura**

Germaniyada advokatura adolatli sudlov tizimidagi mustaqil tashkilot sanaladi, advokatlar – amalda erkin tadbirkorlardir, ular o‘z idoralariga egalar, xizmatchilarni yollaydilar. Ular boshqa biznesmenlardan o‘z kasbiy faoliyatlarini reklama qilish huquqiga ega emasliklari, shuningdek “hunarmandlik solig‘i”ni to‘lamasliklari bilan ajralib turadilar.

Germaniyada advokatura huquqiy maqomini mustahkamlovchi asosiy normativ hujjat 1959 yildagi Advokatura to‘g‘risidagi federal qoida sanaladi. U kichik o‘zgarishlar bilan bugungi kunda ham amalda bo‘lib kelmoqda<sup>56</sup>

. Germaniyada advokatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

Advokatlik faoliyatiga faqat Sudyalar to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra sudyalik majburiyatini bajarishga layoqatlik sanaluvchi shaxs qo‘yiladi. Bu esa advokatlik lavozimiga nomzod yuridik fakultetda sakkiz semestrli yuridik fanlar kursini tinglashi va davlat imtihonlarini topshirishi lozim. Shundan keyin bitiruvchi sud tizimidagi barcha muassasalar (sud, prokuratura, notariat, advokatura)da stajyor-xizmatchi bo‘lib 2-3 yil davomida amaliyotni o‘taydi. Bu davrda u ish haqini yerlar boshqaruv organlari fondidan oladi. Amaliyot yakunlangach, u yana bitta davlat imtihonini topshirishi lozim bo‘ladi va faqat shundan keyin kim bo‘lishni tanlaydi: sudyami, advokatmi yoki firmaning yuridik masalalar bo‘yicha konsultantimi.

Mazkur talablarga javob beruvchi shaxs ariza bilan GFRning o‘zi doimiy yashovchi ma’muriy-hududiy birligi – yer adliya boshqaruviga murojaat qiladi. Qaror qabul qilish jarayonida adliya boshqaruvi ushbu shaxs faoliyat yuritishni rejalahshtirgan hudud advokatlar palatasi boshqaruvining fikrini inobatga oladi.

Qonunda iltimosnomaga bilan murojaat qilgan shaxsga advokatlik amaliyoti bilan shug‘ullanishni ruxsat berishga rad javobi berilishi holatlari ko‘zda tutilgan. Bunday vaziyatlar quyidagilar bo‘lishi mumkin: agar nomzod sud qaroriga ko‘ra davlat apparatida lavozim egallash huquqidан mahrum bo‘lgan bo‘lsa; agar u advokaturadan sud qaroriga asosan o‘chirilgan bo‘lsa va bu qaror chiqarilgandan sakkiz yil o‘tmagan bo‘lsa; agar nomzod sud qaroriga asosan, konstitiutsiyaviy huquqlarni buzganligi sababli suda lavozimidan chetlashtirilgani yoki intizomiy

---

<sup>56</sup> Баршевский М.Ю. Biznes- advokatura SShA i Germanii. Uchebnoe posobie. - M: «Belые алвы», 1995.- S.98.

tartibda adolatli sudlov organlarida xizmat qilishdan ishdan chetlashtirilgan bo‘lsa; advokatlik faoliyati bilan shug‘ullana olmaydigan biror qilmishga qo‘l urgan bo‘lsa; agar nomzod jismoniy yoki aqliy yetishmovchiligi oqibatida tegishli tarzda advokatlik funksiyasini bajarish holatida bo‘lmasa; agar u advokatlik kasbiga mos kelmaydigan faoliyat bilan shug‘ullansa.

Advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi guvohnoma olgan shaxsga odatda odatiy sud yurituvining muayyan sudidagina ish yuritishga ruxsat beriladi.

Yer oliy sudi vakolati doirasidagi okrugda ishlashga ruxsat berilgan barcha advokatlar advokatlar palatasini tashkil etadilar. Federal sudda ishlashga ruxsat berilgan advokatlar maxsus palatani tashkil etadilar. Har bir mahalliy palataga boshqaruv rahbarlik qiladi, uning tarkibiga yettita a’zo kiradi. 35 yoshga to‘lgan va advokaturalarda 5 yillik uzlusiz mehnat stajiga ega bo‘lgan saylangan advokat boshqaruv a’zosi bo‘la oladi. Palata boshqaruvi a’zolari to‘rt yilga saylanadi, bunda har ikki yilda uning tarkibining yarmi yangilanadi. Federal sud qoshidagi Advokatlar palatasi mahalliy palatalar tarkibiga o‘xhash tarkibga ega, farqi shundaki, u o‘z advokatlar palatasi faoliyati to‘g‘risidagi hisobotni boshqaruvga emas, balki adliya federal vaziriga topshiradi. Federal va mahalliy palatalar faoliyati ustidan davlat nazorati asosan qonunlar va palata nizomiga rioya etilishini tekshirish, shuningdek muayyan palataga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini tekshirish bilan kifoyalanadi.

Agar advokatga yuridik yordam so‘rab murojaat qilsalar, u esa xizmat ko‘rsatishdan bosh tortsa, u rad etish sababini tushuntirishi lozim. Asoslanmagan rad etish tufayli mijozga yetkazilgan zarar qonun asoslarida qoplanadi. Advokatning tayinlanishi fuqarolik-protsessual kodeks, mehnat nizolaridagi sudlar to‘g‘risidagi qonun yoki vaqtinchalik to‘lanmaydigan himoya to‘g‘risidagi qoidalar asosida amalga oshsa, u ishdagi tomon vakilligini o‘z zimmasiga olishga majbur. Jinoiy ishlardagi himoya ham mana shunday majburiy xarakterga ega.

Advokatlardan intizomiy undiruv sha'n sudlari tomonidan amalga oshiriladi, ular har bir advokatlar palatasida tuziladi. Aybdor advokatlarga nisbatan sha'n sudlari quyidagi ta'sir intizomiy choralarini qo'llashi mumkin: ogohlantirish, hayfsan, 50 ming marka miqdorigacha jarima, bir yildan besh yilgacha muddat davomida adolatli sudloving muayyan sohalarida manfaatlar vakili yoki himoyachi bo‘lib ishlashni taqiqlash, advokaturadan chetlashtirish. Sha'n sudida ish ko‘rilishi odatda yopiq majlisda o‘tkaziladi.

Advokat tomonidan yuridik yordam ko‘rsatilgani uchun gonorar miqdori bevosita tomonlar o‘rtasidagi kelishuv bilan, federal advokatlar tariflari nizomi doirasida belgilanadi. Muayyan mukofot miqdori, odatda, bahsli mol-mulk qiymatidan yoki tuzilgan kelishuvlar summasidan hisoblab chiqariladi. Bu ham sud ishlariga, ham boshqa turdagи xizmatlar (konsultatsiyalar, shartnomalarni rasmiylashtirish va sh.k.)ga tegishlidir.

Advokatlik xizmatlari uchun quyidagi mukofot turlari belgilangan: sud jarayonlarini yuritish (ishni ko‘rishda qatnashish uchun; dalillar izlash uchun; jarayon davomida sulh bitimini tuzish uchun); suddan tashqari ishlarda qatnashganlik uchun: ishga oid (masalan, savdo) amaliyotlarini rasmiylashtirish uchun; opponent (amaliv sherik) bilan o‘tkazilgan muzokaralar uchun; erishilgan

Advokatlar o‘z ish haqlarining bir qismini advokatlar va ularning oilalarini ijtimoiy ta‘minlashga mo‘ljallangan maxsus jamg‘armaga topshiradilar.

### **§ 5. Buyuk Britaniyada advokatura**

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligida advokatlik silsilasi barristerlar, solisitorlar va attorneylarga bo‘linadi.

Angliya milliy advokaturasi 1285 yilda qirol Eduard I qonunchilik akti asosida tashkil etilgan. Sud himoyachilari ikkita katta guruhga bo‘lingan: advokatlar – barristerlar (barristers) va stryapchiylar – attorneylar (attorneys) va solisitorlar (sollicitors).<sup>57</sup>

Barrister (ingl. barrister, bar – sudyalarni sudlanuvchilardan ajratib turuvchi to‘siq), Angliyada advokatlarning oliy unvoni. Barristerlar, faqat qog‘ozlar va hujjatlar taqdim etish vakolatiga ega solisitorlar va attorneylardan farqli o‘laroq, ishlarni yuritadilar va sud oldida nutq so‘zlaydilar.

Barrister unvonini olish uchun oliy yuridik ma'lumotga ega bo‘lish, advokatlik korporatsiyalardan birida uch yillik tayyorlovdan o‘tish va huquqiy fanlar bo‘yicha advokatlik imtihonini topshirish zarur.

Shundan keiyngina nomzod advokatlik korporatsiyasining barrister unvonidagi a'zosi sanaladi va barcha (jumladan oliy) sudlarda chiqish qilish huquqiga ega bo‘ladi. Odatda barrister yuritishga ishlarni faqat solisitor vositachiligi orqali oladi (jinoiy ishlar bundan mustasno, ularni barristerning o‘zi qabul qiladi).

Ingliz advokatlarining barristerlar va solisitorlarga bo‘linishi, advokatura tarixi sohasining ko‘pgina mutaxassislari, jumladan inglizlarning o‘zlarining e’tiroficha, anaxronizm sanaladi, biroq advokatlik kasbidagi vorisiylik va an’analarga sodiqlik, shuningdek, yuqori turuvchi barrister advokatlik unvoniga loyiq bo‘lish kerakligi tartibni avvalgidek qoldiradi.

Advokatlarning ikkita toifasi borligi va bunga bog‘liq ish yuritishning o‘ziga xosligi ish yuritish bo‘yicha xarajatlarni ancha oshiradi. Barristerlar ingliz amaliy elitasi vakillari bo‘lib, mamlakat siyosiy hayotida sezilarli rol o‘ynaydilar. Barristerlar sirasidan odatda Bosh (yetakchi) attorney – Ingliz Tojining vakili bo‘ladigan Buyuk Britaniyadagi eng yuqori advokatlik unvoni sohibi, shuningdek oliy sudlar sudyalari tayinlanadi.

---

<sup>57</sup> Kucherena A.G. Advokatura. Uchebnik. - M.: Yurist, 2005. - S.156.

Bosh (yetakchi) attorney (General Attorney) – bu Angliyada Toj yurist-maslahatchisi va advokati, u barristerlar sirasidan tayinlanadi, Jamoatchilik palatasida vazirliklar loyihamalarini himoya qilish va yuridik jihatdan izohlash uchun qatnashadi, Toj manfaatlarini barcha sudlarda ilgari suradi. Shotlandiya va Irlandiya uchun maxsus Bosh attorneylar tayinlanadi.

Solisitorlar (ingl., birlikda – solicitor) – Buyuk Britaniyada bu grafliklar va shahar-grafliklarda magistrlik sudlarida mustaqil ish yuritishga va barristerlar – yuqoriroq darajadagi advokatlar uchun materiallar tayyorlashga ixtisoslashgan advokatlar toifasi. Solisitorlar, shuningdek, muassasalar, korxonalar, tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlarida yurist-maslahatchi funksiyasini ham bajaradilar.

Solisitorlar XIII asrdan beri mavjud. 1825 yilda ular Yuridik jamiyatga birlashganlar (Law Society).<sup>58</sup> Solisitorlar huquqiy maqomi 1941 yildagi Solisitorlar to‘g‘risidagi akt bilan belgilangan. Mazkur unvonga nomzod 5 yil Solisitor qo‘l ostida yordamchi sifatida yoki boshqa mas‘ul lavozimda (universitet diplomi mavjud bo‘lganda stajirovka 3 yilgacha qisqaradi) ishlab berishi kerak. Solisitorlikka qabul qilish Apellyasiya sudi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Attorney (ingl. attorney) – anglosakson mamlakatlarida ishonchli vakil yoki bitim tuzilishida yoki suddan tashqari boshqa hujjat tuzilishida boshqa shaxsning uning o‘rniga va uning nomidan harakat qiluvchi vakil. Angliyada 1873 yilga qadar attorneylar deb advokatlarning eng quyi toifasiga ham aytilgan (Fransiyadagi stryapchiylarga to‘g‘ri keladi) Angliyaning Adolatli sudlovnii amalga oshirish to‘g‘risidagi akt (1873 yil)ga ko‘ra, sudlarda ish yuritishga ruxsat berilgan barcha shaxslar, barristerlardan tashqari, solisitorlar deb atala boshlagan.<sup>59</sup>

## **§ 6. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida advokatura**

**Yaponiyada** advokatlik lavozimini egallash uchun qat‘iy tanlov qoidalari belgilangan. Malakali mutaxassis bo‘lish va advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun Yaponiyada yuridik maktabda tahsil olish kerak, keyin kasb bo‘yicha imtihon topshirish va Oliy sud qoshidagi yuridik treninglar va tadqiqotlar institutida bir yillik stajirovkadan o‘tish kerak bo‘ladi.

Yaponiya advokatlik assotsiatsiyalari ittifoqining rasmiy saytida chop etilgan ma'lumotlarga ko‘ra, 2010 yil 1 yanvar holatiga Yaponiyada advokatlik faoliyatini 28 812 nafar kishi amalga oshiradi, ularning 4663 nafari – ayollardir.<sup>60</sup>

Faqat kurslarni yakunlagach va yangi imtihonlarni topshirgach advokatlik lavozimiga nomzodlar, agar tegishli tayinlanishga erishsalar, o‘zlari tanlagan faoliyat turi bilan shug‘ullanishlari mumkin bo‘ladi. Advokat, sudya va davlat

<sup>58</sup> Gavrilov S.N. Advokat v ugolovnom protsesse. - M.: NORMA, 1997. - S.220.

<sup>59</sup> O‘sha yerda. - S.227.

<sup>60</sup> Ugolovno-protsessualnoe pravo. Uchebnik. Pod obshchey red. prof. P.A. Lupinskoy.- 3-ye izd-vo pererab. i dop. - M.: Jurist', 2003. - S.289.

ayblovchisi kasblarini bazaviy ta'lif va trening birlashtirsa-da, ularni birgalikda yuritishga yo'l qo'yilmaydi. Bunda advokat – sudya va aksincha bo'lishi mumkin.

Yapon qonunchiligiga ko'ra, kasb bo'yicha imtihon topshirish va advokat bo'lish uchun Yaponiya fuqarosi bo'lish shart emas. Biroq sudya yoki prokuror bo'lish uchun Yaponiya fuqaroligi majburiydir.

Advokat bo'lgach, nomzod, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun, Yaponiya advokatlik assotsiatsiyalari ittifoqida ro'yxatdan o'tishi lozim. Bundan tashqari, advokat o'zi ishlayotgan joydagi mahalliy advokatlar assotsiatsiyasi a'zosi bo'lishi ham kerak.

Yaponiya advokatlik assotsiatsiyalari ittifoqi muxtor organ bo'lib, Yaponianing 52 ta mahalliy advokatlik assotsiatsiyalaridan, ularning individual a'zolari, yuridik korporatsiyalar va ro'yxatga olingan xorijiy advokatlardan tashkil topgan.

2002 yil aprel oyidan advokatlarga yuridik amaliyot bilan shug'ullanish maqsadida korporatsiyalar (yuridik korporatsiyalar) tashkil etishga ruxsat berilgan. Tashkil etilgach, yuridik korporatsiya o'zining ofisi joylashgan mahalliy okrug advokatlik assotsiatsiyasi a'zosiga va shu vaqtning o'zida Yaponiya advokatlik assotsiatsiyalari ittifoqi a'zosiga aylanadi.

Barcha advokatlik ofislarining qariyb 70 foizi bitta advokat tomonidan boshqariladi, biroq shaharlarda qo'shma ofislar soni ortib borishi kuzatiladi, ularda bir nechta advokatlar ishlaydilar. Yaponiyadagi advokatlarning yarmidan ko'pi hozirda shunday ofislarda faoliyat yuritadilar. Bundan tashqari, 200 va undan ziyod advokatlar ishlaydigan yirik yuridik ofislar soni ortdi.

**Janubiy Koreyada** advokaturani liberallashtirish jarayoni ijtimoiy o'zgarishlar sur'atidan ortda qolmoqda. Janubiy Koreya davlat qurilishida, iqtisodiyoti va madaniyatidagi jo'shqin o'zgarishlar ushbu mamlakatning konservativ, ana'naviy yopiq advokaturasiga ta'sir qilmay qolmasdi. Lekin barcha koreyalik advokatlar ham malakasini oshirishga, marketing qonunlarini o'zlashtirishga va shu bilan o'zining raqobatbardoshligini mustahkamlashga intilmaydi.

Tashkil topganidan buyon Koreya Respublikasi davlatchilik, iqtisodiyot, madaniyat va ta'lif sohalarini rivojlantirishda katta masofani bosib o'tdi. Janubiy Koreya tarixi 1945 yil yozi oxirida tuzilgan Koreya yarim orolidagi ta'sir doiralarining taqsimlanishi to'g'risidagi sovet-amerika kelishuvidan boshlanadi.

1948 yil 17 iyulda Koreya Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mamlakat tarixida demokratik va atvoritar boshqaruв davrlari ketma-ket o'tdi.

Demokratik rivojlanish yo'lida mamlakat siyosiy to'ntarishlarni boshdan keichrishiga to'g'ri keldi va Koreya Respublikasi Konstitutsiyasiga to'qqiz marta o'zgartirishlar kiritildi – oxirgi marta 1987 yil 29 oktyabrda. Koreya Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy qoidalari xalq suverenitetini, hokimiyatlar bo'linishini, Janubiy va Shimoliy Koreyalarning tinch va demokratik birlashishiga intilishni, butun dunyoda tinchlik o'rnatilishini va xalqaro hamkorlikni, qonunning

ustuvorligi va davlatning xalq farovonligiga erishishga javobgarligini mustahkamladi.

Davlat qurilishidagi, iqtisodiyot, madaniyatdagi jo'shqin o'zgarishlar, agrar mamlakatning yuksak rivojlangan sanoat davlatiga aylanishi katta miqyosdagi ijtimoiy o'zgarishlarga, yuksak texnologik axborot jamiyati shakllanishiga olib keldi, bu esa Koreyaning konservativ, an'anaviy yopiq advokaturasiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

“Konservativ”, “yopiq”, “an'anaviy” – bular tasodifiy tamg‘alar emas, ular Koreyadagi advokat” tushunachisi mohiyatining jilolarini juda aniq namoyon etadi. Advokat – bu saylangan, yuqori hurmatga ega, kasbiy elitaga mansub jamiyat a'zosi. Koreyada advokatlik maqomiga erishish nihoyatda murakkab. Biroq har kimda buning uchun ikoniyat bor. Malaka tekshirish sinoviga har qanday shaxs kiritilishi mumkin, yuridik ta'lif zaruriy shart sanalmaydi, qolaversa, *oliv ma'lumotning bo'lishi ham amalda talab qilinmaydi*.

Malaka imtihoni ikkita yozma nazorat ishi va og'zaki suhbatdan iborat bo'ladi. Sinovlar mutlaq koreys tilida olib boriladi. Nomzodning yuridik bilimlari va huquqiy madaniyati darajasigina emas, uning umumiy o'qimishliligi, milliy tarix va madaniyatdan, koreys jamiyati etiketi va an'analaridan xabardorligi ham qat'iy baholanadi.

Advokatlik maqomi olishga katta konkursning mavjudligi Koreya uchun an'anaviy bo'lgan advokaturaga qabul qilish limiti bilan bog'liq. Uzoq vaqt davomida bir yilda 300 ta litsenziyalı kvota amalda bo'lib klegan, va faqat 1996 yilda litsenziyalar soni 1000 taga oshirildi. 1997 yildan 2000 yilgacha faqat 3 foiz nomzodlar sinovdan o'ta olgan. Shunday bo'lsa-da, malaka imtihonidan muvaffaqiyatli o'tish 1000 nafar baxt egalariga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini bermaydi: advokat kasbiy faoliyatiga kirishishidan oldin, davlat Huquqiy tadqiqotlar va stajirovkalar instituti (Judicial Research and Training Institute (JRTI))da majburiy ikki yillik kursni o'tashi kerak.

1981 yilga qadar advokat suda yoki davlat ayblovchisi alvozimida amaliyotni o'tar edi, keyin o'zining advokatlik kabinetini ochardi. Uning faoliyati faqat fuqarolik va jinoiy jarayonlarga yo'naltirilgan bo'lardi. 1980 yillardan Koreyada yirik advokatura idoralari paydo bo'la boshladi, keyin yuridik firmalar yuzaga keldi, korporativ huquq, qimmatli qog'ozlar, soliq huquqi, ekologik huquq va monopoliyaga qarshi qonunchilik borasidagi mutaxassislarga ehtiyoj sezildi, 1990-yillar oxirlaridan yuridik xizmatlar bozori gullab-yashnadi.

Koreyada yangi yuridik maktablar va institutlar ochila boshladi, yirik advokatlik idoralari shakllana boshladi, yuridik gigant firmalar tashkil topdi, advokaturaga qabul kvotasi oshdi, 1999 yildan advokaturadagi xotin-qizlar vakillari soni 10 barobarga oshdi (hozir Janubiy Koreyada 1000 nafar atrofida advokatessalar ishlaydi), huquqiy konsultantlar sifatida koreyalik yuridik firmalarda xorijiy advokatlar va yuristlar ishlashiga ruxsat berildi.

Mutaxassislar baholashiga ko'ra, kelgusi yetti yil ichida advokatlar soni ikki barobarga ortadi, bunga Janubiy Koreya va AQSh o'rtasida erkin savdo to'g'risidagi ikki tomonlama kelishuv imzolangani sabab bo'ladi. yangi yuridik

maktablar 2015 yildan boshlab har yili 2000 nafar advokat chiqara boshlaydi. 2003 yilda mamlakatda atigi 250 ta yuridik firma mavjud edi, besh yil o'tgach, ularning soni 400 taga yetdi.

Oltita eng yirik firma – “Kim & Chang”, “Kwangjang”, “Bae”, “Kim & Lee”, “Hwawoo”, “Shin & Kim” va “Yulchon” – Koreya yuridik xizmatlar bozoridagi daromadning yarmini o'zaro bo'lashadilar, ularga faqat amaldagi advokatlarning 10 foizigina ishlaydi. Individual amaliyot yurituvchi advokatlarga qaraganda yuridik firmalar ko'proq ishonch uyg'otadi. Individual advokatlar da'volarning keskin tushib ketishi tufayli (10 yil ichida – deyarli ikki barobarga) ko'p hollarda mijoz qidirish uchun “broker”lar yollashga majbur bo'ladilar (“broker”lar mehnat haqi oyiga 10 000 dollargacha yetadi).

### **§ 7. Xalqaro advokatlik jamoat birlashmalari. Bepul yuridik yordam va advokatura: xalqaro-huquqiy jihat.**

**Xalqaro Advokatlar Assotsiatsiyasi** (the International Bar Association, IBA) ikki turdag'i a'zolikka asoslangan (shaxsiy va jamoaviy) eng yirik xalqaro global tashkilot bo'lib, 16 000 atrofida individual amaliyot yurituvchi yuristlar va 190 dan ziyod advokatlar assotsiatsiyalari va yuridik jamiyatlarni birlashtiradi, bu unga yurisprudensiya bilan bog'liq instittlarning jahon miqyosida rivojlanishi va isloh qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Jamoaviy a'zoalri tufayli XAA barcha qit'alarni qamrab oladi va ko'plab advokatlik jamoat birlashmalarini o'z ichiga oladi.

- Amerika Advokatlar Assotsiatsiyasi (the American Bar Association),
- Germaniya Federativ Advokatlar Assotsiatsiyasi (the German Federal Bar),
- Yaponiya Advokatlar Assotsiatsiyasi Federatsiyasi (the Japan Federation of Bar Associations),
- Zimbabwe Yuristlar Jamiyati (the Law Society of Zimbabwe);
- Meksika Advokatlar Jamiyati (the Mexican Bar Association).

Kambag'allar va o'ta muhtojlarga yuridik yordam ko'plab mamlakatlarda an'naviy suratda yuristlar va ko'p amaliyot yurituvchi advokatlar tomonidan bepul amalga oshiriladi. U davlat yuridik yordamini o'rmini bosa olmaydi, biroq advokatlar uchun majburiy sanaladi.

Yuridik yordam uchun ma'lum cheklovlar mavjud:

1) davlat byudjetining ushbu yo'nalishga mo'ljallangan moliyaviy resurslaridan oshib ketmaydigan ko'p sonli yuristlarga ehtiyoj;

2) xizmatlar sifatini ta'minlash uchun moliyalashtirishni talab qilish; advokatlarga kompensatsiya berilmasa, kambag'allarga xizmat ko'rsatish samarasiz bo'ladi.

Advokatlarning bepul yuridik yordam ko'rsatishda qatnashishi modellari:

- ✓ **ex officio modeli**, yoki «tayinlash bo‘yicha himoyachi»;
- ✓ **Judicare tizimi** (Avstriya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) – bu tizimda yuridik yordam muayyan shartlarga to‘g‘ri keladigan fuqarolarning huquqi sifatida belgilangan, unga ko‘ra davlat advokatlar ko‘rsatgan yordam haqini to‘laydi;
  - ✓ “**davlat haq to‘laydigan advokatlar**” modeli (shuningdek, “jamoat advokatlari idoralari” nomi bilan mashhur): huquqiy yordamlar ishlarning miqdoriga qaramay davlat tomonidan hay to‘lanadigan advokatlar shtatiga ega va kambag‘allarga ijtimoiy sinf sifatida qarashga yo‘naltirilgan “mahalliy/qo‘sni huquqiy ofislar” tomonidan ko‘rsatiladi;
  - ✓ **kombinatsiyalangan model.** Ba’zi davlatlar yuridik yordam ko‘rsatishning kombinatsiyalangan uslubini tanlashgan. Bu model fuqarolarga xususiy advokatning individual xizmatlari va kambag‘al shaxslar huquqlari bo‘yicha malakaga ega shtatli advokatlarning maxsus ekspertizasidan birini tanlash imkonini beradi. Bu afzalliklarni tan olib, turli sohalar islohotchilari *judicare* tizimini mahalliy huquqiy markazlar bilan uyg‘unlikda amalga oshirdilar. Bunday markazlar, masalan, Buyuk Britaniyada tashkil etilgan.
  - ✓ “**jamoat manfaatlari huquqi bo‘yicha yuridik firmalar**” modeli ko‘p sonli insonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi pretsedentlar hosil bo‘ladigan ishlarni tanlash orqali yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Bunday firmalar huquqning muayyan sog‘alarida tajriba to‘playdilar. Bunday firmalarning zaif nuqtalari ularning donorlik moliyalashtirilishiga bog‘lanib qolishidir.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Xorijiy mamlakatlar advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlilining ahamiyati.
2. MDH advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlili.
3. Germaniya va AQSh advokatura institutlarining qiyosiy-huquqiy tahlili

#### ***1- vaziyat.***

AQShda advokatura institutining mohiyati, tashkil etilish tamoyillari va shakllarini tartibga soluvchi va belgilovchi, umumdavlat miqyosidagi maxsus qonunlar, maxsus yagona huquqiy me’yorlar mavjud emas.

*Advokaturani huquqiy tartibga solish qay tarzda ro‘y berishini aniqlang?*  
*AQShdagi advokatlik tuzilmalarining o‘ziga xosligini ko‘rib chiqing.*

### **VII BOB ADVOKAT VA FUQAROLIK SUD ISHI**

*Advokat – shartnomaviy (ko‘ngilli) vakil sifatida. Advokatning ishonch biliruvchini qabul qilish va vakil sifatida sudda qatnashishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha faoliyati. Advokat – ishning qo‘zg‘atilishi va sudda ko‘rilishiga*

*tayyorlash bosqichida. Advokat va birinchi instansiya sudida ishning ko‘rilishi. Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan apellyasiya shikoyati (protest kiritish). Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan cassatsiya shikoyati (protest kiritish). Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligini tekshirish bosqichida advokatning ishtiroki. Advokat va sud hukmlarining ijrosi.*

### **§ 1. *Advokat – shartnomaviy (ko‘ngilli) vakil sifatida***

Fuqarolik sud ishida vakil bo‘ladigan advokat faoliyatiga advokatning tashkiliy-huquqiy va protsessual-huquqiy holati bilan bog‘liq ko‘plab xususiyatlar xos.

#### **Huquqiy maqom xususiyatlari quyidagilarda aks etadi: advokat:**

- 1) yetarli bilim va tajribaga ega professional yurist sifatida fuqarolik-protsessual faoliyatni amalga oshiradi;
- 2) o‘zining umuman fuqarolik jarayonidagi vakil va xususan muayyan fuqarolik ishi bo‘yicha o‘zining vakillik funksiyalarini aniq biladi;
- 3) o‘z kasbiy vazifalarini va kasbiy majburiyatlarini bajarishning qonunda ko‘rsatilgan choralar, vositalari va usullarining keng ko‘lamiga ega bo‘ladi;
- 4) tomon, fuqarolik ishidagi uchinchi shaxslar topshirig‘iga binoan, protsessual faoliyatini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishi lozim.

Fuqarolik-protsessual qonunchilik qoidalariga muvofiq, vakilning huquqlari va majburiyatlari u bajaradigan ommaviy-huquqiy roldan kelib chiqib belgilangan.

Fuqarolik sud ishida ishonch bildiruvchining vakili sifatida ishtirok etayotgan advokat vakolatlari protsessual qonunchilik bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga qonun advokat huquq va majburiyatlarini tartibga solishga, ya’ni uning huquqiy maqomining eng muhim jihatlariga ham e’tibor bergen.

“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun advkaotga **qator muhim protsessual huquqlar** bergen:

- 1) yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur ma'lumotlar yig‘ish;
- 2) advokat yuridik yordam ko‘rsatayotgan ish bo‘yicha ma'lumotga ega ekanligi ehtimoli bor shaxslardan, ularning roziliqi bilan, so‘rov o‘tkazish;
- 3) ish bo‘yicha dillar deb e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan hujjatlarni yig‘ish va taqdim etish;
- 4) yuridik yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalarni tushuntirish uchun mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qilish;
- 5) o‘zi vakil sifatida qatnashayotgan ish materiallaridagi axborotni, jumladan texnik vositalar yordamida, qayd etib borish.

**Advokat-vakil** o‘zi vakillik qilayotgan shaxs nomidan O‘zbekiston Respublikasi FPK 35- m.da ko‘zda tutilgan barcha protsessual harakatlarni amalgalash huquqiga ega. Biroq ishonchnomada vakilning da‘vo arizasini imzolash, uni sudda taqdim qilish, bahsni ko‘rib chiqish uchun hakamlik sudiga oshirish, qarshi da‘vo kiritish, da‘vo talablaridan to‘liq yoki qisman voz kechish, ularning miqdorini kamaytirish, da‘voni tan olish, da‘vo predmeti yoki asosini o‘zgartirish, sul kelishuvini tuzish, vakolatni boshqa shaxsga o‘tkaxish (qayta ishonch bilirish), sud qarori ustidan shikoyat qilish, ijro hujjatini undirishga taqdim qilish, berilgan mulk yoki pullarni olish huquqlari kabi vakilning vakolatlari ko‘rsatib o‘tilishi lozim (O‘zbekiston Respublikasi FPK 54- m.).

Shu bilan birga, advokatga nisbatan, fuqarolik jarayonidagi alohida vakillik sub‘ekti sifatida, qonun turli huquqiy cheklovlar belgilaydi. Jumladan, advokat: yuridik yordam so‘rab unga murojaat qilgan shaxsdan, noqonuniy xarakterga egaligi aniq bo‘lgan topshiriq olishga; agar u muayyan ish bo‘yicha ishonch bildiruvchining manfaatidan farqli manfaatga ega bo‘lsa, shu ish bo‘yicha yuridik yordam ko‘rsatish topshirig‘ini olishga haqli emas. Advokat ishda suda, hakamlik sudyasi, arbitr, vositachi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, ekspert, mutaxassis sifatida qatnashgan bo‘lsa yoki ish bo‘yicha guvoh, jabrlanuvchi bo‘lsa, yuridik yordam ko‘rsatish topshirig‘ini ololmaydi. Axloq me’yorlari va qonun advokatga ishonch bildiruvchining irodasiga zid keluvchi mavqyeni tutishni, shuningdek ishonch bildiruvchining roziligesiz o‘ziga yuridik yordam ko‘rsatishi tufayli aytilgan ma'lumotlarni oshkor qilishni taqiqlaydi (“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 7-m.).

Advokat ko‘rsatadigan yuridik yordamlar turlaridan biri og‘zaki va yozma shaklda huquqiy masalalar **konsultatsiyalar va ma'lumotnomalar** berishdir (“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 5- m., 2- b.). Advokat uzoq bo‘lmagan vaqt ichida mijoz bilan psixologik aloqa o‘rnatishi, uning da‘vosi mohiyatini tushunishi va malakali yuridik yordam ko‘rsatishi zarur.

## *§ 2. Advokatning ishonch biliruvchini qabul qilish va vakil sifatida sudda qatnashishga tayyorlarlik ko‘rish bo‘yicha faoliyati*

Mijozning topshirig‘i qonuniy xarakterga egaligiga amin bo‘lgach, advokat sudda ish yuritishni o‘z zimmasiga oladi. Bu bosqichda advokat sud muhokamasiga tayyorlanish maqsadida quyidagi yuridik harakatlarni amalgalashadi: ishonch bildiruvchi bilan suhbat o‘tkazadi, uning istaklari va talablarini aniqlaydi, ish holatlarini o‘rganadi, muammoga huquqiy baho beradi, huquqiy

bahsni hal etishga olib boruvchi yo'llarni ochadi, sudda ish yuritish taktikasini belgilaydi.

Huquqiy yordam ko'rsatish jarayonining zaruriy va boshlang'ich elementi – bu da'vo arizasini tuzishdir.

**Da'vo** – sudga yo'llangan, adolatli sudni amalga oshirish haqidagi talab bo'lib, uning mazmunini manfaatdor shaxs (da'vogar)ning ehtimoliy huquqbuzar (javobgar)ga iltimosi tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi FPK da'vo arizasining shakliga, shuningdek da'veni qabul qilishni rad etish va uni harakatsiz qoldirish holatlariga asosiy talablarni belgilaydi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha ishda sub'ektiv huquq va qonun bilan himoyalananadigan manfaatni himoya qilish vositasi ariza bo'lib, uning shakli va mazmuni O'zbekiston Respublikasi FPK 149-157- m.lari belgilaydi.

**Advokat-vakilning ishda qatnashishga tayyorlarligi**, birinchi instansiya sudida, ishning sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida amalga oshiriladi va sud ishining ushbu bosqichining umumiy vazifalariga bo'ysunadi: ishni to'g'ri hal etish uchun ahamiyatga ega amaliy holatlar aniqlanadi; tayanish lozim bo'lgan qonun aniqlanadi, va tomonlarning huquqiy munosabatlari belgilanadi; jarayonning boshqa ishtirokchilari to'g'risidagi masala hal etiladi; ishda qatnashayotgan shaxslarning zaruriy dalillari taqdim etiladi (O'zbekiston Respublikasi FPK 160- m.).

Advokatning faoliyati jarayonda qaysi tomonga vakillik qilishiga bog'liq bo'ladi. Advokat-da'vogar vakili javogarga da'vening amaliy asoslarini asoslovchi dalillar nusxasini taqdim qilishi; sudyaga o'zi sudning yordamisiz mustaqil ola olmaydigan dalillarni undirish haqida iltimosnama taqdim qilishi zarur.

Advokat-javobgar vakili da'vogarning da'vo talablarini va bu talablarning amaldagi asoslarini aniqlaydi; da'vogarga yoki uning vakiliga va sudga da'vo talablariga nisbatan yozma shaklda raddiyalarni taqdim qiladi; da'vogarga yoki uning vakiliga va sudga da'voga nisbatan raddiyani asoslovchi dalillar topshiradi; sudyaga o'zi sudning yordamisiz mustaqil ola olmaydigan dalillarni undirish haqida iltimosnama taqdim qiladi (O'zbekiston Respublikasi FPK 159- m.).

Advokat-vakilning ushbu faoliyati asosida O'zbekiston Respublikasi FPK 57- m. yotadi, unda tomon o'zi asoslanadigan holatlarni isbotlashi kerak, deb belgilangan.

### **§ 3. *Advokat – ishning qo'zg'atilishi va sudda ko'rinishiga tayyorlash bosqichida***

Ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida advokat-vakil ishonch bildiruvchiga ishning sudda ko‘rilishi tartibini, mijozning protsessual huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Bundan tashqari, sudda o‘zini tutish, shuningdek izoh berish davomida, sud va ishda qatnashayotgan boshqa shaxslar savollariga javob berishda nimalar deyish kerakligi bo‘yicha muayyan tavsiyalar beradi, tegishli sud amaliyotini o‘rganadi.

Ishni yuritishga tayyorlash davomida advokat-vakil hujjatlar to‘plami, ya’ni hujjatlar, ularning nusxalari, ko‘chirma va ish yuritish uchun zarur bo‘lgan boshqa materiallar to‘plamini tuzadi.

Shu lavrda advokat-vakil ma'lumotlar to‘playdi, ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va davlat hokimiyati va boqsharuvi organlaridan, joylardagi davlat hokimiyati organlaridan, tashkilotlar va jamoat birlashmalaridan boshqa hujjatlarni so‘raydi; ishga oida axborotga ega ekanligi ehtimoliy bo‘lgan shaxslardan, ularning roziligi bilan, so‘rov o‘tkazadi. Bundan tashqari, keyinchalik sud tomonidan ashyoviy va boshqa dalillar sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan ashyolar va hujjatlar yig‘adi; sudga guvoh sifatida kimni chaqirish lozimligini; ekspertiza o‘tkazishga, ishga ekspertlarni jalg qilishga zaruriyat borligini aniqlaydi.

#### **§ 4. Advokat va birinchi instansiya sudida ish yuritish**

**Sud muhokamasi** fuqarolik sud ishining markaziy bosqichi sanaladi. Unga og‘zaki shakl, dalillar o‘rganilishining bevositaligi va, dam olish uchun belgilangan vaqtadan tashqari, jarayonning uzluksizligi xosdir (O‘zbekiston Respublikasi FPK 11-m.). Tomonlar tortishuvi va teng huquqliligi tamoyili sud muhokamasi asosida yotadi.

Fuqarolik ishi sud muhokamasi bosqichida advokatning huquqlari va majburiylari hajmi, bir tomondan, sud muhokamasining tegishli qismiga, ikkinchi tomondan – ishonch bildiruvchining muayyan huquqlari unga o‘tkazilishiga bog‘liq bo‘ladi. shu tariqa, sud vakili o‘zining vakolati bo‘lmagan harakatlarni amalga oshirishga haqqi yo‘q, biroq u ishonch bildiruvchining manfaatlari yo‘lida mutlaqo qonun asosida harakat qilishi lozim.

**Advokatning maqsadi** ushbu bosqich doirasida ishonch bildiruvchiga yuridik yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lgani sababli, advokat sud ishining fuqarolik ishini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqishdek vazifasini hal etishga ko‘mak beradi.

Sud tarkibi e’lon qilinganidan keyin, O‘zbekiston Respublikasi FPK 170-m.ga muvofiq, advokat-vakil sudyani, prokurorni, sud majlisi kotibini, ekspertni, mutaxassisni, tarjimonni rad etish huquqiga ega.

Ishda qatnashayotgan shaxslar ish muhokamasiga oid iltimosnomalar taqdim etish huquqiga egalar:

- ishga oid bo‘lmagan taqdim etilgan yozma va ashyoviy dalillarni jarayondan chiqarib tashlash to‘g‘risida iltimosnoma;
- alohida dalillarni o‘qib eshittirish (ko‘rsatish) to‘g‘risida iltimosnoma;

- ishga yozma va ashyoviy dalillar, audio- yoki videoyozuvlarni tirkab qo‘yish to‘g‘risida iltimosnomasi.

Iltimosnomalar oqilona va asoslangan bo‘lishi, ishonch bildiruvchining ish bo‘yicha talablariga muvofiq kelishi lozim. Ular sud tomonidan ishda qatnashuvchi boqsha shaxslarning fikrlari tinglanganidan keyin hal etiladi.

Ish haqidagi ma’ruzadan keyin sud da‘vogar va uning tomonidan qatnashuvchi uchinchi shaxsning, javobgar va uning tomonida qatnashuvchi uchinchi shaxsning tushuntirishlarini tinglaydi. Vakillik shakliga qarab (bir o‘zi yoki ishonch bildiruvchi bilan birga), advokat-vakil ham, yuridik ahamiyatga ega holatlarni ta‘kidlab va o‘ziga ishonch bildirgan shaxsning ish bo‘yicha mavqyeini ifodalab, tushuntirish berishi mumkin. bunda ishda qatnashuvchi shaxslar bir-birlariga savollar berishlari mumkin, suda esa ishda qatnashayotgan shaxslarga ular tushuntirish berayotganida istalgan vaqtida savol berish huquqiga ega (O‘zbekiston Respublikasi FPK 183- m.).

So‘ngra sud dalillarni o‘rganish ketma-ketligini belgilaydi va sudda ish ko‘rilishining keyingi bosqichiga o‘tadi. Dalillar o‘rganilganidan va har tomonlama baholanganidan keyin, ishda qatnashuvchi shaxslardan va ularning vakillaridan qo‘srimcha tushuntirishlar bilan chiqish istagi to‘g‘risida arizalar tushmagan taqdirda, sud taraflarning sudda so‘zga chiqishiga o‘tadi.

**Taraflarning sudda so‘zga chiqishi** ishda qatnashuvchi shaxslar, ularning vakillari nutqlaridan iborat. Birinchi bo‘lib da‘vogar va uning vakili, keyin – javobgar va uning vakili chiqish qiladi.

O‘z nutqida advokat ishonch bildiruvchi bilan kelishib olingan, ish bo‘yicha huquqiy mavqyeini bayon etishi, sud tomonidan o‘rganilgan dalillarni tahlil etishi va baholashi lozim. U, o‘z fikriga ko‘ra, ishning qaysi holatlarini isbotlangan deb hisoblash mumkinligini, qaysi holatlar o‘z tasdig‘ini topmaganligini ko‘rsatadi. Xulosa sifatida vakil tomonlarning qanday huquqiy munosabatlari to‘g‘risida so‘z borayotganligini va qaysi qonunga tayanish lozimligi haqida fikr bildiradi.

Zarurat tug‘ilganda, ishda qatnashuvchi shaxslar luqmalariga javob berish uchun **luqma tashlash huquqidani** foydalanish va bu chiqishlarga har tomonlama baho berish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi FPK 23- m.ga muvofiq, ishda qatnashayotgan shaxslar, ularning vakili sud majlisi bayonnomasini bilan tanishish va u imzolanganidan keyin 5 kun ichida, unda yo‘l qo‘yilgan noaniqliklar va (yoki) uning to‘liq emasligini ko‘rsatib, yozma ravishda fikr-mulohaza taqdim etishlari mumkin.

Ilm-fanda advokatning isbotlashdagi ishtirokiga nisbatan turfa xil fikrlar mavjud. Jumladan, ba’zi olimlar advokat-vakil ishda qatnashmaydigan, isbotlashga

na huquq va na majburiyat bor bo‘lgan, biror-bir mustaqil qonuniy huquqqa egalikka ega bo‘lmagan shaxs emas, balki isbotlashning mustaqil sub'ekti sanaladi, deb fikr bildiradilar.

A.A.Vlasovning fikriga ko‘ra, isbotlashda advokat-vakilning ishtiroki uchun asos mijoz bilan shartnomaning mavjudligi bo‘ladi.<sup>61</sup> amaliyotda uchrovchi tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun esa, u vakillikning orderli shaklini takomillashtirishni, advokatning sudda va ijro ishidagi vakolatlarining aniq ro‘yxatini ko‘zda tutishni yoki bir vaqtning o‘zida order va ishni ko‘rishda va sud hukminig ijro etilishidagi vakilning aniq vakolatlarini o‘z ichiga olgan ishonchnomani rasmiylashtirishni taklif etadi.

Qonunchilik esa dalillar taqdim etish huquqini tomonlarga va jarayonning boshqa ishtirokchilariga bergan, vakilni ular sirasiga qo‘shtmagan. Biroq, da‘vogar yoki javobgar bergan ishonchnomaga asosan, advokat mijoz manfaatlarini ilgari surish, binobarin, isbotlashda tomonlardan birining fikrini bildiruvchi mustaqil sub'ekt sifatida ishtirok etish huquqiga ega. Bunda advokat unga yanada professional darajada o‘ziga yuklatilgan funksiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi maxsus bilimlarga ega.

**Ish bo‘yia dalillar** qonunda ko‘zda tutilgan tartibda olingan faktlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar bo‘lib, ular asosida sud tomonlarning talablari va e’tirozlariga asos bo‘luvchi holatlarning, ishni to‘g‘ri ko‘rib chiqish va hal etishda ahamiyatga ega boshqa holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligini belgilaydi.

Qonunda ko‘zda tutilgan protsessual shaklda ifodalangan sud dalillariga tomonlar va uchinchi shaxslar tushuntirishlari, guvohlar ko‘rsatmalari, yozma va ashyoviy dalillar, audio- va videoyozuvlari, ekspertlar xulosalari kiradi (O‘zbekiston Respublikasi FPK 56- m.).

Dalillar tegishlilik va joizlik xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak (O‘zbekiston Respublikasi FPK 58, 59- m.lar). advokat sudga taqdim etilayogan dalillar ish uchun ahamiyatli bo‘lishini kuzatishi lozim. Bundan tashqari, shunday holatlar ham borki, ular qonunga ko‘ra tegishli isbotlash vositalari bilan tasdiqlanishi kerak. binobarin, bu holatni ham tekshirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi FPK 60- moddasida tomonlar isbotlash majburiyatidan ozod etiladigan holatlar sanab o‘tiladi:

- 1) sud tomonidan umumma'lum deb topilgan holatlar;
- 2) qonuniy kuchga kirgan avvalda ko‘rilgan ish bo‘yicha sud qarori bilan belgilangan holatlar;
- 3) qonuniy kuchga kirgan xo‘jalik sudi qarori bilan belgilangan holatlar;

<sup>61</sup> Vlasov A.A., Kuksin I.N. Advokat v sudoproizvodstve. - M.: Norma, 2007. - S.304.

4) jinoiy ish bo'yicha qonun kuchiga kirgan sud hukmi sud hukmi chiqarilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlari to'g'risidagi ishni ko'rayotgan sud uchun ushbu harakatlar sodir bo'lganligi va ular ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi to'g'risidagi masalalar bo'yicha majburiydir.

Advokat-vakil guvohlar ko'rsatmalarini kuzatib borishi, kerakli faktlarni olishga qaratilgan savollar berishi; yozma va ashyoviy dalillarni tadqiq qilishda qatnashishi lozim. Tadqiq qilish ushbu hujjatlar bilan tanishishni, ularni tahlil qilishni, alohida dalillar o'rtasidagi aloqani belgilashni ko'zda tutadi. Advokat-vakil ekspertlar va mutaxassislarini, agar ular ishga qatnashishga jalb etilgan bo'lishsa, so'roq qilishda qatnashadi. Sud dalillarni bevosita tadqiq etishga majbur. Shu sababli ob'ektiv sabablarga ko'ra sud zalida dalillar bilan tanishish imkonsiz bo'lganda, ularni ko'zdan kechirish va tadqiq qilish joylashuv joyida o'tkaziladi.

Sud majlisi zalida yoki shu maqsadda maxsus jihozlangan joyda audio- va videoyozuvlarni ijro etish, ishda qatnashuvchi shaxslar tushuntirishlarini tinglash, shu munosabat bilan mutaxassis jalb qilish va zarur holatlarda ekspertiza tayinlash mumkin.

Bunda vakilning faoliyati qonun talablariga muvofiq kelishi, professional va malakali bo'lishi, advokatlik etikasi me'yorlariga javob berishi lozim. Advokat so'roqlarda faol mavqyeda turishi, biroq hyech qanday holatlarda so'roq qilinayotganga qo'pollik qilmasligi, uning shaxsiga hurmat ko'rsatishi kerak. Yo'naltiruvchi savollar berish, shuningdek javobi ishonch bildiruvchiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, rejalahtirilmagan savollar berish mumkin emas.

**Dalillarni tadqiq qilish** ularni baholashni ham nazarda tutadi. Dalillarni baholash doirasida ularning tegishliligi, joizligini, ularning ishonchliligi, yetarliligi va o'zaro aloqaning mavjudligini aniqlash lozim.

Advokat-vakil, fuqarolik ishi bo'yicha dalillarni baholab, o'zining ichki ishonchiga tayanadi, uning asosi o'zining konstitutsiyaviy majburiyatları – o'ziga huquqiy yordam so'rab murojaat qilgan shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni bajarish zaruriyatiga aminlik sanaladi.

## **§ 5. *Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan apellyasiya shikoyati (protest kiritish).***

Fuqarolik ishlari bo'yicha apellyasiya amaliyotini tadqiq qilish va umumlashtirish ko'rsatdiki, apellyasiya shikoyatlari va protestlarini ko'rib chiqishda sudlar qarorlarning qonuniyligini, birinchi instansiya sudlari hukmlari va ajrimlarining qonuniyligi va asosli ekanligini tekshiradilar, ular yo'l qo'ygan xatolarni tuzatadilar, bu bilan adolatli sudlovnii amalga oshirishga va fuqarolik huquqiy munosabatlarida qonuniylikning mustahkamlanishiga ko'mak beradilar.

Shu bilan birga, apellyasiya instansiyasi sudlari faolyaitida muayyan kamchiliklar mavjud. Qator vaziyatlarda birinchi instansiya sudining xulosalari ish holatlariiga va qonuga muvofiq kelishi, protsessual huquq me'yorlariga rioya etilgani tekshirilmaydi. Ko'p hollarda hukmning o'zgartirishsiz qoldirilishida

birinchi instansiya sudi tomonidan belgilangan ish holatlarigina bayon etiladi, lekin shikoyat yoki protest dalil-isbotlari noto‘g‘ri yoki hukmni bekor qilishga asos bo‘la olmaydi, deb topilganligining sabablari ko‘rsatilmaydi.

Apellyasiya instansiyasi sudi vakolatlarini belgilovchi me'yirlarni qo‘llashda xatolarga yo‘l qo‘yiladi, ishni asoslanmagan holda qaytadan ko‘irb chiqishga yuborish faktlari mavjud, FPK 331- m.da ko‘zda tutilgan ish ko‘rilishi muddatlari buziladi.

Ko‘rsatilgan xatolar apellyasiya instansiyasi sudlarining birinchi instansiya sudlari tomonidan fuqarolik ishlarining ko‘rilishi sifatiga ta’sirini susaytiradi, yugur-yugurni yuzaga keltiradi, bu esa adolatli sudlovning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.<sup>62</sup>

Oliy sud Qarorida ko‘rsatilganidek, birinchi instansiya sudlari qarorlari yoki ajrimlari apellyasiya tartibida tomonlar va ishda qatnashishga jalg qilingan boshqa shaxslar tomonidan, shuning barobarida ishda qatnashishga jalg qilinmagan, lekin sud tomonidan ularning huquqlari va majburiyatları to‘g‘risiagi masala hal etilgan shaxslar tomonidan shikoyat qilinishi mumkinligi ustidan prokuror tomonidan O‘zbekiston Respublikasi FPK 320, 322, 323 va 346- m.larida belgilangan muddat va tartibda protest kiritilganini inobatga olib, sudlarga, apellyasiya shikoyati (protesti)ni qabul qilish masalasini hal etishda qonunda belgilangan apellyasiya ishini qo‘zg‘atish shartlari va tartibiga rioya etilganligini tekshirish lozim bo‘ladi. Jumladan: shikoyat (protest) taqdim qilgan shaxs apellyasiya shikoyati (protesti) kiritish huquqiga egaligi; shikoyat (protest) kiritilishiga sabab bo‘lgan qaror qonuniy kuchga kirmaganligi va uning ustidan apellyasiya tartibia shikoyat berilishi mumkinligi; apellyasiya shikoyati (protesti) mazmuniga qo‘yiladigan qonun talablariga rioya etilganligi; apellyasiya shikoyati uchun davlat boji to‘langanligi.

Sudlar birinchi instansiya sudida qatnashuvchi vakil, jumladan advokat, agar bu protsessual harakatni amalga oshirish vakilik qilinayotgan shaxs bergen ishonchnomada keltirilgan bo‘lsa, sud qarori ustidan apellyasiya shikoyatini berish huquqiga ega ekanligini nazarda tutishlari kerak.

Fuqarolik ishini apellyasiya va cassatsiya instansiyalarida shikoyat yoki protest bo‘yicha ko‘rilishi qonuniy kuchga kirmagan va kirgan sud qarori, ajrimining qonuniyligini, asosli ekanligini va adolatliliginin tekshirish maqsadiga yo‘naltirilgandir. Shu bilan birga, bu sud faoliyatining yuqori turuvchi sudlar tomonidan nazorat qilinishining muhim shakli va yo‘l qo‘yilgan sud xatolarini tezda tuzatishning samarali usulidir.

Advokat, o‘z ishonch bildiruvchisning manfaatlarini aks ettirish bilan birga, fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish va hal etishda birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan qonunbuzilishini aniqlash vazifasiga ham ega. Bu maqsadda u sudning noqonuniy va asosli bo‘lmagan qarori ustidan shikoyat kiritishi mumkin.

---

<sup>62</sup> Postanovlenie Plenuma Verxovnogo Suda Respublikii Uzbekistan ot 21 maya 2004 goda №5 «O praktike rassmotreniya grajdanskix del v apellyasionnom poryadke» // www.lex.uz.

Bundan tashqari, apellyasiya protestini prokuror ham kiritadi, uning majburiyatlar sirasiga tegishli sud tomonidan ish ko‘rilishida qonunda ko‘zda tutilgan vakolatlarni amalga oshirish kiradi: tuman yoki shahar prokurori – tuman yoki shahar sudi qarori ustidan; viloyat prokurori va unga tenglashtirilgan prokurorlar – viloyat sudiga va unga tenglashtirilgan sudlar qarorlari ustidan protest kiritishi mumkin.

#### ***§ 6. Advokat va birinchi instansiya sudi hukmi va ajrimi yuzasidan kassatsiya shikoyati (protest kiritish)***

Kassatsiya protestini prokuror kiritadi, uning majburiyatlar sirasiga tegishli sud tomonidan ish ko‘rilishida qonunda ko‘zda tutilgan vakolatlarni amalga oshirish kiradi: tuman yoki shahar prokurori – tuman yoki shahar sudi qarori ustidan; viloyat prokurori va unga tenglashtirilgan prokurorlar – viloyat sudiga va unga tenglashtirilgan sudlar qarorlari ustidan protest kiritishi mumkin.

Apellyasiya shikoyatlari, kassatsiya protestlari, O‘zbekiston Respublikasi FPKga muvofiq, apellyasiya (kassatsiya) sudiga qaratiladi, lekin qaror qabul qilgan sudga topshiriladi. Protestning bevosita yuqori turuvchi instansiyaga taqdim qilish uning ko‘rib chiqilishiga to‘sinqilik qilmaydi. Biroq, da‘vogar, javobgar, uchinchi shaxslar dalil-isbotlar bilan oldindan tanishib va unga nisbatan o‘z e’tirozlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun shikoyat (protest)ni qaror qabul qilgan sudga topshirgan afzalroq. Agar protest bevosita kassatsiya instansiyasiga taqdim etilsa, u, odatga ko‘ra, protestni birinchi instansiya sudiga qayta yo‘llaydi.

Apellyasiya shikoyatlari sud qaror qabul qilganidan keyin yiirma kun ichida topshirilishi mumkin. ushbu muddat o‘tgandan keyin berilgan shikoyat ko‘rilmay qoldiriladi va shikoyat topshirgan shaxsga qaytariladi. Bu muddat, agar uni o‘tkazib yuborilishini sud sababli deb topsa, uzaytirilishi mumkin.

Fuqarolik protsessual qonunda shikoyat (protest)ning muayyan rekvizitlarini belgilangan. Unda quyidagilar bo‘lishi lozim:

- ✓ shikoyat (protest) yo‘naltirilayotgan sud nomi;
- ✓ shikoyat (protest) taqdim etgan shaxs maqomi;
- ✓ shikoyat (protest) taqdim qilinayotgan sud qarori mazmuni;
- ✓ sud qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirishga keltirilayotgan asoslar;
- ✓ sud qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirishga sabablarning asoslanishi;
- ✓ sudning shikoyat qilinayotgan (protest kritilgan) qarorini bekor qilish yoki o‘zgartirishga asos bo‘luvchi moddiy va protsessual qonun me’yorlariga havolalar;
- ✓ shikoyat qilingan (protest bildirilgan) qaror taqdiriga nisbatan talablar bayoni (bekor qilish, o‘zgartirish, hal etish va sh.k.);
- ✓ shikoyat (protest)ga ilova qilinuvchi hujjatlar ro‘yxati.

Apellyasiya shikoyati (protest) sudga ishda qatnashgan shaxslar soniga teng nusxalar bilan taqdim etiladi. Zarur holatlarda sud arisining yoki sudyaning taklifiga ko‘ra advokat yoki prokuror o‘sha tartibda shikoyat (protest)ga ilova

qilinadigan yozma materiallarning ishda qatnashuvchi shaxslar soniga teng nusxalarini taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi FPK me'yorlariga muvofiq, shikoyat (protest kiritish) uchun asoslar quyidagilardir:

- ✓ ish uchun ahamiyatga ega holatlarning to'liq aniqlanmaganligi;
- ✓ sud aniqlangan deb hisoblagan ish uchun ahamiyatli holatlarning isbotlanmaganligi;
- ✓ qarorda bayon etilgan sud xulosalarining ish holatlariga muvofiq kelmasligi;
- ✓ moddiy huquq yoki protsessual huquq me'yorlarining buzilishi yoki noto'g'ri qo'llanilishi.

Apellyasiya (kassatsiya) instansiyasi sudi majlisida qatnashuvchi advokat o'ziga ishonch bildiruvchining manfaatlari uchun barcha dalil-isbotlarni qo'llab-quvvatlash, shikoyatni asoslashni, moddiy va protsessual huquq me'yorlarini buzgan holda chiqarilgan sud qarorlarini, ajrimlarini bekor qilish yoki o'zgartirish bo'yicha iltimosnama kiritishga majbur.

Advokat, sud muhokamasining yuqori turuvchi bosqichida ham nafaqat isbotlashda, balki quyidagi masalalarda ham faol mavqyeni ushlashi kerak (faoliyatining yuksak madaniyati bilan uyg'ulashtirgan holda): sud savollariga javoban, jarayon rivoji haqidagi o'z fikrlarini bildirish; ishda qatnashayotgan tomonlardan birining, vakillar, jkspertlar, tarjimonlar va, agar zarur bo'lsa, raislik qiluvchining harakatiga e'tiroz bildirish; sudga ish bo'yicha yush yuritishning to'xtatib turilishi, qayta tiklanishi, bekor qilinishi, arizani ko'rilmasligi va bunday ajrimning bekor qilinishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ishlarning rivojlanishi to'g'risidagi qarorlar qabul qilish uchun ahamiyatga ega holatlar haqida xabar berish; rad etishlar bilridirish; dalillarning joiz emasligi haqida va ularni dalillar ichidan chiqarish to'g'risida bayonot berish; sud ruxsati bilan, ekspertlar va guvohlarga savol berish; ekspertizalar, jumladan, qo'shimcha va qayta ekspertizalar o'tkazish to'g'risida iltimosnama taqdim qilish; zarur holatlarda, o'kazib yuborilgan protsessual muddatlarni qayta tiklash, sud xarajatlarini taqsimlash, sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish, keyinga qoldirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash va ularning miqdorini qisqartirish, davlat bojini qaytarish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish.

## *§7. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniyligi, asoslanganligi va adolatlilikini tekshirish bosqichida advokatning ishtiropi*

Advokatning fuqarolik jarayonidagi ishtiropining uchinchi bosqichi – bu uning yuqori turuvchi sud tomonidan ikkinchi instansiya sudi chiqargan ajrim qonuniyligi, asosga egaligini tekshirish bosqichidagi ishtiropidir. Advokat, ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilishni davom ettirishning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, quyidagilarga e'tiborini jamlashi kerak:

prokuror va sudya mavqyeidan farqlanuvchi jihatlarga; uning ishtirokisiz ko‘rilgan, lekin unga ishonch bildiruvchining manfaatlariga daxldor qarorlarga; birinchi instansiya sudi qarorlarining to‘liq bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi holatlarida.

Nazorat instansiyasi sudida ish yuritilishi birinchi instansiya sudidagi ish yuritilishi bilan bir xil asoslarga qurilgan. Ular o‘rtasidagi farq sud muhokamasi predmetining turfalogidan kelib chiquvchi xususiyatlarga, nazorat instansiyasi sudi funksiyasining tekshiruv (reviziya) xrakteriga egaligigagina oiddir.

Ishda qatnashuvchi shaxslar, ularning vakillari nazorat instansiyasi sudida keng protsessual huquqlarga egalar. Ular ushbu instansiya sudida ish muhokamasi kuni haqida xabardor qilinishlari lozim, sud muhokamasida qatnashish, sudga kelib tushgan barcha materiallar bilan tanishish, ish bo‘yicha tushuntirish berish, shikoyatni qo‘llab-quvvatlash, shikoyatga qarshi raddiya bildirish, shuningdek qo‘srimcha materiallar taqdim etish huquqiga egalar. Lekin ularning qatnashmasliklari shikoyatni ko‘rib chiqishga to‘sinqlik qilmaydi.

Ular shu sababli ham alohida qiziqish uyg‘otishadiki, ular sud organlari faoliyatida sezilarli kamchiliklar boriligiga dalolat qiladilar. Apellyasiya yoki kassatsiya instansiyasi sudi ajrimining noqonuniyligida advokat protestni nazorat tartibida amalga oshirish vakolatiga ega prokurorga sud nazorati tartibida protest kiritish iltimosnomasini taqdim etish huquqiga ega.

Sudlarning fuqarolik ishlari bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan hukmlari, ajrimlari va qarorlari ishda qatnashuvchi shaxslar yoki ularning vakillari arizasiga ko‘ra, yangi aniqlangan asoslarga ko‘ra ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Bu ariza hukm, ajrim yoki qaror chiqargan sudga yuboriladi. Bunday arizani yuborish muddati qayta ko‘rib chiqishga asos bo‘luvchi holatlar aniqlangandan keyin uch oy davomida deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi FPK bunday asoslarga quyidagilarni kiritadi: ish uchun salmoqli bo‘lgan, oldin arizchiga ma’lum bo‘lmagan va bo‘la olmagan holatlar; sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan belgilangan, noqonuniy yoki asoslanmagan qaror chiqarilishiga olib kelgan guvohning qasddan bergen yolg‘on ko‘rsatmasi, ekspertning qasddan yolg‘on xulosasi, qasddan noto‘g‘ri tarjima, hujjalarning yoki dalillarning qalbakilashtirilishi; qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan baniqlangan tomonlarning, boshqa ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning yoxud ular vakillarining jinoiy harakatlari yoki sudyalarning ushbu ishni ko‘rib chiqishdagi jinoiy qilmishlari; sudning xulosasi, hukmi, ajrimi yoki qarorini yoki boshqa organning ushbu qarorni, ajrim yoki hukmni chiqarishga asos bo‘lgan qarorini bekor qilish.

Yangi yuzaga kelgan asoslar bo‘yicha ishni qayta ko‘rib chiqish uchun asoslar ro‘yxati sudda tegishli ish yuritilishini qo‘zg‘at uchun hujjalalar to‘playotgan advokatning harakatlarini belgilab beradi. Ishning apellyasiya (kassatsiya) va nazorat instansiyalarida ko‘rilishida bo‘lgani kabi, arizachi va ishda qatnashuvchi shaxslar sud majlisi vaqtি va joyi haqida xabardor etiladi, biroq ularning qatnashmasligi arizani ko‘rib chiqish uchun to‘sinq bo‘la olmaydi.

## *§ 8. Advokat va sud qarorlarining ijrosi*

Sud tomonidan da'vening qondirilishi to‘g‘risidagi qarorning chiqarilishi uning hayotga avtomatik tatbiq etilishini anglatmaydi. Noqonuniy ishdan haydalgani sababli ishga qayta tiklangan fuqaro qo‘lida sudning ijobiy qaroriga ega bo‘lishi mumkin, biroq agar korxona rahbari sud qarorini bajarishdan bosh tortsa, u amalga oshmay qolaveradi va noqonuniy ishdan bo‘shatilgan fuqaroning poymol qilingan huquq va qonuniy manfaatlari tiklanmay qolaveradi. Sud qarorlarining samaradorligi va amaliy kuchga egaligi yakuniy hisobda uning amaldagi ijrosi bilan aniqlanadi. Shu sababli shartnoma bilan sud qarorining ijrosini ta‘minlash zimmasiga yuklatilgan advokatlar sud qarorining ijrosi to‘g‘ri va o‘z vaqtida amalga oshishiga katta e’tibor berishlari kerak.

Ijro ishi tomonlari undiruvchi va qarzdor sanaladi ular ijro etish jarayonida shaxsan qatnashishlari yoki ish yuritishni vakilga topshirishlari mumkin, u, ishonchnoma asosida ish ko‘rib, o‘zi vakillik qilayotgan shaxs nomidan ijro ishi bilan boshg‘liq barcha harakatlarni amalga oshirishi mumkin: ijro ishi materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, yeusxalarini ko‘chirg, qo‘sishimcha materiallar taqdim qlish, iltimosnama taqdim qilish, ijro harakatlarini sodir etishda qatnashish, ijro ishi davomida yuzaga keluvchi barcha masalalar bo‘yicha o‘z dalil-isbot va fikr-mulohazalarini bildirish, ijro ishida qatnashuvchi boshqa shaxslar dalil-isbotlari va fikr-mulohazalariga, iltimosnomalariga e’tiroz bildirishi, rad etishlar taqdim etishi mumkin. ishonchnomada maxsus aytib o‘tilgan vakolatlar bo‘lsa, advokat quyidagi harakatlarni amalga oshirish huquqiga ham ega: ijro hujjatini taqdim etish va so‘rab olish; vakolatni boshqa shaxsga topshirish; sud ijrochisi harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish; hukm qilinan mulk (jumladan pullarni) olish.

Ijro ishida advokat vakolatlarining aniq ifodalangan variantlari quyidagichadir:

Ariza bilan sud ijrochisiga murojaat qilish:

ijro hujjatini qabul qilish (ijro ishini qo‘zg‘ash) to‘g‘risida;

qarzdorning mol-mulkini ro‘yxatga olish va hibsga olish to‘g‘risida;

ijro etishning keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib o‘tkazish to‘g‘risida, shuningdek ijro usulini va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risida (ijro harakatlarini sodir etishga to‘sinqinliklar mavjud bo‘lgan holatlarda);

ijro harakatlarini keyinga qoldirish to‘g‘risida (undirib oluvchi vakilining huquqi)

undirib olishni keyinga qoldirish to‘g‘risida (qarzdor vakilining huquqi)

ijro hujjatining qaytarilishi to‘g‘risida (ijroning to‘liq yoki qisman bajarilmaganida undirib oluvchining vakilining huquqi);

qarzdorni, qarzdorning mulkini qidiruv yoki bolani qidiruv to‘g‘risida.

Bundan tashqari, advokat sudga yoki ijro hujjatini bergen boshqa organga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega:

ijroning keyinga qoldirilishi yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirilishi, shuningdek ijro usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risida (ijro harakatlarini sodir etishga to‘sinqinlik qiluvchi holatlar mavjudligida);

ijro varag‘i yoki sud buyrug‘ining ijroga taqdim etish muddati o‘tib ketganida uni qayta tiklash to‘g‘risida.

Tegishli sudga shikoyat qilishi mukin:

sud ijrochisining ijro ishini qo‘zg‘ash to‘g‘risidagi qarori ustidan;

ijro hujjatini qaytargan sud ijrochisining harakati ustidan;

sud ijrochisining ijro harakatlarini keyinga qoldirish to‘g‘risidagi qarori ustidan;

sud ijrochisining qarzdorni yoki uning mulkini qidirishni rad etish va qidiruv bo‘yicha xarajatlarni undirish to‘g‘risidagi qarori ustidan;

sudning da'vo ishini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimi ustidan (kassatsiya tartibida).

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Fuqarolik sud ishida vakillikni rasmiylashtirish tartibi.
2. Fuqarolik ishini ko‘rib chiqishni qo‘zg‘ash va unga tayyorgarlik ko‘rish boschiqidagi advokatning ishtiroki.
3. Advokatning suddagi vakil sifatidagi vakolatlari.

#### **1- vaziyat.**

Advokat Mirzoev, o‘ziga ishonch bilidrurvchi shaxs-da‘vogarning manfaatlarini fuqarolik jarayonida ilgari surib, sudga u tomonidan berilgan vakillik ishonchnomasini taqdim qildi. Bunda, yuridik tuzilma tomonidan beriladigan vakillikka orderning mavjud emasligi tufayli, u advokat ekanligi haqida xabar bermadi va jarayon Mirzoev ishonch bildiruvchisi g‘alabasi bilan yakunlandi. Biroq yutqazgan tomon advokati Semin sudning qarori ustidan, Mirzoev, advokat bo‘la turib, da‘vogarning manfaatlarini g‘ayrihuquqiy ilgari surganligiga asoslanib, shikoyat qildi.

Apellyasiya instansiysi sud qarori qanday bo‘ladi (huquqiy me'yorga tayaning)?

Advokatlar Semin va Mirzoev a’zo bo‘lgan Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi bunday holatda qanday yo‘l tutishi kerak?

#### **2- vaziyat.**

“Advokatura to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, advokat yuridik yordam ko‘rsatish uchun zarur ma'lumotlar yig‘ish, jumladan, davlat hokimiyati organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa tashkilotlardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlari so‘rash

huquqiga ega. Qonunning ushbu qoidasiga tayanib, advokat Semin unga ishonch bildiruvchi shaxs (bog'dorchilik shirkati) soliq inspeksiyasi tekshirgan davrda hyech qanday tijorat faoliyati bilan shug'ullanmaganligini, shirkatni tadbirkorlik faoliyatidan qo'shimcha qiymat solig'ini to'lamaganlik haqidagi soliq javobgarligiga tortilishiga sabab bo'lgan inspeksiyaning xulosasi xato ekanligi to'g'risida ma'lumotlar to'pladi.

Shirkatning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha advokat va uning ishonch bildiruvchisining keying harakatlari qanday bo'ladi?

## VIII BOB ADVOKAT VA XO'JALIK SUDI

*Advokatning xo'jalik sudi ishidagi maqomi. Advokat – xo'jalik jarayonining sudgacha bosqichida. Advokat va birinchi instansiya sudida ish yurituvi. Advokat va apellyasiya instansiyasi sudida ish yurituv. Advokat va kassatsiya instansiyasi sudida ish yurituv. Advokat va sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqish. Advokat va sud hujjatlarining bajarilishi. Advokat va chet el tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan xorijiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi ishlar yurituvi.*

### § 1. *Advokatning xo'jalik sudi ishidagi maqomi*

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik-protsessual kodeksi 40- m.ga muvofiq, xo'jalik sudida ish ko'rlishida ishda qatnashuvchi barcha shaxslar o'z vakillariga ega bo'lishlari mumkin.

**Sud vakillagini** layoqatli insongina amalga oshirishi mumkin, agar u O'zbekiston Respublikasi XPK 53- m.ga muvofiq, xo'jalik sudida vakil bo'lishga haqqi yo'q shaxslar doirasiga kirmasa. Xo'jalik sudida ish yuritishga vakil vakolatlari O'zbekiston Respublikasi XPK 52- m.ga muvofiq tasdiqlanishi va rasmiylashtirilishi lozim. Xo'jalik sudida ish yuritish uchun advokatning vakolati O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuna muvofiqtasdiqlanadi.

Xo'jalik-protsessual kodeksda xo'jalik sudida ishonch bildiruvchi nomidan ish yuritishga advokatlik vakolatlarini order bilan rasmiylashtirish to'g'risida imperativ ko'rsatmalar mavjud emas.

Shu tariqa, **advokat xo'jalik jarayonida** ishonch bildiruvchiga order va (yoki) ishonchnoma asosida vakillik qilishi mumkin. Hyech kimning advokatdan va uning ishon bildiruvchisidan advokatning ishga kirishishi uchun yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha kelishuv taqdim etishni talab qilishga haqqi yo'q. Vakillikni rasmiylashtirishning belgilangan tartibiga rioya etilmaganda advokat sud tomonidan jarayonda qatnashishga qo'yilmaydi.

Qonunchilik u yoki bu ish ko'rlishida **advokat ishtiroki imkoniyatining chekllovlarini** ko'zda tutgan.

Chunonchi, agar avdokatlarga nisbatan “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 7- m.da ko‘zda tutilgan to‘sinqinliklar mavjud bo‘lsa, ular xo‘jalik sudida vakillik qila olmaydilar, aynan:

1) agar advokat ishonch bildiruvchi bilan kelishuv predmeti bo‘yicha ushbu shaxsning manfaatlaridan farqli o‘z manfaatiga ega bo‘lsa;

2) agar advokat ishda sudyasi, hakamlik sudyasi yoki arbitr bo‘lib, vositachi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, ekspert, mutaxassis, tarjimon bo‘lib qatnashgan bo‘lsa, ushbu ish bo‘yicha jabrlanuvchi yoki guvoh bo‘lsa, shuningdek, agar u ushbu shaxs manfaatlariga qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan mansabdor shaxs bo‘lgan bo‘lsa;

3) agar advokat ushbu shaxs ishini surishtirishda yoki ko‘rib chiqishda ishtirok etgan yoki etayotgan mansabdor shaxs bilan qarindoshlik yoki oilaviy munosabatlarda bo‘lsa;

4) agar advokat ushbu shaxsning manfaatlariga zid manfaatli ishonch bildiruvchiga yuridik yordam ko‘rsatayotgan bo‘lsa.

**Sud vakili**, sudda o‘ziga ishonch bildirgan shaxs topshirig‘ini bajararkan, o‘z faoliyati bilan xo‘jalik sudlaridagi sud ishi vazifalarini hal etishga ko‘maklashishi lozim, bunda o‘z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida o‘ziga ishonch bildirgan shaxsning poymol etilgan yoki babs etilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga erishishni ko‘zlaydi. Bundan tashqari, advokat ishonch bildiruvchiga unga taqdim etilgan protsessual huquqlar va unga yuklatilgan protsessual majburiyatlarni amalga oshirishda yordam berishi lozim. Fuqarolik-huquqiy vakillikdan sud vakilligining asosiy ajralib turuvchi jihat shunda. Uning asosiy maqsad, mohiyatan, vakillik qilinayotgan shaxsning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini bevosita yaratish, o‘zgartirish va bekor qilishdan iborat.

Sud vakilligini, xo‘jalik-protcessual huquq instituti sifatida, ular yuzaga kelishi sabablariiga ko‘ra turli turlarga bo‘lish qabul qilingan.

Umumiy qoidaga ko‘ra, *ko‘ngilli* (*yoki shartnomaviy*) *vakillik* (ishda qatnashuvchi shaxs mustaqil ravishda ishda ish yuritish uchun o‘z vakilini tayinlaydi, qoidaga ko‘ra, vakilga yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi kelishuv va vakillik shartnomasi sosida vakilga tegishli vakolatlar taqdim etiladi) va *qonuniy vakillik* (shaxs bevosita qonun talabiga ko‘ra sud vakili sanaladi)ga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi XPKda mavjud me’yorlarning Kodeksning boshqa qoidalari bilan tizimli aloqalarida tahlili vakillik birinchi, apellyasiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyalari xo‘jalik sudida ish ko‘riliшининг исталган босқичида ва qonun bilan xo‘jalik sudi vaoklati doirasiga kiritilgan istalgan toifadagi ishlar

bo'yicha vakillik qilish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi XPK ishda qatnashayotgan shaxslar vakillarining soniga cheklovlar belgilamagan.

## *§ 2. Advokat – xo'jalik jarayonining sudgacha bosqichida*

Advokat, joriy ishi doirasida, agar u mijoz (ishonch bildiruvchi) bilan doimiy huquqiy xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ishlasa, mijoz (ishonch bildiruvchi)ga ishonchli huquqiy himoya ko'rsatilishini ta'minlashi lozim. Mijoz manfaatlarini huquqiy himoya qilishning qurilishi va amalga oshirilishi masalasi yuksak yuridik texnika darajasida tuzilishi lozim bo'lgan shunday shartnama loyihasi matnini tayyorlash va bu shartnomani tuzish bosqichidayoq dolzarblik kasb etishi lozim. Xo'jalik shartnomalarining mazmuniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 10- m. bilan tartibga solingan.

Xo'jalik shartnomasining muhim shartlaridan biri sifatida qonunchilik bahslarni hal etish tartibini ajratib ko'rsatadi. Ushbu shart o'zida uchta huquqiy jihatni qamrab oladi:

- bahsni hal etishning sudgacha (e'tiroz) tartibiga rioya etish to'g'risidagi yo'l-yo'riq (O'zbekiston Respublikasi XPK 6- m., 2- q.);
- tomonlarning shartnomaviy biror sudga oidlikning belgilanishi masalasi (O'zbekiston Respublikasi XPK 32- m.);
- O'zbekiston Respublikasi FK 246-m.ga muvofiq, shartnomani ijro etish joyi, chunki da>vogarning O'zbekiston Respublikasi XPK 28- m., 4- q. ga muvofiq shartnomaning ijro etilishi joyi bo'yicha tanlashi yuzasidan sudga oidlik shunga bog'liq bo'lishi mumkin.

Shartnomalarini tuzib chiqishda adqokat quyidagi tamoyildan kelib chiqshi lozim: savodli tuzilgan, yetarli huquqiy sifat talablariga javob beruvchi shartnomalar ko'p hollarda advokat mijoz manfaatlariga salmoqli zarar keltirishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar yuzaga kelishining oldini olishi mumkin. bunday shartnomalarini hal etilishi sudgacha borgan bahsli vaziyat yuzaga kelganda ham, advokat mijozlarining huquqiy himoyasi poydevori bo'lib iixzmat qiladi. Birinchi navbatda bu shartnomalarini uning asosiy shartlarini aniqlashda ishlatilgan iboralarning aniq va tushunarli bo'lishiga bog'liqdir. Shartnomalarining irodalarini ikki xil talqin qilinishga va ikki xil qo'llanilishiga yo'l qo'ymadigan nuqtai nazaridan ifodalashi lozim.

Advokatning ishidagi murakkab omillardan biri, umuminsoni ma'naviyat va axloq nuqtai nazaridan, tomonlar jaovbgarligining tengligi va teng ahamiyatlari ekanligi tamoyiliga rioya etish sanaladi. Biroq, professional mavqye advokatdan o'z mijoz manfaatlarining ustuvorligini, lekin vijdoniyligini va oqillik doirasida, ta'minlashni talab qiladi. Bu borada haddan oshish, muayyan holatlarda, advokat mijoz manfaatlariga zarar keltirishi mumkin. joriy ishlarni bajarishda bir muhim jihatni qayd etish kerak: mijoz bilan ishslashda advokatda muhim va ikkinchi

darajali ahamiyatga ega ishlar bo‘lmaydi, ba’zi ishlarga jiddu jahd bilan kirishish, boshqa topshiriqlarni “qo‘l uchida” bajarish mumkin emas. Mijozning har bir topshirig‘i, uning murakkabligidan qat‘i nazar, advokat uchun eng muhim ish bo‘lishi lozim. Mijozning har bir topshirig‘ini bajarish advokatdan uning samaradorligini taminlash uchun intellektual va irodaviy resurslarini maksimal ravishda jamlashni talab qiladi.

Advokatning bevosita ishi mojaroli vaziyatni va dastlabki hujjatlarni o‘rganishdan boshlanadi.

Vaziyatni baholash quyidagilarni aniqlashni o‘z ichiga oladi:

- ✓ mojaroyuzaga kelishi sabablarini;
- ✓ yuzaga kelgan mojaroyuzagi;
- ✓ mojaroyuzaga kelishiga sabab bo‘lgan bahsli moddiy huquqiy munosabatlar xarakteri va ko‘rinishini;
- ✓ bahsli moddiy huquqiy munosabatlar qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishini;
- ✓ kim majburiyatini buzganligini;
- ✓ majburiyatning buzilishi nimada (qaysi harakatlarni sodir etishda) ifodalandi;
- ✓ himoya nuqati nazaridan, mijoz uchun yuzaga kelgan vaziyatda eng kam manfaatli nima, ya’ni zaif taraflar;
- ✓ himoya nuqati nazaridan, mijoz uchun yuzaga kelgan vaziyatda eng ko‘p manfaatli nima, ya’ni kuchli taraflar;
- ✓ bevosita hujjatlarni tahlil etishda o‘rganib chiqish talab etiladigan masalalar doirasи;
- ✓ qanday hujjatlarni o‘rganib chiqish va huquqiy baho berish lozim;
- ✓ hujjatlarni o‘rganish, ularni huquqiy jihatdan tahlil qilish va baholash;
- ✓ mijoz uchun mojaroni hal etishning qanday yakuni muhim va foydali (da’vo predmeti shunga bog‘liq bo‘ladi);
- ✓ mavqyeni ishlab chiqish uchun qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o‘rganish talab etiladi.

Qayd etish kerakki, vaziyatni tahlil qilish bevosita mijoz taqdim qilgan hujjatlar tahlilida amalga oshiriladi.

Shartnomalariga, tomonlar huquqlari va majburiyatlarini belgilashga, javobgarlik hajmiga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi. Har bir alohida majburiyatning (oldi-sotdi, ijara, pudrat va sh.k.) xususiyatini hisobga olish lozim.

Hujjatlar tahlili yukxati, schet-faktura, bajarilgan ishlar dalolatnomasi, soliqlar bo‘yicha hisoblar, yuk bojxona deklaratasiyalari va shu kabilarni o‘rganishni qamrab oladi. Hujjatning huquqiy tabiatini va maqsadini ochiq-oydin bilib olmay, uning huquqiy va amaliy mazmunini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatni o‘rganmay turib, unga tegishli bahoni berib bo‘lmaydi. Ikitomonlama xarakterdagi, ya’ni mojaroda qatnashayotgan ikkala tomon tarafidan kelishilgan va imzolangan birorta muhim hujjat advokatning e’tiboridan chetda qolmasligi kerak. Amaliy yozishmalarga, tomonlar o‘rtasidagi yozishuvlarga alohida e’tibor berish

kerak, tomonlardan birining o‘z majburiyatlarini buzganligi faktini tan olganligi borligini aniqlashtirish lozim, buni dalil sifatida sudda qo‘llash mumkin bo‘ladi.

**Ish bo‘yicha huquqiy mavqye** deganda advokatning asosli talabi yoki e’tirozini tashkil qiluvchi huquqiy argumentlar yalpiliginu tushunish lozim. Argumentlangan dalil-isbotlar ishning huquqiy va amaliy holatlarini aks ettirishi lozim. Bunda advokat o‘z mavqyeida mijozining huquqlari va qonun himoyasidagi manfaatlarining sud himoyasini amalga oshirishning ko‘zda tutilgan variantining asoslanishini ishlab chiqadi. Huquqiy mavqye bilan himoya maqsadini aralashtirib yuborimaslik kerak. Himoya maqsadi deganda bahsning yakuniy hal etilishining ko‘zda tutilgan natijasi tushuniladi, mavqye esa unga erishish usullarini belgilaydi.

Mavqyeni ishlab chiqish advokatning ishda qatnashishga tayyorgarlik ko‘rishing asosiy bosqichi sanaladi. Aynan uning asosida yotuvchi argumentlar (dalil-isbotlar) ish bo‘yicha protsessual hujjatlarni, ayniqsa da’vo arizasini tuzishda baza bo‘ladi.

Argumentlar yig‘ishda advokat ish bo‘yicha aniq mavjud bo‘lgan dalillardan, ayniqsa yozma dalillar va ularning mazmunidan kelib chiqishi kerak. Argumentlar (dalil-isbotlar) og‘zaki bo‘lishi mumkin emas, balki yuridik va isbotlovchi ahamiyatga ega aniq faktlarga tayanishi kerak.

Xulosalar moddiy huquq me'yorlariga asoslanishi kerak. Bundan oldin ko‘rsatilgan huquqiy me'yorlarni o‘rganish va tahlil qilish, ularning advokat tomonidan, keyinchalik sudda ish ko‘rilishida qo‘llash uchun, amaliy holatlar kotekestida talqi qilinishi lozim. Bunda huquqiy me'yorlarning tahlili yuzaga kelgan vaziyat (bahsli moddiy huquqiy munosabatlar)ni tartibga soluvchi barcha me'yorlar yalpiliga amalga oshirilishi kerak.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi FK 337-m., 3-q. ga muvofiq, agar kreditor qarzdor taklif etgan tegishli ijroni qabul qilishdan voz kecha yoki o‘zi sodir etishi lozim bo‘lgan va ular sodir etilmagunicha qarzdor o‘z majburiyatini bajara olmaydigan harakatlarni sodir etmagan bo‘lcha, u muddatdan o‘tgan sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi FK 338-m. me'yori kreditor muddatdan o‘tkazishining huquqiy oqibatlarini ko‘zda tutadi. Jumladan, ushbu me'yorga ko‘ra, kreditor muddat o‘tkazishida qarzdor kelgusi ijroning imkonsizligi uchun javobgarlikdan xalos bo‘ladi, unda qasd yoki qo‘pol ehtiyoitsizlik mavjud bo‘lmasa. O‘zbekiston Respublikasi FK 339-m. kreditorning muddat o‘tkazilishiga javobgarlikdan ozod qilinishi shartlarini belgilaydi, aynan: agar u muddat o‘tkazilishi qonun kuchi bilan yoki kreditor topshirig‘i bilan ijroni qabul qilish bklatilgan shaxslarning qasddan yoki ehtiyoitsizlik bilan harakatlari tufayli ro‘y bergenligini isbotlasa.

Agar bahsni hal etishning sudgacha (e’tiroz) tartibiga rioya etish tomonlar shartnomada ko‘zda tutgan bo‘lsalar yoki moddiy huquqning alohida me'yorlarida tartibga solingan bo‘lsa, huquqlari buzilgan tomon boshqa tomonga, kelgusida, e’tirozining ko‘rib chiqilishi natijalaridan kelib chiqib, sudga e’tiroz arizasini taqdim etish uchun, da’vo kiritadi.

E’tiroz taqdim qilish tartibi O‘zR “Xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonuni 17- m.da

belgilangan. E'tiroz yozma ravishda taqdi etiladi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari yoki rahbarining o'rribosari tomonidan imzolanadi.

E'tiroz bildirilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt u olinganidan keyin bir oy muddatda unga javob berish huquqiga ega. Xuddi shunday muddat O'zbekiston Respublikasi FK 724-m., 2-q.da ko'zda tutilgan.

E'tirozga javob xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari yoki rahbari o'rribosari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi. Bu – qonunchilik shaxsni o'z muhri bilan protsessual hujjatni tasdiqlashga majbur qiluvchi yagona holat ekanligi faktini qayd etish lozim. Muhr bilan tasdiqlanishi talab jtiladigan javobga sabab bo'lgan e'tiroz ham, sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza ham, da'vo arizasi ham, apelyasiya va cassatsiya shikoyatlari ham bunday talabga ega emas.

Bu faktini O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni 18-m., 4-q. me'yori izohlaydi. Ushbu moddiy huquq me'yoriga ko'ra, agar e'tirozning tan olinganligi haqidagi jaovbda tan olingan summa o'tkazilgani haqida xabar berilmasa, e'tiroz bildiruvchi, e'tirozga javob olinganidan keyin yigirma kun o'tgach, bank muassasasiga bahssiz tartibda qarzdor tan olgan summaning yechib olinishiga topshiriq taqdim etish huquqiga ega. Topshiriqqa qarzdor javobi ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi XPK me'yorlari babsni hal etishning e'tiroz tartibiga rioya etmaslik oqibatlarini ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi XPK 88-m., 1-q. 5-b.ga ko'ra, da'vogar tomondan javobgar bilan babsni sudsacha (e'tiroz) hal etish tartibiga rioya etilmagan bo'lsa, agar bu tartib shu toifa bahslar uchun qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan bo'lsa, sud da'veoni ko'rib chiqishga qabul qilmaydi, O'zbekiston Respublikasi XPK 118-m., 6-b. esa yuqoridagi sabablarga ko'ra sud da'vo arizasini qaytarishini nazarda tutadi.

### *§ 3. Advokat va birinchi instansiya sudida ish yurituv*

Sud muhokamasi – bu advokatning xo'jalik jarayonidagi ishining eng muhim bosqichidir. Barcha avvalgi ishlar shunchaki sud muhokamasiga tayyorgarlik bo'lib, unda advokat babs mazmuni bo'yicha huquqiy mavqeyeni amalga oshirish yo'li bilan oldinga qo'yilgan protsessual aqsadlarga erishishi lozim bo'ladi. Shu sababli uni sud muhokamasi bosqichida uni o'ta samarali ifodalash muhimdir. Murakkablik shundan iboratki, qarshi tomon ham ishga tayyorgarlik ko'rgan, u ham ish bo'yicha mavqeyeni ishlab chiqqan, uning ko'p jihatlari da'vogar advokati uchun sud muhokamasi boshlanishiga qadar noma'lum bo'lishi mumkin, da'vogar mavqyeini tashkil qiluvchi dalil-isbotlarning asosiy qismi esa, javobgarga, unga da'vo arizasi yuborilgan vaqtidan boshlab ma'lum bo'ladi.

Qayd etish kerakki, xo'jalik sudi majlisi uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) tayyorlov;
- 2) ishning asosiy mohiyatini ko'rib chiqish;
- 3) ish bo'yicha qaror qabul qilish.

Barcha qismlar, muayyan mustaqillikka ega bo‘lish bilan birga, o‘zaro qalin bog‘langanlar va biri boqshasi bilan o‘rnini izchil almashtiradi.

Jarayonning tortishuvchanligi tomonlar tenghuquqliligin va ishda qatnashadigan shaxslar imkoniyatlarining tengligini nazarda tutadi. Tortishuvchanlik advokatlar ishtirokidagi jarayonda o‘ta yorqin aks etadi. Tortishuvchanlikda advokatning suddagi ishining notiqlik san‘ati, savollar berish mahorati, materiallarda mavjud dalillarga o‘z bahosini berishi, bahsli moddiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi moddiy huquq me’yorlarini talqin qilish kabi jihatlari namoyon bo‘ladi.

Sud muhokamasi boshlanishidan oldin advokatdan sud majlisida qatnashish va xatti-harakatlar taktikasini ishlab chiqishi talab etiladi. Birinchi navbatda bu hujjatlarni tegishli shaklda tayyorlashga tegishli. Ishda qatnashuvchi va advokat tomonidan ishlatiluvchi hujjatlar aniq ketma-ketlikda, xronologiyaga muvofiq tizimli joylashtirilishi kerak. Bu kerak bo‘lgan paytda, sud majlisi davomida qidirishga vaqt sarflamay, dalil ahamiyatiga ega kerakli hujjatni sudga va ishda qatnashuvchi shaxslarga taqdim etish uchun zarurdir. Ikkinchidan, advokat o‘zining og‘zaki chiqishining tezislarni tuzib olishi zarur, unda o‘zining dalil-isbotlari va ish bo‘yicha ishlab chiqqan mavqyeini izchil va mantiqiy bayon qilishi lozim. Qarshi tomon vakillariga berish uchun savollar ro‘yxatini tayyorlab qo‘yish talab qilinadi. Advokatdan sud muhokamasi rivojlanishining o‘z variantini o‘ylab qo‘yishi talab etiladi. Bu fakt har bir sud majlisi oldidan qo‘yilgan maqsadga bog‘liq bo‘ladi.

Advokatdan ishni ko‘rvuchi sudya va qarshi tomon vakillari unga qanday savol berishlari mumkinligini, o‘z himoyalalarini asoslash uchun qanday dalil-isbotlar, argumentlar keltirishlari mumkinligini tahmin qilish talab etiladi.

Sud muhokamasi davomida sud ish bo‘yicha dalillarni o‘rganishni amalga oshiradi, ya’ni ishda qatnashuvchi shaxslar tushuntirishlarini, guvoхlar ko‘rsatmalarini, ekspertlar xulosalarini tinglaydi, yozma dalillar bilan tanishadi, ashayoviy dalillarni ko‘zdan kechiradi.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 71-m. ga muvofiq, ishda qatnashadigan shaxslarning o‘zlariga ma'lum bo‘lgan, ishga ahamiyati bor bo‘lgan tushuntirishlari tekshirilishi va boqsha dalillar bilan birga baholanishi lozim. Xo‘jalik sudi taklifiga ko‘ra, ishda qatnashuvchi shaxs o‘z tushuntirishlarini yozma shaklda bayon etishi mumkin.

Ishda qatnashayotgan shaxs tomonidan boshqa tomon o‘z talablari yoki e’tirozlarini asoslantirayotgan faktning tan olinishi xo‘jalik sudi uchun majburiy sanalmaydi. Xo‘jalik sudi, agar unda tan olish ish holatiga muvofiq kelsa va aldov, zo‘ravonlik, tahdid, aldash ta’sirida yoki haqiqatni yashirish maqsadida sodir etilganiga shubha bo‘lmasa, tan olingan faktni tasdiqlangan deb hisoblashi mumkin.

Dalillarni o‘rganish davomida sud muhokamasida advokat isbotlash va dalillar taqdim etish qoidasiga rioya etishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 55-m., 1-q. ga muvofiq, ishda qatnashuvchi har bir shaxs o‘z talablari va e’tirozi asosi sifatida tayanadigan holatlarni isbotlashi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 56-m., 1-q. ga muvofiq, dalillar ishda qatnashadigan shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Xo‘jalik sudi, agar mavjud dalillar asosida ish ko‘rishni imkonsiz deb hisoblasa, ishda qatnashayotgan shaxslarga qo‘sishimcha dalillar taqdim etishni taklif qilishi mumkin.

Sud muhokamasida advokat xo‘ajlik sudi sud majlisi bayonnomasini yuritishning to‘g‘riligi va to‘liqligiga e’tibor berishi lozim, u protsessual yozma hujjat bo‘lib, sud va jarayon ishtirokchialri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi XPK 134-m.da sanab o‘tilgan harakatlarni sodir etganlik (etmaganlik)ni tasdiqlaydi.

E’tibor berish kerakki, xo‘jalik sudi sud majlisi bayonnomasi har bir sud majlisida, shuningdek, alohida, qonunda ko‘rsatilgan protsessual harakatlar sodir etilishi to‘g‘risida tuziladi. Bayonnomaga havola advokatning yuqori turuvchi sud instansiylarida qatnashishida muhim rol o‘ynashi mumkin.

Advokatning sud muhokamasi davomida o‘zini tutishi taktikasi advokatning ishda mavjud dalillarga baho berishidagi faolligini ifodalashi lozim, ya’ni advokat jarayonning tashqi va sust kuzatuvchisi bo‘lmasligi, balki faol yaratuvchi va bunyodkor bo‘lishi kerak. Bu hol qarshi tomon vakillarining dalil-isbotlariga e’tirozlar bildirish mahoratida, shuningdek ularga o‘z sharhlarini va yuridik tahlil taqdim qilishda o‘z ifodasini topadi.

Bunda ehtiyojkorlikni unutmaslik va qarshi tomon vakillariga kasbiy hurmatni talab darajasida ushlab turish kerak. Advokatning o‘zini tutishi masalani o‘rtaga tashlayotganda ham, e’tiroz bildirishda hmas xushmuomalalik bilan ajralib turishi kerak. boshqa shaxsga nisbatan muloyim munosabatga rioya qilish va qarshi tomon vakili obro‘sni va qadrini yerga uruvchi so‘z va iboralar aytish, shuningdek harakatlar qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatning sud muhokamasidagi vazifasi – bahs mohiyati bo‘yicha o‘zining mavqyei to‘g‘riligiga sudni ishontirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 12- m.ga muvofiq, xo‘jalik sudi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek xalqaro shartnomalar asosida bahslarni hal etadi. Xo‘jalik udi, ishni ko‘risha davlat yoki boshqa organning hujjatining qonunga nomuvofiqligini, xususan u vakolatdan tashqari chiqish bilan qabul qilinganligini aniqlab, qonunga muvofiq qaror qabul qiladi. Bahsli munosabatlarni tartibga soluvchi huquq me‘yorlari bo‘lmasa, xo‘jalik sudi o‘xshash munosabatlarni qo‘llaydi, ular ham bo‘limganda, umumiy asoslar va qonun ma’nolaridan kelib chiqib bahsni hal etadi.

Protsessual huquqning mazkur me‘yoriga kiritilgan oxirgi qo‘sishimchalar qonunchilikni o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llash mumkinligi, ba’zida esa zarurligini aks ettiradi. O‘zbekiston Respublikasi FK 5- m., 1,2- q.lariga ko‘ra, fuqarolik huquqiy munosabatlari qonunchilik tomonidan yoki tomonlar kelishuvi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmaganda, o‘xshash munosabatlarni tartibga soluvchi fuqarolik

qonunchiligi me'yorlari qo'llaniladi (qonun analogiyasi). Ko'rsatilgan vaziyatlarda qonun analogiyasidan foydalanish imkonsiz bo'lgan taqdirda, tomonlarning huquq va majburiyatlar umumiy asoslar va fuqarolik qonunchiligi ma'nosidan (huquq analogiyasi) va vijdoniylik, oqilona yo'l tutish vaadolatlilikdan kelib chiqib belgilanadi. Fuqarolik huquqlarini cheklovchi va javobgarlik yuklovchi me'yorlarni analogiya bo'yicha qo'llashga ruxsat etilmaydi.

Qarshi tomon vakilining chiqishidan keyin advokat mazkur tomon vakilining tushuntirishlari bo'yicha og'zaki e'tirozlar bilan chiqishi mumkin. Opponent tushuntirishiga e'tiroz kabi protsessual vositani qo'llashda advokat, avvalda aytilganlarni ko'p bora takrorlamaslik uchun, sudga xato va ziddiyatlarni yaqqol namoyoish etish maqsadida, qarshi tomon vakilining asosiy dalil-isbotlari mohiyatining yuridik tahlilini berishi, shuningdek qarshi tomon aytganlariga sabab va asoslarni keltirgan holda raddiya berishi lozim.

Barcha dalillarni o'rganish yakunlanganidan keyin sud majlisida raislik qiluvchi ishda qatnashuvchi shaxslardan ularda ish bo'yicha qo'shimcha material bor-yo'qligini so'raydi. Bunday materiallar mavjud bo'lmaganda raislik qiluvchi ish o'rganilishini yakunlangan deb e'lon qiladi va sud tarkibi maslahat honasiga qaror qabul qilish uchun chiqib ketadi.

Xo'jalik sudi faqat majlisda o'rganilgan dalillar asosidagina qaror chiqaradi.

Qaror imzolanganidan keyin raislik qiluchi tomonidan ish ko'rilgan majlisning o'zida o'qib eshittiriladi. Bir vaqtning o'zida, agar qarorning faqat xulosa qismi o'qib eshittirilgan bo'lsa, raislik qiluvchi ishda qatnashuvchi shaxslar asoslangan qaror bilan qaychon tanishishlari mumknligini e'lon qiladi.

Agar ish bo'yicha sud muhokamasi davomida tomonlar sulk kelishuvi tuzishga kelishib olsalar, advokat tuziladigan sulk kelishuvining shartlarini belgilashda maslahat-huquqiy yordam ko'rsatishi, qanday shartlar qonunchilikka zid kelishini va boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan himoyalananadigan manfaatlariga daxl qilishini, bu esa tomonlar o'rtasidagi sulk kelishuvi tuzilganligini tasdiqlashni rad etishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatishi lozim. Shu munosabat bilan advokatning o'zi sulk kelishuvi matnini tuzishi va uning mazmunini yuridik tahlil qilishi zarur.

#### **§ 4. Advokat va apellyasiya instansiysi sudida ish yurituv**

Birinchi instansiya sudi tomonidan qanday qaror yoki sud hujjati qabul qilinganidan qat'i nazar, advokat yakunlangan sud majlisining tahlilini o'tkazishi va sud muhokamasiga kasbiy tayyorgarlik darajasi qanday bo'lganligini, tayyorlangan protsessual hujjatlarning sifat darajasini, sud majlisidagi nutqning mazmuni qanday bo'lganligi va u protsess natijalarida qay darajada aks etganligini o'rganib chiqishi kerak. Bu turdagil tahlil ishda qanday xatolar va kamchiliklar yo'lga qo'yilganligini va kelgusida ularni to'g'rilash uchun nimalar qilish kerakligini aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Advokat mijozni ishni ko'rib chiqish natijasi haqida xabardor qilishi kerak. Bunda muayyan natija fakti mavjudligi haqida xabar berish bilan cheklanib qolish

yaramaydi, balki bevosita uchrashib, sud majlisi qanday o'tganligini, sudya o'zini qanday tutganligini, sudya qanchalik professional ravishdaadolatli sudlovnii amalga oshirish bo'yicha o'z funksiyasini bajarganligini,advokat va qarshi tomon chiqishlarining qisqacha mazmunini, shuningdek, sud muhokamasi boshlanishidan oldin kelishib olingen huquqiy mavqye va ish bo'yicha himoyani qay darajada amalga oshirishga muvaffaq bo'linganini so'zlab beradi.

Advokat mijoz uchun ijobjiy qaror qabul qilingan holda, advokat sud qarori tahlilini inobatga olgan holda, ehtimoliy e'tirozlarga va sud hujjati ustidan shikoyat qilinishi ehtimolida qarshi tomon argumentlariga qarshi kontrargument tayyorlashi lozim. Bunday imkoniyatni hyech qachon istisno qilmaslik va har doim, ishlar qanchalik ko'p bo'lishiga qaramay, ushbu ishni va uning qayta ko'rib chiqilishi ehtimolini professiona e'tibor va shuur nazoratida ushlab turish talab etiladi.

Ushbu tahliliy ish advokat tomonidan qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlari ustidan taqdim etiluvchi apellyasiya shikoyati tuzilishida asosiy element sanaladi.

Apellyasiya shikoyatini o'z vaqtida, protsessual huquq me'yorlari bilan belgilangan protsessual muddatlar doirasida berish nihoyatda muhim.

Apellyasiya shikoyatini berish muddati – xo'jalik sudi qaror yoki boshqa sud hujjati qabul qilganidan keyin bir oyil Qonunda belgilangan bir oylik muddat xo'jalik sudi tomonidan qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin emas. Apellyasiya shikoyatini taqdim etishga xo'jalik sudi tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra muddatni o'tkazib yuborgan shaxslar uchun muddat qayta tiklanishi mumkin.

**Xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirmagan qarorlari ustidan apellyasiya shikoyati berish mumkin.** Apellyasiya shikoyati ishda qatnashgan shaxslar tomonidan berilishi mumkin. ular ish yakunidan manfaatdor, shu sababli qonun ularga zaruriy protsessual huquqlar beradi. Ishda qatnashuvchi shaxslardan farqli ravishda, ularning vakillari (jumladan advokatlar) apellyasiya instansiysi sudiga murojaat qilish mustaqil huquqiga ega emaslar. Murojaat faqat ishda qatnashuvchi shaxslar va sud hujjatlari ustidan apellyasiya shikoyatini kiritish huquqiga ega boshqa shaxslar topshirig'i bilan va ularning ishonchnomalari asosidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ishni apellyasiya instansiyasida ko'rib chiqilishining sezilarli belgisi *sud muhokamasining takroriyligi* sanaladi. Biroq advokat faqat oldin sud tekshiruvi predmeti bo'lgan ishgina takroriy ko'rib chiqilishini hisobga olishi kerak. Shu sababli birinchi instansiya sudida e'lon qilinmagan yangi talablar, ularga bog'liqligi qanchalik maqsadga muvofiq bo'lmasin, apellyasiya instansiysi sudiga taqdim etilishi mumkin emas.

Advokat ushbu bosqichda e'tiborga olishi kerak, apellyauyiya shikoyatida yangi talablarni bildirish maqsadga muvofiq emas, chunki ular muhokama predmeti bo'la olmaydi va birinchi instansiya sudi qarori qabul qilinganidan keyin shikoyatchi uchun dolzarbligini saqlab qolgan muammolarni ahlil qilishdan apellyasiya sudini chalg'itishi aniq bo'ladi.

## § 5. Advokat va kassatsiya instansiysi sudida ish yurituv

Ishda qatnashuvchi shaxslar sud qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat qilishlari mumkin. kassatsiya instansiyasi sudiga manfaatdor shaxs qonunda belgilangan vaziyatlarda va tartibda shikoyat bilan murojaat qilish mumkin (O'zbekiston Respublikasi XPK 173-176- m.lar).

Kassatsiya tartibida ish ko'riliши bosqichida advokat avvalgi instansiyalar sud hujjatlarini tahlil qilishi, birinchi va apellyasiya instansiyalari sudlarining sud hujjatlarida aks etgan ularning dalil-isbotlariga o'z bahosini berishi lozim. Bunda mazkur sud hujjatlarini bekor qilish yoki o'zgartirish uchun asoslar mavjudligini aniqlab olish darkor, ularga taqdim etilayotgan kassatsiya shikoyatida bayon etilishi lozim bo'lgan sabablarni asoslash sifatida havolalar berish kerak bo'ladi.

Kassatsiya shikoyati ob'ekti faqat qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sudi qarori bo'lishi mumkin, jumladan davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining hujjatlarini qonuniy kuchga emas deb topuvchi, shoshilinch ijro etilishi lozim bo'lgan qarori (O'zbekiston Respublikasi XPK 146-moddasi 5- qismi), apellyasiya instansiyasi qarori bo'lishi mumkin.

Shikoyatning mustaqil predmeti moddiy va protsessual huquq me'yorlariga havolalarning to'g'riliги borasida qarorning asoslov qismi; qo'shimcha hukm, shuningdek O'zbekiston Respublikasi XPKda ko'zda tutilgan vaziyatlardagi ajrimlar bo'lishi mumkin.

Kassatsiya shikoyati qilinishi mumkin bo'lgan sud hujjatlari qatoridan O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi qarorlari mustasno qilinadi. Ular faqat nazorat tartibida ko'rib chiqlishi mumkin. kassatsiya shikoyati (protest) xo'jalik suli hukmi yoki apellyasiya instansiyasi qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin bir oy ichida topshirilishi mumkin.

Qonunda belgilangan bir oylik muddat xo'jalik sudi tomonidan qisqartirilishi yoki uzaytirilishi mumkin emas. Xo'jalik sudi tomonidan uzrli deb topilgan sabablarga ko'ra kassatsiya shikoyatini topshirish muddatini o'tkazib yuborgan shaxslar uchun u belgilangan tartibda qayta tiklanishi mumkin.

Advokat ushbu bosqichda berilgan talabni ko'rib chiqishda qatnashgan sud instansiyalaridan biri (birinchi yoki apellyasiya) sud hujjatlari ustidan kassatsiya shikoyatini taqdim etish faqat shikoyat qilingan sud hujjati ko'rib chiqilishini anglatmaydi. Agar ishni ko'rish faqat birinchi emas, balki apellyasiya instansiyasida ham amalga oshirilgan bo'lsa, ish ko'riliши natijalariga ko'ra qabul qilingan sud hujjatlari o'rtasida ma'no bog'liqligi mavjudligi tabiiyidir. Bu hujjatlarning o'zaro aloqasi faqat mantiqiy jihatdan emas, balki qonun bilan ham belgilangan. Faqat apellyasiya qaroriga kassatsiya shikoyatini berish u bilan birga birinchi instansiya sudi qarori ham ko'rib chiqilishini istisno qilmaydi, balki nazarda tutadi.

Kassatsiya instansiyasi ishda qatnashuvchi shaxslar iltimosnomalari bo'yicha birinchi va apellyasiya instansiyalari sudlarida qabul qilingan hukmlar, qarorlarning ijrosini kassatsiya instansiyasida ish yurituv tugaishga qadar to'xtatib qo'yishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 187- moddasiga muvofiq, kassatsiya instansiyasida ishni ko‘rib chiqib, xo‘jalik sudi quyidagi huquqqa ega:

1) birinchi instansiya hukmi va (yoki) appelyasiya instansiyasi qarorini o‘zgartirishsiz qoldirish, shikoyat (protest)ni qondirishsiz qoldirish;

2) birinchi instansiya hukmi va (yoki) appelyasiya instansiyasi qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilish va yangi qaror qabul qilish;

3) birinchi instansiya hukmi va (yoki) appelyasiya instansiyasi qarorini bekor qilish va ishni yangidan ko‘rib chiqish uchunhukmi va (yoki) qarori bekor qilingan xo‘jalik sudi instansiyasiga, agar u qabul qilgan hukm yoki qaror yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa, yuborish;

4) birinchi instansiya hukmi va (yoki) appelyasiya instansiyasi qarorini o‘zgartirish;

5) birinchi instansiya hukmi va (yoki) appelyasiya instansiyasi qarorini to‘liq yoki qisman bekor qilish va ish bo‘yicha ish yurituvni bekor qilish yoki da‘voni to‘liq yoki qisman ko‘rib chiqishsiz qoldirish;

6) avvalda qabul qilingan hukmlar va qarorlarning birini kuchda qoldirish.

Xo‘jalik sudi hukmlari yoki qarorini o‘zgartirish yoki bekor qilishning asoslari, O‘zbekiston Respublikasi XPK 188- moddasiga muvofiq, moddiy yoki protsessual huquq me’yorlarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash sanaladi.

## ***§ 6. Advokat va sudning qonuniy kuchga kirgan hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish***

Nazorat tartibida qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini ko‘rib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi tomonidan amalga oshiriladi. Advokat shuni hisobga olishi kerakki, nazorat sud instansiyasida qonuniy kuchga kirgan sud hujjati faqat rad etilishi mumkin. agar sud hujjati ustidan shikoyat qilish shikoyat (apellyasiya, kassatsiya)ni mazmuni jihatidan ko‘rib chiqishni taqozo qilsa, bunda uni rad etish nazorat ishi qo‘zg‘atilishi uchun asosning mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi masalani oldin ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘ladi.

Ishda qatnashuchi shaxslar, shuningdek huquq va majburiyatlar to‘g‘risida sud hujjati chiqarilgan boshqa shaxslar, agar xo‘jalik sudi tomonidan moddiy va protsessual huquq me’yorlari noto‘g‘ri qo‘llanilgani natijasida o‘zlarining sub’ektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarining sezilarli buzilishini aniqlasalar, uni qayta ko‘rib chiqish uchun murojaat qilishlari mumkin. O‘xhash shartlarda, xo‘jalik protsessual qonuni prokurorning ishda qatnashishi imkoniyatiga ruxsat bergen holatlarda, prokurorning murojaati ham bo‘lishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi XPK 193- moddasi).

Yangi ochilgan holatlar sifatida talqin etiladigan faktlar yuzaga klegan taqdirda, advokat vaziyatni bunday faktlarni yangi ochilgan holatlar sifatida tasniflash mumkinligini aniqlash maqsadida vaziyatni tahlil etishi lozim. Bunda ko‘rsatilgan faktlarni ishning amaldagi holatlari kontekstida va ularga nisbatida yuridik tahlil qilish kerak bo‘ladi. Advokatning vazifasi – faktlar mavjudligini va

ular protsessual qonunda ko‘zda tutilgan yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish uchun asoslar toifasiga kiritilishi aslab berishdir.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risidagi ariza ish bo‘yicha yakuniy sud hujjatini qabul qilgan sud instansiyasiga taqdim etiladi. Arizaga uning va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari ishda qatnashuvchi boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 207- moddasi arizalarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi, unga ko‘ra, yangi ochilgan holatlar bo‘yicha sud hujjatini qayta ko‘rib chiqish uchun arizani qabul qilgan xo‘jalik sudi arizani u kelib tushganidan keyin bir oy ichida ko‘rib chiqishi lozim.

Arizani ko‘rib chiqish xo‘jalik sudi majlisida amalga oshiriladi, muhokama vaqtini va joyi haqida arizachi va ishda qatnashuvchi boshqa shaxslar topshirilgani haqida xabarnomali buyurtma xat orqali abardor qilinadi. Qonun arizani qabul qilish va xabardor qilish to‘g‘risidagi hujjatning protsessual shakliga qat’iy talablar qo‘ymaydi, biroq, sud ishining umumiy qoidalaridan kelib chiqib, sud da‘vo arizasini qabul qilish va sud muhokamasiga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risidagi ajrimga mazmunan o‘xshash ajrim chiqarishi kerak bo‘ladi.

Xo‘jalik sulining majlisi ajrim chiqarish bilan yakunlanadi: yo sud yangi ochilgan holatlar borligini qayd etadi, arizani qondiradi va sud hujjatini bekor qiladi, yoki sud aktini qayta ko‘rib chiqishni rad etadi, arizada keltirilgan holatlarni yangi ochilgan yoki ish hal etilishiga sezilarli ta’sirga ega deb tan olmaydi.

Arizani qondirish va sud hujjatini bekor qilish to‘g‘risida ajrim chiqarib, sud sud hujjatining bekor qilinishi sababli o‘rganilishi va aniqlanishi zarur bo‘ladigan holatlarning isbotlanganligini belgilash yoki shunday deb hisoblash huquqiga ega emas.

Oliy xo‘jalik sudiga ariza va taqdimnomalar bilan murojaatni tartibga solish maqsadlarida nazorat tartibida ish bo‘yicha qabul qilingan oxirgi sud hujjatining qonuniy kuchga kirganidan keyin uch yillik muddat belgilangan.

**Nazorat sud instansiyasi** doim istisnoviy xarakterga ega bo‘ladi. Chakana sud instansiyasiga aylanib qolish xavfi faqat quyi turuvchi sud instansiyalari o‘zalariga yuklatilgan funksiyalarni tegishli tarzda bajarmasalar, amaliyot yagonaligini ta‘minlamasalar va nazorat murojaati taqdim etuvchilarda, shu qatori nazorat instansiyasida ham qabul qilingan sud hujjatining qonuniyligi ta‘minlanganligiga ishonch uyg‘otmasalar, ro‘y beradi.

Nazorat tartibida ish qo‘zg‘atilishi uchun advokat nazorat tartibida protest kiritish huquqiga ega shaxslarga nazorat tartibida protest kiritish to‘g‘risidagi ariza (iltimosnomasi) bilan murojaat qilishi mumkin.

Protest kiritish to‘g‘risidagi arizaning shakli va mazmuniga protsessual qonunda biror-bir talablar belgilanmagan. Shu sababli, shakl va mazmunning erkin ko‘rinishda bo‘lishini tahmin etish mumkin.

Nazorat ishining o‘ziga xosligi nazorat tartibida protest kiritilishi to‘g‘risidagi ariza ishni birinchi instansiya sudidat talab qilib olish orqali ish ko‘rinishiga asos bo‘lib xizmat qilishida, lekin apellyasiya yoki kassatsiya

shikoyatida taqdim etilishi tufayli qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini qayta ko‘rish amalga oshadigan hujjat emasligida ko‘rinadi. Shu sababli arizada ishning holatlari yozma bayon etilishi, babs mohiyatiga ko‘ra hal etilishiga asos bo‘lgan huquqiy me‘yorlar qanday tarzda qo‘llanilgani va advokat ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjatlari noqonuniy yoki asoslanmagan deb hisoblashiga dalil-isbotlar ko‘rsatilishi lozim. Protest kiritish vakolatiga ega shaxsning arizada ko‘rsatilgan dalil-isbotlarni qabul qilishi aynan bayon uslubi va arizaning mazmundorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Protestni nazorat tartibida kiritish to‘g‘risidagi arizani tuzishda quyidagi ikkita omildan kelib chiqish lozim:

- ✓ protest kiritish uchun asoslar borligi yoki yo‘qligi to‘g‘risidagi masalani hal etish ishda qatnashuvchi shaxslar ishtirokisiz amalga oshiriladi;
- ✓ nazorat tartibida sud hujjatining o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishiga asoslar sud hujjatining noqonuniyligi va asossizligi bo‘ladi. Birgina rasmiy asoslar bilan xo‘jalik sudining mohiyatan to‘g‘ri hukmi, qarori bekor qilinishi mumkin emas (O‘zbekiston Respublikasi XPK 200-moddasi).

Rasmiy asoslar sirasiga protsessual xarakterga ega, qabul qilingan sud hujjatining mohiyatiga ta’sir ko‘rsatmagan qonunbuzarliklar kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 193- moddasiga muvofiq, protestlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Raisi va uning o‘rribosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rribosarlari, O‘zR istalgan xo‘jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hukmlari va qarorlariga nisbatan kiritishi mumkin, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosati qarorlari bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi XPK 193- m.da ro‘yxati keltirilgan mansabdor shaxslar, nazorat tartibida protest kiritish uchun asoslar borligi masalasini hal etish uchun tegishli xo‘jalik sudidan ishni talab qilib olish huquqiga ega. Protest uchun asoslar mavjud bo‘lganida, O‘zbekiston Respublikasi XPK 193-m.da ko‘rsatilgan mansabdor shaxs protest kiritadi va uni ish bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Rayosatiga yuboradi. Protest kiritish uchun asoslar mavjud bo‘lmaganda, ariza bergen shaxs bu haqda xabardor qilinadi.

Xo‘jalik sudi ishda qatnashayotgan shaxslar fikrini inobatga olgan holda jarayon yuritishning ketma-ketligini belgilaydigan boshqa sud instansiyalardan farqli o‘laroq, nazorat sud instansiyasida bu tartib oldindan qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Bu holatda advokat, u yoki bu shaxsning vakili sifatida, faqat sudyamruzachi tinglangandan keyingina o‘z mavqyeini asoslash bilan chiqish qiladi.

## **§ 7. *Advokat va sud hujjatlarining ijrosi***

Sud hujjatlarining ijrosi yuridik va jismoniy shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalda himoya qilishga qaratilgan. Binobarin, huquq himoyasi uning

amalda, zarur holatlarda esa, majburiy amalga oshishi demakdir. Shu sababli xo‘jalik jarayoni doirasida advokat, mijoz manfaatlarini taqdim qilishda, faqat sud tomonidan iqtisodiy bahslarni ko‘rib chiqilishi va hal etilishida emas, balki qabul qilingan sud hujjatlarining ijrosida ham qatnashadi.

Ijro ishi tomonlari undiruvchi va qarzdor sanaladi. Undiruvchi – ijro uning foydasiga bo‘layotgan shaxs, qarzdor – ijro hujjati bo‘yicha muayyan harakatlar qilish yoki ularni sodir etishdan tiyilishga majmubr bo‘lgan shaxs. Advokat bu bosqichda undiruvchining ham, qarzdorning ham manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

Xo‘jalik sud ishida turli hujjatlarning majburiy ijro etilishi, asosan, sud ijrochilarini tomonidan amalga oshiriladi. Advokat sud ijrochisining ijro ishidagi vakolatlarini o‘rganishi talab qilinadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, barcha sud hujjatlari ham beovsita sud ijrochilarini tomonidan ijro etilmasligini nazarda tutishi kerak.

Majburiy ijro etish Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hududiy bo‘limlarining qarzdor joylashgan, yashaydigan yoki xo‘jalik faoliyatini yuritadigan yoki uning mulki joylashgan tumanda faoliyat yurituvchi sud ijrochilar tuman (shahar) bo‘limlari sud ijrochilarini tomonidan amalga oshiriladi.

Xo‘jalik sudi hukmi, ajrimi va qarorining ijrosi ushbu hukm, ajrim va qarorni qabul qilgan xo‘jalik sudi tomonidan beriladigan ijro varag‘i asosida amalga oshiriladi. Sud buyrug‘i ijo hujjati kuchiga ega bo‘ladi.

Ijro varag‘ini berish uchun eng muhim asos sud hujjatining qonuniy kuchga kirishi sanaladi.

Xo‘jalik sudining qonuniy kuchga kirgan sud hujjati majburiylik va ijroiylig xususiyatini oladi, buning natijasida tomonlar va boshqa shaxslar qabul qilingan sud hujjatiga muvofiq ish ko‘rishlari kerak bo‘ladi. U istisnosiz O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha davlat organlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiydir.

Advokat, ushbu bosqichda qatnashish davomida, Xo‘jalik-protsessual kodeksida belgilangan ijro varag‘ini berishning protsessual tartibini, shuningdek ijro varag‘i mazmunini bilishi kerak.

Ijro varag‘ini ijro uchun taqdim qilinishi olti oylik ijrochiga idro varag‘ini taqdim etish muddatini uzadi. Bu shuni anglatadiki, olti oy davomida ijro organi (bank, boshqa kredit muassasasi yoki sud ijrochisi)ga yuborilgan ijro varag‘i, birinchidan, hyech qanday muddat cheklarlisiz ijro etilishi mumkin; ikkinchidan, ijro hujjati undiruvchiga ijrosiz yoki qisman ijro etilgan holda qaytarilgach, u, qaytgan kundan e’tiboran olti oy ichida yana ijrochiga taqdim etilishi mumkin.

Ijroga taqdim etish muddati o‘tgan ijro varag‘i bank tomonidan ham, sud ijrochisi tomonidan ham qabul qilinmaydi.

Undiruvchining advokati ijro varag‘ining ijroga taqdim etilishi muddatini o‘tkazib yuborgan holda, u xo‘jalik sudiga o‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

Ijro muddatini tiklash sud hujjatini qabul qilgan xo‘jalik sudi tomonidan, uzrli sabablarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin.

Ijro varag‘i yo‘qotib qo‘yilganda uning dublikati taqdim etilishiga ruxsat beriladi. U xo‘jalik sudi tomonidan undiruvchining arizasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Advokat butun ijro jarayoni davomida vaziyatni kuzatib bormog‘i, qarzdor mol-mulkini izlashni amalga oshirishi, uning barcha bitimlarini, mulkining ko‘chishini kuzatib borishi lozim. Agar ijro hujjati ijrosi jarayonida qarzdor yashash joyi, ish joyi yoki u turgan joy o‘zgarsa, yoki qarzdorning undirish qaratilishi mumkin bo‘lgan mulki avvalgi turgan joyida mavjud emasligi aniqlansa yoki u undiruvchining talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, sud ijrochisi ijro hujjatini ushbu dalolatnomaga nusxasi bilan birga qarzdorning yangi yashash joyi, ish joyi, turar joyi yoki qarzdor mulkining yangi turgan joyi bo‘yicha sud ijrochisiga yuboradi, bu haqda bir vaqtning o‘zida undiruvchini ham, ijro hujjatini bergen sudni ham xabardor qiladi.

Advokat, kimning (undiruvchi yoki qarzdorning) manfaatlarini ilgari surishidan qat‘iy nazar, sud hujjati ijrosining keyinga qoldirilishi yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirilishida, sud hujjati ijrosining to‘xtatib turilishida va sh.k.da ijro varag‘ini ijroga taqdim etish xususiyatlarini bilishi va ulardan o‘z mijoz manfaatlarida samarali foydalanishi lozim.

Sud hujjati ijrosini keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza taqdim etish huquqini qonun undiruvchiga, qarzdorga va sud ijrochisiga beradi. Sud ijrochisi o‘zi ijro ishini yuritayotgan xo‘jalik sudi sud hujjatlariga nisbatan shunday huquqqa ega.

Sud ijrochisi mustaqil ravishda ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirishni taqdim etishi yoki sud qarori ijrosining usul va tartibini o‘zgartirishi mumkin emas. Ijroni murakkab yoki ilojsiz qiluvchi holatlar mavjudligida (tabiiy ofat, tayinlangan mulkning naturada yo‘qligi, qarzdorning xastaligi va b.), sud ijrochisi bu haqda dalolatnomaga tuzadi va ushbu holatni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, sudyaga ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish yoki ijroning usul va tartibini o‘zgartirish haqidagi masalani hal etish uchun topshiradi.

Xo‘jalik sudi, o‘z tashabbusi bilan, ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirishni taqdim eta olmaydi, ijroning usul va tartibini o‘zgartira olmaydi.

Ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish, ijroning usul va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza qonun tomonidan qraorlarni ijro etish uchun berilgan protsessual muddat tugashiga qadar berilishi mumkin.

Keltirilgan masalalarni ijro qilinishi lozim bo‘lgan qarorni qabul qilgan xo‘jalik sudi hal etishi mumkin. Bu birinchi yoki apellyasiya instansiysi sudi bo‘lishi mumkin, agar u qarorni o‘zgartirib, yangi qaror qabul qilgan bo‘lsa.

Kassatsiya yoki nazorat instansiysi sudi tomonidan qaror bekor qilingan va yangi qaror chiqarilgan bo‘lsa, bu hujjatni idro etish bo‘yicha barcha arizalar birinchi instansiya bo‘yicha ishni ko‘rgan sud tomonidan hal etiladi.

Ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish, ijroning usul va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ariza sud mjalisida ko‘rib chiqiladi. Uni o‘tkazish vaqt va joyi haqida undiruvchi va qarzdor xabardor qilinishlari kerak, lekin ularning qatnashmasliklari arizani ko‘rib chiqishga to‘sinqinlik qilmaydi. Agar ariza sud jirochisi tomonidan berilgan bo‘lsa yoki xo‘jalik sudi uning ishtirokini zarur deb topsa, sud ijrochisi xabardor qilinadi.

Ijroni keyinga qoldirish yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshirish, ijroning usul va tartibini o‘zgartirish to‘g‘risidagi masala xo‘jalik sudi ajrimi bilan hal etiladi. Ariza qondirilganda ham, unga rad javobi berilganda ham, uning ustidan shikoyat qilish mumkin.

Ijro ishi qoidalari bilan tanishishda shunday holatni e’tibordan qoldirmaslik kerakki, ijro undirishni qarzdorning mulki va pul mablag‘lariga qaratish bilangina cheklanmaydi. Qarzdorga muayyan harakatlarni sodir etish yoki undiruvchiga belgilangan ashylarni topshirish majburiyatini yuklovchi sud hujjatlari ijrosi katta o‘ziga xoslikka ega.

Advokat qarzdorning va mansabdor shazslarning sud hujjatlarini ijro emaslik uchun javobgarligi masalalariga e’tibor berishi kerak. Ijro ishida qonuniylikni kafolatlash muammosi muhim sanaladi. Advokat uchun undiruvchilar, qarzdorlar va boshqa shaxslarning sud va boshqa hujjatlarni ijro etishdagi huquqlarini himoya qilish, sud ijrochisining harakatlari ustidan shikoyat qilish va e’tiroz bildirish imkoniyati bilan bog‘liq masalalar advokat uchun muhim hisoblanadi.

Qarzdor advokati, asoslar mavjud bo‘lganda, ijroning qaytarilishi kabi protsessual mexanizmni qo‘llashi zarur. Ijroning qaytarilishi protsessual institut sifatida sud orqali javobgarning keyinchalik bekor qilingan qaror idrosi bilan buzilgan huquqlarini tiklashni o‘zida ifodalaydi. U quyidagi shartlar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi: 1) sud ijrosi bajarilgan; 2) u bekor qilingan; 3) yangi qaror chiqarilgan bo‘lib, unga ko‘ra da’vo rad etilgan (butunlay yoki qisman), yoki ish bo‘yicha ish yurituvi bekor qilinishi yoki da’vo ko‘rilmay qoldirilishi to‘g‘risida ajrim chiqarilgan.

Buning uchun advokat Xo‘jalik sudi undirilgan pul mablag‘larini, mol-mulkni yoki uning qiymatini tashkilot, fuqarol arizasiga ko‘ra qaytarish uchun ijro varag‘i berishini bilishi lozim. Arizaga oldin qabul qilingan sud hujjatining bajarilganini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi.

Ijroni qaytarilishi tartibida jaovbgarga undan bekor qilingan qaror bo‘yicha da’vogar foydasiga undirib olingan barcha narsa (pullar, mol-mulk) qaytariladi. Binoni bo‘shatib qo‘yish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ularni qaytadan javobgarga topshirish amalga oshiriladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Xo‘jalik sud ishida vakillikni rasmiylashtirish tartibi.
2. Advokatning biirnchi instansiya sudida xo‘jalik ishini ko‘rishda qatnashishi.

3. Birinchi instansiya sudida xo‘jalik ishini ko‘rishda advokatning protsessual huquqlari va majburiyatlari.

4. Sud hujjatlarini ko‘rib chiqish bosqichida (apellyasiya, kassatsiya, nazorat va yangi ochilgan holatlar bo‘yicha) advokat faoliyati.

### **1- vaziyat.**

Yuridik konslutatsiyaga fermer Boboev murojaat qildi va xabar berdiki, o‘zaro shartnomaga asosida boshqa fermer xo‘jaligi bilan umumiy podada bo‘lgan uning fermer xo‘jaligi sigirlari, buqalari, xo‘jalik raisining aybi bilan sovuqdan va ochlikdan nobud bo‘lgan. Boboev sudga raisning ustidan, undan nobud bo‘lgan chorva qiymatini va boy berilgan foyda qiymatini undirib olish haqida da‘vo arizasini tuzishda yordam berishni so‘radi. Biroq uni qabul qilgan advokat da‘vo berish uchun zarur bo‘lgan rais va fermerlik xo‘jaligining aybini ko‘rsatuvchi dalillar mavjud emasligiga asoslanib, da‘vo arizasini tuzishdan bosh tortdi.

Qaysi huquqiy me'yorlar asosida advokat ish ko‘rdi?

U to‘g‘ri yo‘l tutdimi?

Advokat fermerga qanday konsultatsiya berishi kerak edi?

Advokat tomonidan yuridik konsultatsiya uchun haq qonuniy olinganmi?

### **2- vaziyat.**

Fuqaro Saidova advokat G‘oipovga o‘zining o‘g‘lini odam o‘ldirish bo‘yicha jinoiy ishda dastlabki tergov jarayonida himoya qilish iltimosi bilan murojaat qildi, unda uning o‘g‘li ushbu jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgandi. Biroq advokat Saidova bilan shartnomada tuzishdan bosh tortdi va bunda u xo‘jalik huquqi sohasida mutaxassis advokat ekanligini, odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha ixtisoslashmaganligini asos qilib keltirdi.

Advokatning rad etishi qonunga muvofiqmi?

Ushbu rad etishda qonunchilikning advokat himoyani zimmasiga olishni rad etishi taqiqlanishi talabi buzilishi kuzatilmaydimi?

# **IX BOB**

## **ADVOKAT MA'MURIY HUQUQBUZARLIK LAR TO'G'RISIDAGI ISHLAR BO'YICH A ISH YURITUV JARA YO NIDA**

*Ma'muriy huquqbazarliklar. Ma'muriy huquqbazarliklar to 'g 'risidagi ishlar bo'yicha qarorlarni qayta ko'rib chiqish. Ma'muriy undirishlarni qo'llash to 'g 'risidagi qarorlarning ijrosi.*

## § 1. Ma'muriy huquqbazarliklar

Ma'muriy huquqbazarlik – bu fuqarolar shaxsiyati, huquqlari va erkinliklariga, mulkka, davlat va jamoat tartibiga, atrof-muhitga daxl qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyyotszlik oqibatida) harakat yoki harakatsizlik bo'lib, uning uchun qonunchilikda ma'muriy javobgarlik ko'zda tutilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 10-m.).

O'zbekiston Respublikasi MJtKga muvofiq, ma'muriy javobgarlikka jismoniy shaxslar, jumladan harbiy xizmatchilar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar jalb qilinadi. Yuridik shaxs, agar u, buzganik uchun O'zbekiston Respublikasi MJtK yoki amaldagi qonunchilik bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan qoidalar va me'yorlarni rioya etish imkoniga ega bo'la turib, ularga rioya etish uchun unga bog'liq bo'lgan barcha choralarini ko'rmaganligi uchun ma'muriy huquqbazarlikni sodir etishda aybdor deb topiladi.<sup>63</sup>

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks – O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlikni belgilovchi asosiy qonundir. U bir vaqtning o'zida ma'muriy huquqning moddiy qismini va kodeks moddalarini qo'llashning protsessual qoidalarini o'z ichiga oladi.

17-18- boblarida ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni hal etishga va qaror chiqarishga vakolatlari shaxslar sanab o'tiladi. 19-24- boblarda protsessual huquq masalalari jamlangan, 25-31- boblarda esa, ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha qarorlarning ijrosi tartibi belgilangan.

Kodeksda aybning ikkita shakli ko'zda tutilgan: qasddan va ehtiyyotsizlik oqibatida. Kodeksning 11- moddasida aytildiki, agar ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxs o'z harakati (harakatsizligi)ning g'ayriqonuniy xarakterda ekanligini anglagan bo'lsa, uning zararli oqibatlarini ko'ra bilgan bo'lsa va bunday oqibatlarning yuzaga kelishini istagan bo'lsa, ongli ravishda ularning yuzaga kelishiga qo'yib bergen yoki ularga befarq qaragan bo'lsa, ma'muriy huquqbazarlik qasddan sodir etilgan deb tan olinadi.

Ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan shaxs o'z harakti yoki harakatsizligining zararli oqibatlari yuzaga kelishi mumkinligini oldindan bilgan, lekin yengiltaklik bilan ularning oldini olishni mo'ljallagan, yoki bunday oqibatlar yuzaga kelishi mumkinligini ko'zda tutmagan, aslida ko'ra bilishi mumkin bo'lgan bo'lsa, bunday ma'muriy huquqbazarlik ehtiyyotsizlik yuzasidan sodir etilgan deb tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi MJtK 242-m. ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish vakolatiga ega organlarni belgilaydi.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'radilar:

---

<sup>63</sup> I.Xamedov, L.Xvan, I.Say. Administrativnoe pravo Respublikи Uzbekistan. Obshchaya chast. Tashkent, Konsauditinform- Nashr, 2012. - S.390.

1) tuman (shahar) sudi ma'muriy ishlari bo'yicha sudyasi, xo'jalik ishlari sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar;

2) poselka, qishloqlar, ovullar fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari qoshidagi ma'muriy komissiyalar;

3) voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (ashahar) komissiyalar;

4) ichki ishlari (militsiya) organlari (mansabdar shaxslari), davlat inspeksiyalari organlari (mansabdar shaxslari) va boshqa, Kodeks tomonidan shunday vakolat berilgan organlar (mansabdar shaxslar).

Kodeksda ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ishlarni ko'rish vaoklatiga ega organlar va mansabdar shaxslarning to'liq ro'yxati berilgan. Ularning umumiy soni o'ttizdan ortiq, bu ro'yxat boshida sudyalar turadi.

O'zbekiston Respublikasi MJtK 245- m.da ma'muriy huquqbazarliklar bo'yicha sudyalar tomonidan qanday ishlar ko'riliishi batafsil yoritiladi.

Xo'jalik sudlari yuridik shaxslar va individual tadbirkorlar huquqbazarliklarini ko'radilar.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar ochiq ko'rildi. Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar yuritilishining tarbiyaviy va oldini olish rolini kuchaytirish maqsadlarida bunday ishlar qonunbuzarning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoada ko'riliishi mumkin.

Qanday holatlarda ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ish yurituvi boshlanishi mumkin emas, boshlangan ish yurituv esa bekor qilinishi lozim? Bu quyidagi holatlarda ro'y beradi:

1) ma'muriy huquqbazarlik hodisasi mavjud emas;

2) ma'muriy huquqbazarlik tarkibi mavjud emas, jumladan noqonuniy harakatlar (harakatsizlik) sodir etish vaqtida jismoniy shaxsning O'zbekiston Respublikasi MJtKda ma'muriy jaovbgarlikka tortish uchun ko'zda tutilgan yoshga yetmaganligi yoki qonunga qarshiy harakatlar (harkatsizlik) sodir etgan jismoniy shaxsning g'ayrishuuriy holatdaligi;

3) harakatlar shaxs tomonidan o'ta zarur holatda sodir etilgan;

4) amnistiya hujjati e'lon qilinishi, u ma'muriy jazo qo'llashni bekor qiladi;

5) ma'muriy javobgarlikni belgilagan qonun bekor qilinishi;

6) ma'muriy javobgarlikka tortish belgilangan muddati tugashi;

7) xuddi shu yagona noqonuniy harakatlar (harakatsizlik) sodir etilganligi fakti bo'yicha, ma'muriy huquqbazarlik bo'yicha ish yuritilayotgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo tayinlash qarori yoki ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni to'xtatish to'g'risidagi qaror yoki jinoiy ish qo'zg'atish to'g'risidagi qaror yuritilishi;

8) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritilayotgan jismoniy shaxs o'limi yuz berishi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yurituvi davomida ish yurituvida qatnashuvchi shaxslar iltimosnama berishlari mumkin.

Iltimosnama yozma shaklda taqdim etiladi va o'sha zahoti ko'rib chiqilishi lozim. Iltimosnomani qondirishni rad etish to'g'risidagi qaror suda, ma'muriy

huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuritish qo‘lida bo‘lgan organ, mansabdor shaxs tomonidan ajrim ko‘rinishida chiqariladi.

## **§ 2. Advokatning ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yurituv jarayonida qatnashishi**

Advokatning ma'muriy huquqbazarliklar bo‘yicha ish yurituv jarayonida qatnashishining huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida keltirilgan (288, 294, 295, 297, 303 va b. m.lar)

Advokat yoki vakil sifatida ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yurituviga advokat yoki boshqa shaxs qo‘yiladi. Advokatning vaoklati yuridik konsultatsiya tomonidan berilgan order bilan tasdiqlanadi.

Yuridik yordam ko‘rsatuvchi boshqa shaxs vakolatlari qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnomaga bilan tasdiqlanadi.

**Advokat va vakilga ma'muriy huquqbazarlik bo‘yicha ish yurituviga ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga tuzilgan paytdan qatnashishiga ruxsat beriladi.** Jismoniy shaxs ma'muriy huquqbazarlik tufayli qo‘lga olingan holda, himoyachi ma'muriy qo‘lga olish vaqtida ish yurituvga qo‘yiladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yurituviga qatnashishiga ruxsat berilgan advokat va vakil ishning barcha materiallar bilan tanishish, dalillar taqdim etish, iltimosnomalar va rad etishlar kiritish, ish ko‘rilishida qatnashish, ish bo‘yicha yurituvni ta‘minlash choralarini qo‘llash, ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat qilish, qonunga muvofiq boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

**Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha dalillar** – har qanday fakt ma'lumotlari bo‘lib, ular asosida sudya, ish yurituviga qo‘lida bo‘lgan organ, mansabdor shaxs ma'muriy huquqbazarlik holati mavjudligi yoki mavjud emasligini, ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsnинг aybdorligini, shuningdek ishni to‘g‘ri hal etish uchun ahamiyatga ega boshqa holatlarni aniqlaydilar.

Bu ma'lumotlar ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga, qonunda ko‘zda tutilgan boshqa bayonnomaga, ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuritalayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchining, guvohlarning ko‘rsatmalari, ekspertlar xulosalari, boshqa hujjatlar, shuningdek maxsus texnik vositalar, ashyoviy dalillar bilan belgilanadi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuritalayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchining va guvohlarning ko‘rsatmalari ishga aloqador, ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan og‘zaki yoki yozma shaklda xabar berilgan ma'lumotlarga kiradi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuritishda ilm-fan, texnika, san'at yoki hunar sohalarida maxsus bilimlardan foydalanishga zaruriyat tug‘ilsa, sudya, ishni yuritayotgan organ, mansabdor shaxs ekspertiza tayinlash to‘g‘risida ajrim qabul qiladi. Ajrim ekspertiza o‘tkazilishi topshirilgan ekspertlar yoki muassasalar uchun majburiydir. Ekspert xulosasi sudya, ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ishni yuritayotgan organ, mansabdor shaxs uchun majburiy sanalmaydi, lekin ekspert xulosasiga rozi emaslik asoslab berilishi kerak.

**Ashyoviy dalillarni o‘rganishda** advokat faol mavqyeni egallashi kerak, ayniqsa u hujjatlarni o‘rganishda e’tiborli bo‘lishi kerak. Hujjatlarda bayon etilgan yoki ularda tashkilotlar, ularning birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha ish yurituvi uchun ahamiyatga ega bo‘lsa, dalil deb hisoblanadi. Hujjatlarga foto- va kinos'yomka, audio- va videoyozyuv, axborot bazalari va ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot tashuvchilar materiallari kirishi mumkin.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish sudya, ishni ko‘rish vakolatiga ega organ, mansabdor shaxs ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomani va ishning boshqa materiallarini olganidan keyin o‘n besh kunlik muddatda ko‘rib chiqiladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilishi jarayonida maxmuriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga, zarur hollarda ishning boshqa materiallari ham o‘qib eshittiriladi. Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risida ish yurituvi olib borilayotgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxsning qonuniy vakilining tushuntirishlari, ish yurituvda ish bo‘yicha qatnashayotgan boshqa shaxslar ko‘rsatmalari, mutaxassis tushuntirishi va ekspert xulosasi tinglanadi, boshqa dalillar o‘rganiladi, psh yuritishida prokuror qatnashgan taqdirda, uing xulosasi tinglanadi. Qonun advokatga bunday huquq bermaydi, ya’ni tomonlarning sudda so‘zga chiqishlari mavjud emas.

**Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilishi natijalariga ko‘ra qaror chiqarilishi mumkin:**

- 1) ma'muriy jazo tayinlash to‘g‘risida;
- 2) ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish yuritishni bekor qilish to‘g‘risida.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilishda advokat qaysi idoraga mansublikka e'tibor berishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi MJtK 315- m.da tegishli qoidalar belgilangan. Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat sudga va yuqori turuvchi idoraga, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga tushgan bo‘lsa, uni sud ko‘rib chiqadi.

**Shikoyat ko‘rib chiqilishi natijalariga ko‘ra qaror qabul qilinadi.**

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil qilmay tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan, xo‘jalik-protsessual qonunchilikka muvofiq, xo‘jalik sudiga shikoyat qilinadi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat ish bo‘yicha qaror chiqargan sudyaga, organga, mansabdar shaxsga taqdim etiladi va ular shikoyat kelib tushganidan keyin 3 sutka ichida uni ishning barcha materiallari bilan birga tegishli sudga, yuqori turuvchi organga, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga yuborishi lozim.

Ma'muriy qamoq ko‘rinishida ma'muriy jazo tayinlagan sudyaning qarori ustidan shikoyat yuqori turuvchi sudga shikoyat olingan kunda yuborilishi shart.

Shikoyat bevosita uni ko‘rib chiqish vakolatiga ega sudga, yuqori turuvchi organga, yuqori turuvchi mansabdar shaxsga taqdim etilishi mumkin.

Agar ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat taqdim qilingan sudya, mansabor shaxs shikoyatni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lmasa, shikoyat idoraga mansublik bo‘yicha 3 sutka ichida ko‘rib chiqishga yuboriladi.

Qonunda ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha shikoyat topshirish muddati belgilangan. Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat qaror nusxasi berilgan yoki olingan kundan keyin 10 sutka ichida topshirilishi mumkin.

Agar biror sabablarga ko‘ra muddat o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, u shikoyatni taqdim etuvchi shaxsning iltimosnomasiga ko‘ra, sudya yoki ikoyatni ko‘rib chiqish huquqiga ega mansabdar shaxs tomonidan tiklanishi mumkin. Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat muddatini tinglash to‘g‘risidagi iltimosnomani rad etish to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

Ma'muriy huquqbazarlik to‘g‘risidagi ish bo‘yicha qaror ustidan shikoyat u barcha ishga oid materiallar bilan sudga, shikoyatni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organga, mansabdar shaxsga kelib tushganidan keyin o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Ma'muriy qamoq to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat, agar ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxs ma'muriy qamoq jazosini o‘tayotgan bo‘lsa, u topshirilgan vaqtdan boshlab bir sutka ichida ko‘rib chiqilishi kerak.

**Qonunchilikda belgilanganki, shikoyat bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:**

- 1) qarorni o‘zgartirishsiz, shikoyatni qondirishsiz qoldirish to‘g‘risida;
- 2) qarorni o‘zgartirish to‘g‘risida, agar bunda ma'muriy jazo kuchaytirlmasa yoki boshqa shaklda qaror chiqarilgan shaxsning holati yomonlashmasa;
- 3) ishning ahamiyatsiz ekanligi yoki avvalda, ish bo‘yicha yurituv qaysi sabablarga ko‘ra to‘xtatilishi yoki umuman boshlanmasligi mumkinligi tushuntirilganda qayd etilgan holatlarda, shuningdek, qaror qabul qilinishiga asos bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligida, qarorni bekor qilish va ish bo‘yicha yurituvni to‘xtatish to‘g‘risida;
- 4) qarorni bekor qilish to‘g‘risida va ishni qayta ko‘rib chiqish uchun sudyaga, ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organa, mansabdar shaxsga qaytarilishi to‘g‘risida, protsessual talablar sezilarli buzilgan taqdirda, agar bu ishni har tomonlama, to‘liq va xolis ko‘rib chiqish imkonini bermasa, shuningdek jabrlanuvchi tomonidan qo‘llanilgan ma'muriy javobgarlik jazosiinng yumshoqligi ustidan shiokyat taqdim etilgan bo‘lsa, ma'muriy jazoni og‘irrog‘i tayinlanishiga olib keluvchi ma'muriy jazo to‘g‘risidagi qonun qo‘llanilishi zaruriyati tug‘ilganda yuborish to‘g‘risida;
- 5) agar shikoyat ko‘rib chiqilishida qaror bunga vakolati bo‘lmagan sudya, organ, mansabdar shaxs tomonidan chiqarilganligi aniqlanganda, qarorni bekor qilish va ishni idoraga mansubligiga ko‘ra ko‘rib chiqishga yuborish to‘g‘risida.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha ish yurituvi vazifalari va tamoyillari.
2. Ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ish ko‘rilishi.
3. Ma'muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha qarorlarni qayta ko‘rish.

## **X BOB**

### **ADVOKATNING JINOIY ISH JARAYONIDA QATNASHISHI**

*Advokat – jinoiy ish jarayoni ishtirokchisi sifatida. Advokat – sudgacha ish yurituv jarayonida. Advokatning birinchi instansiya sudida ishtiroki. Himoyachining apellyasiya va kassatsiya bosqichida ishtiroki. Himoyachining nazorat instansiyasi sudida qatnashishi. Himoyachining sud qarorlari ijrosi bosqichida qatnashishi. Advokatning muhim toifa jinoiy ishlarni yuritishda qatnashishi. Advokatning jabrlanuvi va jarayonning boshqa ishtirokchilari nomidan vakillik qilishi.*

#### **§ 1. *Advokat – jinoiy ish jarayoni ishtirokchisi sifatida***

Advokat tomonidan amalga oshiriladigan ijnoiy ishlar bo'yicha isbotlash bir tomonlama harakterga ega – u gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan. Bu holat u muayyan jinoiy ish bo'yicha aniqlashi kerak bo'lgan holatlarni belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Himoyachi-advokat o'z sa'y-harakatlarini jinoyatni sodir etishda himoyasi ostidagi shaxsning aybsiz ekanligiga oid, uning shaxsini tavsiflash, qilmishning jinoyat deb sanalishi va jazoga muhaqqaqligini bartaraf etish, jazoni yengillatishga oid, shuningdek jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilishga olib keluvchi holatlarni isbotlashga qaratadi.

**Advokat faoliyatining asosiy maqsadi himoya ostidagi shaxsning huquqlariga rioya etilishidir.**



Unga erishish yo‘nalishlari quyidagilardir:

- 1) javobgarlikka asossiz tortishning mustasno qilinishi;
- 2) jazo muqarrar bo‘lsa, uni yengillatish va mutanosib bo‘lishi.

Himoya funksiyasini yanada samarali amalga oshirish uchun **advokat o‘z faoliyatini muayyan shaklda amalga oshiradi**:

- 1) himoya ostidagi shaxsga konsultatsiya berish;
- 2) himoya yo‘nalishini ishlab chiqish;
- 3) tergov harakatlarida qatnashish;
- 4) himoya ostidagi shaxs huquqlari va manfaatlarini yanada potimal rioxat etilishi maqsadida surishtiruvni olib boradigan huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda ishslash;
- 5) jabrlangan tomon vakili bilan aloqa o‘rnatish, ehtimoliy kelishuv holatlari (sulh kelishuvi)ni ishlab chiqish;
- 6) huquqni muhofaza qilish organlari mansabdar shaxslari harakatlari ustidan shikoyat qilish;
- 7) tergovga noma'lum va xolis haqiqatni o‘rnatishga ko‘mak beruvchi ma'lumotlarni aniqlash maqsadila advokatlik surishtiruvini o‘tkazish;
- 8) dalillarni joizlik, tegishlilik, ishonchlilik, yetarlilik nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- 9) sudda ish ko‘rilishida isbotlash jarayonida qatnashish;
- 10) himoya nutqini shakllantirish;
- 11) qonunda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘lganida, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish;
- 12) yuqori turuvchi sud instansiyalarda himoyachining qatnashishi.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 53- m.ga ko‘ra, advokat **isbotlash sub'ekti sanalmaydi**.

Shu bilan birga, u quyidagi yo‘llar orqali dalil sifatida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ma'lumotlarni yig‘ish huquqiga ega: ashyolar v boshqa ma'lumotlar olish; shaxslarni ularning roziliklari ilan so‘rov qilish; davlat hokimiyyati, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va b.lardan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, turli hujjatlarni talab qilib olish.

Jinoiy ish bo'yicha ishlab chiqilgan va himoya ostidagi shaxs bilan kelishilgan himoya taktikasidan kelib chiqib, advokat gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoyasi manfaatlarida yig'ilgan dalillarni taqdim etish hajmi, ketma-ketligi va taqdim etish bosqichini belgilaydi.

Sud muhokamasidagi himoya taktikasida ham o'ziga xosliklar mavjud, ular avvalo advokatning dalillar bilan ishlashida ko'rindi: u to'plagan barcha axborot sudga taqdim etilishi kerak, surishtiruv jarayoniga qo'shilishi, sud surishtiruvi davomida o'rganilishi lozim. shu yo'l bilan himoyachi-advokat ayblovni butunlay, uning ba'zi qismlarini yoki epizodlarini inkor qiladi, o'z mavqyeini sudga u tomonidan taqdim etilgan dalillar asosida tasdiqlaydi.

Advokat tomonidan sudgacha ish yurituvda isbotlashni amalgalash usullaridan biri **tergov harakatlarini** yuritishda qatnashishdir. Bu yerda advokatning maqsadi himoyasi ostidagi shaxsning aybdorligi, u sodir etgan qilmish tasnifi, uning javobgarligi ko'rinishi va miqdori to'g'risidagi masalani hal etishga yoki uni ozod etishga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar va dalillarni aniqlashdan iborat.

Advokatning yakunlangan dastlabki tergov materiallari bilan tanishish bosqichiga nisbatan, amaliyat va nazariya bir qtaor uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqqan bo'lib, ularni amalga oshirish advokatning ishga kirishish vaqtini belgilaydi. Agar u ishda gumonlanuvchi qo'lga olinganidan yoki shaxsning ayblanuvchi sifatida jalb qilinganidan buyon qatnashsa, advokat ish materiallari bilan tanishishni shaxsning ayblanuvchi sifatida jalb qilinishi haqidagi qarorni o'rganishdan boshlashiga zarurat qolmaydi. Birinchi navbatda advokat himoya qilayotgan shaxsni ayplashga qaratilgan materiallarni o'rganishni boshlash kerak, ayblanuvchi sifatida jalb qilish to'g'risidagi qarorni sinchiklab va e'tibor bilan o'rganish kerak. Bu ishning qaysi jildi va qaysi hajmdagi materiallarni o'rganib chiqish kerakligini aniqlash imkonini beradi.

Yakuniy dastlabki surishtiruv materiallari bilan tanishish davomida advokat tomonidan berilgan iltimosnomalar ayblanuvchini himoya qilish uchun ahamiyatga ega ma'lumotlarni yig'ishga, himoya ostidagi shaxsga qo'yilgan ayblovni rad etuvchi talqinlarni tekshirish, ayblanuvchi qilmishlari tasnifini yengilroqqa o'zgartirish, alohida epizodlarni yoki qismlarni ayblovdan chiqarib tashlash, jinoiy ishni va jinoiy qidiruvni bekor qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

## **§ 2. Advokat – sudgacha ish yurituv jarayonida**

Advokat-himoyachining jinoiy sud yurituvida ishtiroki O'zbekiston Respublikasi JPK 49- m. bilan tartibga solinadi. Konstitutsiyaviy talablarga ko'ra, har bir qo'lga olingan, qamoqqa olingan, jinoyat sodir etishda ayblanuvchi qo'lga olingan, qamoqqa olingan yoki ayblov e'lon qilingan vaqtidan boshlab advokat (himoyachi) yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Advokatning himoyachi sifatida jinoiy sud yurituvida qatnashishi uchun asos advokat va mijozning topshiriq shartnomasida bayon etilgan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi kelishuvi bo'lib, u oddiy yozma shaklda tuziladi

(“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun 9-1 m.). bundan tashqari, qonun advokatning jinoiy ishda himoyachi sifatida surishtiruv organlari, dastlabki tergov organlari, prokuror va sud tomonidan tayinlash orqali qatnashishini ham nazarda tutadi, ular gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra uning ishtirokini ta‘minlashlari lozim (O‘zbekiston Respublikasi JPK 50- m.).

Advokat jinoiy ishda himoyachi sifatida advokatlik guvohnomasi va orderni ko‘rsatganda kiritiladi (O‘zbekiston Respublikasi JPK 49-m.). bir advokatning o‘zi, manfaatlari bir-biriga zid keluvchi ikkita gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini himoya qilish huquqiga ega emas.

Advokatning jinoiy ishda qatnashishga ruxsat berilishi vaqt bilan uning himoyani o‘z zimmasiga olgan vaqtি bir emas. Bu vaqt qonun bilan aniq ko‘rsatib qo‘yilmagan, lekin, shubhasiz, u advokatning ishga qatnashishiga ruxsat berilishidan oldin boshlanadi. Agar advokat jinoiy sud ish yurituvining aytib o‘tilgan ishtirokchilari himoyasini o‘z zimmasiga olganda, u jinoiy ishda qatnashishga qo‘yilmagan bo‘lardi.

Topshiriq olingen taqdirda advokat tergovni olib borayotgan tergovchiga taqdim etiladigan orderni rasmiylashtiradi. Ishga kirishga ruxsat iltimosnomasi asosida amalga oshiriladi, unda orderning barcha rekvizitlari, shuningdek uning himoyasi ostidagi shaxs vaqtinchalik saqlanayotgan joy ma’muriyatini tegishlisha xabardor qilish va u bilan uchrashuv taqdim etilishi to‘g‘risida iltimos keltiriladi.

Himoya taklifi, tayinlanishi, almashtirilishi, shuningdek rad etilishining protsessual-huquqiy jihatlari O‘zbekiston Respublikasi JPK 50, 52-m.larda tartibga solingan. Ular talablariga muvofiq, himoyachi gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan taklif etiladi, shuningdek ularning topshiriqlari bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Jinoiy sud ishida advokat, bir tomonidan, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkum himoyachisi sifatida (O‘zbekiston Respublikasi JPK 50- m.) qatnashadi, boshqa tomondan – jinoiy ish yurituvida advokat jabrlanuvchi, fuarolik da‘vogari, fuqarolik javobgari va guvoh vakili sifatida ham qatnashishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi JPK 62, 66-1- m.lar).

O‘zbekiston Respublikasi JPK advokatning o‘z zimmasiga olgan gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini himoya qilishdan qanday bo‘lmisin asoslarga, sabablarga, fikr-mulohazalarga ko‘ra voz kechishini qat’iy taqiqlaydi.

Gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra ishda advokatning qatnashishini surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ta‘minlaydi. Ular tomonidan jinoiy ishda qatnashishga himoyachi tayinlanishi u uchun majburiydir, advokat mehnat haqini to‘lashga xarajatlar esa Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat hisobidan qoplanadi (O‘zbekiston Respublikasi JPK 50- м., 5- q.).

Gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining protsessual huquqlari to‘plamida jinoiy ish bo‘yicha ish yurituvning istalgan vaqtida himoyachi-advokat yuridik yordamidan voz kechish huquqi ham bor (O‘zbekiston Respublikasi JPK 52-м., 1-к.). Advokat ishtirokisiz amalga oshirilgan protsessual harakatlar, himoyachi ishga kirishganidan keyin qayta o‘tkazilmaydi.

Qonunda jinoiy ishda advokatning ishtirokini mustasno qiluvchi holatlarni ko‘zda tutadi (O‘zbekiston Respublikasi JPK 79-м.). ko‘rsatilgan moddada keltirilgan holatlardan birortasining mavjud bo‘lishi jinoiy sud ishining qonunda belgilangan ishtirokchilarining har biriga advokatni rad qilish huquqini beradi.

### *§ 3. Advokatning bиринчи instansiya sudida ishtiroki*

**Jinoiy ishni bиринчи instansiya sudida ko‘rib chiqilish bir nechta qismdan iborat bo‘ladi:** tayyorlov, sud surishtiruvi, tomonlar so‘zga chiqishi, sudlanuvchining oxirgi so‘zi, qaror va hukm o‘qilishi.

Keltirilgan qismlar advokatning sud muhokamasining aytib o‘tilgan barcha bosqichlaridagi jinoiy-protcessual faoliyatini belgilab beradi.

Sud surishtiruvi davomida, u tomonlarning tortishuvi va tenghuquqliligi asosida quriladi, advokat o‘zining himoyasi ostidagi shaxsni oqlovchi yoki javobgarligini yengillatuvchi holatlar va dalillarni o‘rganishda faol qatnashishning real imkoniyatiga ega bo‘ladi: guvohlar ko‘rsatmalari, ekspertlar xulosalari, ashyoviy dalillar, hujjatlar.

Advokatning tinglovga tayyorgarligi uning jinoiy ish bo‘yicha isbotlash jarayonida qatnashishini nazarda tutadi. Birinchi instansiya sudida ish ko‘rilishi bosqichida himoyachi axborot to‘plash, suddan, tegishli iltimosnama berish vositasida, guvohlarni so‘roq qilish, qo‘srimcha dalillar talab qilib olish va sh.k. huquqiga ega.

**Sud surishtiruvining bиринчи qismida himoyachi, ayblov tomon dalillarini o‘rganishda, ularning tegishliligi, joizligi va ishonchlilagini tekshirishda qatnashib,**

agar taqdim etilgan dalillar nomaqbul deb hisoblasa, o‘z mavqyeini asoslab berishi kerak. Shundan keyin himoya tomoni o‘z dalillarini keltiradi.

**Sud surishtiruvi davomida** himoyachining mavqyei faol bo‘lishi kerak. U dalillarni tadqiq qilishda qatnashishi kerak. Ayniqsa sud surishtiruvida dalillarni o‘rganishning bevositaligini ta‘minlash muhimdir. (O‘zbekiston Respublikasi JPK 26-m.). Bevositalik sudning ishda mavjud bo‘lgan va sudga taqdim etilgan, ular asosida jinoiy ishda isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarning mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadigan dalillarni shaxsan qabul qilishi, ko‘rib chiqishi va o‘rganishi majburiyatini nazarda tutadi. Qonunchilikning bunday yondashuvi faktlarning buzib ko‘rsatilishi va sub‘ektivizmning yuzaga kelishini bartaraf qiladi.

**Sudda ko‘rib chiqish bosqichida himoyachi quyidagi vaziyatlarda jabrlanuvchi va guvohning so‘roq qilinishga erishishi lozim:**

1) agar ular dastlabki tergov davomida sudlanuvchini jinoyatni sodir etishda ayblovchi ko‘rsatmalar bergen bo‘lsalar, ularning ishonchliligi shubha uyg‘otsa, himoyachi esa so‘roq va ko‘rsatmalarni tekshirish yo‘li bilan ularni rad etishni chamalagan bo‘lsa;

2) agar guvoh sudlanuvchini oqlovchi yoki aybini yengillatuvchi ko‘rsatmalar bergen yoki bera oladigan bo‘lsa.

Tabiiyki, advokat **so‘roq davomida** sudlanuvchining foydasiga savollar beradi. Shu sababli ayblov tomon bir vaqtda ikki yoqlama so‘roq qilish huquqidan foydalaniши mumkinligini hisobga olish kerak, ya‘ni himoyaga noxush bo‘lgan savollarga oldindan tayyorgarlik ko‘rgan ma‘qul, toki ularga eng maqbul va kuchli javoblar berishga erishilsin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKda belgilangan guvohni so‘roq qilish tartibi himoya tomoniga sudlanuvchining foydasiga guvohlik beruvchi holatlarni aniqlash uchun eng ko‘p imkoniyatlar beradi. Bu holda muvaffaqiyat to‘rtta asosiy tarkibiy qismidan iborat bo‘ladi: huquqni bilish, tafakkur mantig‘i, psixologik yondashuv va notiqlik mahorati.

**So‘roq davomida advokat oldida quyidagi maqsad va vazifalar turadi:**

1) guvohdan JPK talablariga muvofiq to‘liq, haqqoniy, xolis ko‘rsatmalar olish;

2) bir guvohning surishtiruvning turli bosqichlarida o‘tkazilgan so‘roqlardagi ko‘rsatmalaridagi qarama-qarshiliklar sabablarini izohlash;

3) guvohning ko‘rsatmalarining jinoiy ish materiallariga, shuningdek ayblanuvchi, jabrlanuvchi va jarayonning boshqa ishtirokchilari ko‘rsatmalariga muvofiq kelmasligini aniqlash;

4) guvohlardan himoya ostidagi shaxsni oqlovchi, uning javobgarligini yengillatuvchi ko‘rsatmalarni olish;

5) himoya nutqi uchun materiallar saralash.

So‘roq o‘tkazishda **psixologik aloqa** o‘rnatish kerak bo‘ladi. Advokat tomonlarning sudni chalg‘itish, yolg‘on tushuntirish berish istaklarini rag‘batlantirishga haqqi yo‘q. Shu sababli himoya sotidagi shaxsni va himoya tomoni guvohnini sudgacha tayyorlash himoya taktikasiga zarar yetkazmay, lekin

qonun doirasida qanday javob berish kerakligi haqida maslahat berishdan iborat bo‘lishi lozim.

Himoya tomoni **guvohlarini so‘roq qilishda** ham advokat isbotlashda faol qatnashishi lozim. Hukm chiqarib, sud dalillarni o‘z ichki ishonchi bilan baholaydi, u esa bir qancha holatlarga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, guvohning ko‘rsatmalaridagi qarama-qarshilik, chalkashlik, yolg‘on sudyaning ishonchiga himoya foydasiga ta’sir qilishi mumkin. Shu tariqa, to‘g‘ri taktika tanlanganda va advokatning e’tiborli bo‘lishida guvohga ishonchsizlik bildirilishi mumkin. Bu holatda himoyachi guvoh sud muhokamasi davomida aytgan gaplarini takrorlashi, keyn uning sudgacha bosqichlardagi ko‘rsatmalariga murojaat qilishi kerak. Aniqlangan ziddiyatlar oqibatda himoya tomoni foydasiga xizmat qiladi. Biroq qarama-qarshiliklarning o‘zini o‘sha zahoti e’lon qilish kerak emas, yaxshisi bundan ikki tomon so‘zga chiqishida foydalangan ma’qul.


#### **§ 4. *Himoya nutqi mazmuni***

Sud surishtirushi yakunlanganidan keyin sud sudda tomonlarning chiqishlarini tinglashga o‘tadi. Ularning mazmuni va tartibi O‘zbekiston Respublikasi JPK 449- m.da belgilangan. Amaldagi qonunchilik tomonlarning chiqishlarining mazmuni bo‘yicha faqatgina ularda nimalar qatnashmasligi kerakligini ko‘rsatadi (O‘zbekiston Respublikasi JPK 449-m., 3-q.).

**Advokatning himoya nutqi** ikkita tushunchadan iborat: umumbelgilangan “nutq” tushunchasi va huquqiy “himoya” tushunchasi.

Advokat nutqining mazmuni ish bo‘yicha mavqyedan kelib chiqadi. Yuzaga kelgan amaliyotga ko‘ra, **muayyan ish bo‘yicha nutqning hajmi va qurilishini belgilovchi uchta asosiy himoya mavqyei farqlanadi:**

1) **jazoni yengillatish bo‘yicha mavqye.** Himoyachida va uning himoyasi ostidagi shaxsda ayblovning isbotlanganligi va qilmishning tasniflanishi uchun asoslar mavjud bo‘limganda bu mavqyeni ushslash mumkin. Bunda himoya nutqida sudlanuvchi shaxsining tavsifiga va javobgarlikni yengillatuvchi holatlarga, shuningdek, jinoyatni sodir etishga ko‘maklashuvchi sabab va shart-sharoitlarga asosiy urg‘u beriladi.



*Esda tuting!*

Jinoiy ishdagi advokatning sud nutqi – bu ayblanuvchi (balki jabrlanuvchi, fuqarolik da‘vogari, fuqarolik javobgarining) himoyachisiningsud majlisida so‘zlangan va sulga qaratilgan, himoyachining o‘zi himoya qilayotgan fuqarol foydasiga chiqariladigan xulosalarini bayon etishda psixologik va yuridik ta’sir ko‘rsatish maqsadlaridagi ommaviy chiqishidir.

Bu holatda advokat javobgarlikni og‘irlatuvchi holat qarshi chiqishi, sudlanuvchiga nisbatan qo‘shimcha jazo qo‘llash zaruriyatini shubha ostiga olishi, shuningdek ayblovning alohida holatlariga qarshi chiqishi kerak. Yakuniy qismda advokat sudga qaratilgan u yoki bu turdagи jazoni tayinlash to‘g‘risidagi iltimosni aniq ifojalashi kerak;

**2) jinoyat tasnifini o‘zgartirish bo‘yicha mavqye.** Agar sudlanuvchi jinoyat sodir etganligini tan olsa, lekin himoya tomoni tasniflanishdan norozi bo‘lsa bo‘lsa, shunday mavqye ushlanadi. Bunda advokatning e’tibori tasniflash nuqtai nazaridan dalillarni tahlil etishga jamlanadi. Nutqining xulosasida himoyachi sudlanuvchining shaxsiyati tavsifiga o‘tishi, sudning e’tiborini javobgarlikni yengillatuvchi holatlarga qaratishi va sh.k kerak bo‘ladi;

**3) sudlanuvchini oqlash bo‘yicha mavqye.** Agar jinoyat hodisisi aniqlanmagan bo‘lsa yoki unda tarkib bo‘lmasa, shuningdek sudlanuvchining jinoyatni sodir etishda ishtiroki isbotlanmagan bo‘lsa, advokat ushbu mavqyeni ushlaydi.

Agar sudlanuvchi voqyeaning o‘zini yoki jinoyat sodir etishda o‘zining ishtirokini inkor etayotgan bo‘lsa, barcha holatlarda advokat suddan sudlanuvchini oqlashni so‘rashi lozim. Himoyachi himoya sotidagi shaxs mavqyeiga rioya etishi kerak.

**Advokat himoya nutqining maqsadi ikki tomonlidir.** Bir tomondan, ish bo‘yicha o‘zining mavqyeini asoslash kerak, boshqa tomondan – sudni o‘zining haq ekanligiga ishontirish lozim. so‘zga chiqishdagi nutq oldindan rejalashtirilgan va tuzib olingan bo‘lishi kerak. Muvaffaqiyatli nutqning asosiy sifati uning lo‘ndaligi va mazmundorligidir.

Himoya nutqi kirish (tavsifiy) qismdan, dalillarni va sudlanuvchi shaxsiyati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashdan, jinoyat sodir etilishiga turtki bo‘lgan sababalrning tahlilidan, shuningdek xulosadan iborat bo‘ladi.

**Dalillarni tahlil qilish va baholash muayyan tartib bo‘yicha amalga oshiriladi:**

1) har bir dalil alohida tahlil qilinadi, keyin – boshqalar bilan jamlanib ko‘riladi;

2) guvohlarning ko'rsatmalarining tahlili va baholanishi ular kim tomonidan qatnashganlariga bog'liq bo'ladi. Bunda sudni guvohlarning u yoki bu ko'rsatmalariga ishonish yoki ishonmaslik kerakligiga ishontirish lozim bo'ladi;

3) jabrlanuvchi ko'rsatmasiga nisbatan odob va vazminlik bilan munosabatda bo'lish kerak;

4) ekspertizani baholashda ekspertning shaxsiyatiga, unga taqdim etilgan ma'mulotlarga, uning xulosalarining texnik va yuridik asoslanganligiga e'tibor berish lozim.

Himoya nutqi xalq maslahatchilari ishtirokidagi jinoiy ish yurituvida alohida ususiyatga ega bo'ladi. Bu holda sudya rolida professional yurist bo'limgan fuqarolar qatnashadi. Shu sababli advokat sudlanuvchning shaxsiyatini tavsiflashda nutqining hissiy tomoniga e'tiborni jamlashi kerak bo'ladi. Dalillarni taqdim etish davomida ko'rgazmali qurollar, chizmalar, fotosuratlar va sh.kdan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ularga ro'y bergan voqyea manzarasini tasavvur qilishga yordam beradi.

Chiqish qilayotganida advokat xalq maslahatchilaridan ko'zini uzmasligi lozim. Biroq o'z mimikasi va qo'l harakatlarini nazorat qilishi, ularning haddan oshib ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Nutq qat'iy, ishonchli, o'xshatishlar va yorqin namunalarga boy bo'lishi kerak.

### ***§ 5. Advokatning apellyasiya va kassatsiya bosqichidagi ishtiroki***

Qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari ustidan advokat **apellyasiya tartibida** shikoyat qilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi JPK 479-m.). Hukm ustidan apellyasiya shikoyati huquqini amalga oshirish uchun advokatga maxsus ruxsatnoma kerak bo'lmaydi, chunki ushbu huquq unga qonun tomonidan jinoiy jarayonda himoya tomonining mustaqil sub'ekti sifatida berilgan.

Birinchi navbatda advokat hukm bilan yaxshilab tanishib chiqishi va uning qonuniylik, asoslanganlik va adolatlilik talablariga muvofiq kelishiga ishonch hosil qilishi kerak. Adolatli sudlov hujjatining qismlari o'rtasida, ayniqsa uning tavsify-asoslash va xulosa qismlari o'rtasida qarama-qarshiliklar borligi yoki yo'qligiga ishonch hosil qilish kerak. Tahlil uchun axborotni advokat shakli va mazmuni O'zbekiston Respublikasi JPK 426- m.da tartibga solingan sud majlisi bayonnomasini sinchiklab o'rganish orqali ham oladi.

Keyin advokat hukm ustidan to'liq hamjda yoki bir qismi bo'yicha **kassatsiya shikoyati** berish to'g'risidagi masalani hal qiladi, bu haqdagi o'z qarorini himoyasi ostidagi shaxs bilan kelishib oladi. Mahkum advokatning kassatsiya tartibida hukm ustidan shikoyat qilish qaroriga rozi bo'lishi mumkin yoki shikoyat berishni rad etishi mumkin. Agar advokat hukm ustidan kassatsiya shikoyatini kiritsh uchun asos topmasa, mahkum esa shikoyat berishni talab qilsa, himoya ostidagi shaxsning xohish-istagi himoyachi uchun majburiydir.

Sud majlisi boshlanishidan oldin advokat o'zi bergan kassatsiya shikoyatni qaytarib olishi, o'zgartirish yoki to'ldirishi mumkin.

**Kassatsiya ish yurituvida** o‘z manfaatlarini himoya qilishni mahkum, uning qonuniy vakili yoki qarindoshi ikkinchi instansiya sudida ishtiroki majburiy bo‘lmagan himoyachiga topshirishlari mumkin.

### **§ 6. Advokatning nazorat instansiyasi sudida ishtiroki**

**Nazorat shikoyati** mazmunidan kelib chiqib, himoyachi unda hukmga, ajrimga, qarorga ularning qonuniyligi, asoslanganligi va adolatliligi nuqtai nazaridan o‘zining munosabatini to‘liq ifodalashga intilishi kerak. Birgina jinoiy-protsessual qonunbuzilishi yoki moddiy qonunlarning noto‘g‘ri qo‘llanilganini aasoslash bilan kifoyalanish kerak emas. Advokat o‘zi aniqlagan, sudsiga va sud ish yurituvida qo‘l qo‘yilgan va jinoiy ish bo‘yicha g‘ayriadolatli sud qarori chiarilishiga sabab bo‘lgan barcha qonunbuzarliklarning tahlilini beradi.

Agar himoyachi qonunbuzarliklar aniqlamasa yoki ularga jinoiy ishni surishitirsh va ko‘rib chiqishda yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa, uning uchun shikoyat qilinayotgan sud qarorining tayinlangan jazo turi va miqdori, jazoni o‘tash bo‘yicha mahkum jazosini o‘tashi kerak bo‘lgan muassasa turi, qondirilgan fuqarolik da‘vosi, oqlash asoslari va sh.k. bo‘yicha adolatli bo‘lgani yuzasidan baholashi maqsadga muvofiq. Amalda ko‘pgina kassatsiya instansiyalari hukmlari va ajrimlari ularga qo‘yiladiganadolatlilik talabini aks etirmaydi, bu sifatlarning sud qarorlarida mavjud emasligi esa advokatga ularni nazorat tartibida o‘zgartirish masalasini oldinga olib chiqish huquqini beradi.

Advokatning nazorat shikoyati nazorat instansiyasi sudi tomonidan mahkum, oqlangan, ularning himoyachilari (agar ular bu haqda iltimosnoma kiritsalar) qatnashadigan sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Nazorat instansiyasi sud majlisida advokat-himoyachi og‘zaki tushuntirishlar berib, ularda qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini bekor qilish yoki o‘zgartirish haqida talablarni asoslab berish huquqiga ega.

Kassatsiya va nazorat shikoyatlarida, shuningdek kassatsiya va nazorat instansiyalarida chiqishlarda advokatning mavqyei, uning talablari aniq va yorqin bo‘lishi kerak: hukm, ajrm, qarorni bekor qilish yoki o‘zgartirish. Kassatsiya va nazorat shikoyatlarida, shuniningdek advokatning kassatsiya va nazorat instansiyalari sudlaridagi chiqishlarida muqobil talablar nomaqbuldir.

### **§ 7. Advokatning sud qarorlari idrosi bosqichida ishtiroki**

Davlatimiz Konstitutsiyasi, qo‘lga olingan, qamoqqa olingan, jinoyatni sodir etishda ayblangan shaxs qo‘lga olingan, qamoqqa olingan, ayblov e’lon qilingan vaqtdan boshlab advokat (himoyachi) yordamidan foydalanish huquqiga ega ekanligini belgilab, har bir insonga malakali yuridik yordam olish huquqini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoiy-ijroiya kodeksi (O‘zbekiston Respublikasi JIK)10-m.ga muvofiq, yuridik yordam olish uchun mahkumlar advokatlarning malakali yuridik xizmatidan foydalanishi mumkin.

Jazoni o'tash bosqichida yuridik yordam quyidagi masalar yuzasidan ko'rsatilishi mumkin: jinoiy jazoni o'tash, uning tartibi va shartlari, rag'batlantirish va undirish choralarini qo'llash; hukm ijrosining davom etishi va shartli-muddatdan oldin ozod etish, avf etish yoki amnistiya va sh.k.

O'zbekiston Respublikasi JIK 9-m.ga muvofiq, mahkumlar muassasalar ma'muriyatiga va jazoni o'tash organlariga og'zaki va yozma shaklda bayon etilgan **takliflar, arizalar, iltimosnomalar va shikoyatlar** yuborishlari mumkin.

Qamoqqa, intizomiy harbiy qismga, ozodlikdan mahrum etishga, umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan mahkumlarning O'zbekiston Respublikasi JIK 9-m.da ko'rsatilgan organlarga kiritiladigan takliflari, arizalari va shikoyatlari jazoni o'tash muassasalari va organlari ma'muriyatları orqali yuboriladi. Boshqa turdag'i jazoga hukm qilinganlar takliflar, arizalar va shikoyatlarni mustaqil yuboradilar. Jazoni o'tash muassasalari va organlari faoliyati ustidan nazorat va kuzatuvni amalga oshiruvchi organlarga yuboirligan bunday arizalarni senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi va bir sutkadan kechiktirmay (dam olish va bayram kunlaridan tashqari) tegishli joyga jo'natiladi.

Mahkumlarning takliflari, arizalari va shikoyatlari yuborilgan organlar va mansabdar shaxslar ularni qonunchilikda ko'rsatilgan muddatda ko'rib chiqishlari va qabul qilingan qarorlarni mahkumlarga yetkizishlari kerak.

Mahkumning iltimosnomasi bevosita sudga yuborilmaydi, balki jazoni o'tash muassasasi yoki organi ma'muriyatiga beriladi, ular, sudga murojaat qilishdan oldin, muayyan tayyorgarlik ishlarini ko'rishlari kerak.

Sud majlisida qatnashayotgan mahkum va himoyachi sudga taqdim etilgan materiallar bilan tanishish, ularni ko'rib chiqishda qatnashish, iltimosnomalar va rad etishlar kiritish, tushuntirishlar berish, hujjatlar taqdim etish huquqga egalar, ya'ni ular sud jarayonidagi tomonlaning barcha huquqlaridan foydalanadilar.

Sud majlisida birinchi bo'lib taqdimni kiritgan muassasa yoki organ vakili chiqish qiladi, u masalaning mohiyatini so'zlab beradi, taqdim etilgan hujjatlarga tayanadi, mahkumni tavsiflaydi. Shundan keyin taqdim etilgan materiallar o'rganiladi, sud majlisiga kelgan shaxslar tushuntirishlari, prokuror fikri (u majlisda qatnashish huquqiga ega) tinglanadi. Masala yagona sudya tomonidan shaxsan ko'rib chiqiladi, keiyn sudya qaror chiqaradi.

Qaror ustidan umumiylasoslarda shikoyat qilinishi mumkin. sudya qarori ustidan shikoyat qilish huquqi iltimosnomasi bilan murojaat qilgan **mahkum shaxsga**, uning shikoyat yubora oladigan himoyachisiga yok protest kiritshi mumkin bo'lgan prokurorga tegishli bo'ladi.

## **§ 8. Advokatning alohida toifadagi jinoiy ishlarni yuritishda qatnashishi**

Advokat voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ish yurituvi O'zbekiston Respublikasi JIK 50-b.dan tashqari, O'zbekiston Respublikasi JPKning boshqa moddalari bilan ham tartibga solinishini nazarda tutishi kerak. Voyaga yetmaganlarin himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi JPKning jinoiy sud ishida voyaga yetmaganlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid sanab o'tilgan bandlari, modda qismlari va moddalarini nazarda tutish kerak.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan dastlabki surishtiruv va sud muhokamasi ish yurituvida qo'shimcha ravishda quyidagi holatlar belgilanishi kerak:

1) voyaga yetmagan shaxs yoshi, tug'ilgan kun, oy va yil.

Voyaga yetmaganning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, pasport, fuqarolik holatlari dalolatnomalari kitobidan ko'chirma, ekspertiza xulosasi sanaladi.

Sudlanuvchining yoshini sud-tibbiy ekspertizasi bilan belgilashda u tug'ilgan kun ekspertlar keltirgan yilning oxirgi kuni sanaladi, yoshni maksimal va minimal sof yosh bilan aniqlashda esa, sud ekspertlar tahmin qilayotgan ushbu shaxsning minimal yoshiga asoslanish kerak bo'ladi;

2) voyaga yetmagan shaxsning turmush tarzi va tarbiyasi, psixik rivojlanishi va uning shaxsining boshqa xususiyatlari.

Voyaga yetmagan shaxsning turmush tarzi va tarbiyasini belgilashda quyidagi ma'lumotlar aniqlanadi: ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar haqida ma'lumotlar, ularning bolalarni me'yorda tarbiyalashga qobiligi; voyaga yetmagan shaxsning ichik ishlar organlarida hisobga qo'yilishi, u sodir etgan huquqbazarliklarga oid ko'rildigan choralar to'g'risida; voyaga yetmagan shaxsning o'qishga, ishga munosabati to'g'risida; oilaning moddiy-maishiy sharoiti; voyaga yetmagan shaxsning spirtli ichimliklar va narkotik moddalar iste'mol qlishga moyilligi; uning tarbiyasiga va xatti-harakatiga ota-onasi, qonuniy vakillarining ta'siri to'g'risida va sh.k.

Voyaga yetmaganning psixik rivojlanishi darajasini va uning shaxsiyatining boshqa xususiyatlarini belgilashda aniqlash kerak: uning intellektual rivojlanishi bosqichi, bu rivojlanishning uning yoshiga muvofiqligini, psixik rivojlanishi sekinlashuvining sabablari; voyaga yetmaganning u yoki bu faoliyat turlarini mustaqil tashkil etishiga qobiligi; uning qiziqishlarining ijtimoiy xarakteri va qadriyatları; umumiylar ma'lumot va bilimlar zaxirasining mavjudligi yoki mavjud emasligi, xatti-harakatning ma'naviy-axloqiy qoidalari, g'ayriijotimoiy qarashlar va sh.k.;

3) voyaga yetmagan shaxsga yoshi katta shaxslarnin ta'siri

Agar jinoyatni sodir etishdan oldin voyaga yetmaganga nisbatan yoshi katta shaxslarning, jumladan ish bo'yicha jabrlanuvchilar deb topilganlarning noqonuniy yoki gij-gijlovchi harakatlari ro'y bergan bo'lsa, sud buni aybdorning jazosini yengillatuvchi haolat deb topish huquqiga ega.

Yana voyaga yetmagan shaxs jinoyatni sodir etish chog'ida yoshi katta odamga moddiy, xizmat yoki boshqa bog'liqlikda bo'limganligiga, uning irodasi

katta yoshlining noqonuniy harakatlari bilan sindirilganligi tufayli jinoiy harakatlari majburiy bo‘lmaganmi – shunga e’tibor berish kerak.

Agar voyaga yetmaganda ruhiy buzilish bilan bog‘liq bo‘lmagan psixik rivojlanishda orqada qolish belgilari kuzatilsa, harakatlar (harakatsizlik)ning amaliy xarakteri va ijtimoiy xavfini to‘liq anglay olganmi yoki ularni boshqara olganmi – shuni aniqlash lozim.

Ushbu maqsadda kompleks psixologik-psixiatrik ekspertiza o‘tkazilishi mumkin, uning oldiga albatta quyidagi masalani hal etish vazifasi qo‘yilishi kerak: voyaga yetmagan ayblanuvchi unga yuklanayotgan qilmishni sodir etish vaqtida o‘z harakatlarining amaliy xarakterini va ijtimoiy xavfini anglashi yoki ularni boshqarishi mumkinmidi? Agar mumkin bo‘lsa, qanday darajada?

Bu bilan voyaga yetmaganning intellektual rivojlanishining uning yoshiga muvofiqligi aniqlanadi.

Bu holatlarning barchasi voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jazoni qo‘llash yoki bundan ozod etish masalasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi tufayli, advokat voyaga yetmagan shaxsni javobgarlikdan ozod qiluvchi yoki jazoni yengillatuvchi holatlarni tasdiqlovchi ma’lumotlarni yig‘ishda faollik ko‘rsatishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 51-m.ga muvofiq, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoiy ish yurituvida himoyachining qatnashishi majburiy sanaladi.

Voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha dastlabki tergovda va sud majlisida himoyachi (advokat)ning majburiy qatnashishi to‘g‘risidagi qonun talablariga rioya etilmaslik jinoiy-protsessual qonunning sezilarli buzilishi deb ko‘riladi va hukmning bekor qilinishiga olib keladi.

Voyaga yetmagan gumonlanuvchilarni, ayblanuvchilarni himoya qilishda advokatlar BMTning voyaga yetmaganlarga nisbatan adolatli sudlovnii amalga oshirishga oid minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari, 1985 yil 25 noyabr)dagi talablarni keng qo‘llashlari lozim.

Voyaga yetmagan gumonlanuvchiga nisbatan ehtiyyot chorasi sifatida qamoq ostida saqlash agar u og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etishda gumon qilinsa yoki ayblansa, qo‘llanilishi mumkin.

Voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyyot chorasi tanlash masalasni hal etishda har bira vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi JPK 558-m.da belgilangan tartibda nazoratga berish imkoniyati muhokama etilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 556-m. belgilaydiki, voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchi ustidan nazorat uning ota-onasi va vasiylar yoki boshqa, ishonch qozongan shaxslar, shuningdek u yashaydigan bolalar ixtisoslashgan muassasasi mansabdor shaxslari tomonidan uning o‘zini yaxshi tutishini ta‘minlashdan iborat, bu haqda ushbu shaxslar yozma majburiyat beradilar.

Qamoq ostida bo‘lmagan voyaga yetmagan gumonlanuvchini, ayblanuvchini prokurorga, tergovchiga, surishtiruvchiga yoki sudga chaqirish ham uning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPK 60- bobida belgilangan muayyan qoidalarni voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchini so‘roq qilishda ham rioya etilishi kerak.

Birinchidan, voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchi so‘roq qilinishida albatta himoyachi qatnashishi kerak, u unga savollar berish, so‘roq bayonnomasi bilan tanishish va undagi yozuvlarning to‘g‘riligi va to‘liqligi haqida fikr-mulohazalar bildirish huquqiga ega.

Ikkinchidan, voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchini so‘roq qilish tanaffussiz ikki soatdan ortiq, umumiylar miqdorda kuniga 4 soatdan ortiq davom etishi mumkin emas.

Uchinchidan, 16 yoshga to‘limgan yoki bu yoshga to‘lgan, lekin psixik buzilish bilan og‘riydiyan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan voyaga yetmagan gumonlanuvchi, ayblanuvchini so‘roq qilishda pedagog yoki psixolog qatnashishi majburiydir.

O‘zbekiston Respublikasi JPK ga muvofiq, voyaga yetmagan gumnolanuvchi, ayblanuvchining qonuniy vakillari jinoiy ishda qatnashishga prokuror, tergovchi, surishtiruvchining qaroriga asosan voyaga yetmagan shaxsni gumonlanuvchi, ayblanuvchi sifatida dastlabki so‘roq vaqtidan boshlab kiritiladi.

Dastlabki surishtiruv yakunlanganidan keyin prokuror, tergovchi, surishtiruvchi voyaga yetmagan ayblanuvchiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ish materiallarini unga tanishib chiqish uchun taqdim qilmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishi mumkin. Bu holatda ishning ushbu materiallari bilan qonuniy vakilning tanishib chiqishi majburiy bo‘ladi.

Ko‘rsatilgan ish materiallari bilan voyaga yetmagan ayblanuvchining advokati ham tanishib chiqishi zarur.

Voyaga yetmagan ayblanuvchiga nisbatan dastlabki surishtiruv bosqichida tarbiyaviy ta’sir majburiy choralarini qo‘llash bilan jinoiy ishni bekor qilish asoslari va shartlari O‘zbekiston Respublikasi JPKda bayon etilgan, voyaga yetmagan shaxsni sud tomonidan tarbiyaviy ta’sir majburiy choralarini qo‘llagan holda jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasaga yuborish bilan jinoiy jazodan ozod qilish – tegishlishcha O‘zbekiston Respublikasi JPK 556-557- m.larida bayon etilgan.

Advokatlar quyidagi holatga e’tibor qaratishlari lozim: O‘zbekiston Respublikasi JPK 84 m. bo‘yicha jinoiy ish bekor qilinganida (tomonlarning sulhga kelganliklari), jabrlanuvchi voyaga yetmagan shaxs bo‘lganida, ushbu sababga ko‘ra ishni bekor qilish uchun voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakidining yozma roziligi kerak bo‘ladi.

Voyaga yetmaganlarning himoyasini amalga oshiradigan advokatlar nazarda tutishlari kerakki, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan hukm chiqarganda sud voyaga yetmaganni tarbiyaviy ta’sirga ega majburiy choralarini qo‘llash bilan yoki uni voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarga yuborish bilan ozod qilish yoki shartli hukm qilish yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘limgan jazo tayinlash imkoniyati haqidagi masalani hal etishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxsga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni yuklashda O‘zbekiston Respublikasi FK qoidalaridan kelib chiqish lozim, unga muvofiq 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda mustaqil javobgarlikka tortiladilar va faqat voyaga yetmagan shaxsda daromad yoki zararni qoplash uchun yetarli mol-mulk bo‘lmagan taqdirda, uning to‘liq yoki yetishmagan qiymati ota-onasi tomonidan qoplanishi lozim.

Bunda inobatga olish kerakki, O‘zbekiston Respublikasi FK, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq, yetkazilgan zarar uchun mustaqil javobgarlikka zarar yetkazish paytida, shuningdek sud tomonidan zararni qoplash to‘g‘risidagi masala ko‘rilgan paytda emansipatsiya tartibida to‘liq layoqatga ega bo‘lgan yoki 18 yoshga to‘lmasdan nikohdan o‘tgan voyaga yetmaganlar tortiladi.

### ***§ 9. Advokatning jabrlanuvchi yoki jarayonning boshqa ishtirokchilari nomidan vakillik qilishi***

Qonunchiligidizning barcha tarmoqlari uchun fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi me'yorlar mavjudligi xarakterlidir. Bu me'yorlar insonni turli tajovuzlardan himoya qiluvchi va ular yetkazgan zararning qoplanishini ta'milovchi yuridik kafolatlar tizimini tashkil qiladi. Eng katta zarar yetkazadigan, shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining eng xavfli buzilishi jinoyat sanaladi, shu sababli undan jabrlangan fuqarolar alohida yordam muhtoj bo‘ladilar.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi JPKga muvofiq, jabrlanuvchiga keng protsessual huquqlar berilgan, ularning katta qismini ular shaxsan yoki o‘z vakili orqali amalga oshirish huquqiga egalar. Jabrlanuvchi tomonidan o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini vakil orqali himoya qilinishi, bir tomonidan, eng muhim protsessual huquqlaran biri sanaladi, boshqa tomonidan – jarayon ishtirokchisiga uning huquqlarining real amalga oshishini ta‘minlovchi protsessual kafolat sanaladi. Jinoiy ish yuritvida vakilga ega bo‘lish zaruriyati ko‘p vaziyatlarda jabrlanuvchi o‘zining protsessual huquqlarini amalga oshira olmay qolishi bilan bog‘liqidir. buning sabablari turlicha. Masalan, olingan travma natijasida uning salomatligi jarayon ishtirokchisi bo‘lish imkonini bermaydi yoki ma’naviy jarohat shunday og‘irki, jabrlanuvchi sud ishida faol qatnasha olmaydi va unda o‘z vakiliga ega bo‘lishni afzal biladi. Shunisi ham borki, ko‘p hollarda jabrlanuvchilar qonunchilik masalalarida kam ma'lumotga ega shaxslar bo‘ladilar. Albatta, surishtiruvni amalga oshirayotgan shaxs, tergovchi va sud jabrlanuvchiga uning protsessual huquqlarini tushuntirishi lozim, biroq bu huquqni yuridik bilimlarga ega shaxs to‘liqroq va samaraliroq amalga oshirishi mumkin, shu sababli jabrlanuvchilar jinoiy ishlarda tez-tez o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilishni advokatlarga ishonib topshiradilar. Ishda advokatning jabrlanuvchining vaikli sifatida qatnashishi jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlarini o‘z vaqtida, ishonchli va samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Tergov va sud organlari yuridik konsultatsiyalarga voyaga yetmagan yoki layoqatsiz bo‘lgan, ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari vafot etgan, qonuniy vakil tayinlanmagan jabrlanuvchining vakilligini amalga oshirish uchun advokat ajratishni so‘rab tez-tez murojaat qilib turadilar. Bunday vaziyatlar jabrlanuvchining qonuniy vakilining mavqyei jabrlanuvchining manfaatlariga zid ekanligi aniqlanganda ham yuzaga keladi. Masalan, voyaga yetmagan jabrlanuvchining onasi ayblanuvchi – ota tomonini oladi. Aniqki, bunday vaziyatlarda tergovchi yoki sud o‘z majburiyatlarini bajarishdan bosh tortgan qonuniy vakil boshqa vakil bilan, jumladan advokat bilan almashtirilishi uchun choralar ko‘rishi lozim. Shu sababli, qonunda voyaga yetmaganlar, ko‘rlar, soqovlar, karlar va o‘zlarining jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari oqibatida o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o‘z manfaatlarini himoya qila olmaydigan boshqa shaxslarga zarar yetkazgan jinoyatlar bo‘yicha ishlarda, ularning qonuniy vakillari ishda qatnashayotganligi yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, jabrlanuvchilar vakillarining majburiy ishtirok etishi vaziyatlarini ko‘zda tutilishi zarur. Chunki jabrlanuvchilarning bu toifalari o‘zlarining jismoniy yoki ruhiy o‘ziga xosliklari tufayli himoyalashning yuqori darajasiga muhtojlar, buni esa faqat professional yurist – advokat yetarli darajada ta‘minlay oladi.

Advokat-jabrlanuvchi vakilining qatnashishining majburiyligi yana ma’naviy-psixologik va ma’naviy-pedagogik xarakterdagi mulohazalar bilan ham taqozo etiladi, ularga ko‘ra, voyaga yetmaganni ish materiallarining muayyan qismi bilan tanishishdan to‘sish kerak bo‘ladi. masalan, ishdagi unga noma'lum bo‘lgan, ota-onasining obro‘sini tushiruvchi materiallar ko‘rsatilmaydi. Bu holatda tegishli materiallar bilan tanishish, ularni o‘rganishda qatnashish bilan uning vakili – advokat shug‘ullanishi kerak bo‘ladi. jinoiy ish jarayonida jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirokining majburiyligi tortishuvchanlik tamoyili bilan ham talab etiladi; jinoiy-protsessual qonunchilikda faqat advokat-himoyachining majburiy ishtirok etishi holatlarini beklgilab qo‘yilishi bu tamoyilni buzadi.

Advokatlar tomonidan jinoiy ish yuritishdagi jabrlanuvchi, fuqarolik da>vogari, fuqarolik javobgari, guvoh manfaatlarida vakillik qilishining ba’zi masalalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, jabrlanuvchilarning huquqlari jinoyatlardan va hokimiyatning suiiste'molidan qonun bilan himoya qilinishiga advokatlarning e'tiborini qaratamiz.

Davlat jabrlanuvchigaadolatli sudlovdan foydalanishni va yetkazilgan zararni qoplashni ta‘minlaydi. Qonunda kafolatlangan huquqlarning buzilishi jinoiy sud yurituvida jinoiy-protsessual qonunning sezilarli buzilishi deb baholanadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, agar advokat o‘z zimmasiga himoyachilik majburiyatini olishda qabul qilingan topshiriqni rad etish huquqiga ega bo‘lmasa, jabrlanuvchining vakili funksiyasini bajarish advokat tomonidan faqat jabrlanuvchining jarayondagi ma’naviy haqligiga amin bo‘lgandagina amalga oshirilishi mumkin.

Jinoiy ish jarayonida jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘ziga majburiyatlar olishning ma’naviy asosi advokat tomonidan ishning xolis,

to‘liq va har tomonlama o‘rganilishi adolatli sudlovnii amalga oshirishning zaruriy sharti ekanligi, jabrlanuvchi qonuniy asoslarda o‘zining buzilgan huquqi va manfaatlarini talab qilayotganligini tushunish sanaladi.

Advokat, xususiy aylov ishi bo‘yicha jabrlanuvchining vakili sifatida, sudga jinoiy ish qo‘g‘atish bo‘yicha ariza bilan murojaat qilishi mumkinligiga e’tibor berish kerak.

Amaliyotda fuqarolik da‘vogarining vaikli sifatida advokat sudlanayotganga jaxo chorasiga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini aytishi yoki bu fikri prokurorning taklifiga qo‘shishini kuzatish mumkin.

Bunday holatlarda advokat advokatlik faoliyatining ma’naviy asoslaridan chetlanadi, degan fikr tug‘iladi. Bundan tashqari, mulkiy manfaat jazoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikka ega emasligini barcha biladi.

Advokat-fuqarolik da‘vogari vakili dalillarni o‘rganib chiqish, tasniflash masalasiga va da‘voni qondirishga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa holatlarga aralashishga haqli, lekin jazoni tayinlash masalasi fuqarolik da‘vogari vakilining vakolatidan tashqaridagi ishdir.

Jinoiy ish yurituvda jabralanuvchining, fuqarolik da‘vogarining, fuqarolik javobgarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, avvalo, buning uchun vakolatga ega davlat organlari faoliyati bilan ta‘minlanadi. Qolaversa, bu vakolatlarni mansabdor shaxslar manfaatdor shaxslarning iltimoslaridan qat’iy nazar amalga oshirishlari lozim.

Shunga qaramay, qonun jabrlanuvchiga, fuqarolik da‘vogariga, fuqarolik javobgariga o‘z huquqlarini himoya qilish uchun keng imkoniyatlar beradi, jumladan, vakil yordamidan foydalanish (vakil sifatida advokat ham qatnashishi mumkin) imkoniyatiga ega.

Jabrlanuvchi zarar yetkazilgan va u tegishli organ (su. Tergovchi va sh.k.) qarori bilan jabrlanuvchi deb topilgan ham jismoniy shaxs, ham yuridik shaxs bo‘lishi mumkin. faqat shunda, O‘zbekiston Respublikasi JPK 55-m.ga muvofiq, jabrlanuvchi vakilga ega bo‘lishi mumkin.

Jabrlanuvchi sifatida tan olish to‘g‘risidagi qaroring mavjudligi shaxsga protsessual huquqlar beradi. Zarar yetkazilganmi, yo‘qmi – buni su d hal qiladi. Shunday holatlar ham bo‘ladiki, jinoyat sodir etilgan va undan jabrlangan shaxs uning sodir etilishiga o‘zining noqonuniy yoki g‘ayriaxloqiy xatti-harakati bilan ko‘maklashgan bo‘ladi.

Jabrlanuvchi, qoidaga ko‘ra, vakilni o‘zi taklif etadi, lekin advokatning boshqa shaxslar taklif qilsalar, uning ishda ishtirok etishi uchun jabrlanuvchining roziligi majburiydir.

Jabrlanuvchi ish yurituvining istalgan paytida o‘z vaiklidan voz kechish huquqiga ega.

Tegishli advokatlik tuzilmasining orderi, jabrlanuvchining, fuqarolik da‘vogari, fuqarolik javobgarining roziligi bo‘lsa va u himoyani amalga oshirishiga to‘sqinlik qiluvchi asoslар bo‘lmasa, advokat jabrlanuvchining, fuqarolik da‘vogari, fuqarolik javobgarining vakili sifatida ishga kirishishiga ruxsat beriladi.

Jabrlanuvchining faoliyati ayblov xarakteriga ega, chunki u o‘ziga zarar yetkazgan shaxsni fosh etish va jazolashdan manfaatdordir, shu tariqa, jabrlanuvchining o‘zi va uning vakili mavjud ayblov dalillarini to‘ldiradi.

Advokat, jabrlanuvchining, fuqarolik da‘vogari, fuqarolik javobgarining vakili sifatida, tergovning to‘liqligi va xolisligi ustidan kuzatib borishi kerak. Agar uning himoyasi ostidagi shaxsga zarar yetkazganlarning barchasi ham javobgarlikka tortilmagan bo‘lsa, u ularni jalb qilish to‘g‘risida, yoki, agar ayblov juda yengil va sodir etilgan qilmishga aslida muvofiq kelmasligi uning tomonidan aniqlansa, ayblov ko‘lamini kengaytirish to‘g‘risida iltimosnama bilan murojaat qilishi kerak.

Jabrlanuvchi va uning vakili jinoiy ishning barcha materiallari bilan dastlabki tergov tugaganidan boshlab to ish tanishib chiqish uchun ayblanuvchiga berilganiga qadar tanishib chiqishi huquqiga egalar.

Ish bilan tanishib chiqilgach, bu haqda tergovchi tomonidan bayonnomaga tuziladi. Agar iltimosnama berilgan bo‘lsa, tergovchi ularga javob berishi kerak.

Sud jarayonida jabrlanuvchi vakili uning roziligi bilan qatnashadi, suddagi tomonlar chiqishlarida ishtirok etadi, butun sud surishtiruvi davomida jabrlanuvchining manfaatlarini dalillar taqdim etish, iltimosnomalar kiritish va sh.k. bilan himoya qiladi.

Advokat jabrlanuvchining mavqyei va ayblanuvchining jazosini kuchaytirishga intilishlari bilan to‘liq bog‘langan emas. Agar advokat o‘z mijozining mavqyeiga rozi bo‘lmasa, uni bu haqda xabardor etadi va agar u mavqyeini o‘zgartirmasa, advokat ish yuritishdan voz kechishi kerak bo‘ladi.

Suddagi tomonlar chiqishlarida ishtirok etishda jabrlanuvchining advokati o‘zining prokuror emasligini esda tutishi va o‘z nutqida ayblanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlarga, jazo turiga va miqdoriga, sudlanuvchining harakatlarini yuridik tasniflash masalalariga to‘xtalmasligi lozim.

Hukm e’lon qilinganidan keyin jabrlanuvchi va uning advokati apellyasiya, kassatsiya shikoyati kiritishga va xususiy shikoyat qilish huquqlariga egalar.

Vakilning vakolatlari vakillik qilinuvchining roziligiga asoslangan va unga to‘liq bog‘langan, ya’ni jabrlanuvchi istalgan paytda uning vakili tomonidan tuzilgan har qanday hujjatni bekor qilishi mumkin. vakilning huquqlari qonunda keltirib o‘tilgan va kengroq talqin qilinishi mumkin emas.

Jabrlanuvchining, fuqarolik da‘vogari, fuqarolik javobgarining vakili jarayondan uning istalgan bosqichida chiqishi mumkin.

Nisbatan yaqinda O‘zbekiston Respublikasi jinoiy jarayoniga jinoiy ish bo‘yicha guvohga advokat xizmatlaridan foydalanish huquqini berish ko‘rinishidagi yangilik kiritildi.<sup>64</sup>

O‘zbekiston Respublikasi JPK 66-1-m. ga muvofiq, **guvoh advokati** – bu belgilangan tartibda guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va unga kerakli yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega shaxsdir.

---

<sup>64</sup>statya 66<sup>1</sup> vvedena Zakonom Respublikii Uzbekistan ot 2008 goda 31 dekabrya № ZRU-198 // Sobranie zakonodatelstva Respublikii Uzbekistan, 2008 g., № 52, st. 514.

Jinoiy ishda tomonlar manfaatlarining himoyasini amalga oshiruvchi shaxs ushbu ish bo'yicha guvohning advokati bo'la olmaydi.

Guvohning advokati guvoh chaqirilgandan boshlab, u advokatlik guvohnomaisni ko'rsatgani va order taqdim qilganidan keyin ishda ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

Guvoh advokati quyidagi huquqlarga ega: o'zi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan shaxs qanday jinoiy iish bo'yicha chaqirilganini bilish; guvohning so'roq qilinishida, shuningdek uning ishtirokida o'tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida qatnashish, unga qisqa maslahatlar berish; so'roq o'tkazayotgan shaxs ruxsati bilan guvohga savollar berish; guvohni so'roq qilishda qatnashayotgan tarjimonni qonunda belgilangan tartibda rad qilish; so'roq tugaganidan keyin guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgani haqida arz qilish, u so'roq bayonnomasiga kiritilishi lozim.

Guvoh advokati quyidagilarga majbur: guvohga kerakli yuridik yordam ko'rsatish; dalillarni yo'q qilish, qalbakilashtirish, guvohlarni ko'ndirish va boshqa noqonuniy harakatlar yo'li bilan adolatni o'rnatishga to'sqinlik qilmaslik; ish ko'rlishida va sud majlisida tartibga rioya qilish.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Jinoiy ish qo'zg'atilishi bosqichida advokat ishtirokining xususiyatlari
2. Advokatning hukm, ajrim, qarorlar ijrosi bosqichida qatnashishi
3. Advokat – jinoiy jarayondagi guvohning vakili sifatida

### **1- vaziyat.**

Yo'lovchining o'limiga sabab bo'lган yo'l harakati qoidalarini buzishda ayblanuvchining himoyasini o'z zimmasiga olib, advokat Myagkov voqyea joyidga shaxs bordi, uning chizmasini chizdi, shu joydagi qatnov intensivligini o'rgandi (ikkita shahar ko'chasining gavjum chorrahasi) va, o'z himoyasi ostidagi shaxs to'liq aybsiz, degan xulosaga kelib (u bosib ketishning oldini ololmas edi), tergovchiga jinoiy ishni bekor qilish to'g'risidagi iltimosnama kiritdi va unga chizmani va o'zining barcha kuzatuvlarining tavsifini ilova qildi.

Himoyachining harakatlari qonuniymi?

### **2- vaziyat.**

Fuqaro K.ni zo'rslashda ayblanayotgan fuqaro Umarovning himoyasini amalga oshirayotgan himoyachi Bo'riev, tanlangan himoyada izchil bordi, unga ko'ra, uning himoyachisi qasos maqsadidagi yolg'on chaquv qurbanli edi. U tergovchiga jabrlanuvchi fuqaro K.ning barcha pochta-telegraf jo'natmalarini xatga olish va uning telefon muloqotlarini nazorat qiish va uni, himoyachini qo'lga kiritilgan pochta-telegraf jo'natmalarini, shuningdek muloqotlar yozuvlarini ko'zdan keichrishga ishtirok etishiga ruxsat berishni so'rab iltimosnama kiritdi.

Himoyachining iltimosnomasi qonuniymi?

### **3- vaziyat.**

Advokat Qurbonov, dastalbki tergovda qyynoq qo'llagan holda bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan tovlamachilikni uyushtirishda ayblanayotgan fuqaro Boltaevni himoya qilib, tergovchiga magnitofon yozuvini taqdim etdi va kassetani ashayoviy dalil sifatida jinoiy ishga tirkashni va kerakli ekspert tadqiqotlarini amalga oshirishni so'rab iltimosnama kiritdi. Chunki, reketirlarning jabrlanuvchiga kelishlaridan birida yozilgan yozuvga ko'ra, ayblanuvchi Boltaevning jinoyatni sodir etishdagi roli ikkinchi darajali va u hatto qyynoq o'tkazishga qarshilik ham qilganligi namoyon bo'ladi.

Tergovchi himoyachidan audioyozuv olingen manbani, u qanday holatlarda amalga oshirilganligini ko'rsatishni talab qildi. Advokat, advokatlik siriga asoslanib, uning kassetani qaysi manbadan olganligi maxfiyligini, uni fosh etish himoyasi ostidagi va uchinchi shaxslarning halok bo'lishlariga oolib borishi mumkinligini, ovozli youv tegishli ekspert xulosalari bilan tasdiqlanishining o'zi "isbot bo'la olishi"ni aytdi. Tergovchi himoya iltimosnomasini qondirishni rad etdi.

Advokat bunday holatda qanday yo'l tutishi kerak?

### **4- vaziyat.**

Fuqaro Sergeev ishi bo'yicha, tovlamachilikda ayblastash yuzasidan sud muhokamasida davlat ayblovchisi, tomonlar so'zga chiqishida nutq so'zlab va himoyachining nutqini tinglab, sudga e'tiroz bilan chiqish iltimosnomasi bilan murojaat qildi. Sud bu iltimosnomani qondirdi. Lekin himoyachi xuddi shunday iltimosnomasi bilan murojaat qilganda, raislik qiluvchi "O'zingizni bosing. Aks holda cheksiz bahslashish mumkin" deb javob berdi.

Sudya tomonidan qanday tamoyil qoidasi buzildi?

### **5- vaziyat.**

Zo'r lashdan jabrlangan voyaga yetmagan V. tergovchiga, o'zining yuridik savodsiziligi sababli, advokat yordamiga muhtoj ekanligini, lekin bu yordam haqini to'lay olmasligini bildirdi.

Tergovchi qanday yo'l tutishi lozim?

### **6- vaziyat.**

Og'irlatuvchi holatlarda odam o'ldirishda ayblanayotgan shaxs himoyasini kelishuv asosida amalga oshirayotgan advokat Ergashev dastlabki tergovdayoq tezkor militsiya xodimlari shipshitishi bilan depressiya holatida aybni o'z bo'yniga olgan va o'zini ayblastashda qaysarlik bilan turib olmoqda, o'zi sodir etmagan jinoyatda o'zini aybdor deb tan olmoqda. Himoya chizig'ini aniqlab, o'z

himoyachisi bilan navbatdagi xoli uchrashuv paytida bu borada u bilan fikr almashdi va birgalikdagi harakatlar bilan oqlanishga erishishni taklif qildi. Ayblanuvchi keskin hayajonlanish holatida himoyachini rad etishini e'lon qildi.

Advokat-himoyachi qanday yo'l tutishi kerak?

### **7- vaziyat.**

Sud muhokamasi belgilanishi bosqichida tovlamachilik to‘g‘risidagi jinoiy ishni o‘rganib chiqib, sudya aniqladiki, ushbu jinoyatda ayblanayotgan, tergov olib borilgan o‘zbek tilini yomon biladigan qalmiq X. tarjimon bilan ham, himoyachi bilan ham ta'minlanmagan, holbuki ikkalovining ham yordamidan voz kechmagandi, lekin bu haqda iltimosnomaga ham kiritmagan, chunki advokat va tarjimonning ishda qatnashishi uchun “bir umr pul to‘lab yurish kerak” deb adashgan. Bundan tashqari, aniqlandiki, tergovchi V. jabrlanuvchi A.ning rafiqasining tog‘abuvasi ekan.

Jinoiy ish bo‘yicha sudya (sud) qanday yo'l tutishi kerak?